

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

2/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хам хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

2/3-сан 2023

апрель-май

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіріу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Асқарбай НИЯЗОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Барлықбай ПРЕНОВ
Фархад БАБАШЕВ	Қаххор ТУРСУНОВ
Гулзода БОЙМУРОВОДА	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гавхар ЭЩАНОВА

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ ЭДЕБИЯТ

Yusupov I. K. Joqari klasslarda poeziyalik shigarmalardi oqitiw texnologiyalari	6
Sattarova D. H. Holat bildiruvchi sifatlar ma'nolarini faollashuvi	11
Boqiyeva R. B. Ingliz tilida gapirishga o'rgatishning mazmuni	18
Quychiyeva Z. I. Frazeologik birliklarning ayrim xususiyatlari	25
Mustafaqulova H. A. Activities for organizing communicative language teaching	29
Mustafaqulova H. A. learning different contexts in teaching second language	32

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Xakimova D. M. Innovatsion salohiyat modeli o'qituvchi faoliyatining asosi sifatida	36
Абдуҷаббарова М., Давлатов О. Маърифат дарғалари асарларида маданиятнинг тарбиявий аҳамияти талқини	44
Quychiyeva Z. I. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va integratli maqsadlar	50
Fayzullayeva A. S., Mamarizayeva F. Z. Chet tillarni masofaviy o'qitishda interfaol usullardan foydalanish qulayliklari va unda yuzaga keladigan muammolar	55
Yakubov F. U. Shaxs tashkilotchilik qobiliyati muammosining xorij va O'zbekistonda ilmiy o'rganilganligi	61
Boqiyeva R. B. Fan va texnika yangiliklari kechalarini o'tkazish metodikasi	66
Fayzullayeva A. S., Mamarizayeva F. Z. Masofaviy ta'lim tushunchasi va masofaviy o'qitish jarayonining o'ziga xos tomonlari va afzalliklari	71
Yakubov F. U. Xorij psixologiyasi tadqiqotlarida shaxsning kommunikativ xususiyatlari muammosining ilmiy o'rganilganligi	76
G'aniyeva A. T. O'qituvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	83
Ismoilova Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarning kasbiy innovatsion kompetentligini takomillashirishning pedagogik asoslari	89
Inoyatov I. Sh. Касбий таълим (сув хўжалиги ва мелиорация) таълим йўналишлари талабаларини инновацион ёндашув асосида касбий фаолиятга тайёрлашнинг дидактик шарт - шароитлари	94
Джалилов Х. Х. Касбий маданиятини ривожлантиришда темир йўл муҳандислиги йўналиш талабаларининг педагогик шарт-шароитлари	100
Боқиев Х. Педагогика олий таълим муассасаларида кафедра профессор-ўқитувчиларнинг илмий-методик тайёргарлигини ривожлантириш	105
Мамажонов О. Т. Bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentligini rivojlantirish yo'llari	109
Эшмуродов О. Н. Кластерли таълим шароитида умумтаълим мактаб ўқувчиларининг ўқув ва билиш фаолиятини ривожлантиришга методологик ёндашувлар	117
Ergasheva F. A. Oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'rgatishda innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish	122
Атаханова С. О. “Муҳандислик чизмачилиги” фанида стандартларнинг қўлланилиши	128
Ergasheva F. A. Ingliz tili leksikasini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	134
Ayslanbekova I. F. O'qituvchining o'quvchilar bilan ishlashida dars o'tish usullariga psixologik yondashuv	139
Ayslanbekova I. F. O'quv- tarbiya jarayonini tashkil etishning ilmiy psixologik adabiyotlarda o'rganilishi	146
Ibragimov X. X. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarni mavzu asosida kompozitsiya ishlashga o'rgatish	151
Ko'kiyev B. B. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarini o'rni	157
Muxtarova L. A. Ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish omillari	160



Ismatov U. Sh. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida grafik materiallarda tasvirlar bajarishga o'rgatish texnologiyalarini takomillashtirish	169
Ko'kiyev B. B. Muhandislik grafikasi fanlarini restavratsiya ishlarida qo'llanilishi	175
Ortiqova N. A. Pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishning tashkiliy asoslari	179
Ortiqova N. A. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorligini tashxis qilish diagnostikasi metodlari	187
Rustamov L. X. Uzlüksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish	191
Raxmatov U. E., Xolmurodova O. S. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda foydalaniladigan masala va mashqlarni tanlash mezonlari va ko'rsatkichlari	195
Zayniyev S. I. Biopolimerlar mavzularini o'qitishda olimpiada masalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	201
Мирзаева Н. И. Биология дарсларида ўқувчиларнинг тадбиркорлик кўникмаларини такомиллаштириш методикаси	206
Ergasheva G. S., Umarova M. N. Biologiya darslarida raqamli raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	212
Гаффаров А. М. Ўзлүксиз касбий ривожланиш тизимида педагогнинг мустақил таълими ва унинг ташкилий жиҳатлари	220
Xonnazarova S. Individual ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish	227
Xidirov F. F. Ta'limda tolerantlik munosabatlarining metodologik aspektlari	232
Sarimsoqova S. M. Raqamli ta'lim sharoitida biologiya darslarida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish kontekstlari	236
Kadirova Sh. Biologiya ta'limida qo'llaniladigan kompetentli yo'naltirilgan texnologiyalar tasnifi	2417
Жалилова Н. Т. Имом Ғаззолий илгари сурган таълимий ғоялар дидактик қадрият сифатида (Я.А Коменский ва Имом Ғаззолий меросининг тарихий-ретроспектив таҳлили асосида)	247
Xalmatova D. A. Aralash ta'limning pedagogik va psixologik asoslari	253
Хисматова Х. Рабочая тетрадь по коллоидной химии: использование в образовательном процессе и практические рекомендации	263

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Tleumuratova Z. Qaraqalpaqstan tariyxi sabaqlarında qaraqalpaq xalqınıń ruwxıy мәдениyatı tariyxın үyreniw мәseleleri	269
--	-----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Otaqulova D. R. «Flipped classroom» texnologiyasi yordamida mashg'ulotlarni tashkil etish usuli	273
Achilov N. N. Chizmachilik darslarida loyihalash elementlarini bajarishda kompyuter grafikasidan foydalanga holda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish	278
Ozodboyev I. O. Muhandislik va kompyuter grafikasi darslarida autocad dasturida yig'ish chizmalarini 2d va 3d ko'rinishlarini chizish	283
Исмоилов Д. М. Кредит модуль тизимиға асосланган ўқитиш тизимида физикадан амалий машғулотларини олиб бориш методикаси	287
Одилов Ё. Кредит-модуль тизимида физикадан эксперимент олиб бориш методикаси	293
Seytimbetov S. M. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini autocad grafik dasturida konstruksiyalash metodikasi orqali rivojlantirish	298
Sattarova D. H. Ta'lim jarayonida zamonaviy informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish	303
Умиров Х. Б. Академик лицей талабаларига физикадан масалалар ечишни ўқитишда дастурий воситалардан фойдаланишни ривожлантириш	308



Сатторов А. Б. Информатика дарсларида коллеж ўқувчиларининг тадқиқотчилик жараёнини технологиялаштириш	314
Шербобоев Х. Б. Умумтаълим мактабларида информатика ўқитишнинг компетентли ва фаолиятли парадигмаларини амалга ошириш	320
Тураев С. Ж. Кредит-модул тизимида физика фанидан маъруза машғулотларини олиб бориш методикаси	324
Алимов У. Кластерли ёндашув асосида талабаларга компьютерда визуаллаштириш компетенциясини шакллантиришни лойиҳалаш	329
Bekqulov Q. Sh. Mustaqil ta'lim asosida o'qitish samaradorligini oshirish muhandislik grafikasi mislida	334
Jumayev I. O. Ko'pburchaklar yasashda aylanani teng bo'laklarga bo'lish orqali o'quvchilarga tushuntirishning amaliy ahamiyati	340
Hayitov J. M. Oliy ta'limda chizmachilik fanlarini kompyuter grafikasi dasturlaridan foydalanib o'qitish	344

БАСЛАЎЧИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Преимова Б. С. Baslawish klass oqiwshilarga matematikadan arifmetikaliq amellerdi uyreniwde interaktiv metodlardan paydalaniv metodikasi	350
Jumasheva G. X. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	353
Xudoyberganova Sh. B. Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik rivojlanishini aniqlash usullari	357
Rajabova G. Maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishda ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari	363
Genjebayeva G., Ubayxanova M., Nurullaeva N. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini o'stirishda tafakkurning roli	368
Жумашева А. Х., Жармагамбетова К. «Сказочные лабиринты игры» дошкольного возраста	373
Жумашева А. Х., Нуруллаева Н. Р. Развитие количественных представлений у детей дошкольного возраста посредством использования малых фольклорных жанров	378

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

Berdanov A. O. Oliy o'quv yurtlarida talabalar jismoniy madaniyatining mazmuni va vazifalari	382
Berdanov A. O. Jismoniy madaniyat va sport zamonaviy jamiyatning ijtimoiy hodisasi sifatida	386
Ikramov I. M. Kuch va tezlikni rivojlantirish metodikasi	391
Alimov J. A. Jismoniy mashg'ulotlarni tashkil qilish shakllari	395
Muxamedjanov Sh. M. Harakat qila bilishga oid malakalar tizimi	400
Kamchiyev S. K. Yosh gimnastikachilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning uslublari	405
Тухтахужаев Х. Б. Формирования профессиональной компетентности будущих преподавателей физической культуры и спорта	409
Шералиева А. Психолого-педагогические значение формирования компетенций самоорганизации у спортсменов	413



JOQARÍ KLASSLARDA POEZIYALÍQ SHÍĠARMALARDÍ OQÍTÍW TEXNOLOGIYALARÍ

Yusupov I. K.

ÓPIIII Qaraqalpaqstan filialınıń izleniwshisi

Tayanch soʻzlar: adabiyot, adabiyotshunos, poeziya, poema, obraz, ijodi, stil, metod, janrlar, publicistika.

Ключевые слова: литература, литературовед, поэзия, поэма, образ, творчество, стиль, метод, жанры, публицистика.

Key words: literature, specialist in literature, poetry, poem, character, creative work, style, method, writing, genres, publicistic.

Ádebiyattı oqıtıw máseleri boyınsha belgili pedagog alımlar Q.Yuldoshev [1], G.M.Kostova [2], A.Lilov [3], A.Paxratdinov [4], Q.Xusanboeva [5], Q.Yusupov [6] hám basqalardıń ilimiy izertlew jumıslarında hám metodikalıq miynetlerinde pikirler ayılǵan. Usı kózqarastan qaraqalpaq poeziyasın oqıtıw kerekli hám juwapkerli metodikalıq máselelerden esaplanadı. Oqıwshılardıǵa tolǵaw janrın túsindiriw ushın onıń atqarılıwına da dıqqat awdarıladı. Máselen, «Ormanbet biy», «Posqan el» tolǵawlarınıń mazmunı, tárbiyalıq áhmiyeti aytladı. Oqıwshılardıǵa qaraqalpaq poeziyasınıń ayırmashılıqların, uqsaslıqların, mazmunın túsindiriw barısında olardıń sanasına adamgershilik, watanǵa súyiwshilik, hadallıq, doslıq, batırлық, jaqsılıq siyaqlı sezimlerdi tereńnen qalıplestirip baradı.

Oqıwshılardıǵa sabaq barısında poema janrı haqqında teoriyalıq túsiniq beriledi. Bul janrdı lirikalıq qosıqlar menen poemalardıń ayırmashılıǵın mısallar menen túsindiriw kerek. Poemalardı tallaw barısında kóbirek shıǵarmanıń syujeti, waqıyalardıń sáwleleniwı, obrazlardıń jasalıw sheberligine dıqqat awdarıladı.

Baǵdarlamada berilgen XIX ásirdegi Kúnxojanıń “Oraqshılar”, Ájiniyazdıń “Jaqsı”, Berdaqtıń “Muwsa baqsıǵa”, XX ásirdegi B.Qayıpnazarovtıń “Gúz keldi” qosıǵı, I.Yusupovtıń “Qaraqalpaqtı kóp maqtama kózimshe”, “Jaqsı adamlar”, B.Ismaylovtıń “Awılım”, T.Jumamuratovtıń “Kiyiktiń eki ilaǵı” hám taǵı basqa dóretpeleri sabaq barısında oqıwshılardıń qatnasında tallanadı.

Hár bir janrdı sabaq túrleri hám oqıtıw metodları arqalı úyretiw muǵallimnen metodikalıq sheberlik talap etedi. B.Qayıpnazarovtıń “Gúz keldi” qosıǵın

muğallim ózine tán usılları menen oqıtıwı múmkin. Birinshiden, ádebiyatshı muğallım “Gúz keldi” qosıǵın tásirli oqıp berse, ekinshiden, qosıqtan úzindiler mazmunın sóylep beriwı kerek. Sabaqtıń barısında muğallımnen qosıq qatarları arqalı gúzdiń belgileri haqqında gúrriń etiwı, gúzde kún qısqa baslaydı, kún uzayadı, keshte salqın, kúndiz ıssı boladı

Oqıwshılardıǵa Soppaslı Sıpıra jırawdıń “Babańman”, Jiyen jırawdıń “Ilaǵım” dóretpelerin úyretiw oqıwshılarda qızıǵıwshılıq payda etedi. Sebebi, Soppaslı Sıpıra jırawdıń ómirbayanı menen tanısıp, onıń qosıǵındaǵı ómirde ushırasatuǵın haqıyqatlar menen tanısadı. Máselen,

*Men babańman, babańman,
Men nelerdi kórmedim,
Men qaylarda júrmедim,
Ákeyxan menen Jákeyxan,
Munı kórgen babańman,
Mına qızdan tuwǵan ul,
Seniń babań Shıńǵısxan,
Munı kórgen babańman .- dep*

qosıq qatarlarında oqıwshılardıǵa túsiniksiz xannıń atları keltirilgen. Bul haqqında oqıtıwshı tolıq maǵlıwmat beriwı kerek. Máselen, “Ákey xan”, “Jákey xan”, “Shıńǵısxan” tuwralı muğallımlar jaqsı túsinikke iye bolmasa, oqıwshılar bir ómir túsinbey ketiwı múmkin. Sonlıqtan, bul tariyxıy atlardı taxtaǵa jazıp kórsetkeni maqul. Bulardan basqa “Mádemın xan”, “Ámir Temur kóregen” usaǵan adamlar haqqında keń túsinik berilse, oqıwshılardıń tariyxqa túsinigi artadı. Sonday-aq Jiyen jırawdıń “Ilaǵım” qosıǵı oqıwshılarda úlken qızıǵıwshılıq oyatadı. Qosıq qatarları jeńil hám túsinikli. Oqıwshılardıń oqıwı ushın qolaylı. Muğallım qosıq qatarlarınan misallar keltirip, onıń mánisi túsindirip ótileđi.

*Jas toltırdı kózimdi,
Qasımдаǵı kópegim,
Qabadı sonsha ózimди,
Jetekke júrmey dirildep.*

Qosıq qatarların oqıwshılardıǵa kórkem etip oqıp berip, ondaǵı “salaǵa-sayǵa”, “kóshpek-qoy yamasa eshki qumalaǵın salıp oynaw”, “kózlerimiz alaqlap-qorqıp, albirap”, “entelep-asıǵıp”, “shalıǵıp-sharshap”, “shoq-ot”, “dimarım-kúshim” usaǵan sózlerdi taxtaǵa jazıp mánilerin túsindirip ótken maqsetke muwapıq boladı. Sabaq barısında kórsetpeli qurallardan, slaydlardan paydalanıw oqıwshılarda qızıǵıwshılıq payda etedi.



Kúnxojanın "Oraqshılar" qosıǵın oqıwshılarga úyretiw barısında, shayırdın "Jaylawım", "Shopanlar" qosıqlarının mazmunın aytıp, tanıstırıp ótiw kerek. Qosıq qatarlarınan mısallar keltirip ótkenimiz maqul. "Oraqshılar qosıǵının tárbıyalıq áhmiyeti haqqında túsindiriw oqıwshılarda úlken tásir qaldıradı.

Ájiniyaz dóretpeleri haqqında oqıwshılarga qısqasha maǵlıwmat berip ótiw zárúr. Shayırdın "Ellerim bardı", "Bardur", "Ayrılsa", "Kerek" qosıqları úlken tárbıyalıq áhmiyetke iye. Bul qosıqlarında watanga súyiwshilik, ulıwma insaniylik ideyalar tásirli berilgen. Onıń ádebiy laqabı "Ziywar" bolǵan. Sóz zergeriniń "Bardı" qosıǵı kórkemlik jaqtan tásirli hám mazmunlı jazılǵan. Uriwım – qońıratdur, milletim-qalpaq,

*Keneges, mańǵıtı, qıtayı-qıpsdaq,
Tuwısqan deydiler qalpaǵı-qazaq,
On tórtke bólingen uriwım bardı.*

Shayırdı qosıq qatarlarında qaraqalpaq milleti haqqında, ondaǵı urıwlar haqqında maǵlıwmat bergen. Oqıwshılar urıwlar haqqında túsınikke iye emes. Sonlıqtan muǵallım urıwların kelip shıǵıwı haqqında qısqasha maǵlıwmat bergeni maqsetke muwapıq.

Oqıwshı hár bir qosıqtıń kupletlerin túsindiriw barısında kóbirek dóretpeni tárbıyalıq áhmiyetin úyretkeni maqul. Oqıwshılarda kishi toparǵa bólip, onıń qosıq qatarlarınan mısallar berip, hár bir qatardı tárbıyalıq xarakterin ashıp bergeni durıs.

*1-topar: Bir eli - Xorezm, bir eli - Turan,
Úrgenishi, Qońıratıw, shaxri Samarqand,
Kárwánları barur Buxar, Ashtarxan,
Ne bir sulıw-sulıw sháhárim bardı.*

Juwabı: Qosıq qatarları tásirli jazılǵan qosıq qatarlarında Xorezm, Turan, Samarqand, Úrgenish, Qońırat degen qalalar ushırasadı. Biraq bizler Turan haqqında az maǵlıwmatqa iyemiz. Qosıqtıń negizi qalalardı tanıstırıwdan ibarat.

*2-topar: Biri súılmekdur, biri atshoqay,
Sobıǵın jeseńiz sheker áseldey,
Jambılsha, qawını, shiyrin páshekterey,
Jılına úsh piser miywası bardı,*

- dep qaraqalpaq xalqının tábiyatı menen tanıstırıp, ondaǵı ósimlikler dúniyasın táriyilep ótken. "Súılmek", "atshoqay", "jambılsha", qawın usaǵan palız eginlerin atap ótedi.

*3-topar: Jayxun, Sayxun eki dárya arası,
Tıp saǵamız bir kisiniń balası,*

*Ánes, Málik-eki eldiń arası,
Atı qaraqalpaq ellerim bardı.*

Juwabı: Qosıq qatarlarında “Jayxun”, “Sayxun” degen sózler ushırasadı. Bul sózlerdiń mánisin bilmeymiz. “Ánes”, “Málik” degen atamaldıń mánisi túsiniqsiz, bul atlar qanday áhmiyetke iye. Bunı muǵallım tereńirek túsindiriw kerek edi. Bizlerdiń pikirimiz, ata-babalardıń tariyxı tuwralı ayılǵan qosıq qatarları dep esaplaymız.

Sabaq barısında oqıwshılardıń túsinegen sózlerin taxtaǵa jazıp kórsetip, onıń tariyxın, áhmiyetin, mánisin túsindirip beriw hárbir muǵallımniń wazıypası. Qosıqtıń mazmunında qaraqalpaq xalqınıń tariyxı, watan, tuwılǵan el sezimleri tásirli súwretlengen. Sabaqta oqıwshılardıń pikirlew qábiletin, oylaw kónlikpelerin rawajlandırıw zárúr. Oqıwshılardıń sabaq barısında watanǵa súyiwshilik, tuwılǵan eldiń tábiyatın, baylıǵın qásterlew ideyaların úyretiw kerek. Sabaqta kórsetpe qurallardan, metodlardan orınlı paydalanıw bul ádebiyatshı muǵallımniń ádiwli wazıypası.

Oqıwshılardıń Berdaq shayırdıń dóretpeleri haqqında maǵlıwmat beriw oqıwshılarda úlken qızıǵıwshılıq payda etedi. Ásirese, “Muwsa baqsıǵa” qosıǵı tásirli jazılǵan. Qosıqtı kórkem etip oqıwshılardıń oqıp bermesten aldın shayırdıń ómiri tuwralı mına maǵlıwmatlardı beriw kerek. Onıń “Balam”, “Xalıq ushın”, “Jaqsıraq”, “Muwsa baqsıǵa” qosıqları oqıwshılardıń tez yadlawı ushın qolaylı hám mazmunı jaǵınan tásirlik, tárbiyalıq áhmiyetke iye dóretpelerden esaplanadı. “Balam” qosıǵında jaslardıń aldına wazıypa hám násiyat etedi. “Ata-anandı qádirle, ólgeninshe jaqsı sóyle”-dep, ata-ananıń qádir-qımbatı sıyaqlı danalıq sózlerdi qaldırǵan. “Muwsa baqsıǵa” qosıǵı kórkemlik jaqtan tásirli, oqıwshılardıń kórkem oqıwı ushın jeńil berilgen. Muwsa baqsını táriyiplep, onıń baqsılıq ónerine qosqan úlesi, talantın úlken maqtanısh penen jırlaydı.

S.Nurımbetovtıń “Perzentim” qosıǵı kórkemlik jaqtan tásirli hám tárbiyalıq áhmiyeti kúshli dóretpelerden esaplanadı. Bul qosıqlardı muǵallım dáslep kórkem etip túsindirip beredi. Qıyın sózler bolsa, taxtaǵa jazıp kórsetedi. Hárbir temanı ótkende kórsetpe qurallardan paydalanıp, qosıq qatarların tásirli oqıp, túsindirip, ondaǵı ushırasatuǵın úgit-násiyat sózlerdiń mánisin oqıwshılardıń durıs uqtırıw kerek. Poeziyalıq dóretpelerdi oqıtıw arqalı oqıwshılarda adamgershilik, watanǵa súyiwshilik ideyalardı rawajlandırıp barıw kerek.

Joqarı klasslarda qaraqalpaq poeziyasın oqıtıw barısında oqıwshılardıń adamgershilik, watanǵa hám tábiyıtqa bolǵan súyiwshilik sezimlerdi úyretiw áhmiyetli metodikalıq máselelerden esaplanadı. Olardı tereń ádebiy teoriyalıq



túsinikler beriw ushın ádebyatshı muǵallimlerden kóp izleniwshilik talap etiledi.

Әдебиятлар:

1. Йулдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи., 1996.
2. Костава М. Г. Филологический комментарий художественной прозы как средство развития устной речи учащихся: Дис. ...канд. пед.наук. – М.: 1989., – Стр. 28.
3. Лилов А. Коммуникативная функция литературы и искусства // В книге «Теории, школы, концепции». Художественная коммуникация и семиотика. – Москва: Наука., 1986., – С. 293.
4. Пахратдинов Ә. Қарақалпақ әдебиятын оқытыў методикасы. (сабақлық). – Нөкис: Билим., 2004., – 260 бет.
5. Хусанбоева Қ., Ниёзматова Р. Адабиёт ўқитиш методикаси. (дарслик). – Ташкент: Баркамал файз мадиа., 2018., – 352 б.
6. Юсупов Қ. Qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıw metodikası. (sabaqlıq). –Tashkent: Сано-стандарт, 2018. – 336 bet.
7. Юсупов К.А. Академиялық лицейлерде лирикалық шығармаларды таллаў // Қорақалпоқ давлат университети ахборотномаси. – Нукус, 2020. – №1. – Б. 181-184 (13.00.00. №13).
8. Yusupov K.A. Scientific and theoretical foundations of teaching Karakalpak literature at academic lyceums // Journal of Critical Reviews. (ISSN 2394-5125). – Vol 7, Issue 7, 2020. – №1. – P.P. 349-354 (<https://www.scopus.com/sourceid/21100920227>).
9. Юсупов К.А. К. Алламбергенов. Педагог шайыр лирикасы ҳам тәлим-тәрбия мәселелери // Пим ha'm ja'miyet. Нукус давлат педагогика институти журналы. – Нукус, 2021. – №4. – Б. 100-102. (13.00.00. №3)
10. Юсупов К.А. Обучение основам письменной речи учащихся. // «PEDAGOGS» international research journal. Volume-7, Issue-1, April-2022. – Стр. 176-181. www.pedagoglar.uz.
11. Юсупов К.А. Обучение основам письменной речи учащихся. // «PEDAGOGS» international research journal. Volume-7, Issue-1, April-2022. – Стр. 176-181. www.pedagoglar.uz.

РЕЗЮМЕ

Ush bu maqolada adabiy janrlarini urganishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni u'qitish bo'yicha metodik masalalar aytilgan. Jahonda pedagogika ilmi bwyicha malumotlar tezkor yangilanayotgan XXI asrda Qoraqalpogiston Respublikasidagi akademik licey va umumiy o'rta talim maktablarida talim-tarbiya olayotgan wquvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda manaviy-axloqiy fazilatlarini pedagogik tizim asosida shakllantirish g'oyat murakkab va muhim vazifadir.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются специфические особенности изучения итературных жанров и об мастерство. В XXI веке, когда в мире стремительно обновляются сведения о педагогической науке, формирование знаний, умений и навыков учащихся академических лицеев и общеобразовательных школ Республики Каракалпакстан на основе педагогической системы является очень сложным и важная задача.

SUMMARY

This article describes the peculiarities of the study of literary genres and methodological issues in their teaching. In the 21st century, when information on pedagogical science is rapidly updated in the world, the formation of knowledge, skills and abilities of students in academic lyceums and secondary schools of the Republic of Karakalpakstan on the basis of the pedagogical system is a very complex and important task.



HOLAT BILDIRUVCHI SIFATLAR MA'NOLARINI FAOLLASHUVI

Sattarova D. H.

JDFU magistranti Jizzax Politehnika Instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: sifat, holat bildiruvchi sifat, harakat, ko'rinish, chiroy, tuzilish, harakat va tabiiy ko'rinish.

Ключевые слова: прилагательное, состояние прилагательное, действие, внешний вид, красота, структура, движение и естественный вид.

Key words: adjective, state adjective, action, appearance, beauty, structure, movement and natural appearance.

Sifatlar ichida holat bildiruvchi sifatlar “didga moslik” semasining mavjudligi bilan katta bir guruh bo'lib ajralib turadi. U “ko'rinish, chiroy”, “tuzilish”, “harakat” va “tabiiy ko'rinish” semalari bo'yicha yana to'rt guruhga bo'linadi va shu sema integral sema vazifasini o'taydi.

1. Integral semasi beauteous, attractive, cute, fair, good-looking, gorgeous, sheen, handsome, hot (slang), lovely, nice-looking, pretty, shapely, fit (slang) ya'ni o'zbek tiliga “ko'rinish, chiroy” bo'lgan go'zallik bildiruvchi sifatlar go'zal, suluv, zebo, ko'rkam, malih, zarif, farishta, yoqimli, yoqimtoy, jozibali, jozibador, husnli, husndor, chiroyli, sohibjamol, jamila, xushsurat, xushro'y, nozanin, lobar, fusunkor, maftunkor, jilvagarlardan iboratdir. Diffrensial semasi “ortiq” ifodasini beruvchi sifatlar – beauteous, beautiful, attractive, cute, fair, good-looking, gorgeous, sheen, handsome, hot (slang), lovely, nice-looking, pretty, go'zal, suluv, zebo, ko'rkam, malih, zarif, farishta; “ega” ifodasini beruvchi sifatlar – yoqimli, yoqimtoy, jozibali, jozibador, husnli, husndor, chiroyli, sohibjamol, jamila; “baxsh etuvchi” ifodasini beruvchi sifatlar nozanin, lobar; “ta'sir” ifodasini beruvchi sifatlar – fusunkor, maftunkor, jilvagar kabilari hisoblanadi. Beautiful so'zi o'z guruhiga kiruvchi suluv, zebo, ko'rkam, malih, zarif, farishta so'zlariga nisbatan ham belgi ortiqqligining kuchliligi bilan ajralib turadi. Buning uchun xususiyatiga ega shaxsning, aniqrog'i, ayolning o'z muhitida katta dovuqqa egaligi keltirilgan gapda o'z aksini topsa, so'z ma'nosi yanada konkretlashadi. Masalan: -Anyone who has ever met her thought she was absolutely beautiful. Kimlarning vositasi bilandir mazkura go'zal qizning



ta'rifi -Buxoro amiri – amir Nasrulloxonga yetib, u ham ilgariidan haligi kanizga g'oyibona oshiq bo'lgan edi . Bu gapdagi Nasrulloxonga ham yetib borish ta'rifi go'zal so'zidagi belgi ortiqligini namoyon etgan.

Bitiruv ishida beautiful, attractive, cute, fair, good-looking, gorgeous, sheen, handsome, hot (slang), lovely, nice-looking, pretty so'zlarining ma'nolari ham go'zal sifatining ma'nosidagi arxisema, integral sema va differensial semalarning ochilishi kabi usul bilan tahlil etiladi.

Arxisemasi “didga mos”, “yoqadigan”, “yoquvchan”, “yoquvchi” bo'lib, integral semasi “ko'rinish”, “chiroy” bo'lgan sifatlar ichida “ega” ifodali differensial semasi bilan ajralib turuvchi: lovely, nice-looking, pretty kabi sifatlar mavjud. Yoqimli, yoqimtoy, jozibali, jozibador, ko'hli, husnli, husndor, chiroyli kabi so'zlar asosdan anglashilgan “nimagadir” “ega”likni ifodalaydi. Bu “ega”lik sifatning qo'shimcha semantikasida ifoda etiladi. lovely, nice-looking, pretty Sohibjamol, jamila, jamil, so'zlari arxisemali egalikni leksik ma'nosiga ko'ra bildiradi.

Beautiful so'zi uslubiy jihatdan betaraf bo'lib, jonli va jonsiz narsalarga nisbatan ham qo'llanaveradi. Bu jihatdan chiroyli so'zi go'zal sifatining “ko'rinish, chiroy” integral semasi bilan teng kelib sinonimik munosabatga kirishsa ham, differensial semasi va qo'llanishiga ko'ra farq qiladi. Yuqorida aytganimizdek, u “ortiqlik” darajasiga ko'ra farqqa ega. Bundan tashqari, go'zal so'zi poetik uslubga xos bo'lib, chiroyli sifati qo'llanishiga ko'ra umumiydir. Buni quyidagi misoldan ham bilsa bo'ladi:

– She knows she is very beautiful.

– Tursunboy o'zining chiroyli ekanini biladi, shuning uchun bo'lsa kerak, o'ziga bino qo'yardi.

– O'ttiz besh yoshlarda ko'ringan bu go'zal xotin haram xodimlaridan Gulshanbonu edi (A.Qodiriy).

2. “Didga mos” arxisemali sifatlarning ikkinchi katta guruhi “tuzilish” integral semasiga ega bo'ladi. Ular: qomatdor, barno, kelishgan, durkun, jussali, jussador, barvasta, norg'ul, navqiron, mavzun, xushqomat, xushqad, xushbichim, bejirim, jajji, lo'ppi, do'ndiq, nozik, nafis, latif, silliq kabi so'zlardan iboratdir. “Tuzilish” integral semasiga ega bo'lgan yuqoridagi sifatlar kattagina guruhni tashkil qilgani uchun ham, ularni yana kichik guruhchalarga bo'lamiz. Kichik integral semasi “kelishgan” ifodasini beruvchi sifatlar qomatdor, barno, kelishgan, durkun, jussali, jussador, barvasta, norg'ul, navqiron, mavzun kabilardir. Qomatdor asosan shahsga qaratilgan bo'ladi; yasovchi asosning semantikasiga ko'ra kishining bo'yi, ko'ksi, yelkasi va boshqalarni ko'zda tutadi. Misolda ham shuni ochuvchi o'xshatish, sifatdoshli gaplardan



foydalanish zarur: Salom deb, keldilar qomatdor qizlar, qizlarki, sarvqad, xipchabel, kelishgan (Oybek). Bu gapda qomatdor soʻzining aniqlanmishi qizlar soʻzida ifoda topgan. Bu bilan qomatdor soʻzidagi – dor affiksining maʼnosi reallashgan. U “egalik”ni bildirib keladi. Yaʼni mazkur aniqlovchi aniqlanmish birikmasida ijobiy maʼnodagi qomatga ega qizlar ekanligi oʻz ifodasini topgan.

Bitiruv ishida yana adorable, beautiful, clean, drab, elegant, fancy, glamorous, handsome, long, magnificent, wide-eyed, barno, kelishgan, durkun, jussali, jussador, barvasta, norgʻul, navqiron, maxzun soʻzlarining sememasi illyustrativ misollar asosida ochib berilgan. Arxisemasi “beautiful, lovely handsome, smart” integral semasi “tuzilish” boʻlgan sifatlar ichida “bichim” kichik integral semasi boʻyicha umumlashuvchi xushbichim, xushqomat, xushqad sifatleri bir sinonimik uyani tashkil qiladi. Xushbichimning qoʻllanish doirasi keng. Unda noziklik ifodasi ham nazarda tutilgan. Xushqad, xushqomat sifatleri tarkibidagi yasovchi asos-qad soʻzida boʻy-bast anglashilib, xush prefiksi orqali adllik koʻzda tutilsa, qomat soʻzida gavdaning tashqi bichim nazarga olinib, xush prefiksi bilan birga kishi tanasining tashqi bichimi, yaʼni boʻyi, yelkasi va boshqalar koʻzda tutilgan boʻladi. Bu sifatlar sememasi semasini reallashtirishda mana shu differensial sema boʻlishi kerak. Shuningdek, koʻrinishga nisbat beruvchi sema ham oʻz oʻrnini olishi zarur: -He is very smart boy.....-Bashorat xola hech qachon oʻgʻlini hozirgidek xushbichim, sarvqomat va jiddiy qiyofada koʻrmagan edi (A.Mirahmedov). Novcha, xushqomat Husayn Bahodir qoʻl qovushtirganicha poygakka tizza bukdi (O.Yoqubov). Arxisemasi “didga mos”, “yoqadigan”, “yoquvchi” va integral semasi “tuzilish”ni bildirgan sifatlar yana “ixcham”, “etdor” kichik integral semasi bilan ham umumlashuvchi bir guruhni tashkil etadi. Bunga doʻndiq, doʻmboq, loʻppi sifatlerini koʻrsatish mumkin. Bu sifatlar ifoda etgan tuzilishda ham “ixchamlik”, ham “etdorlik” semalari mavjud. Ularning barchasi ham asosan balogʻatga yetmagan shaxsga nisbatan qoʻllanadi. Doʻndiq soʻzi ixcham boʻlishi bilan birga nisbatan etdorlikni, doʻmboq soʻzi ixcham boʻlishi bilan birga yumaloqroqlikni, loʻppi soʻzi ixcham boʻlishi bilan birga ikki yuzi etlilikni ifodalashiga koʻra oʻziga xosdir. Bu sifatlar illyustrativ misollar bilan reallashtirilar ekan, yuqoridagilarga eʼtibor berish lozim: Brown was a pretty and plump boy when he was five.

– Anvar kelishgan doʻndiq bola edi (A.Qodiriy).

– Orifning baxti va davlati – goʻzal xotiniyu doʻmboq qizi (X.Ahrorova). Koʻm-koʻk koʻzli latta qoʻgʻirchoqning loʻppi yuzi olmadek qip-qizil edi (A.Muxtor).



Arxisemasi “didga mos”, “yoqadigan”, “yoquvchi” va integral semasi “shakl” bo‘lgan sifatlar yana “holat” kichik integral semasi bilan kichik guruhni tarkib toptiradi. Bu guruhga kiruvchi sifatlar nozik, latif, nafis, silliq kabilardan iborat. Bu guruhdagi sifatlar inson belgisini bildirishiga ko‘ra o‘zaro sinonim bo‘lib, hatto valentligiga ko‘ra ham bir-birini taqozo etadi. U ko‘proq kishining biror a‘zosini bildiruvchi so‘z bilan sifatlovchi vazifasida birikmaga kirishadi. Ba‘zan bu birikma ega-kesim transformatsiyasi holatida ham uchrashi mumkin. Ya‘ni kishi a‘zosini bildiruvchi so‘z ega vazifasida bo‘lib, sifat kesim vazifasini oladi. Shuning o‘zi sifatning ma‘nosini reallashtiradi. Shu bilan birga uning ma‘nosini reallashtirish uchun o‘xshatish etalonidan ham foydalanish mumkin. Masalan:

– oqqush bo‘ynidek nozik bo‘ynidagi oltin zanjirlar ayolni nihoyatda ko‘rkam qilib ko‘rsatardi (A.Abduvaliyev).

– Komilani, gulday nafis, go‘zal chehra bu qizni ikki kunda yutdi-ketdi (Oybek). Dasturxon yonida Kumushbibining latif bilagiga Otabek oltin uzuk solur ekan, u yerga qaragan holda edi (A.Qodiriy).

-Hozir erining cho‘tir yuzi Enaqutiga naqsh olmaday silliq ko‘rinar .

Ko‘rinadiki, bu “holat” kichik integral sema bilan umumlashuvchi sifatlar kishi a‘zosi belgisini bildirib, kishi a‘zosini bildirgan so‘zlar sifat bilan yo atributiv birikma, yoki predikativ qo‘shilma hosil qiladi va sifat ma‘nosini reallashtiradi.

3. Arxisemasi “beautiful, attractive, cute, fair, good-looking, lovely, nice-looking, pretty didga mos”, “yoqadigan”, “yoquvchi” kabi belgi bildiruvchi sifatlar “harakat, holat” integral semasi bilan umumlashgan katta guruhni tashkil qiladi. Bu sifatlar dilbar, dildor, diloro, dilrabo, dilpazir, dilorom, dilband, latofatli, malohatli, nazokatli, tarovatli, jonon, ofatijon, tamtam, nozli kabi sifatlardan iborat. Ulardan “dil” differensial semali sifatlar – dildor, diloro, dilpazir, dilorom, dilband so‘zlaridan iborat. “Beg‘uborlik” differensial semasi bilan kelgan sifatlar latofatli, malohatli, nazokatli, tarovatli so‘zlarining sinonimik qatorini tashkil etadi. “Ruhiiy ta’sir” differensial semali sifatlar jonon, ofatijon, tamtam kabilardir. “Nozli” so‘zining differensial semasi “ishvali” bo‘lib, u o‘zining sinonimiga ega emas.

Dilbar sifati chiroyli sememasining o‘ziga xos nozik ifodasi bo‘lib, u ayollardagi “mayinlik”ni ko‘zda tutadi. Erkak shaxsiga nisbatan qo‘llanganda “qo‘pollik”, “dag‘allik”dan xoli bo‘lgan, “yumshoq”, “muloyim” tabiatni aks ettiradi. Umuman olganda, shaxsning ko‘rinishdagi, suhbatidagi yoqimtoylik e‘tiborga olinadi:

She looked charming ones when she smiled.



-O'zidan o'n besh yosh kichik bu kulib turgan yoqimtoy, o't-olov dilbargina qizning suhbatini sog'inib qolgan ekan.

4. «Beautiful, decorative, lovely» arxisemali sifatlar tabiat bilan bog'liq belgini bildirishi ham ma'lum. Bu guruhdagi sifatarning integral semasi «natural» deb belgilanadi va ular shu semasi bo'yicha umumlashadi. Bunday sifatlarga xushmanzara, manzarali, so'lim, chaman, obod, shinam kabi so'zlar kiradi. Ular differensial semalariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Masalan: xushmanzara sifatida manzaraning didga mosligi, manzarali sifatida manzaraga egalik, so'lim sifatida manzara bilan birga soya-salqinlik, chaman sifatida gullarga burkanganlik, shinam sifatida majoziy differensial semalari borligi bilan xarakterlanadi. Ular shu bilan o'ziga xosdir. Illyustrativ misol keltirilganda ana shu differensial semalar ochilishi lozim. Masalan:

- decorative place
- lovely day
- beautiful nature
- Qishloq tog' oralig'ida bo'lishiga qaramay, ancha katta, obod, bog'zor, tokzor va juda xushmanzara ekan .

Ushbu misolda uyushgan sifatlovchilar xushmanzara sifatining ma'nosini ochib kelgan va xushmanzara sifati ular uchun umumlashtiruvchi so'zday ifoda bergan.

Arxisemasi «didga nomos, yoqimsiz» bo'lgan xunuklik bildiruvchi sifatlar ugly, unbeautiful, grotesque, hideous, homely, plain, misshapen, repulsive, average, bad, mediocre, poor, shoddy, substandard, terrible, weak ya'ni o'zbek tilida xunuk, badbashara, yapasqi, cho'tir, shilpiq, olako'z, nogirop, kal, ko'r, ramaqijop, cho'ltoq, cho'loq, chinoq, puchuq, oqsoq, kallador, kallaxum, buqoq, shprzada, chala, so'niq, so'lgin, salqi, nimjon, mayib, bo'xtuk, qo'pol, beso'naqay, beo'xshov, tannoz, satang, olifta, jirkanch, ipirisqi kabi sifatlardan iborat. Birinchi semantik maydonchani integral semasi «ko'rinish» deb berildi. Bu integral sema bilan umumlashgan sememali sifatlar asosan xunuk, badbashara, yapasqi, cho'tir, shilpiq, olako'z, nogiron, kal, ko'r, ramaqijon, cho'ltoq, cho'loq, chinoq sinifi so'zlardan iboratdir. Reallashtiruvchi illyustrativ misolda xunuk, badbashara, yapasqi so'zlari bilan birga mazkur belgilarni yuzdagi nomeyorlikni ochib beruvchi so'zlar yoki birikmalar xam o'z o'rnini olishi kerak. Masalan: -He was very ugly man.

She is a slim girl. -Pochcham ellikdan oshgan, novcha, kasalmand, rangpar, tishmari tushgan, soqollari oqargan, yuzi burishiq, xunukkina kishi edi (Oybek). «Ko'rinish» integral semali sifatning differensial semasi organizm a'zosi nuqsonining ifodasini berganlari bir necha bo'lib, ular cho'tir, shilpiq, olako'z,



nogiron, kal, ko‘r, ramaqijon, cho‘ltoq, cho‘loq, chinoq kabi so‘zlardan iboratdir. Bularning differensial semasi haqida gap ketganda, bir narsani unutmaslik kerakki, uing organ komponenta kishining ma‘lum bir organini nazarda tutadi. U yuz, ko‘l, kulok, bosh kabilardan iborat bo‘lishi mumkin. Nuqsonlilik shu organlar patologiyasi bilan bog‘lik.

«Didga nomos, yoqimsiz» arxisemali sifatlarning integral semasi «ko‘rinish» bo‘lib, uning differensial semasi organga taalluqli nuqson xisoblanadi.. Masalan: cho‘tir leksemasida differensial sema «yuz ko‘rinishi» nuqsonidir. Olako‘z, shilpiq, ko‘ra leksemalarida differensial sema «ko‘z nuksoni», nogiron leksemasidp integral sema «umumiy ko‘rinish», kal leksemasida «bosh nuqsoni» xisoblanadi. Bunday semali leksemalar semasi reallashtirilalar ekan, ular tarkib topgan birikmalarda differensial sema qismini namoyon etuvchi so‘z albatta aniqlanmish vazifasini o‘tashi kerak. Masalan: cho‘tir so‘zida o‘nkir-cho‘nqirlik, nosilliklik ifodasiga ega differensial sema bo‘ladi. Bu sema ham illyustrativ misolda o‘z aniqligini olishi lozim. Shunday aniqlashtirish qiyoslash yoki antiteza orqali ifodalab beriladi. Masalan: Ko‘ksim angishvonadek o‘nqir-cho‘nqir. Bilgan «ko‘cha» deyur, bilmagan «cho‘tir». Ahvoli tang misli bemor ko‘chaman («Afandi» gazetasi). Choyxonachining yuzi cho‘tir. Shuni askiya qilishadi. Birov do‘lda qolgan tappi deydi, birov chakichlangan patir! (O‘.Hoshimov). Hozir erining cho‘tir yuzi Enaqutiga naqsh olmaday silliq ko‘rinar... (X.Deryayev). Avvalo shuni aytish kerakki, bu misollarning birinchisida differensial sema qismi reallashtirilmagan. Ikkinchisida reallashtirilgan bo‘lsa ham, predikativ qo‘shilma tarkibida bo‘lib, ega orqali yuzaga chiqarilgan. Odatda aniqlovchili birikma komponentlari o‘rin almasha, predikativ qo‘shilmaga aylanadi. Shunga ko‘ra, biz birinchi sodda gap tarkibida ega orqali ‘cho‘tir sifatining differensial sema kismi namoyon bo‘lgan deb hisoblashimiz mumkin. Uchinchi misolda cho‘tir sifati aniklanmishi orqali differensial sema uzvini namoyon etgan. Cho‘tir so‘zining differensial semasi yuqoridagi misollarda turlicha vositalar orqali reallashtirilgan. Birinchi misolda qiyoslashdan foydalanilgan. Unda ko‘ksim angishvonadek o‘nqir-cho‘nqir tasviriga cho‘tir so‘zi qiyoslanadi. Natijada cho‘tir so‘zi tasvirlab berilganday qilib ko‘rsatilgan. Ikkinchi misolda ikki vositadan foydalanilgan: unda cho‘tir do‘lda qolgan tappiga va chakichlangan namupra o‘xshatilgan. Uchinchi misolda esa antitezadai foydalanilgan. Unga antiteza sifatida naqsh olmadek silliq birikmasi keltiriladi. Buni ironik qiyoslash desak xam bo‘ladi. Olako‘z sifatining differensial semasini reallashtirish kerak bo‘lganda, uning «katta, oq va qorasi yaqqol ajralib turgan ekanlik» belgisini ko‘rsatuvchi so‘zni aniqlovchi sifatida keltirish lozim, Shuningdek, kibedan kam foydalansa



bo'ladi. Arxisemesi «didga mos, yoqimsiz» bo'lgan xunuklik bildiruvchi sifatlarning barchasi ma'nosini illyustrativ misollar bilan ochish ishda to'la-to'kis o'z tahlilini topgan.

Adabiyotlar:

1. Апресян Ю.Д. Дистрибутивный анализ значений и структурные семантические поля // Лексикографический сборник. Вып. V. - М, 1962. - С. 52-72;
2. Abduvaliyev M. To'siqsizlik maydoni va uni tashkil etuvchi sintaktik birliklar // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1988. - № 4. - Б. 62-66;
3. Bazarov O. O'zbek tilida darajalanish: Filol. fanlari d-ri .. diss. avtoref. -Toshkent, 1997;
4. Г.Хелбиг «Семантические валентность» Функциональная грамматика. - Л.: Наука, 1984. - 136 с.
5. Бондарко А. В. Грамматическая категория и контекст. - Л.: Наука, 1971. - 116 с;
6. Бондарко А. В. Теория морфологических категорий. - Л.: Наука, 1976. - 256 с; .
7. Bozоров O. O'zbek tilida darajalanish: Filol. fanlarid-ri ... diss. avtoref. - Toshkent,; . 1997

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада ҳолат билдирувчи сифатлар маъноларининг фаоллашуви ҳақида сўз боради. Шу билан биргаликда сифат маънолари семантик жиҳатдан таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье речь идет об активации значений местных прилагательных. При этом значения прилагательных анализировались семантически.

SUMMARY

This article deals with the activation of the meanings of local adjectives. At the same time, the meanings of adjectives were analyzed semantically.





INGLIZ TILIDA GAPIRISHGA O'RGATISHNING MAZMUNI

Boqiyeva R. B.

Jizzax Politexnika Instituti

Tayanch so'zlar: gapirish, nutq, faoliyat, ekstralingvistik qiyinchiliklar, luqma tashlash, gap qisqartirish, tezkor javob.

Ключевые слова: говорение, речь, активность, экстралингвистические трудности, прикусывание, сокращение, быстрая реакция.

Key words: speaking, speech, activity, extra linguistic difficulties, biting, shortening, rapid response.

Ingliz tilida gapirish ham nutq faoliyatining turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Gapirish orqali ma'lumot beriladi. U nutq faoliyati boshqa nutq faoliyati turlari bilan chambarchas bog'langandir. O'quvchida tinglab tushunish malakasi qanchalik yaxshi egallanilgan bo'lsa, gapirish ham shuncha tezlik bilan rivojlanadi, aks holda teskarisi bo'ladi. Inglizcha ma'lumotni qabul qila olgan o'quvchi ingliz tilida uni mazmuniga moslashtirib, ma'lumot beradi. O'quvchi mazmunni qabul qila olmasa, tushuna olmasa ma'lumot – javob qaytarishi qiyin. –Tinglab tushunishda qabul qilinib, idrok qilinib, ichki nutq sodir bo'lsa, gapirishda oldin ichki nutq, so'ng tashqi nutq yuzaga chiqadi. Ikkalasida ham talqin qilinadi, ichki nutq hosil qilinadi, lekin gapirishda oldin bo'lsa, tinglab tushunishda esa keyin hosil bo'ladi. Bu ichki nutqlarda tafakkur, xotira, idrok muhim o'rinda turadi

O'qish, gapirish bilan aloqador, unga bog'liqligi bor. O'quvchi o'qigan ma'lumot orqali gapiradi, ma'lumot beradi. U qancha ko'p o'qisa, shuncha gapirishi uchun ma'lumotga ega bo'ladi.

Shu sababdan o'quvchi ichida, ovoz chiqarib, ovoz chiqarmay o'qib gapirish uchun ma'lumot to'playdi. O'qish – gapirish uchun ma'lumot manbaidir.

O'quvchi yozuv orqali o'qigan, tinglagan, gapirgan materiallarini, ma'lumotini yozma ifodalaydi. O'quvchi uni yozma ifodalagan bo'lsa, uning esida yaxshi qoladi, yaxshi o'zlashtiradi. Yana qaytadan gapirish uchun xotirasida, yodida yaxshi qoladi. Yozuv ham gapirish ma'lumotini, materialini esda qolishiga yordam beradi.



Yuqoridan ko‘rinib turibdiki, gapirish faoliyati boshqa nutq faoliyatlari bilan aloqadadir.

Qator tadqiqotlarning ma’lumotlariga ko‘ra gapirish nutq umumiy hajmining 30 foizini, yozuv esa 9 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun gapirish o‘rta maktabda ingliz tilini o‘qitishning eng muhim maqsadi hisoblanib, u monolog, dialog orqali amalga oshadi.

O‘rta maktab chet tili o‘qitish dasturiga muvofiq gapirishni o‘rgatish ham maqsad, ham vositadir. O‘quvchi ingliz tilida gapirishni amalda qo‘llay olishi maqsaddir, u gapirishni boshqa nutq faoliyatlarini o‘rgatishda, o‘rganishda yordamchi vositachilik qiladi.

Ingliz tilida gapirishni o‘rgatishni qiyinchiliklari bor, ularni o‘qituvchi hisobga olishi zarur. Qiyinchiliklar ekstralingvistik, psixologik, lingvistik bo‘lishi mumkin.

Ekstralingvistik qiyinchiliklar:

1. Gapirishni kimgadir, nimagadir qaratilishi.
2. Gapirishda nutq vaziyati, holatini bo‘lishi, yaratilishi.
3. Vositalarning bo‘lishi.
4. Gapirish ehtiyoji bo‘lishi.
5. Gapirish sodir bo‘layotgan sharoitni xususiyati (sinf o‘quvchilarining 2 ga bo‘linganligi, sinf xonasining tayyorgarligi va boshqalar).
6. Gapirishda imo-ishoraning, harakatning qo‘llanilishi.

Psixologik qiyinchiliklar ham muhimdir. Psixolog I.A.Zimnyaya fikrni bayon qilishning qo‘zg‘ovchi, shakllantiruvchi, amalga oshiruvchi psixologik tuzilishini beradi. Nutqni shakllantirishda yana 2 ta: ma’no, mazmun yasovchi va shakllantiruvchi jumlalarga ajratadi.

Eng avvalo gapirish uchun stimul – rag‘batlantiruvchi undovchi omilning bo‘lishi, fikrning shakllanishiga olib keladigan ehtiyojdir, sababdir. Buning uchun tashqi va ichik ta’sir bo‘lishi zarur, unda ehtiyoj tug‘iladi. Psixologik nuqtai nazardan gapirish uchun til materiallarini bilish zarur, ular gapirishning mexanizmlari hisoblanadi. Tushunish, gapirish jarayonida, gapirish esa tushunish jarayonida shakllanadi. Gapirish nutq faoliyatining turi sifatida o‘rganilayotgan tilga va nutq turiga bog‘liq bo‘lmagan holda psixologik qiyinchilik tug‘diradi.

Gapirish yana ikkita psixologik qiyinchilik bilan xarakterlanadi: fikrni bayon qilish, shaklni o‘ylab ko‘rishga imkon kamligi va ifodalashning bir onda sodir bo‘lishi. Gapirishning avtomatlashgan va avtomatlashmagan tomonlari ham psixologik qiyinchilik bilan bog‘liq.



Tafakkur, xotira ham gapirishni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Bularni rivojlanganligi gapirishni o'rgatishga ta'sir qiladi.

Gapirishni o'rgatishda lingvistik qiyinchiliklar ham ta'sir qiladi.

1. gapirish uchun kerakli leksik, grammatik materialni, gapirish namunalarini to'g'ri tanlangan bo'lishligi;

2. gapirish uchun zarur bo'lgan leksik, grammatik materiallarning ma'nosi, mazmunidagi, qo'llanishidagi qiyinchiliklar;

3. to'g'ri ohangda, ritmda, to'g'ri talaffuz qilishdagi (gapirishga ta'sir qiladigan) qiyinchiliklar;

4. nutq namunalarini, jumalarni qo'llay olishdagi qiyinchiliklar.

Gapirishning yana quyidagi lingvistik qiyinchiliklarini ko'rish mumkin:

1. gapirish adabiy tilda emas, jonli tilda sodir bo'ladi;

2. gaplar, jumalar qisqa tuziladi: Have you? And you? How many books have you? One javobi kabilar.

3. Qisqartirilgan shakllar keng qo'llaniladi: don't, won't, I've, shan't kabilar.

4. qisqartmalar keng qo'llaniladi:

laboratory o'rniga lab

microphone o'rniga mike

matematics o'rniga maths

Luqma tashlash, gap qisqartish (replikalar) ni keng qo'llanilishi: Well, Hello, Why not, Hey kabilar [8].

Inglizcha gapirishni 2 xil: 1) monolog, 2) dialog shaklida amalga oshiriladi. Bu 2 xil shakldagi gapirishning o'ziga xos xususiyatlari bor.

Keyinchalik psixologlar tafakkur, xotirani hisobga olib tashabbusli nutq, taqlidiy nutq, tayyorlangan, tayyorlanmagan nutq turlariga ajratishadi.

Hozirgi paytda metodik adabiyotlarda monologik, dialogik nutq shakllari ko'p qo'llaniladi.

Tayyorlangan nutq deyilganda o'quvchi tayyorlanishi uchun ma'lum mavzu, vaqt berilishi, kerakli vositalar, so'zlar, nutq namunalari oldindan o'rgatilishi, uyda tayyorlanishi, tayanchlar bo'lishi ko'zda tutiladi.

Tayyorlanmagan nutqni spontan nutq ham deyiladi. Bunda ilgaridan tayyorgarchilik ko'rilmaydi. O'rta maktab dasturi bo'yicha o'quvchi tayyorlanmagan nutqni egallashi kerak, lekin bunga tayyorlangan nutq asosida erishiladi. Tayyorlanmagan nutq: 1) o'qituvchi bergan mavzusi yoki nutqiy vaziyat asosida gapirish, 2) o'qilgan matn asosida gapirish, 3) tinglangan matn, nutq asosida gapirish, 4) o'qilgan matnni muhokama qilishda gapirish, 5) chet el kishisidan sharh olish, 6) chet el kishisiga yordam berish kabi mashqlari orqali tashkil qilinadi [8].



Inglizcha gapirishga o'rgatishning mazmuniga lingvistik, psixologik, metodik qismlar kiradi.

Lingvistik qismga gapirish uchun zarur bo'ladigan til va nutq materiallari, gap tuzilishlari, nutq namunalari kiradi. Bu materiallar tematika asosida tanlanishi zarur.

Tematika qanday til materiallarini tanlashni belgilaydi.

Lingvistik qism ustida to'xtalganda ekstralingvistik elementlarni, imo-shora, harakat va boshqa vositalarni ham yodda tutish zarur.

Psixologik qismga gapirish malakalarini egallash kiradi. U reproduksiyadan, o'rniga qo'yish, o'zgartirishdan, kengaytirishdan, qo'shish, aralashtirishdan iboratdir. Reproduksiya o'quvchi o'qituvchidan yoki fonogrammadan eshitganni, tinglanganni aynan o'zini qaytarishdir.

O'quvchi reproduksiyada qisman so'zlarni almashtirishi mumkin. Masalan, o'qituvchi This is a black pencil desa, o'quvchi qaytarishda (reproduksiyada) This is a white pencil deb o'zgartirishi mumkin. O'zgartirishda so'zlar, iboralarni o'rni ham o'zgartirilishi mumkin. Masalan, I live in Moscow. Sasha lives in Moscow. I ni Sasha bilan o'zgartiriladi.

Kengaytirishda esa nutq namunasi, gap, struktura kengaytiriladi.

Mas. I have a book.

I have an English book.

I have an interesting English book.

I have an interesting English book at home.

Qo'shish – aralashtirishda til materiallari, nutq vositalari qo'shib gapiriladi. Masalan, sport temasida I am fond of....nutq namuna faollashtirishda o'quvchi o'zining sevgan sport mashg'ulotini qo'shib gapiradi.

Metodik qismda gapirish metod, usullarini, yo'llarini qo'llash tushuniladi. Bunda o'quvchilar tayanlar, tayanch vositalardan foydalana olishlari muhimdir. Ularga tinglash, ko'rish tayanchlari, so'zlar, mazmun bo'yicha tayanchlar kiradi.

Monologik nutq gapirishning bir shakli bo'lib, 1 ta so'zlovchi tomonidan bajariladi.

Monologik nutq ham o'ziga xos xususiyatlarga, qiyinchiliklarga ega. O'qituvchi ularni o'rgatayotganda hisobga olishi zarur.

Ular quyidagilar:

1. Monolog bir kishi tomonidan bajariladi.

2. U rejali bo'ladi. 3. U qisman tayyorlangan bo'ladi. 4. U uzilmay davom etadi. 5. U rejali bo'lgani sababli mantiqiy bog'langan bo'ladi. 6. U bir kontekst, matn asosida olib boriladi. 7. Unga vositalar, tayanchlar, sharoit



ta'sir ko'rsatadi. 8. Uslub ta'sir qiladi. 9. Monolog ta'sirchan, ma'lumotli, his-hayajonli bo'ladi, kimgadir, nimagadir qaratiladi. 10. Nutq vaziyatli bo'ladi. Bir sharoitni, vaziyatni ko'zda tutadi.

Monologik nutqning quyidagi lingvistik qiyinchiliklari, xususiyatlari ham muhim o'rin tutadi, ta'sirini ko'rsatadi.

1. U ko'p bo'g'inli so'zlardan iborat bo'ladi.
2. Gaplar kitob uslubiga yondoshadi.
3. Nutqni bayon qilish bir-biriga bog'liq bo'ladi.

Lingvistika nuqtai nazaridan monologik malakani egallash: 1) gaplarni bog'lovchi qismlarini egallashni; 2) kontekst uchun to'g'ri so'z tartibini tanlash; 3) fikrni mantiqiy, ritmik ohang tomondan to'g'ri ifodalash; 4) monolog uchun til vositalari, materiallarini bilish; 5) mavzuni to'liq ocha bilish kabilarni o'z ichiga oladi.

YE.I.Passov monologni: 1) davomli, 2) mantiqiy ketma-ketlikda, 3) mazmunan tugallangan bo'ladi, deydi.

O'rta maktab dasturi bo'yicha monologik nutqni o'rgatish ham vosita, ham maqsaddir. U vosita bo'lib gapirishni, monologning o'zini rivojlantirishga, til materiallarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqsad bo'lganda esa, u o'quvchilarni monologni nutq faoliyati sifatida o'rganishni, o'rgatishni, u orqali ma'lumot bera olish ko'zda tutiladi. O'rta maktab dasturida har bir sinf o'quvchilari uchun monologik nutq talablari, mavzusi berilgan. O'quvchi nutqining hajmi, meyorlari ham belgilab berilgan. Masalan, 5-sinfda monologik nutq 5-7 ta jumladan iborat bo'lishligi, 6-sinfda 7 jumladan, 7-sinfda 9 ta jumladan, 8-sinfda 8-10 jumladan iborat bo'lishliklari ko'rsatilgan.

Monologik nutqni o'rganishda monologik birliklarni aniqlash, ikkinchidan, monolog malakalarni belgilovchi metod, usul, yo'llarni, mashqlarni aniqlash muhim o'rin tutadi.

Umumiy metodikada Charlz Frizni 3 ta birligini: 1) alohida kichikina erkin gaplar, 2) ayrim kengaytirilgan gaplar, 3) ikki yoki undan ortiq erkin gaplar birliklarini taklif qilishadi. S.F.Shatilov bu birliklarni qabul qilib, 1-birlik 5-6 sinflarda, 2-birlik 7-8 sinflarda, 3-birlik esa 9-10 sinflarda qo'llanilishi yoki o'rgatilishi mumkin deydi [9].

Hozirgi davrda bizning fikrimizcha bu birliklarni qabul qilish va asos qilib monologik nutqqa o'rgatish mumkin.

M.Y.Demyanenko monologik nutqqa o'rgatishni 3 bosqichga bo'ladi:

1-bosqich: O'quvchilarda monologik nutq uchun kerak bo'ladigan til materiallarini mustahkamlanadi, leksik, grammatik fonetik materiallar tushuntiriladi. Ular taqlid qilish, yodlash va mashqlar orqali mustahkamlanadi.



Amaliyotga yo'naltirish funktsiyasi shaxsning innovatsiya sohasida yangi bilimlarni yaratishga tayyorligida va yangi muammolarni qo'yish va hal qilish jarayonida o'quv amaliyoti ehtiyojlari uchun foydalanishda, innovatsion faoliyatni amalga oshirishning ijodiy usullariga ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Shakllangan innovatsion ko'nikmalar, innovatsion tajriba va kompetentsiyalar majmuasini qo'llashda aniq psixologik va pedagogik muammolarni samarali hal qilish faoliyati hisoblanadi. Bu funktsiya o'qituvchi innovatsion salohiyatini amalga oshirishda integratsiyalashgan, chunki bilim, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar, innovatsion kompetensiyalar, o'zlashtirilgan innovatsion tajribada ijodkorlikni bog'laydi. Amaliyotga yo'naltirilgan funktsiya natijalardan amaliy foydalanish oqibatlarini baholaydi va innovatsion mahsulot samaradorligi dinamikasini ta'minlaydi.

Biz bu barcha komponentlar va funktsiyalarni birlikda va o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqamiz. Biroq, ular umumlashgandagina shaxs innovatsion salohiyatini rivojlantirish samaradorligini anglatadi.

Adabiyotlar:

1. Mixaylova O.B. Shaxsning innovatsion salohiyati: diagnostika va rivojlanish. M.: MIBIS instituti, 2012. 172 b.
2. Sidorov V.V. Texnika kolleji talabalarining innovatsion salohiyatini shakllantirish: dissertatsiya avtoreferati. ... ped. fan. Chelyabinsk: Janubiy Ural davlat universiteti, 2010. 24 p.
3. Vlasenko Yu.A. Shaxsning innovatsion salohiyatini psixologik tahlil qilish: Dis. ... psixolog. Fanlar. Simferopol: Taurida milliy universiteti. VA.Vernadskiy, 2003. 183 b.
4. Boyinchan G.I. Rossiya Ichki ishlar vazirligi tizimidagi oliy o'quv yurti o'qituvchisining innovatsion kompetentsiyasini shakllantirish: Dis. ... k. ped. fan. Kaliningrad: Boltiq federal universiteti. I. Kant, 2011. 182 b.
5. Chirkovskaya E.G. Ta'lim muassasasi rahbarining innovatsion kompetentsiyasining namoyon bo'lish xususiyatlari // Akmeologiya. 2012. No 4. S. 27–31.
6. Hakimova D., Khalikova M. Competent possibilities of andragogy education in the aspect of lifelong learning paradigm. // International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.258 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022 2097.
7. Pedagogical encyclopedic dictionary. Moscow.: BRE, 2002. - P.17. ISBN 978-5-85270-230-2. (Педагогический энциклопедический словарь. Москва.: БРЭ, 2002. - С.17. ISBN 978-5-85270-230-2.).



Maqolada shaxs innovatsion salohiyatining tarkibiy qismlari, uning innovatsion yoʻnalishlari, shaxs innovatsion salohiyati, uning tuzilishi va funktsiyalari, Innovatsion kompetentsiya, innovatsion tajribani shakllantirish va amaliyotga yoʻnaltirish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассмотрены составляющие инновационного потенциала личности, его инновационные направления, инновационный потенциал личности, его структура и функции, инновационная компетентность, формирование инновационного опыта и вопросы направления его в практику.

SUMMARY

The article considers the components of the innovative potential of the individual, its innovative directions, the innovative potential of the individual, its structure and functions, innovative competence, the formation of innovative experience and the issues of putting it into practice.





МАЪРИФАТ ДАРҒАЛАРИ АСАРЛАРИДА МАДАНИЯТНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ ТАЛҚИНИ

Абдужаббарова М.

*Ўзбекистон давлат санъат ва маданият
институтини, педагогика фанлари номзоди, доцент*

Давлатов О.

*Ўзбекистон давлат санъат ва маданият
институтини, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD), доцент*

Таянч сўзлар: маданият, мутафаккир, мусика, анъана, билим, комил инсон, мафкура, иммунитет, оила, тарбия масалалари.

Ключевые слова: культура, мыслитель, музыка, традиция, знание, гармоничная личность, идеология, иммунитет, семья, вопросы воспитания.

Key words: culture, thinker, music, tradition, knowledge, harmonious personality, ideology, immunity, family, education issues.

Жамиятнинг бугуни ва эртаси учун миллат тарбияси ҳамма замонларда ҳам энг долзарб масала бўлиб келган. Инсоният яралибдики, ота-оналар, мураббийлар, фозилу уламолар ҳам фарзанд тарбиясига алоҳида эътибор бериб келганлар. Марказий Осиёнинг буюк маърифат дарғалари ўз асарларида инсонийлик, ватанпарварлик ғояларини тараннум этиб, халқни орифлик, фозиллик, комиллик даражасига кўтаришга чорлаганлар. Уларнинг қолдирган маданий меросини ўрганиш орқали ёшларимиз ўзлари учун тарбиявий жиҳатларини ўзлаштирадилар. «Бизни ҳамиша ўйлан-тириб келадиган яна бир муҳим масала – бу ёшларимизнинг одоб-ахлоқи, юриш-туриши, бир сўз билан айтганда, дунёқараши билан боғлиқ. Бугун замон шиддат билан ўзгаряпти. Бу ўзгаришларни ҳаммадан ҳам кўпроқ ҳис этадиган ким – ёшлар. Майли, ёшлар ўз даврининг талаблари билан уйғун бўлсин. Лекин айти пайтда ўзлигини ҳам унутмасин. Биз киммиз, қандай улуғ зотларнинг авлодимиз, деган даъват уларнинг қалбида доимо акс-садо бериб, ўзлигига содиқ қолишга ундаб турсин. Бунга ниманинг ҳисобидан эришамиз? Тарбия, тарбия ва фақат тарбия ҳисобидан», дея таъкидлади Президентимиз. «Ҳамма ўз тарихини улуғлайди. Лекин бизнинг мамлакатимиздагидек бой тарих, боболаримиздек буюк алломалар ҳеч қаерда йўқ.



Бу меросни чукур ўрганишимиз, халқимизга, дунёга етказа билишимиз керак - деди Шавкат Мирзиёев .

Таълим –тарбия тушунчаси бир-бири билан узвий боғлиқ, уларни якка-якка тушуниш тарбия жараёнини тизимий ташкил этишга монелик қилади. Маданий таълим ахлокий, эстетик, бадий, аксиологик, диний, экологик, ҳуқуқий билимлар билан биргаликда инсон маънавий қиёфасини таркиб топтиради. Маданий тарбия эса бу билимларни гуманистик йўналишга буриб, ўзаро ҳурмат, ҳамкорлик меҳр-муҳаббат, инсонпарварлик, тинчлик-тоғувлик каби ҳислатларни вужудга келтиради. Бу икки жараён орқали инсон комил шахсга айлана боради.

Шунингдек, таълим-тарбия жараёни назарий билим билан амалий ҳаракат уйғунлигидан иборат. Бу борада Шарқ таълим тизими тарихига назар солар эканмиз, таълим беришда, алломаларимиздан Абу Наср Форобийнинг таъбирича, бу ёшларни назарий билимларга, фалсафий илмларга ўргатиш, улар ақлини барча фанларнинг асослари билан бойитиш назарда тутилади. Тарбиялашда эса, ёшларга маънавий ахлокий қоидалар, ҳулқ-атвор нормалари, амалий санъат, яъни турли ҳунар ўргатилади, улар онгига фаолият тартибларини сингдириш асосий мақсад қилиб қўйилади. Таълим ҳам, тарбия ҳам ёшларнинг ҳақиқий инсон бўлиб етишуви учун ниҳоятда зарурдир” .

Маданий тарбия узоқ давом этадиган чексиз жараён бўлиб, инсонга бутун умр бўйи давомида ижобий таъсир этиб, уни баркамолликка етаклайди. Тарбия воситаси бўлган юқорида санаб ўтилган маданият компонентлари инсон маънавий қиёфасини шакллантирувчи муҳим омил бўлган.

Миллий тарбиянинг таркибий қисми бўлган урф-одат ва анъаналар воситасида оила муҳитида бола тарбиясига таъсир этишнинг имкони кенгдир. Чунки инсон болалигининг энг кўп қисмини ота-она бағрида ўтказди. Халқимизнинг “Тарбия остонадан бошланади”, - деган доно ибораси бор. Бинобарин, тарбиянинг энг муҳим талабларидан бири оила аъзоларининг ибрати, намунасиридир.

Миллий кадриятларимиз бўлмиш алломаларимиз асарларида инсоннинг маънавий тарбиясида оила муҳитининг аҳамияти жуда яхши ёритилган. Беруний хусусан оилада қиз бола тарбиясига оид ўғит бериб қуйидагилари қайд этади. Беруний ёзади: “Эй қизим. Сен ўрганган уйингдан кетиб, нотаниш хонадонга тушмоқдасан, сен бўлажак куёвингнинг ҳамма ҳислатларини билмайсан. Сен ер бўл, у осмон бўлади. Демак, сен у билан шундай йўл тут, унинг олдида ер каби камтар бўлсанг, у осмон каби олижаноб бўлади. Осмон шифоли ёмғири билан ерни кўкартиргани каби, у ҳам ўз меҳру-шафқати билан сени хушнуд этади...” .



Дарҳақиқат, асрлар мобайнида халқимизнинг миллий қиёфаси, ўзига хос ҳуққ-атвор ва нафосати шундай инсоний фазилатларда ўз ифодасини топган.

Буюк аллома Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад Берунийнинг инсон ҳақидаги ғояларини ўрганиш, бахт-саодат йўлида олиб борган ишларини ёш авлодга тушунтириш ғоявий маданиятимизни шакллан-тиришнинг асосий омилидир. Унинг «Геодезия», «Ҳиндистон», «Минералогия», «Қонуни масъудий» каби асарлари ҳақида маълумотлар бериш ёшларда келажак учун юксак масъулият ҳиссини қарор топтиришга, улар маданиятини шакллан-тиришга хизмат қилади. Абу Али ибн Сино буюк комусий олим си-фатида тиббиёт, риёзиёт, фалакиёт, физика, кимё, биология, доришунослик, рухшунослик, физиология, фалсафа, эстетика, ахлоқшунослик каби кўплаб фанларнинг етук билимдони, ақл-заковат ва юксак маънавият бобида комиллик даражасига етган улуғ инсон бўлган. Унинг яратган асарлари нафақат Ўрта Осиёда, балки Шарқ ва Европа мамлакатларида ҳам ҳурмат билан тилга олинади. Ибн Синонинг таълим-тарбияга оид «Рисола фи илм ал-ахлоқ» («Ахлоққа оид рисола»), «Рисола фи ал-аҳд» («Бурч ҳақида рисола»), «Рисола фи тазкият ан-нафс» («Нафсни покиза тутиш тўғрисида рисола»), «Сиёсат ал-бадан» («Баданни бошқариш»), «Китоб ал-инсоф» («Адолат ҳақида китоб»), «Тадбир ал-манозил» («Турар жойни бошқариш чоралари»), «Саламон ва Ибсол» каби бир қанча тарбиявий асарлари мавжуд. Абу Али ибн Синонинг барча рисола-ларида адолатлилик, саҳийлик, шижоат, сабр, мулоимлик, иффат, қаноат, меҳр-муҳаббат, софдиллик, камтарлик, инсонпарварлик каби фазилатларга таъриф берилган.

Ақл ва адолат, бахт-саодат, фаровонлик ҳақида гапириб, дўстлик, ҳалоллик, ростгўйлик, камтарлик, одиллик каби инсоний хислатларни шахс камолотида муҳим ўрин эгаллашини уқтирган Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг» достони ҳам инсон ҳаёти ва фаолиятининг бирламчи асоси таълим-тарбия ва билим эгаллаш деб билади. У ғоявий тарбияни (фикр тарбиясини) фақатгина илм-фан ва маърифат билан соғломлаштириш мумкинлигини таъкидлайди. Юсуф Хос Ҳожиб билимни зулмат ичидаги нурафшон машъалага ўхшатади. Унинг фикрича, нутқ маданияти шахснинг билимдонлик ва маънавий комиллик даражасини белгилаб беради, инсонни улуғлайди. Юсуф Хос Ҳожиб ҳар бир сўзимиз уйлаб мушоҳада қилиб айтилган, кескир ва аниқ бўлиши керак, акс ҳолда ноўрин айтилган сўз зарар келтири-ши мумкинлигини таъкидлаб шундай ёзади: «Сўзингга эҳтиёт бўл, кетмасин бошинг, Тилингга эҳтиёт бўл синмасин тишинг». Мутафаккир «Қутадғу билиг» достонида ҳоким би-лан халқ ўртасидаги ўзаро муносабатлар масаласига ҳам эътибор беради: «Ҳамма нарсанинг қондаси, тар-



тиби, таълими бор, тартиб-одоб қоидалари тўғри тутса, кишини юзи ёруғ бўлади» .

Биз Амир Темур ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолиятини ўрганиш жа-раёнида ёшлар онгида ғоявий-сиёсий маданиятни шакллантириш мамлакатнинг олдида турган улуғ, бунёдкорлик ишлари, ундан кўзланган асосий мақсад инсонларнинг эркин ва фаровон ҳаётга эришиши, озод ва обод Ватан қуриш йўлида ҳар бир киши учун ҳаракат йўналиши бўлишга қаратилганлигининг гувоҳи бўлдик. Амир Темур ўғитлари ёшлар тарбиясида эркин фикрни уйғотиш ва фикр эркинлигини кафолатлаб бериш, ўзига ишонч, ўзгалар фикрини тинглаш, эшитиш ва айтишга имконият яратади. Ҳар бир киши ўзи яшаётган жамият, мамлакат ёки давлатнинг мақсадини, уни ифода этадиган ғояларини билиши, аниқ тасаввур этиши лозим. Шундагина бу мақсадлар унинг онг ва тафаккурдан жой олади. Ёки шунчаки жой олиб қолмасдан, аста-секин унга нисбатан ишонч, эътиқод пайдо бўлади. Ишонч, эътиқод шундай нарсаси, усиз инсон ўз йўли, мақсад ва манфаатларини кўра олмайди. У қанча мустқаҳкам бўлса, бу ғоя ёки мақсад йўлида ўзини бағишлаб, фаолиятини унга мос тарзда кўради, ундан чекиниш ҳолларини эса қабул қила олмайди. Ғоя, мақсадлар ҳар бир инсон хатти-ҳаракати, фаолияти билан мушта-рак тарзда уйғунлашиб боради.

«Мен ҳаётим мобайнида беш насага қатъий эътиқод қўйдим ва ҳамишалиғ уларга амал қилдим. Улар ушбулардир:

Оллоҳ – ул ҳар насага қодир куч, сидқидилдан сиғинсанг истаган муроду мақсудинга етказади.

Тафаккур – фикрлаш ва мушоҳада қобилияти, қувваи ҳафизасини кучли инсон ҳар қандай мушқулу мушқулдони осон қилиш йўлини топа олади.

Қилич – ул йигитнинг йўлдоши, эл-юрт осойишталигининг посбони, ҳар қандай душманни маҳв этиш қуроли, анинг қудрати ила динсизларни динга солмоқ мумкин.

Имон – ул инсонни барча жонлилардан фарклантириб тургувчи хусусиятдир. Имонли одам хиёнат қилмайди, қариндош-уруғлари, элу халқнинг ор-номусини ҳимоя қилади, ҳалоллик ва покликни фазилат билади.

Китоб (битик) – барча бунёдкорлик, яратувчилик ва ақл-идрокнинг, илму донишнинг асосидир, ҳаётни ўргатувчим мураббийдир» .

Муסיқа санъати – тафаккурнинг улкан манбаидир. Муסיқа тарбиясиз инсоннинг мукамал ақлий ривожланишига эришиб бўлмайди. Доноларимиз айтганларидек “Муסיқа тарбия- бу муסיқашунос тарбияси эмас балки, авваламбор инсон тарбиясидир”. Муסיқий тарбия асосида инсонда олижаноблик, улуғворлик гўзаллик ташқи дунёдагина эмас, балки унинг ўзида ҳам мавжуд эканлиги тўғрисидаги тасаввур юзага келади. Муסיқа ўз-ўзини



тарбиялашнинг қудратли манбаидир. Бугунги кунда мусиқасиз ҳаётни тасаввур қилиш қийин. Шу билан бирга, тиббиёт илмининг асосчиларидан бири Ибн Сино болалар тарбиясида мусиқанинг катта таъсир воситаси бўлиши мумкинлигини таъкидлаган. У ўзининг “Китоб уш-шифо” асарида бир бобни мусиқа билан даволаш масалаларига бағишланган. Ушбу асарда у шундай ёзган: “Мукаммал одам бўлиш учун табиб бўлиш керак. Табиб бўлиш учун мукаммал одам бўлиш лозим. агар табиб назмни билмаса, мусиқа ва санъатни тушунмаса, у табиб бўла олмайди”.

Ҳақиқатан, мусиқа инсон борлигининг энг нозик трманларини фиодалаш билан бирга, у кишиларга ҳаёт, ўлим, муҳаббат, шафқат каби тушунчалар ҳақида сабоқ беради.

Шарқнинг буюк мутафаккири Жалолиддин Румий: “Дунёда ҳеч нарса мусиқа ва рақс янглиғ инсон руҳининг яширин қувватларини ошкор этолмас, мусиқачалик уни майда-чуйда турмуш ташвишларидан ҳалос этиб, ўз руҳий олами сари бошлай олмас... мусиқа хотин кишига ўхшайди. Уни чўри деб истифо этаркансан, ўзингизда инсонни ухлатиб, ҳайвонни уйғотасиз. Лекин уни севишингиз, унга бирикиб, бир тўлқинда оқишингиз, шу йўсинда руҳиятингиздаги чин инсоний моҳиятни уйғотиш учун илк қадам кўйишингиз ҳам мумкин...”, - дейди.

Ҳозирги кунда ёшларимиз ўртасида мусиқага бўлган қизиқиш чуқур фикрлаш ва чуқур бадиий – эстетик ҳиссиётлар билан юзага келяпти деб бўлмайди. Чунки кўп ёшлар кўнгилочар мусиқа тинглашни одат қилиб олганлар.

Ҳатто, бир неча асрлар илгари яшаб ижод этган буюк мутафаккир Абдуллоҳ Дехлавий, ўша даврлардаёқ фақатгина вақтичоғлик мақсадида тингланаётган кўнгилочар мусиқа жанрининг салбий оқибатларни келтириб чиқаришини пайқаган. “Тахику –с-самъ” асарида ... олимнинг фикрича, мусиқа дунёвий айшу ишратлар доирасида бўлар экан, у ҳақиқатан инсон руҳини ғафлат ва бефарқликка чўлғайди. Огоҳликдан бенасиб этади. Дехлавийга эргашган уламолар наздида “айшу ишрат сози-шайтоннинг намозидир”, - дейди.

Ҳақиқатан, кўнгилочар енгил мусиқий асарлар дарров меъдага тегади, ўз жозибасини йўқотади, мантиқий фикрлашга, ҳаёт моҳиятини англашга ўргата олмайди.

Демак, буюк маърифатпарвар мутафаккир, алломаларнинг ижодида маданиятнинг тарбиявий аҳамияти тушунчаси ўзи яшаб ижод этган ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий муҳит билан баён қилинган. Алломаи замонларимизнинг барча асарларида инсонпарварлик, ва-танпарварлик, юрти, элига садоқат, адолат, дўстлик, бунёдкорлик, ахлоқий-маданият ту-



шунчалари мазмунан бой ва шаклан ғоят ранг-баранг ифодаланганки, бу маданий тарбиянинг асосини ташкил этади. Бу ҳақда, Президент Ш. Мирзиёев, “Шарқ донишмандлари айтганидек, “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир!” Шу сабабли ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётий эҳтиёжга айланиши керак”, деган эди”.

Хулоса шуки, маърифат дарғаларининг асарлари ҳар бир ўсиб келаётган ёш авлод ақл-фаросатини, жасурлик, тadbиркорлик, мустақил фикрга эга бўлиб, ижодий тафаккурини шакллантириш, турли хилдаги вайронкор ғояларга бўйсунмасдан, бунёдкорлик ғоялари руҳида миллатимизни, ўзлигини асраб-авайлаш, ватанпарварлик, инсонийлик каби фазилатларни шакллантиришда муҳим ўрин тутди.

Адабиётлар:

1. Шавкат Мирзиёев: мамлакатимиздагидек бой тарих, боболаримиздек буюк алломалар ҳеч қерда йўқ // Халқ сўзи газетаси. 21 декабрь 2018 йил.
2. Шавкат Мирзиёев: ёшлар тарбияси – энг муҳим масалалардан // Ўзбекистон Республикаси Аxbорот агентлиги. 16.06.2017 йил.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси // ЎзА, 25.01.2020.
4. Амир Темур ўғитлари. – Т.: «Наврўз», 1992.
5. Илхомова М. Мусикий терапия ёки қўшиқнинг бола руҳиятига таъсири // “Саодат” журнали. 2016 йил апрель сони.
6. Ўрта Осиё педагогик фикр таракқиётидан лавҳалар. Тузувчи муҳаррирлар. А.Зуннунов ва б.қ. –Т.: Фан, 1996.
7. Хасанов С. Хоразм маърифати – олам кўзгуси. –Т.: “Ўқитувчи”. 1996.
8. Юсуф Хос Ҳожиб. «Қутадғу билиг». Қадимий ҳикматлар тўплами. – Т.: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
9. Шодмонов Н.Мусика –уйғониш демак //Тафаккур. 1997. № 3.

РЕЗЮМЕ

Маърифат дарғаларининг ижоди оркали маданиятнинг тарбиявий аҳамиятини шакллантириш муаммолари атрофлича таҳлил қилинган. Маданиятнинг тарбиявий функциясини шакллантириш тизимини такомиллаштиришда мутафаккирларимиз дурдона асарлари зарурий аҳамият касб этиши ва оила даврасида маданий тарбияни ёшлар онгига синдириб бориш ва шу асосда таълим-тарбия бериш борасидаги илмий ёндашувлар таҳлил этилган.

РЕЗЮМЕ

В статье освещены проблемы формирования образовательной значимости культуры в творчества мыслителей Центральной Азии. Обоснована роль их выдающихся произведений в системе формирования Формирование воспитательной функции культуры, внедрении этой культуры в сознание молодого поколения в семье, определены научные подходы в воспитании молодежи.

SUMMARY

In the article highlights the problems of forming the educational significance of culture in the creativity of thinkers of Central Asia. The role of their outstanding works in the system of formation of the educational function of culture, the introduction of this culture into the consciousness of the young generation in the family is substantiated, scientific approaches to the education of young people are determined.



TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA INTEGRATLI MAQSADLAR

Quychiyeva Z. I.

Jizzax politexnika instituti

Tayanch soʻzlar: innovatsiya, integratsiya, ta'lim, tarbiya, kimyo o'qitish, o'qitish sifati va samaradorligi, pedagogik innovatsiya, tizimdagi pedagogik shaxsning yetakchi roli.

Ключевые слова: инновация, интеграция, образование, воспитание, преподавание химии, качество и эффективность преподавания, педагогическая инновация, руководящая роль педагогической личности в системе.

Key words: innovation, integration, education, upbringing, teaching chemistry, quality and effectiveness of teaching, pedagogical innovation, the leadership role of the pedagogical person in the system.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, ta'lim-tarbiya ishlari sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, bo'lajak mutaxassislarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish kabi masalalar belgilangan. Ta'lim va tarbiya bilan bog'liq barcha sa'y-harakatlar ko'p qirrali va murakkab jarayonlar bo'lib, ular birgalikdagi aqliy va jismoniy mehnat, birgalikda yoki mustaqil mehnat, faollik va ijodiy tafakkurdan iborat bo'lib, ular ta'lim oladilar, bilim oladilar, bilimlarni tarqatadilar, boshqa mas'ul shaxslar, bir so'z bilan aytganda o'qituvchilar va murabbiylar.

Dars va sinfdan tashqari ishlar samaradorligini oshirish masalalari ta'lim jarayonini ilmiy asosda yo'lga qo'yish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish, ta'lim jarayonlariga innovatsiyalarni joriy etish va yangicha yondashuvlarni joriy etishdan asosiy maqsad o'qituvchilar va talabalar jamoasi o'rtasidagi hamkorlikning izchilligini ta'minlash hamda uni aniq reja asosida yo'lga qo'yishdan iborat. va maqsadga yo'naltirilgan asos. Bu ish pedagogik-psixologik va tashkiliy masalalarni kompleks hal qilishni taqozo etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik innovatsiya ishtirokchilari ularni boshqarish jarayonining yuzaga kelishi, namoyon bo'lishi va qonuniyatlari haqidagi uslubiy, psixologik, pedagogik, texnologik bilimlarni mukammal egallashlari kerak. Aks holda pedagogik innovatsiyalar samarali natija bermaydi.



Bizning fikrimizcha, ta'lim tizimiga joriy etiladigan innovatsion jarayonlarning samaradorligi, shuningdek, "talablarni amalga oshirish uchun mas'uliyat pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish sharoitlariga, an'anaviy va ajralmas bilimlarni oqilona va ajralmas qo'llashga bog'liq. Ta'limning zamonaviy usullari Ba'zi hollarda an'anaviy usullardan voz kechish hollari mavjud

samarali. Amaliyotda sinovdan o'tgan va ijobiy yakun topayotgan o'qitish metodikasiga yangilik kiritishdek tuyuladi. Shu bois an'anaviy ta'lim tizimidagi ijobiy tajribalar innovatsiyalarga moslashtirilsa ma'qul bo'lardi. Ayni paytda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga qiziqish va e'tibor kundan-kun ortib bormoqda. Buning sabablaridan biri shundaki, bu davrga kelib ta'lim maqsadlari tayyor bilimlarni faqat o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishga qaratilganligi, zamonaviy texnologiyalarning ularning ijodiy faoliyati bilan bog'langanligi, o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilimlarni izlash va hattoki o'zlari xulosa chiqarishga o'rgatilganligi bilan. Innovatsion texnologiya - pedagogik jarayonga yangilik kiritish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatiga o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol texnikalardan foydalanish zarur.

Interfaol usullar ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi har bir o'quvchining faolligi, erkin va mustaqil fikrlashiga asoslanadi. Ushbu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullardan foydalanilganda o'quvchilarda o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalari shakllanadi. Talabalar yangi bilimlarni ilmiy izlanishlar, izlanishlar, sinovlar asosida egallaydilar. Bilimni bilim orqali olish tamoyiliga amal qilinadi. O'quv jarayoni ishtirokchilari kichik guruhlarda ishlaydi. O'qitish topshiriqlari ma'lum bir talabaga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. Mikrojarrohlarning har bir a'zosi vazifani bajarishga hissa qo'shishga harakat qiladi. Bu holat o'quvchilarda hamjamiyat tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi. O'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi vaqtda darsning turli noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, uning aqliy qobiliyatini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'liq qabul qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishlarga qiziqish uyg'otadi, ijodkorlik va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Buning natijasida olingan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda qo'llaniladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli



bo'lishi va fanlarning mazmunidan kelib chiqib, darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot jarayonida barcha o'quvchilarning faol va ongli ishlashiga erishishi kerak. Nol o'qituvchi - ta'lim islohotining bosh ijrochi direktori. Bunda har bir o'qituvchiga qisqa vaqt ichida ulkan ma'lumotlar to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amaliyotda qo'llashni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal etishda o'qituvchiga an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuterlardan foydalanish ham yordam beradi. Darsda kompyuterdan foydalanish dars jarayonini qiziqarli olib borish, har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi. Bunda, birinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng imkoniyatlari orqali talabalarga ko'plab bilim, fakt va ma'lumotlarni yetkaza oladi. Ikkinchidan, o'qituvchining innovatsion rejasi, g'oya va g'oyalarini to'liq amalga oshirish yengil va samarali amalga oshiriladi. Bunday jarayonlar, ayniqsa, kimyo ta'limida muhim o'rin tutadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni innovatsion texnologiyalar asosida tayyorlash bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion texnologiyalarni kelgusidagi amaliy faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llash bo'yicha bilimdon va pedagog kadrlarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri, deb hisoblaymiz. uzluksizligi va uzluksizligini ta'minlash. Fan integratsiyasida sivilizatsiyaning eng noyob yutuqlari. Shunday bo'ladiki, inson tashqi dunyoni va o'zini tushunadi, inson va jamiyat munosabatlarining yangi qonunlarini biladi. Bunday dialektik jarayonda ishlab chiqarish sifatida inson aql-zakovati tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy hodisa yetakchi o'ringa ko'tariladi. Agar barcha sa'y-harakatlar insonning sog'lig'i, to'liqligi va Oliy butiga xizmat qilishga qaratilgan bo'lsa, ishlab chiqarish kabi keng ko'lamli hayotiy hodisaning mohiyati oydinlashadi. Yashash va ko'payish, qurish va yaratish, fan va siyosat bilan shug'ullanish uchun ishlab chiqarish, dehqonchilik va chorvachilikni yo'lga qo'yish ham zarur. Organizm va atrof-muhitning o'zaro bog'liqligi, samoviy jismlarning aloqasi, erdagi hayotning kosmik omillar bilan bog'liq holda o'tishi, individual jamiyat hayotidagi o'zgarishlarning geologik va tabiatga o'zlashtirilishi kabi ko'plab narsa va hodisalar. astrofizik hodisalar, er yuzidagi tarixiy hodisalarning quyosh faolligi bilan bog'liqligi muvaffaqiyatli bo'lishi tufayli ma'lum bo'ldi. Ularning dunyoqarashi, uslubiy, aksiologik, gnoseologik, ontologik, praxiologik, gumanistik, tarbiyaviy, "dunyo-inson" munosabatidagi eng muhim va umumiy masalalar yordamida to'g'ri va to'liq, xolis va haqiqat ko'zgusida talqin qilinishi mumkin. , kommunikativ, tanqidiy, integrativ, prognostik va sotsiologik funktsiyalar, shuningdek, muammolarni hal qilishda ishtirok etadigan falsafa va tabiiy fanlar.



Inson olamsiz, moddiy ne'matlarsiz yashay olmasligi inobatga olinsa, fan va ishlab chiqarish unga qo'sh qanot bo'lib xizmat qilishi tushunarli bo'ladi. Bu birlikda birinchi o'rinda turadigan narsa haqida bahslashish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Olam birlamchi, inson ikkinchi darajali, ishlab chiqarish va ilm esa insonning jismoniy va aqliy mahsuli hisoblanadi. Inson ijodini ulug'lashtirish biroz tiyilish, uning ham "oq", ham "qora" tomonlarini umumlashtirish kerak. Minglab katta-kichik da'vatlar, Turli-tumanlik, ommaviy qirg'in qurollarini yaratish va qo'llashda ishlab chiqarish ham, fanning ham hissasi, Insonning aqli va jismoniy mehnatining hissasi-ob'ekt haqiqatidir!? Shunday qilib, maqola mavzusidagi iborani kengroq ma'noda tushunish kerak bo'ladi. Atom va yadro quroliga sarflangan mablag'larni xalq xo'jaligining eng zarur sohalariga sarflash davri allaqachon yetib borganini anglab yetish o'rniga, yana qilichni omochga quyish, traktorlar ishlab chiqarish vaqti keldi, mana shu davr! Faqat XX1 asrdagina insoniyat fan va texnika, texnika va antropogenetika yutuqlaridan ochlik va ochlik, qahatchilik va qahatchilik, kasalliklar va o'lim, energiya va boshqa defitsitlar yo'lida omon qolishi mumkin. Moddiy ta'minot o'z o'rnini belgilashi bilan ma'naviyat olimi kuchaya boshlaydi. Fan – ishlab chiqarish, ishlab chiqarish – maqsadlilik insoniyatga, inson – olamning moddiy va ma'naviy farovonligiga xizmat qilgandagina yuzaga keladi. Bunday jarayonlarning ta'limda aks etishi esa ancha murakkab. Bu ta'lim tizimining uzluksizligi va uzluksizligi bilan bog'liq. Ta'limning an'anaviy axborot missiyasi orqali bunday ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va tashkiliy masalalarni yoritish to'liq amalga oshirilmayapti. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari yordamida ta'lim masalalarini amalga oshirishda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida islohotlar jadal davom etayotgan hozirgi davrda ta'lim-tarbiya jarayonini shakl va mazmungan takomillashtirish zarurati kun tartibidagi asosiy va asosiy masala bo'lishi, shuningdek o'qituvchilar va kitobxonlarning hamkorligi. Umuman, ta'lim va tarbiyada inson omili o'ta muhim tarkibiy qism bo'lib, mafkura poligonlarida bo'shliq bo'lmashligini ta'minlab, qudratli kuch sifatida maydonga chiqish zarur. Yoshlarning dunyoqarashi umuminsoniylik asosida shakllanganda maqsadga erishiladi milliy qadriyatlar esa ilmiy va dunyoviy bilimlar orqali ommalashtiriladi.

Adabiyotlar:

1. Голиш Л.В. Технологии обучения на лекциях и семинарах: Учебное пособие //Под общ. ред. акад. С.С. Гулямова. - Т.: ТГЕУ, 2005.
2. Farxodjonova N. F., Pulatov A. Modern methods of increasing student interest in social sciences // Экономика и социум. – 2019. – №. 4. – С. 38-40.



3. Isroilovich I. M. et al. Philosophical ideas and views of national culture in the condition of globalization //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – Т. 17. – №. 7. – С. 14289-14295.

4. Qizi, Farxodjonova Nodira Farxodjon. «Modernization Of Uzbek Language And National- Spiritual Heritage In National Culture.» The American Journal of Social Science and Education Innovations 3.01 (2021): 585-594.

5. Farxodjonova N. F. Formation of national idea through factors of national culture //мировая наука 2020. проблемы и перспективы. – 2020. – С. 3-6.

6. Епишева О.Б. Основные параметры технологии обучения. //Школьные технологии - 2004.- № 4.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада таълим тизимида инновацион технологиялардан фойдаланиш ва интегралли мақсадларнинг аҳамияти тўғрисида сўз юритилади.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается использование инновационных технологий и важность интегрированных целей в системе образования.

SUMMARY

This article discusses the use of innovative technologies and the importance of integrated goals in the education system.





CHET TILLARNI MASOFAVIY O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH QULAYLIKLARI VA UNDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Fayzullayeva A. S.

Mamarizayeva F. Z.

Jizzax Politehnika Instituti

Tayanch so'zlar: chet tili, o'qitish, ta'lim sifati, onlayn, offlayn, samaradorlik, texnologiyalar, internet, kommunikatsiya, masofa.

Ключевые слова: иностранный язык, преподавание, качество образования, онлайн, офлайн, эффективность, технологии, интернет, общение, расстояние.

Key words: foreign language, teaching, quality of education, online, offline, efficiency, technologies, internet, communication, distance.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilami o'zgarishlar ro'y berayotganligi kün sayin yaqqol ko'rinib bormoqda. Turlita'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotganligi ham qivonchli hol. Ushbu ta'limning ko'plab afzallik tamonlari borligi ko'pchilikka ayon. Barcha oliy o'quv yurtlarida masofadan o'qitish texnika va texnologiyasini amalga oshirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi masofadan o'qitishni tashkil etishga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Masofadan o'qitishni hozirgi zamon modellarining asosida kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari yotadi. Ushbu texnologiyalar axborotdan foydalanuvchilarga keng qamrovli yo'l ochib berish bilan birga ularni muhofaza etish muammosini keltirib chiqaradi. Masofadan o'qitishda o'qituvchi bilan tinglovchining orasida to'gridan - to'gri muloqatning yo'qligi ham ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, muammoli o'qitish jarayonini tashkil etishda ta'lim qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Tinglovchini yetuk mutaxassis qilib tayyorlashda muammoli o'qitishni tashkil etish muloqotni telekonferensiya orqali amalga oshirish mumkin. Ammo, bu bilan muammoni hal etish uchun qo'shimcha o'quv materiallarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bular qatorida turlidarajadagi muammoli topshiriqlar, muammoli vaziyat hosil qiluvchi ko'rsatmalar ya hakoza bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim jarayonida yuqori malakali, fan asoslarini puxta egallagan, har tamonlarni yetuk mutaxassis qilib tayyorlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan.



Shuninguchun hozirgi zamon talablariga muvofiqxorijiy tillami o'rganishda zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chet tili darslarida zamonaviy o'quv- texnik vositalari, lingafon xonalari, multimedia, maxsus dasturlashtirilgan mavzular, ko'p tilli elektron lug'atlardan bevosita foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chet tillarini o'rgatishda masofaviy ta'lim usullaridan, matbuot, telekommunikatsiya ya internet materiallaridan foydalanish o' quvchi talabalarning faqat chet tillarini o'rganibgina qolmay, balki intellektual darajasini oshirish ichin axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Chet tilini o'qitishda eng samarali yondashuvlar qatorida axborot - kommunikatsiya texnologiyalari vositasida, masofaviy ta'limda til o'rgatish metodikalarini ko'rsatish mumkin. Komyutertexnologiyalari, ayniqsa, internetdan foydalanib til o'rganishda juda keng imkoniyatlar mavjud. Ular quyidagilarga namoyon bo'ladi:

1) chet tilida og'zaki munosabatlar bo'yieha o'zlashtirilgan bilimlari ya malakalaridan amaliyotda faol foydalanib, olgan til•materiallaridan faqat o'zining nutqida emas, balki internet orqali tanishgan suhbatdoshi nutqini tushunishda ham foydalanishda o'rganish;

2) o'zlashtirgan nutqiy bilimlarini munosabatning o'zgaruvchan vaziyatlariga ko'chirish moslashuvchan ko'nikmasini shakllantir;

3) norasmiy muloqat shaklida amalga oshiriladigan suhbatni uyushtirishga, so'zlashishni o'rganishga nisbatan kuehli, darhol yuzaga keladigan motiyatsiyani va haqiqatga yaqin munosabat motiyatsiyasini yaratish;

4) psixologik to'sqinlami yengish, xususan, chet tilida so'zlashishdan va xatoga yo'l qo'yishdan cho'chish, to'sig'ini hamda ichki va tashqi tortinish hamda uyalish hissini yo'qotish;

5) ta'lim sifatining yuqori darajaga ko'tarilishi va darhol natijaliligi; mashg'ulotlar ikkinchi mashqidayoq, foydalanuychilar asosiy o'quv matnida berilgan nutqiy qolipda o'rganayotgan chet tilida so'zlasha boshlaydilar; matn ta'sir ko'rsatish suggestiv Yositalaridan (shujumladan, xotiraga kiritish) foydalanib, mashg'ulotlar birinehi mashqdayoq etiborga olinadi;

6) ko'p sonly nutqiy, yuksak va grammatik birliklami taqdim etish va o'zlashtirish; bir taqdim etishda 150 - 200 yangi so'zlar, 30 - 50 nutqiy namunalar va bir neehta odatiy nutqiy hodisalar kiritiladi va o'zlashtiriladi.

Internet materiallarida so'zlashish ko'nikmalarini amalga oshirilishi sharti sifatida so'z boyligiga, til materiallari hajmiga unchalik katta talablar qo'yilmaydi. Biroq so'zlashish muloqot jarayonida shaxs sifatida to'laqonli



ishtirik etish uchun foydalanuvchi egallab olishi kerak bo'lgan so'z va umuman, til materiallari hajmi zarur minimumini belgilaydi.

Masofadan o'qitish kursining maqsadi eng umumiy ko'rinishda birinehi navbatda, o'rganilayotgan tilda muloqat og'zaki shakliga tinglash va gapirishga o'rgatish bilan belgilanadi. Bundan tashqari, kurs uzaytirilishi muloqat yozma shakllariga jiddiy e'tibor qaratish imkonini beradi. Yozma muloqat nutqiy faoliyatning o'qish va yozish (yozma nutq) kabi turlarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Masofadan o'qitish kursida ta'lim maqsadlarini kengaytirish ilgari egallagan nutqiy malakalarini faollashtirishni, kommunikativ malakani yanada yuqori darajasini shakllantirish hamda foydalanuvchilarning Grammatik bilimlarini yanada chuqurroq tizimlashtirishni ko'zda tutadi. Masofaviy ta'limning samaradorligi tinglovchilarga xotiralarida ko'proq axborotni saqlab turish, o'zlarining xabardorliklarini kengaytirish, ishlarida yaxshiroq natijalarga erishish imkoniyatini beradigan omillardan biri interfaollik omilidir.

Masofaviy ta'limda yuqorida aytilgan afzallik ya qulayliklardan tashqari ba'zi bir muammolarga duch kelishimiz mumkin. Avvalambor masofaviy ta'lim jarayoniga mos ya xos bo'lgan metod tanlab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har bir ta'lim tizimining samarali ya muvaffaqiyatli bo'lishi unda qo'llanilgan metodlarga bog'liq albatta. Shu o'rinda ta'lim metodi tushunchasiga ta'rif berib o'tsak. Ta'lim metodi bu - zamonaviy darajada o'quv tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog ya o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyat usullaridir.

Chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaol ta'lim metodini tanlash bu ayni maqsadga muvofiq ish. Chunki interfaol ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishlarini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon qilish ya ifodalash imkoniyati, maruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinfjamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish ya boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim - tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Ana shulami inobatga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki. Interfaol metod chet tillarini masofaviy o'qitish jarayonida ko'plab ijobiy natijalarga olib keladi.

Chet tillarini masofaviy o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning ishtirokini faollashtiradi, ularni maksimal natijaga



samaraga erishishga undaydi. Shuningdek, interfaollik, o'qituvchilarga kursga murakkabroq materiallarni kiritishga yordam beradi. Interfaollikni ta'lim jarayonida o'quvchilar tanishishi kerak bo'lgan muhitni imitatsiya qilish bilan qo'shib olib borish mumkin. Masalan, agar kurs kompyuter dasturidan foydalanishni nazarda tutgan bo'lsa, ekrandagi tasvirlar, ushbu dasturiy ishlashda tasvirlanishi kerak bo'lgan rasmlarga mos kelishi kerak. O'quvchilarga esa, o'rganilayotgan masalalardan biriga mos keladigan amalni bajarish vazifasini berish lozim. Bu masalaga oid murakkabroq mavzular uchun tijorat jarayonini modellashtirish va o'quvchiga undan o'tishni tavsiya etish mumkin.

Masofaviy ta'lim - interfaollikni nazarda tutgan internet texnologiyalarining maxsus vositalar bilan amalga oshiriladigan, o'qituvchi ya o'quvchi o'rtasida o'zaro ta'sir masofada amalga oshiriladigan ya o'quv jarayoniga mos bo'lgan kompyuterlarni aks ettirgan ta'lim shaklidir. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan masofaviy ta'lim mohiyatini tushunishga yagona tizim yo'q deb xulosa qilish mumkin. Biroq hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'limni masofaviy ta'limning texnologiyasi ko'rinishida keltirilgan, bu esa qonunchilik bazasi bilan mustahkamlanmagan. Chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaol metodlarni qo'llashning asosiy maqsadi o'quvchilarni faol ta'lim olish jarayoniga jalb qilish, ularga bilish hamda izlanish malaka ya ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Interfaol metodlar o'qituvchi ya o'quvchining faol munosabati, bir - birini to'liq tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi - dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'qitilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. O'qituvchi darsiga tegishli muammolarga o'quvchilarni jalb etish, ularning harakatini faollashtirish va natijada o'zlashtirishlarni ta'limlashi lozim.

Masofaviy o'qitishda interfaol metod bugungi kun nuqtai - nazaridan eng lozim bo'lgan metodga aylanmoqda. Misol uchun men mavzumavzu yuzasidan o'z fikrimni bildiraman. Unga munosabat, boshqalarning fikri menga qiziq bunday vaziyatda aynan tarmoq orqali tarmoq orqali fikr almashish, nafaqat tanishlardan balki, internet orqali tanish yoki notanish bo'lgan boshqa foydalanuvchining fikrini bilish ham qiziq. Turli millat vakili turlicha fikr bildirishi mumkin. Ana o'shanda umumiy xulosani chiqarib olish imkoniyati yuzaga keladi. Interfaol metod o'qitilayotgan mavzuning ham tushunarliroq holda yetib borishi uchun xizmat qilishi mumkin. Fikr so'ralishi shunga binoan ma'lum mavzu tanlanishi. Oddiy misol ham mana shu ko'targan mavzuimizga bildirilayotgan fikrlarda ham mujassam. Endi esa masofaviy ta'lim kamchiliklar haqida to'xtalib o'tsak;



Birinchi tiyatobi - masofali o'qish odamlar bilan muloqat qilishni chegaralaydi. Masofali ta'lim ishtirokchilarning turli hududlarda Goylarda) bo'lishi imkonligini e'tiborga olgan holda, ko'pchilik tinglovchilar an'anaviy ta'limga qaraganda, tutor - maslahatchi ya kursdoshlari tamonidan ko'proq shaxsiy e'tibor hamda ular bilan muloqat qilish imkoniyatlariga ega deb hisoblaydilar. Sifatli masofali dasturlar talabalarni guruh bo'lib bajaradigan loyihalar yop-line muhozaralar yordamida o'ziga tortadi. Bunda o'qituvchilar talabalar savollariga o'z vaqtidajavob beradilar ularning ishlarini doimiy ravishda baholaydilar, talabalar esa ko'proq o'zaro muloqot qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Keying muammodan biri bi- masofaviy ta'lim kurslarida o'qiyotgan talabalarining bilimni baholashda aniqlik bularmikan? Olishda turib istalgan shpargalkadan foydalanish mumkin. U ning uchun hech qanday cheklovlar yo'q.

Navbatdagi muammolardan biri bu - vaqt. Ta'lim olish vaqti sizning qo'lingizda bo'lmaydi. Maxsus tayinlangan vaqtlardagini siz ta'lim olish imkoniga ega bo'lasiz.

Galdagi muammo bu - siz foydalanayotgan texnologiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aytaylik texnikaning buzilib qolishi, yoki internet tezligining kam bo'lishi sizga noqulayliklar olib kelishi mumkin.

Ta'lim tizimida interfaol usulni qo'llaganda o'qituvchi o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ba'zi hollarda o'quvchining kamgapligi yoki uyatchanligi, o'z fikrini ochiq ifoda etishda tortinchoqligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Bu hol albatta ta'lim samaradorligini tushurishga xizmat qilishi mumkin. Aynan ana shunday holatlarga duch kelmaslik va bunday holatlarni bartaraf etish maqsadida aynan masofaviy ta'limda boshqa ta'lim metodlarida nisbatan ko'proq interfaol metodni tanlash va amalda qo'llash ko'zlangan maqsadga tezroq va samaraliroq yetib olishga yordam beradi. Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda, o'quvchining o'zaro faolligi oshadi, hamkor, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi. O'quv re'ja, dastur, darslik, standart me'yor, qo'llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi. Ta'lim mazmunini, matnini mustaqil mutolaa qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi. O'quvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi. Eng muhimi o'quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya'ni o'quvchining ehtiyoj, xohish, istagi qondiriladi. O'quv - biluv jarayonida o'quvchining manfaatdorligi oshadi. Bu holat o'quvchini o'quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga ko'taradi.



Endiesachettillarinimasofaviyo'qitishda interfaol usullardan foydalanishning afzalliklari haqida to'xtalsak, bunda birinchi galda o'qitish mazmuni yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'quvchi - o'qituvchi - o'quvchi orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi. o'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materiallari yaxshi esda qoladi. O'quvchida o'zaro muloqatga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi. Har bir o'quvchining o'zi mustaqil yurita olishga, ishlashga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Albatta interfaol darslarni tashkil etishning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Bular, o'quv - biluv jarayoni ko'plab vaqt sarflashni talab qiladi. Interfaol mashg'ulotlarida barcha o'quvchilarni kerakli nazorat etib borish imkoniyati bo'lavermaydi. Juda murakkab materiallar o'rganilayotganda o'quvchilar muammoni to'laqonli, aniq yecha olmaydilar, unday sharoitlarda o'qituvchining roli past bo'lishi hollari kuzatiladi. O'quv jarayoni kechayotganda kuchsiz o'quvchilarning ishtiroki tufayli kuchli o'quvchilar ham past ball yoki baho olish hollari kuzatiladi.

Xulosa shuki, bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha mushohada yuritishga, muammolarni o'zida yecha oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. Ta'lim tizimida masofali o'qitish texnologiyasi. - Jamiyatning hozirgi zamon taraqqiyotida telekommunikatsiyalar va axborot texnologiyalarining roli va ahamiyati. Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari (2005-yil 27-29-sentabr) - T.: 2005.
2. Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari va masofadan o'qitish. - T.: Iste'dod. 2006.
3. Abduqodirov A. Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. - T.: Fan. 2009.
4. Aripov M. Tillayev A. Masofaviy ta'lim. // Fizika. Matematika va informatika. 2002.
5. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003.
6. Begimqulov U.S.H. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy - nazariy asoslari. - T.: Fan. 2007.
7. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: Fan. 2000.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада чет тилларини масофавий ўқитишда интерфаол усуллардан фойдаланиш қўлайликлари ва унда юзага келадиган муаммолар ўрганиб чиқилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются преимущества и проблемы использования интерактивных методов в дистанционном обучении иностранным языкам.

SUMMARY

This article discusses the advantages and problems of using interactive methods in distance learning of foreign languages.



SHAXS TASHKILOTCHILIK QOBILIYATI MUAMMOSINING XORIJ VA O'ZBEKISTONDA ILMIY O'RGANILGANLIGI

Yakubov F. U.

Jizzax Politexnika Instituti

Tayanch so'zlar: tashkilotchilik, tashkilotchilik faoliyati, muloqot sub'ekti, kommunikativ xususiyat, analitik, aloqa kanali, natija.

Ключевые слова: организация, организационная деятельность, субъект общения, коммуникативная особенность, аналитика, коммуникативный канал, результат.

Key words: organization, organizational activity, subject of communication, communicative feature, analytical, communication channel, result.

Tashkilotchilik faoliyati ma'nosi ko'p ma'noli va ko'p mazmunli. Keng manoda u hosilalarni sezilarli doirasini qamrab oladi: davlat, sinf, partiyalar, ularning boshqaruv organlari va matbuot faoliyatidan to insonning o'zini-o'zi tashkillashtirishigacha. Tor ma'noda bu tushuncha bitta odamning faoliyatiga kiritiladi, bu esa umumguruhliy maqsadga erishish uchun odamlar guruhining birlashuvini ta'minlaydi. Tashkilotchilik faoliyati material ishlab chiqarish, madaniyat, fan va tarbiya soxasini, davlat jamoaviy hayotining hamma sohalarini kesib o'tadi. U bilan (anglab, anglamay) turli yoshdagi va ijtimoiy holatdagi odamlar shug'ullanishadi. U mehnatda va kurashda, o'qishda, sportda, o'yinda xullas, odamlar qayerda umumiy vazifalarni echishda birlashsalar o'sha joyda zarur.

Tashkilotchilik faoliyati odamlar jamoaviy munosabatlarining bir tomoni sifatida ularning jamoaviy faolligining bir shakli bo'lib hisoblanadi. Tashkillashtirilgan guruhdagi tashkilotchi doimo faol hayotiy pozitsiyani egallaydi. O'zaro faoliyatdagi odamlar guruhidan har qanday amaliy ishlari samaradorligi ko'proq tashkilotchilik faoliyati bilan belgilanadi. Uning jonli jarayonida odamlar shaxsiyati va ijtimoiy guruhlarining turlicha psixologik fenomenlari anchayin yorqin va ko'rimliroq amalga oshadi, faollashadi. Tashkilotchilik qobiliyati odamning faoliyatini bir turi sifatida «odam-odamlar guruhi», «tashkilotchi-tashkillashuvchilar guruhi» tizimida mavjud bo'ladi. Shunday qilib, tashkilotchilik faoliyati



qonuniyati boshqarish fani muammosiga kirib, uning predmetlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tashkilotchilik qobiliyatini yuqori sinf o'quvchilarida ya'ni ilk o'spirinlarda jamoatchilik ishi jarayonida shakllanishini psixologik pedagogik tomonidan o'rganishni 50-yillarning oxirida psixolog S.V.Kondratva boshlab bergan. Birmuncha keyinroq pedagogik qobiliyatlar muammosini hal qila turib, tashkilotchilik qobiliyatlariga F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmina, N.D.Levitovlar e'tibor qaratib tashkilotchilik qobiliyatini pedagogik qobiliyatlar deb atab, lekin ularning mohiyati va tuzilishini ochib bermaganlar, N.D.Levitov tashkilotchilik qobiliyatini shaxs xususiyati sifatida emas, balki faoliyatiga talab sifatida o'rgangan, ular:

- o'z harakatlarini rejalashtirish;
- oldindan ko'ra olish qobiliyati;
- loyihalash;
- vaqtni tejab ishlatish;
- nazorat -tizimli harakat qilish.

Ilk o'spirinlarning tashkilotchilik qobiliyatini rivojlanishini N.G. Levi-tov nutq, muloqotga bog'liq deydi. Gonobolin esa odamlarni to'g'ri va tez ajrata olib, o'z ortidan ergashtira olish qobiliyatiga bog'liq deydi. Tashkilotchilik qobiliyati psixologiyasini o'rganishdagi A.G.Afanaseva, M.Gvishiani va boshqalar, odamlarni boshqarish muammolari va sotsial psixologiya bo'yicha umumnazariy ishlarni olib borgan. G.M.Andreeva, N.V.Kuzmina, B.D.Parmgin, A.V.Petrovskiy, K.K.Platonov, Ye.V.Shoroxova, A.G.Kovalyovlarning metodologik tadqiqotlari katta ahamiyatga ega.

Psixolog V.D.Parigin, R.S.Nemovlarning fikricha tashkilotchi-»lider» bo'lishi kerak deydi. «Lider» kuchli tashabbuskor va tashkilotchidir deyiladi. Olimlar o'spirin tashkilotchiga qo'yiladigan bir qator talablarni sanab o'tadilar. Ular:

- aniq bir maqsad sari intiladigan;
- zaruriy o'quvchilar shaxsidagi o'zgarishlarni biladigan;
- do'stlarining ichki kechinmalari bilan o'rtoqlasha oladigan;
- ularga doimo «boshqaruvchi» emas, «do'stona» ko'z bilan qaray oladigan;
- doimo ularning muammolari va qiziqishlari bilan o'rtoqlashish kerak deb aytadi. O'tkazilgan tadqiqotlardan ko'rinadiki o'spirinlik davrida sinf jamoasining o'z jamoasiga ta'siri kuchli bo'ladi. Ularda maktab muhiti, xususan, sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqur liderlar kuchli ta'sir qiladi.



L.I.Umanskiy tashkilotchilik qobiliyati o'zaro uzviy bog'liq quyidagi qismlardan iboratligini ta'kidlaydi.

1. Tashkilotchilik tuyg'usi-(psixologik topqirlik, kashfiyotchilik, odob-nazokatda o'z ifodasini topadi.)

2. Tengdoshlariga emotsional-irodaviy ta'sir o'tkazish imkoniyati-muammolar echimiga jalb qilish, ularning kuch g'ayratini biriktirish.

3. Tashkilotchilik faoliyatiga moyillik-emotsional his-tuyg'u, faollik ko'rsatish, qat'iy qiziqish. Olimning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak na'munali tashkilotchi o'spirinda:

- ahloqiy hislatlar - jamoatchilik tashabbuskorlik, faollik, mehnat sevarlik;
- irodaviy xislatlar -matonat, mustaqillik, intizomlilik;
- emotsional hislatlar-tetiklik, o'z kuchiga ishonch, optimizim kabi hislatlarga ega bo'lishi kerak deydi .

O'zbek psixolog olimlari M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, R.Yu.Toshimov, P.S.Ergashev kabilarning ishlarida mazkur muammo ko'tarilgandir.

M.G.Davletshin «Yosh davrlari va pedagogik-psixologiya o'quv qo'llanmasida o'spirin shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarining o'rnini alohida ta'kidlab o'tadi. Bunda jamoat ishchilaridagi faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, harakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlar orqali ularda muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon bo'ladi.

E.G'oziev-«Psixologiya» o'quv qo'llanmasida o'spirin qiyofasi, xarakteristik xususiyatlari, qobiliyatlarining psixologik tavsifini keltiradi. Tashkilotchilik qobiliyatining namoyon bo'lishini olim tafakkurning mustaqilligi bilan tushuntiradi. Olimning fikricha kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyati jamoat tashkilotlari va sinf jamoasi ta'sirida tez yuzaga chiqadi. Ulardagi matonatlilik, jasurlik, kamtarinlilik, intizomlilik, mustaqillik, mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik singari fazilatlar tashkilotchilik qobiliyatining namoyon bo'lishiga olib keladi.

O'spirinlardagi balog'atga etish tuyg'usi takomillashishi natijasida o'z o'rnini belgilash va ma'naviy dunyosini ifodalash tuyg'usi kuchayadi. Bu hol ularda o'zining alohida shaxs ekanligini, o'ziga xos xislatini ko'rsatishga va hammaning nazarida bo'lishga intilishlari maylining ortishi natijasida ham ularda tashkilotchilik qobiliyatlari rivojlanadi .

V.M.Karimova - «Psixologiya» o'quv qo'llanmasida o'spirin shaxsi va tashkilotchilik qobiliyatining ortishini rahbarlik tushunchasi orqali izohlaydi:



O'spirinlardagi bir-birlariga nisbatan beradigan bahosi «men» obrazi va muloqotchanligi undagi «liderlik» va «rahbarlik» atamaları bilan tushuntiriladi.

M.Y.Otajonov - «Menejmentlik psixologiyasi» kitobida har bir tashkilotchi bo'laman degan o'spirin quyidagi vazifalarni bajara olishi kerak deydi:

- Jipslashtirish - jamoada mustakil birlashma sifatida o'zining bir butunlik xususiyatini shakllantirish.
- Faollashtirish - muvofiq mehnat usullarini qo'llash maqsadida o'rtoqlarining motivatsiya sohasiga ta'sir ko'rsatish.
- o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish - o'rtoqlarining o'z xatti-harakatlarini ichki muvofiqlashtirishdan tashkil topadi.

Psixolog P.S.Ergashev tashkilotchilik qobiliyatini muloqotchanlik qobiliyati bilan bog'lab tushuntiradi. Muallif tashkilotchi bo'lishga intilgan har qanday o'spirin tez muomalaga kirishuvchan va doimo tashabbusni o'z qo'lida ushlab turishi kerak»- deydi

Ilk o'spirinlarda tashkilotchilik qobiliyatining namoyon bo'lishida o'z-o'ziga baho va muloqotchanlik sifatlarining ta'siri borasida L.SVshgotskiy - shaxsning o'z-o'ziga nisbatan baho berishida muloqotning o'rni juda ahamiyatlidir»- deb ta'kidlaydi. Muloqot psixikaning asosi bo'lganligi uchun ham shaxsning psixikasiga va uning xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Kishi atrofdagilar bilan muloqot o'rnatishi bilan birga o'zi ham muloqotga kirishadi. Bunday vaziyatlarda shaxsning o'ziga nisbatan tanqidiy qarashlari ortadi, qolaversa tahlil kuchayib shaxsning o'z-o'ziga past baho berishi vujudga keladi. Olimning ta'kidlashicha, «shaxsdagi o'zini anglash va o'z-o'ziga baho berish tevarak-atrof bilan bo'lgan munosabatlar qurshovida shakllanib boradi»- deydi.

V.V.Davidovning tadqiqot ishiga ko'ra insonning o'z-o'ziga nisbatan baho berishini qay darajada shakllanganligini o'rganishdan avval asosiy e'tiborni shaxsdagi «qo'zg'alishni boshqara olishga» qaratish kerak deb ta'kidlaydi. Psixologning ta'kidlashicha, ta'limning yaxshi tadqiq etilishi o'quvchi yoshlarning o'z shaxsini baholashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. «O'ziga baho berish o'z faoliyati va o'zini kishilarga bo'lgan munosabatiga baho berishdir. Bu xususiyat tufayli kishining faolligi o'zgaradi, u sekin astalik bilan rivojlanadi va atrofdagilarni ehtiyoji, talabi va shaxsning o'ziga bo'lgan munosabati orqali namoyon bo'ladi».

Kim o'zini yuqori baholasa, ular o'ziga yuqori baho talab qilishadi. Ilk o'spirinlarda muloqotga bo'lgan ehtiyoj bosqichma-bosqich o'sib boradi. Avvalambor, kattalarni o'ziga qaratish, keyin esa ular bilan hamkorlikda bo'lish, yo ishni bajarinshi va ular tomonidan hurmatni his etishni hohlaydilar. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kommunikativlik tashkilotchilik sifatlarining yuzaga



chiqishida shaxsning o'z-o'ziga beradigan bahosi ham muhim ahamiyatga ega. Bunda o'ziga nisbatan beriladigan baho tashabbuskorlik, jur'atlilik tashkilotchilik, muloqotchanlik, kirishimlilik kabi holatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Akramova F.A. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. – T.: SHams-A, 2005. – 68 b.
2. Бакова И.В. К вопросу о роли общительности студентов-первокурсников для их адаптации к вузу Педагогика и психология: Материалы Международной научной конференции «Педагогика и психология как ресурс развития современного общества». В2-х т. Т.2. РГУ имени С.А. Эсенина, 2007. – С. 213-214.
3. Бакова И.В. Основные теоретические подходы к исследованию общительности личности Материалы Всероссийского съезда Российского психологического общества. 18-21 сентября 2007 г. В3-х т. Т. 1. – Москва, Ростов-на-Дону: Изд-во «Кредо». – С. 78-79.
4. Vasila Karimova. Salomatlik psixologiyasi: yohud sog'lom bo'lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 71 b.
5. Роджерс К. Взгляд на психотерапию: становление человека. - М.: Прогресс, 1994.
6. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - С.-П.: Питер, 1999.
7. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 1998. - 74 b.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада шахс ташкилотчилик қобилияти муаммосининг хориж ва Ўзбекистонда илмий жиҳатдан ўрганганлиги ҳақида сўз боради.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассказывается о научном изучении проблемы организаторских способностей личности за рубежом и в Узбекистане.

SUMMARY

This article describes the scientific study of the problem of organizational abilities of the individual abroad and in Uzbekistan.





FAN VA TEXNIKA YANGILIKLARI KECHALARINI O'TKAZISH METODIKASI

Boqiyeva R. B.

Jizzax Politehnika Instituti

Tayanch so'zlar: badiiy kecha, to'garak, texnik axborot kechalari, ko'rgazma, tanlov, do'stlik, chet tili.

Ключевые слова: творческий вечер, клуб, вечера технической информации, выставка, конкурс, дружба, иностранный язык.

Key words: literary evening, club, technical information nights, exhibition, competition, friendship, foreign language.

Chet tillarda texnik axborot kechalarini o'tkazish maktablarda fanlararo aloqani oshirishning samarali shakllaridan hisoblanadi. Fizika yoki kimyoga qiziqadigan o'quvchilar radio yoki rasm to'garagiga qatnashsalar o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan olimlar haqidagi ma'lumotlarni katta qiziqish bilan chet tilida tinglaydilar. Ular texnika sohasiga tegishli u yoki bu rivojlanish hodisalari, texnika yangiliklari haqidagi qisqa xabarlarini nemis tilida tushunganlaridan hursand bo'ladilar. Bu ularning o'zlariga bo'lgan ishonchlarini yanada mustaxkamlaydi va nemis tilida turli hil manbalardan ma'lumotlarni qo'lga kiritishdagi mustaqil ishlarida asqotadi. Kecha bo'lib o'tayotgan binoda, o'quvchilar ish olib borayotgan texnika to'garaklarida texnikaning shu sohasiga oid nemischa gazeta va jurnallardan olingan maqolalar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Ma'lumki, agarda kechada qatnashuvchilar do'stlarining nutqlarini tushunsalar, u holda chet tilida bo'ladigan har qanday kecha ishtirokchilari faol bo'lishadi. Shuning uchun "Stunde der Technik" tashkilotchilari shunga harakat qilishlari kerakki, hattoki mazmun jihatdan qiyin bo'lgan ma'lumotlar o'quvchi uchun qulay ko'rinishga keltirilishi lozim. Son jihatdan ko'p bo'lmagan notanish so'zlarni, qaysiki ularsiz xabarlarini yoritib bo'lmaydigan so'zlarni rus tiliga tarjima qilish yoki ularni doskada ko'rsatish kerak. Ma'lumotlarni yengillashtirishni osonlashtirish maqsadida nutq nima haqda borayotgan bo'lsa, ularni apparatura orqali namoyish qilish yoki plovatlar stendlari orqali imkon boricha yoritish kerak. Shu maqsadda tinglovchilar orasidan tarjimonlarni jalb qilgan maqsadga muvoffiq. Chiquvchi hohlovchilardan o'z xabarlarining ayrim qismini o'zbek tiliga tarjima qilishni so'raydi. Radio kuniga bag'ishlangan kechani tasvirlash maqsadida misol



keltiriz. Bu kecha o'quvchilarga ilmiy ommobop adbiyotlarni o'qish mobaynida shu jumladan "buyuk insonlar biografiyasi", "muhim sanalarga oid og'zaki nutq mavzulari ustida ishlash jarayonida o'quvchilar bilimlarini amalda qo'llash imkonini beradi.

Programm:

- I. Begrüßungsansprache anlässlich des Tages Rundfunkes.
- II. Kurze Berichte ueber das Leben und Wirken von A.S Popow.
 1. Die Studienjahre von A.S Popow.
 2. A.S Popow an der Militarschule in Kronstadt.
 3. Der erste Radiosender von A.S Popow.
 4. Die Entwicklung des Radios wird fortgesetzt.
- III. Wissentoto "Wer weiss mehr"
- IV. Am 2. Sonntag im Januar Mitteilung eines Schuelers.
- V. die Code der Funkamateure.
- VI. Unser Radiobestler.

Zal hamda sahna quyidagicha jihozlangan bo'lishi mumkin. Sahnaning ohirgi qismida A.S Popovning katta surati uning iki tarafida esa A.S Popovning nomidagi medallar maketi va „Faxriy radiochi“ nishoni joylashtiriladi. Zalda joylashgan stendlardan birida A.S Popovning birinchi radiopriyomnigi ikkinchisida esa zamonaviy radiopriyomnik sxemasi turishi kerak. Zalni bezash uchun radioelektronika taraqqiyotiga bag'shlangan o'quvchilartamonidan tayyorlangan xabarlar, rasmlar va plokatlardan foydalanish mumkin. Zalning ko'rinadigan qismiga quyidagi so'zlar bilan plokatar osib qo'yilishi mumkin. "Die Technikist der beste Freund und Helfer der Werktatigen, wenn sie ihnen gehort!

Boshlovchi:

Liebe Freunde! Wir beginnen heute die Veranstaltungsreihe " Stunde der Technik". In unseren Arbeitsgemeinschaften, Schulzirkeln, im Lesesaal der Internationalen Bibliothek treffen wir öfters unser Schuler, die großes Interesse für Technik und Technische Literatur zeigen.

In unseren Abend organisieren wir einen Informationsaustausch über Neuigkeiten in der Technik. Wir werden auch die Möglichkeit haben, die Arbeitsergebnisse des jüngeren Technikers in unserer Schule zu besprechen.

Einige unserer " Stunde der Technik" werden wir den wichtigsten Ereignissen aus der Geschichte der Technik widmen. So ist unsere heutige Veranstaltung dem Tage des Rundfunks gewidmet.

Zalda Radioreproduktor yoki magnitafon yoqiladi, o'quvchilar esa turli radiokanallarning musiqa sadolari ostida radio kuniga bag'ishlangan qisqa tabrikni tinglaydilar. Wer von euch kennt nicht diese Rufzeichen, die Rufzeichen unserer Funkstation? Mit diesen Rufzeichen beginnen wir unseren Arbeitstag,



indem wir unsere Empfänger einschalen. Wir hören sie mehrere Male im Laufe des Tages, wir hören sie auf, wenn der Arbeitstag zu Ende geht.

Nach diesen Rufzeichen bekommen wir die wichtigsten Nachrichten zu hören. Es gab aber, keine Rufzeichen ertönt, da die Menschen überhaupt kein Radio hatten.

Wir haben uns ans Radio, wie ans Licht und Wasser gewöhnt.

Und jedes Jahr am 7. Mai erinnern wir uns mit großer Dankbarkeit an die Menschen, die uns dieses Wunder Geschenk haben.

Dabei nennen wir vor den Namen des großen Gelehrten A.S Popow.

Sahnada A.S Popovbing surati yoriyladi va beshta o'quvchi navbatma-navbat Chiqib qisqa xabarlar orqali A.S Popovning turli davrlardagi ilmiy faoliyati bilan tanishtiradilar.

Birinchi o'quvchi: Die Studienjahre A.S Popows

A.S Popow wurde am 16. März 1859 in Kronstadt im geboren.

Im Jahre 1877 war er nach Petersburg gekommen. Hier hatte er an der Universität Mathematik, Physik, Elektrotechnik studiert. In Petersburg hatte er an der Einrichtung der ersten Straßenbeleuchtung teilgenommen. Hier hatte er der großen russischen Erfinder kennengelernt.

Popow an der Militärschule in Kronstadt. Im Jahre 1883 verlässt Popow Petersburg und nimmt eine bescheidende Stellung in einer Militärschule in Kronstadt an. Zu diesem Entschluss brachte ihn die Liebe zur Elektrotechnik. In der Militärschule wurde deren Programm in der Elektrotechnik große Aufmerksamkeit geschenkt. In gab es viele Kabinette mit verschiedenen Apparaten. Dies ermöglichte eine breite Forschungsarbeit, hier konnte er verschiedene Versuche anstellen.

Uchinchi o'quvchi: Der erste Radiosendung Popows

Im Jahre 1895 baute A.S Popow einen Empfänger, mit dem er die Signale von Blitzen aufschreiben ließ.

Popow sagte damals zu seinem Gehilfen: " Wir haben solch eine Entdeckung gemischt, deren Bedeutung jetzt kaum jemand begreifen wird. Glauben Sie mir, diese paar Wochen, die wir daran gearbeitet haben, werden zur bedeutendsten Zeit unseres Lebens.

To'rtinchi o'quvchi: Am 7. Mai 1895

Am 7. Mai 1895 demonstrierte A. Popow seine Erfindung in der Petersburg Universität. Seine Mitteilung rief riesiges Interesse der Zuhörer hervor, aber niemand verstand die große Bedeutung der Erfindung von Popow. Popow schloss seine Mitteilung mit den Worten: " Ich glaube, dass dieser Apparat in der Zukunft zur Fernübertragung von Signalen dienen wird."



Der Sekretär der Versammlung stellte ein Protokoll auf. Das Protokoll vom 7. Mai 1895 wurde zum offiziellen Dokument der Geburt des Rundfunks.

Beshinchi o'quvchi: Die Entwicklung des Radios wird fortgesetzt

Von dieser Zeit an begann die Entwicklung des Radios. Dieser Arbeit widmete A. Popow die letzten Jahre seines Lebens.

Die englischen Kapitalisten wollten ihm alle seine Patente abkaufen. Popow antwortete aber nicht.

Im Jahre 1906 starb der große Erfinder, sein Werk aber wurde fortgesetzt und leistete der Menschheit gewaltige Dienste.

In unserem Lande wurde der Rundfunk zum wichtigsten Mittel der Vorbereitung der Kultur, der Errungenschaften von Wissenschaft und Kunst.

Shular haqida „Wer weiss mehr“ kim ko'proq biladi nomli kichik viktarina o'tkaziladi.

1. Wer ist die ersten Propagandisten der Radiotechnik in unserem Land?
2. Nennt, bitte die Familiennamen der Träger A.S Popowsmedaille?
3. Wann fand die erste Übertragung eines Konzertes in unserem Lande statt?

Boshlovchi:

Unsere Arbeiter, Gelehrten, Erfinder Funkamateure arbeiten fortwährend an der weiteren Entwicklung der Radiotechnik.

O'quvchilarning guruhi bo'lib suhbat.

Birinchi o'quvchi.

Ohne radioelektronische Apparaturen waren unsere Erfolge der Eroberung des Kosmos undenkbar.

Natürlich! Flugbahnberechnung von Sputniks und Raumschiffen, ihre Geschwindigkeit und ihre Lenkung wurden möglich nur durch die Radioelektronik.

Uchinchi o'quvchi:

Und nicht nur das! Die Verbindung zu den Raumschiffen und Sputniks, das Erhalten von wissenschaftlichen Informationen wäre doch unmöglich ohne Radioelektronik.

To'rtinchi o'quvchi:

Dank der Radioelektronik hat der Mensch den Kosmos erreicht und die Tür zum Weltall geöffnet.

Uchinchi o'quvchi:

Erinnerst du dich daran, was Aleksej Leonid über die Funkverbindung gesagt hat?

Ikkinchi o'quvchi:

Gewiss! In unserer Ansprache auf dem Roten Platz sagte er: während ich außerhalb des Raumschiffes war, hatte ich mich dem Kommandeur und mit der Erde ununterbrochen Funkverbindung. Die Fernsprechanten des Raumschiffes



strahlte den ganzen Verlauf meines Ausstieges in den Weltraum auf die Erde.“Birinchi o’quvchi:

O! Unsere Radioteleskope und Radiosysteme ermöglichten es, Funkortung solcher Planeten wie Venus, Merkur, Mars und Jupiter durchzuführen!

Ich mochte einmal Signale von anderen Planeten fangen! Und auch im Weltall herumfliegen!

Shundan song o’quvchilarning radiohavaskorlik haqidagi diologo boshlanadi. Ich begreife einfach nicht, wie kann man so lange an dem Empfänger sitzen. Ist es so interessant?

Interessant? Es ist ja großartig, wenn man die Stimmen seiner Freunde im Chaos von Tönen hört.

Hast du Funkamateurfreunde?

Sogar viele. Johann in Amerika, Nikolo in Italien, und Moris in Frankreich. Und in welcher Sprache sprichst du mit deinen Freunden? Beherrschen sie die deutsche Sprache oder sprichst du mit ihnen in ihrer Muttersprache?

Auch du, Gänschen! Die Kurzwellenamateure der ganzen Welt besitzen ihre eigene Sprache- die Code der Funkamateure.

Und könnt ihr mit Hilfe dieser Code verstehen?

Sehr gut. In diesen Code gibt es etwa 250 verschiedene Wörter und Bezeichnungen. Mit Hilfe dieser Code kann man sogar Liebeserklärung machen. Nanu, ich wusste nicht, dass eure Code so interessant und bequem sind. Dann werde ich dich nicht stören und gehe fort. Glückliche Gespräche und Bekanntschaften im Äther.

Adabiyotlar:

1. Рогова Г. В., Рабинович Ф. М., Сахарова Т. Е. Методика обучения иностранным языкам в средней школе М.: Просвещение, 1991. -281 с.
2. С.Н.Савина. Внеклассная работа по иностранным языкам в средней школе. / Библиотека учителя иностранного языка. М.,1991. -160 с.
3. Л.Е.Ишрнко, Л.З.Якушина. Немецкий язык в не урока. М., 1969. - 164 с. 7. В.Н.Блохина, ЕВ.Журавлева. Spiele und kleine Theaterstücke. Игры и инсценировки. Изд.2-е. М., 1976. - 192 с.
4. В.А.Шрголева и др. In der Schule und zu Hause. В школе и дома. Книга для чтения на немецком языке в 7-8 классах. М., 1972. - 128 с.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада фан ва техника янгиликлари кечаларини ўтказиш методикаси ёритиб берилган. Шу билан бирга чет тилларда ахборот кечаларини ўтказиш йўллари кўрсатилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описывается методология вечеров новостей науки и техники. При этом указаны способы проведения информационных вечеров на иностранных языках.

SUMMARY

This article describes the methodology of science and technology news evenings. At the same time, ways of holding information evenings in foreign languages are indicated.



MASOFAVIY TA'LIM TUSHUNCHASI VA MASOFAVIY O'QITISH JARAYONINING O'ZIGA XOS TOMONLARI VA AFZALLIKLARI

Fayzullayeva A. S.

Mamarizayeva F. Z.

Jizzax Politexnika Instituti

Tayanch so'zlar: ta'lim, onlayn, offlayn, samaradorlik, ta'lim sifat, texnologiyalar, internet, kommunikatsiya, masofa, o'qitish.

Ключевые слова: образование, онлайн, оффлайн, эффективность, качество образования, технологии, интернет, общение, дистанционность, обучение.

Key words: education, online, offline, efficiency, education quality, technologies, internet, communication, distance, teaching.

Axborot texnologiyalarini rivojlanishi masofadan o'qitishni tashkil etishda yangicha yondashuvni taqozo etadi. Masofadan o'qitishni tashkil etishni hozirgi zamon modellarining asosida kommunikatsiya ya tarmoq texnologiyalari yotadi. Ushbu texnologiyalar axborotdan foydalanuvchilarga keng qamrovli yo'l ochib berish bilan birga ularni muhofaza etish muammosini keltirib chiqaradi.

Shu o'rinda masofaviy ta'lim nima? Uning afzalliklari nimalardan iborat? degan savol tug'ilishi tabiiy. Masofaviy ta'lim – bu istalgan joydan turib, qaysi vaqt bo'lishidan qat'iy nazar, shaxsiy re'ja asosida o'qish hamda bilim olish jarayonidir. Masofaviy ta'limning asosiy maqsadi - tinglovchilarning qayerda yashashidan qat'iy nazar, jahondagi ixtiyoriy ta'lim muassasasida o'qish imkoniyatini yaratish, ta'lim muassasalaridagi professor - o'qituvchilarning salohiyatlaridan foydalangan holda, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning uzluksiz ta'lim olishlarini ta'minlash va ta'limning turli shakllarini bir - biriga yaqinlashtirishdan iborat. Hammamizga ma'lumki hozirgi kunda butun dunyoda masofaviy ta'lim bo'yicha tahsil olayotgan talabalar soni ko'payib bormoqda. Masofaviy ta'lim va sirtqi ta'lim bir-biriga o'xshash.

Hozirgi kunda masofadan o'qitish dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida keng tarqalgan va qulay ta'lim shakli sifatida rivojlanmoqda. Masalan, Finlandiya-ning Oulu universitetida, Buyuk Britaniyaning London Metropoliten universitetida, Gollandiyaning Fontis universitetida, Janubiy Koreya respublikasida masofaviy o'qitish texnologiyasi keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda talabalar va boshqa soha mutaxassislarining malakasini oshirish sohasida



samarali qo'llanilib kelinmoqda. O'z-o'zidan ma'lumki, dunyoga yuz tutayotgan O'zbekiston uchun ham bu ta'lim turi uzoq kelajak emas. Shuning uchun ham O'zbekiston o'quv yurtlarida ham ba'zi bir islohotlarni amalga oshirish davr talabi.

Masofadan o'qitish yangi pedagogik texnologiyalarning bir turi bo'lib, u ko'pgina afzalliklarga ega. Jumladan, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish, olinayotgan bilimlarning tezkorligi, talabning bilim olish jarayonida erkinligi, ta'limning iqtisodiy samaradorligi, o'quv jarayonida audio-video, animatsiya, grafiklar asosida ta'lim berish natijasida o'zlashtirishning yuqori bo'lishi, bilimlar xolisona baholanishi, nazariyani amaliyot bilan taqqoslash imkoniyati, dunyoning yetuk professor-o'qituvchilari ma'ruzalaridan foydalanish kabilardan iborat.

Hozirgi vaqtda respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash, o'qitish, bilim berish, zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish maqsadida juda ko'p ijobiy ishlar amalga oshirilib bormoqda. Ularning asosiysi, masofadan o'qitish texnika va texnologiyasidir. Shu nuqtai nazardan yosh avlodni masofadan o'qitish tizimiga tayyorlash bosqichlarini quyidagi ko'rinishda amalga oshirish mumkin:

Hozirgi axborot texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda masofaviy o'qitish katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ta'limning bu turi shu paytgacha mavjud bo'lgan ta'lim turlaridan o'zining ayrim ijodiy tamonlari bilan ajralib turadi. Masofadan o'qitishning kunduzgi va boshqa ta'lim turlaridan farqli jihati shundaki, mazkur ta'lim turiga juda keng aholi ommasiga jalb qilish mumkin. Masofadan o'qitish o'zida kunduzgi va sirtqi ta'lim turlarining ijodiy xususiyatlarini mujassam etadi. Shu jihatlarga ko'ra masofadan o'qitish hozirgi kundagi istiqbolli ta'lim turlaridan biri hisoblanadi.

Masofadan o'qitish asosida ta'lim berish uchun:

Birinchidan, o'qish istagida bo'lgan aholining muayyan qismini ta'lim muassasasi joylashgan yerga yig'ish shart emas.

Ikkinchidan, tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan ortiqcha sarf - xarajat qilish zaruriyati bo'lmaydi.

Uchinchidan, bu ta'lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida masofaviy o'qitish ta'limning qulay turi sifatida kirib keladi. Masofaviy ta'lim ma'lumot olishning shunday shaklidirki unda kunduzgi va sirtqi ta'lim bilan bir qatorda ma'lumot jarayonida ta'limning kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal an'anaviy va innovatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi.

Masofaviy ta'limning tarkibiy qismlari quyidagilar:

O'qituvchi, o'quvchi va kommunikatsiya.



Masofaviy o'qitishda o'qituvchi talabaga o'quv materialini «Internet» tizimi orqali yuboriladi. Ushbu kurs bo'yicha ta'lim olishni istagan o'quvchilar web saytga murojaat qilib, nazariy bilimlarni oladilar, manashu topshiriqlarni bajaradilar va o'qituvchiga javobni elektron pochta (e-mail) orqali jo'natadilar. O'qituvchi o'quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqni tekshirib, javobini yana elektron pochta orqali o'quvchiga yuboradi. Zarur bo'lsa kerakli ko'rsatmalar beradi. O'quv jarayonida o'quvchi darslikdagi, elektron kutubxona va elektron darsliklardan, videokonferensiyalardan foydalanadi. Masofadan o'qitish bu mustaqil o'qishdir. Mustaqil o'qish davrida o'quvchida mustaqil fikrlash, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish qobiliyatlari rivojlanadi. Masofadan o'qitishda o'quvchi berilgan dasturni qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishini tugatadi va o'qitishni tugatganligi to'g'risida sertifikat oldi.

Masofaviy ta'lim bu o'qitishning insonparvar shakli bo'lib, an'anaviy, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslanadi. Bunda texnik vositalar o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra masofaviy o'qitish kommunikatsiya va axborotni qayta ishlashning yangi texnik vositalari va sirtqi ta'limning asosiy usullariga tayanishi kerak. Bu o'z navbatida masofaviy ta'lim tizimini tashkil etish to'g'risida gapirishga imkoniyat beradi. Masofaviy ta'lim tizimi apparatli, dasturli va uslubiy vositalarning murakkab kompleksi bo'lib, o'z ichiga server va ishchi stansiyalar, shaxsiy kompyuterlar, kommunikatsiya vositalari, uning tizimli va tarmoqli dasturlar ta'minotiga, lokal va markazlashgan bilim va axborot banklarini boshqaruv tizimlari, o'rgatuvchi dasturlari va shu dasturlarni yaratish uchun instrumental vositalariga ega bo'lgan audio va video texnikalarni oladi.

O'zbekiston sharoitida masofadan o'qitishni tashkil qilish katta samara beradi. Hozirgi davrda ta'limning bu turidan keng miqiyosda foydalanish lozim. Mazkur ta'lim tami joriy qilish bilan bog'liq ayrim muammolarning kelib chiqishi tabiiy. Lekin ularni imkoniyat darajasida hal qilishga erishish mumkin. Masalan, dastlabki paytda televideniya dan foydalanish katta samara berishi mumkin. Hozirgi kunda televideniya orqali ayrim fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil qilinib kelinyapti. Lekin ko'rsatuvlarning samaradorligi hali yetarli darajada emas:

Birinchidan, bu ko'rsatuvlar asosan kunduzi namoyish etiladi.

Ikkinchidan, uning metodikasini yanada takomillashtirish kerak.

Masofadan o'qitishni tashkil qilishdagi eng muhim masalalardan biri professor o'qituvchilarni tanlashdir. Mazkur ta'lim turini amalga oshirish uchun o'qituvchilar eng tajribali va tashkilotchi professor - o'qituvchilar orasidan tanlab olinishi lozim. Chunki masofaviy o'qitish boshqa ta'lim turlaridan farqli bo'lib, uning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan o'qituvchining bilimdonligi, tashkilotchilik va boshqaruvchilik xususiyatlariga bog'liqdir. Chunki masofaviy



o'qitishga jalb qilinuvchi o'qituvchi bir paytning o'zida mohir pedagog, dono maslahatchi va tajribali boshqaruvchi bo'lishi kerak. Masofaviy o'qitishni tashkil qilishning dastlabki davrida respublika aholisining demografik xususiyatlaridan kelib chiqib, tegishli viloyat yoki mintaqa markazlarida masofaviy o'qitish punktlarini yaratish kerak. Mazkur tuzilma joylarida masofaviy o'qitishni tashkil qilish bo'yicha mas'ul etib belgilanishi lozim. Keyingi bosqichlarida bir yoki turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan bir necha oliy ta'lim muassasalarida masofaviy o'qitish markazlari tashkil qilinishi mumkin.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida masofaviy o'qitish ta'limning qulay turi sifatida kirib keladi. Masofaviy ta'lim ma'lumot olishning shunday shaklidirki unda kunduzgi va sirtqi ta'lim bilan bir qatorda ma'lumot jarayonida ta'limning kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal an'anaviy va innovatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi. Masofaviy ta'lim vositasida o'quvchi uchun qulay bo'lgan joyda individual jadval asosida maxsus imkoniyatlar, telefon, elektron aloqa va boshqa ta'lim vositalari yordamida bir maqsadga qaratilgan nazorat qilish mumkin bo'lgan ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Masofaviy ta'lim ham sirtqi ta'lim bo'lib, faqat o'qituvchi bilan tinglovchi o'rtasidagi muloqat kompyuter, telekommunikatsiya qurilmalari va internet orqali amalga oshiriladi. O'quv jarayonida tinglovchi o'quv materiallarni va topshiriqlarini o'z kompyuteriga oladi, bajarilgan test va nazorat ishlarini o'qituvchiga internet yoki elektron pochta orqali yuboradi. Bundan tashqari, tinglovchi o'z o'qituvchisi va uslubiyatchisiga savollar bilan murojaat qilishi va ularga o'z vaqtida javob olishi mumkin.

Mamlakatimizda masofali ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'pchilik masofali ta'lim - bu shunchaki bizga ma'lum sirtqi ta'limning yangi shakli deb hisoblaydilar. Ma'lum darajada bu shunday: haqiqatda ham inson uyidan chiqmasdan o'qishi mumkin. Lekin bir sharti bor: buning uchun standart dastur bilan zamonaviy kompyuteri bo'lishi kerak. Ushbu dasturning mazmuni aynan masofali ta'lim va zamonaviy texnika hamda texnologiya bir-biridan ajralmasligidan iborat. Bugungi kunda talaba o'z mamlakatidan chiqmay turib, deyarli, barcha G'arb universitetlari dasturlari bo'yicha ta'lim olishi mumkin. Ta'lim siyosiy va iqtisodiy birlashish jarayonlaridan ilgarilab umumjahon va umumiy foydalaniladigan bo'lib bormoqda.

Masofaviy o'qitish an'anaviy o'qitish shakllaridan quyidagi xarakterli xususiyatlar bilan ajralib turadi. Moslanuvchanligi. Xohlagan vaqtda, xohlagan joyda va sur'atda shug'ullanish imkoniyati. Fanni egallashga ajratilgan vaqtning chegaralanmaganligi.

Modulliligi. Mustaqil fanlar kurslaridan- modullardan individual yoki guruh ehtiyojlariga javob beradigan o'quv rejalari shakllantirish.

Parallellik. Kasbiy faoliyati yoki boshqa o'quv yurtlaridagi o'qishi bilan parallel holda ta'lim olish.



Qamrab olish. Bir vaqtning o'zida o'quv axborotlarining bir qancha manbalariga (elektron kutubxonalar, axborot bazalari, bilimlar bazalari ya h.k.), o'quvchilarning ko'pchiligi murojaat qilishi. Aloqa to'rlari orqali bir-birlari va o'qituvchilar bilan muloqotda bo'lishi.

Iqtisodiyligi. O'quv xonalari, texnika vositalaridan samarali foydalanish, o'quv axborotlari mujassamlashgan va unifikatsiyalashgan holda taqdim qilish va unga multi erishish o'quv jarayonlarini tashkil etish harajatlarini kamaytirish.

Texnologiyaliligi. Ta'lim jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining erishgan yangi yutuqlaridan foydalanish insonni jahon axborotlar olamiga kirib berishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy tenglik. O'quvchining qayerda yashashidan, sog'lig'ining holati, va moddiy ta'minlanganligidan qat'i nazar, ta'lim olish imkoniyatidagi tenglik.

O'qituvchining yangi o'rni. Masofaviy ta'lim o'qituvchining o'rnini kengaytiradi va yangilaydi, ilm olish jarayonini muvofiqlashtiradi, o'qitiladigan kurslarni doimo takomillashtiradi, ijodiy faolligi va mutaxassisligi bo'yicha yangiliklar va innovatsiyalarga bo'lgan talabi mos ravishda ortib boradi.

Masofadan o'qitishning sifati ta'lim olishning kunduzgi shakli sifatida, ko'zga ko'ringan o'qituvchi kadrlar tarkibini jalb qilish va o'quv jarayonlarida eng yaxshi o'quv- uslubiy ishlar va fanlar bo'yicha nazorat testlaridan foydalanish hisobiga qolishmaydi. Ular o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlaridagi barcha pedagogik aktlar to'plamini o'z ichiga oladi. Masofadan o'qitish ta'lim jarayonida an'anaviy o'qitish vositalari bilan birga innovatsion "kompyuter texnikasi va telekommunikatsiyalarga asoslangan hamda ta'lim texnologiyasi sohasida erishilgan oxirgi yutuqlardan foydalaniladi.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. Ta'lim tizimida masofali o'qitish texnologiyasi. "Jamiyatning hozirgi zamon taraqqiyotida telekommunikatsiyalar va axborot texnologiyalarining roli va ahamiyati. Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari (2005-yil 27-29-sentabr) - T.: 2005.
2. Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari va masofadan o'qitish. - T.: Iste'dod.2006.
3. Abduqodirov A.Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. - T.: Fan.2009.
4. Aripov M. Tillayev A. Masofaviy ta'lim. // Fizika. Matematika va informatika. 2002.
5. Azizxo'jaeva.N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: 2003.
6. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy - nazariy asoslari. - T.: Fan. 2007.
7. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: Fan. 2000.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада масофавий таълим тушунчаси ва масофавий ўқитиш жараёнининг ўзига хос томонлари ва афзалликлари ҳақида сўз юритилган.

РЕЗЮМЕ

В этой статье обсуждается концепция дистанционного обучения, а также уникальные аспекты и преимущества процесса дистанционного обучения.

SUMMARY

This article discusses the concept of distance learning and the unique aspects and benefits of the distance learning process.



XORIY PSIXOLOGIYASI TADQIQOTLARIDA SHAXSNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI MUAMMOSINING ILMIY O'RGANILGANLIGI

Yakubov F. U.

Jizzax Politexnika Instituti

Tayanch so'zlar: muloqot sub'ekti, kommunikativ xususiyat, analitik, maqsad, aloqa kanali, natija, polikomponent va tizimli.

Ключевые слова: субъект общения, коммуникативное свойство, аналитический, цель, коммуникативный канал, результат, поликомпонентный и системный.

Key words: subject of communication, communicative feature, analytical, goal, communication channel, result, polycomponent and systematic.

Kommunikatsiyaning o'zaro birgalikda harakat qilish va faoliyat ko'rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlab chiqarish tarzida tushunilishi ana shu umumiy narsa avvalo kommunikatsiya vositasi sifatidagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til kommunikatsiyaga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishini ta'minlaydi. Negaki, uni bu maqsad uchun tanlangan so'zlar mohiyatiga ko'ra kodlashtirgan holda axborotni ma'lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatning kodini ochgan, ya'ni uning ma'nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o'z xulq-atvorini o'zgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi.

Axborotni boshqa kishiga yo'llayotgan kishi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (retsipient) kommunikatsiya va birgalikdagi faoliyat maqsadlariga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona sistemasidan foydalanishlari, ya'ni «bitta tilda» so'zlashishlari kerak. Agar kommunikator va retsipient kodlashtirishning turli xil sistemalarini qo'llaydigan bo'lsalar, bu holda ular o'zaro hamjihatlikka va birgalikda faoliyat borasida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. So'zlar belgilari sistemasi hayot kechirish, ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va o'zlatish vositasi sifatidagi tilni tarkib topdiradi.

So'zlar muayyan bir mohiyatga ega, ya'ni ashyoviy olamga allaqanday tarzda tegishli bo'ladi. Mohiyatlar sistemasi kishining butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi.



Kommunikator adresant	Muloqot sub'ekti sifatidagi omil namoyon bo'ladi
Resepient aderesat	Bu ma'lumot kimga uzatilmoqda
Ma'lumot	Nima uzatilmoqda
Kod	Qanday vositalar asosida
Maqsad	Nima uchun uzatilmoqda
Aloqa kanali	Ovoz, xat, efir orqali aloqa
Natija	Nimaga erishildi.

Shuningdek amerikalik siyosatshunos G.Lassuel besh unsurdan iborat bo'lgan kommunikativ jarayonning modelini taklif etadi.

- Kim (axborot kim tomonidan uzatilmoqda)
- Nima (qanday axborot uzatilmoqda)
- Qanday (axborot qanday yo'l bilan uzatilmoqda)
- Kimga (axborot kimga yo'naltirilmoqda)
- Qanchalik samarali (axborot qanchalik samarador uzatildi)

Kommunikativ jarayon aksial (bunda axborot ayrim aniq odamlarga yo'naltiriladi) yoki retial (bunda axborot bir qancha ehtimol qilinayotgan resipientlarga yo'naltiriladi) xarakterda bo'lishi mumkin.

Kommunikativ jarayonda o'zaro munosabatga kirishuvchilarni bir-birlarini tushunishlari juda muhimdir. Bunda nutqning quyidagi muhim xususiyatlari paydo bo'ladi, ya'ni mazmundorlik, tushunarliklik, ifodalilik, ta'sirchanlik ko'rsatiladi.

Shaxsning kommunikativ xususiyatlari – bu insonning muloqot sohadagi uning ijtimoiy muhiti uchun ahamiyatli bo'lgan xulq – atvor xususiyatlarning barqarortavsifidir. Muayyanshaxsboshqainsonlarbilanbirgalikdagi faoliyatning ko'pqirrali tizimida ishtirok etadi va bu muloqotida mavjud bo'ladigan xilma – xil shaxsiy uslublarning jamlanishi va mustahkamlanishini belgilab beradi.

Shuningdek muloqot subyektida uning kommunikativ imkoniyatlarini belgilab beruvchi muayyan kommunikativ potensial mavjud bo'ladi.

Shaxsning kommunikativ xususiyatlari, kommunikativ potensial shaxs tuzilmasini tashkil etuvchi komponentlar, ichki tuzilmalar bilan aloqadorlikda bo'ladi va muloqot sohasida inson xulq – atvoriga hamda umumiy tarzda shaxsning barcha komponentlariga o'z belgisini qo'yadi (ta'sir o'tkazadi).

Psixologiyada shaxsning kommunikativ xususiyatlarini o'rganish uchun aynan shaxs va muloqot muammosi borasidagi tadqiqotlar boshlang'ich baza bo'lib xizmat qiladi.



Ma'lumki, shaxs muammosini tadqiq etishga Rossiya olimlari ham, xorij olimlari ham (A.F. Lazurskiy, G. Olport, R. Kettel va h.k.) jiddiy hissa qo'shishgan.

Muloqot muammosini konseptual tarzda qayta ishlash eng avvalo muloqotga insonning psixik rivojlanishi, uning ijtimoiylashuvi va individuallashishi, shaxsiyati shakllanishi uchun muhim shart sifatida qaragan B.G. Ananev, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, V.M. Myasishev, S.L. Rubinshteyn nomlari bilan bog'liq. Muloqotni turli xil yondashuvlar nuqtai – nazaridan to'liq tahlil V.V. Rijov ishlarida amalga oshirilgan. U psixologiyada muloqotni, faoliyatni, umuman psixik hodisalari tadqiq etishining yangi tamoyili – muloqot va faoliyat birligi tamoyili paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. Yoki juda bo'lmaganda ular murakkab o'zaro aloqadorlikda. Uning fikricha, shu sababli muloqotning o'zi hamkorlik qilayotgan insonlarning ularning birgalikdagi faoliyatida, hamkorligida yaxlit tizim yaratishga yo'naltirilgan maxsus faoliyati hisoblanadi.

Umumiy tarzda shaxsning kommunikativ xususiyatlarini tadqiq etishga uch yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: analitik, polikomponent va tizimli.

Analitik yondashuv doirasida shaxsning alohida kommunikativ xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotchilar alohida kommunikativ xarakteristikalarni o'rganishda asosan kirishimlilik, empatiya va o'ziga ishonganlikka to'xtalishgan.

Kirishimlilik shaxsning muloqot muvaffaqiyatini belgilovchi zaruriy sifati hisoblanadi. Empatik kechinmalar muloqot, shaxsning o'zaro ta'siri muammolariga aloqadorlikda o'rganiladi. Bizning davrimizda empatiyani aniq ta'riflash masalasi bo'yicha alohida kelishuv mavjud emas. Ammo, Rossiya va xorij psixologlari empatiya shaxslarning o'zaro ta'sirlashishlaridagi zaruriy xususiyat ekanligini ko'p marotaba ta'kidlashgan. Shuningdek shaxsning kommunikativ xususiyatlari orasida o'ziga ishonganlik ham muhim o'rin egallaydi. Hozirgi kunga kelib ishonganlikni o'rganish va tasvirlashda butunlay farqli pozitsiyalar qayd etilgan ko'plab nashrlar mavjud. Ammo shu paytgacha ushbu fenomen mohiyati bo'yicha yagona tushuncha mavjud emas.

Kirishimlilik, empatiya, o'ziga ishonganlik bilan bir qatorda shaxsning kommunikativ qobiliyatlari ham keng tarzda o'rganilgan. Kommunikativ qobiliyatlarni o'rganish kommunikativ xususiyatlarni tadqiq etishda polikomponent yondashuvning muhim qadami bo'lgan.

B.G. Ananev, A.G. Kovalev, A.N. Leontev, V.N. Myasishev, B.M. Teplov, S.L. Rubinshteyn ishlari sharofati bilan qobiliyat muammosiga ilmiy yondashuv konteksti: uni albatta faoliyat bilan aloqadorlikda ko'rib chiqish aniqlashtirilgan.



Xorij va rus psixologiyadagi adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, "kommunikativ qobilyatlar" tushunchasi hamma tomonidan bir xil qabul qilinmagan. Rus psixologlari ham, g'arb psixologlari ham ko'p hollarda "kommunikativ kompetentlik" atamasini qo'llashadi. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish va mukammallashtirish muammosiga zamonaviy yondashuv shundan iboratki, bunda ta'limga shaxsiy harakatlar asosida o'zini rivojlantirish va o'zini mukammallashtirish sifatida qaraladi. Kommunikativ kompetentlik deganda esa boshqa insonlar bilan zaruriy aloqalarni o'rnatish va mustahkamlash qobilyati tushuniladi. Kompetentlik tarkibiga kommunikativ jarayon samarali kechishini ta'minlovchi bir qator bilim va ko'nikmalar jamlanmasi kiritiladi.

Olimlar kommunikativ kompetentlikka shaxslararo o'zaro ta'sir vaziyatining muayyan doirasida samarali kommunikativ harakatlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan ichki zahiralari tizimi sifatida qarashadi.

Kommunikativ qobilyatlar – bu shaxsning muloqotda namoyon bo'luvchi individual – psixologik xususiyatlari, shuningdek insonlar bilan muloqot samaradorligini belgilab beruvchi ko'nikma va malakalardir.

Kommunikativ qobilyatlar eng ko'p darajada ijtimoiy shartlangandir.

Kommunikativ qobilyatlar tadqiqotlarini umumlashtirgan holda startegik va taktik qobilyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Staregik qobiliyatlar. Bu qobilyatlar shaxsning kommunikativ vaziyatni tushunish, unga to'g'ri mo'ljal ola bilish va shunga mos ravishda muayyan xulq – atvor strategiyasini shakllantirish imkoniyatlarini ask ettiradi.

2. Taktik qobiliyatlar. Bu qobilyatlar shaxsning kommunikatsiyada ishtirokini ta'minlab beradi. Ularni ikki guruhga bo'lishimiz mumkin:

Birinchi guruhga muloqot jarayonida shaxsiy xususiyatlardan kommunikativ foydalanish ko'nikmasi kiradi. Bunga intellekt xususiyatlari, nutq rivojlanish xususiyatlari, xarakter, iroda, emotsional soha xususiyatlari, temperament xususiyatlari va h.k.larni kiritish mumkin.

Ikkinchi guruhga muloqot va aloqa texnikasini egallash kiradi. Biz bunga shaxs sifatlarining to'liq kompleksini kiritamiz:

- muloqotda o'z xulq – atvorini boshqarish qobilyati;
- muloqot jarayonida boshqa insonning shaxsiy xususiyatlarini tushunish va hisobga olish, boshqa shaxsini modellashtirish ko'nikmalari bilan aloqador bo'lgan, shuningdek, guruhning ijtimoiy – psixologik xarakteristikasini bilish va tushunish qobilyati va har bir guruhdagi o'rni va rolini tushunish qobilyati bilan bog'liq bo'lgan perseptiv qobilyatlar kompleksi;



- aloqa o'rnatish, uni mustahkamlash, uning darajasini o'zgartirish, unga kirish va undan chiqish, muloqotda tashabbusga egalik qilish va uni taqdim etish qobiliyati;
- psixologik munosabatlarda o'z nutqini optimal tashkil etish qobiliyati.

Shunday qilib, yuksak darajada rivojlangan, barqaror kommunikativ qobiliyatlarni kommunikativ xususiyatlar sifatida qabul qilish mumkin. Kommunikativ qobiliyatlar – bu nafaqat shaxsning kommunikativ tuzilishidagi kichik tuzilmalardan biri. Bundan tashqari kommunikativ tuzilmada unga shaxs kommunikativ xususiyatlarining xilma – xil tizimining yaxlit spektri ham kiradi.

Kommunikativ qobiliyatlar, kommunikativ kompetentlikdan tashqari psixologik adabiyotlarda ko'p hollarda “kommunikativ ko'nikma”, “muloqot malakalari” kabi tushunchalarga duch kelishimiz mumkin.

Ko'rib o'tganimizdek, psixologlar asosan alohida kommunikativ xarakteristkalar tadqiqotiga murojaat etishgan. Kommunikativ qobiliyatlarni, xarakterning kommunikativ xislatlarini, kommunikativ ko'nikmalarni tadqiq etishni kommunikativ xususiyatlarni polikomponent o'rganishga kiritishimiz mumkin.

Temperamentga bog'liq bo'lgan shaxsning kommunikativ sifatlariga insonning inson bilan verbal va noverbal o'zaro ta'sir xususiyatlari kiradi. Temperament bilan shaxsning ta'sirchanlik, emotsionallik, impulsivlik va xavotirlilik kabi xususiyatlari bog'liq. (G. Ayzenk, V. N. Voronin, L. V. Jemchugova, A. I. Ilina, A. I. Krupnov, V. D. Nebilitsin, I.P. Pavlov, K. Yung).

Xarakterning kommunikativ xislatlari – shaxsning voqe'likka munosabatida aks etuvchi va muloqotda namoyon bo'luvchi muhim xususiyatlarining o'ziga xos individual birikmasidir (R.S. Nemov). Insonlar bilan muloqotda xarakter xulq –atvor usuli, insonlarning harakat va muomalasidan ta'sirlanish usullarida namoyon bo'ladi. L.V. Jemchugova, A.I. Krupnov, V.SH. Maslennikov, V.P. YUdin tadqiqotlari natijalarini umumlashtirgan holda har qanday muloqot uchun zarur bo'lgan xarakter xislatlarining uch asosiy guruhini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) kirishimlilik - odamovilik;
- 2) xushmuomalalik, xushchaqchalik, o'ziga ishonch;
- 3) tirishqoqlik, tashabbuskorlik, rostgo'ylik.

Shaxsning irodaga bog'liq bo'lgan kommunikativ xususiyatlari. M.I. Dyachenko, T.V. Zarinova, A.G. Kovalev, V.I. Selivanov tadqiqotlari quyidagi sifatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- serg'ayratlik, qat'iyatlilik (birinchi yoki bazaviy irodaviy sifatlar);



- dadillik, jasurlik, o'ziga ishonish, o'zini tuta olish, maqsadga intiluvchanlik, ma'suliyatlilik (ikkinchi sifatlar);
- ma'suliyatlilik, intizomlilik, izchillik.

Kommunikativ funksiya bajaruvchi emotsiyalar: fikrlar, taa'ssurotlarni bo'lishish istagi, simpatiya, hurmat, yoqtirish tuyg'ulari (V.K. Vilyunas, YA. Reykovskaya, L.M. Vekker). Tipik emotsiyalar tizimi va dinamikasi insonni shaxs sifatida xarakterlaydi

Xorijda va Rossiyada shaxsning kommunikativ imkoniyatlari bo'yicha chop etilgan adabiyotlarni tahlil qilish bizga shaxsning kommunikativ xususiyatlari rivojlanishining etti asosiy bosqichini belgilash imkonini berdi:

I - bosqich – insonlarga yaqinlik, ishonchning shakllanishi, muloqotga nisbatan ehtiyojning birinchi darajasi shakllanishi (A. Vallon, M.P. Denisov, S.YU. Mesheryakova, S.S. Xarin, N.L. Figurin, R.Spitz).

II – bosqich - nutqning paydo bo'lishi (M.I. Lisina), muloqotga nisbatan ehtiyojning ikkinchi darajasi (L.I. Bojovich) va axloqiy rivojlanishning birinchi darajasi shakllanishi (A.V. Zaporozets), o'z – o'zini anglashning boshlanishi (Piaje).

III – bosqich — samimiylik, kirishimlilik, axloqiy rivojlanishning ikkinchi darajasi shakllanishi, axloqiy jihatdan o'z – o'zini anglashning davom etishi, “emotsional desentratsiya”ning namoyon bo'lishi (Piaje), eksatraversiya – intraversiya, emotsionallik va nevrotiklikning mustahkamlanishi (YA.L. Kolominskiy), mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatlilikning boshlang'ich nuqtasi sifatida “ichki pozitsiya”ning rasmiylashtirilishi (L.I. Bojovich), xarakter, samimiylik, o'ziga ishonch, muloqot uslublari shakllanishining davom etishi (G.M. Breslav).

IV – etap – kuzatilgan xulq – atvor shakllarining shaxsning namoyon bo'luvchi sifatleri shaklida mustahkamlanishi, tashabbus, iroda mustaqilligining paydo bo'lishi, muvaffaqiyatga erishish yoki omadsizlikdan qochish motivlari va ixtiyoriy boshqaruvning vujudga kelishi, kommunikativ qobiliyatlarning shakllanishi (muloqot jarayonida o'z xulq – atvorini boshqarish qobiliyati, aloqa o'rnatish va uni mustahkamlash, muloqotda tashabbusni o'z ixtiyoriga olish va mustahkamlash qobiliyati).

V - bosqich – o'zini anglashga ehtiyojning namoyon bo'lishi, o'z – o'zini mukammalshtirishga intilish (V.G. Stepanov), xarakter xislatlari va shaxslararo xulq – atvorning asosiy shakllari barqarorlashuvi, shaxslararo idrok va insonlar baholash etalonlarining paydo bo'lishi (A.A. Bodalev), tashkilotchilik qobiliyatlarning (ishga oid aloqalar o'rnatish, kelishish, majburiyatlarni o'zaro taqsimlash ko'nikmalari) shakllanishi.



VI – bosqich - yoshga oid introvertlikning vujudga kelishi, axloqiy jihatdan o'z – o'zini anglashning paydo bo'lishi, axloqning paydo bo'lishi va rivojlanishi, shaxsning axloqiy jihatdan o'z – o'zini (yo'lini) belgilab olishi (T.V. Snegireva).

VII – bosqich - murakkab ijtimoiy ustunovkalar, muloqot madaniyati shakllanishining yakunlanishi. Shaxsning asosiy kommunikativ xususiyatlarining mustahkamlanishi.

Shunday qilib, shaxsning kommunikativ xususiyatlari rivoji alohida bo'limlar shakllanishi yuz beradigan bir qancha tadrijiy bosqichlardan o'tadi. Shaxsning kommunikativ xususiyatlari ontogenetik rivojlanish mahsuli hisoblanadi. Ular tug'ma bo'lishi mumkin emas va ular har doim shaxsning rivojlanishi va tarbiyalanishi jarayonida shakllanib boradi.

Adabiyotlar:

1. Akramova F.A. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. – T.: SHams-A, 2005. – 68 b.
2. Бакова И.В. К вопросу о роли общительности студентов-первокурсников для их адаптации к вузу Педагогика и психология: Материалы Международной научной конференции «Педагогика и психология как ресурс развития современного общества». В2-х т. Т.2. РГУ имени С.А. Эсенина, 2007. – С. 213-214.
3. Бакова И.В. Основные теоретические подходы к исследованию общительности личности Материалы Всероссийского съезда Российского психологического общества. 18-21 сентября 2007 г. В3-х т. Т. 1. – Москва, Ростов-на-Дону: Изд-во «Кредо». – С. 78-79.
4. Vasila Karimova. Salomatlik psixologiyasi: yohud sog'lom bo'lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 71 b.
5. Роджерс К. Взгляд на психотерапию: становление человека. - М.: Прогресс, 1994.
6. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - С.-П.: Питер, 1999.
7. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 1998. - 74 b.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада хориж психологияси тадқиқотларида шахснинг коммуникатив хусусиятлари муаммосининг илмий ўрганилганлиги тўғрисида маълумотлар келтирилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о научном изучении проблемы коммуникативных характеристик личности в исследованиях зарубежной психологии.

SUMMARY

This article provides information about the scientific study of the problem of communicative characteristics of personality in the studies of foreign psychology.



O'QITUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

G'aniyeva A. T.

UrIU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar" kafedrası stajyor o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kreativlik, ijodiy faoliyat, amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalari, kasbiy tayyorgarlik, kreativlik, ijodiy tafakkur, ijodiy fikrlash, ijodiy qobiliyat, ijodiy muhit.

Ключевые слова: Творчество, творческая деятельность, практические навыки творческого мышления, профессиональная подготовка, креативность, творческое мышление, творческое мышление, творческая способность, творческая среда.

Key words: creativity, creative activity, practical creative thinking skills, professional training, creativity, creative thinking, creative thinking, creative ability, creative environment.

Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbga tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Hozirda O'zbekiston yoshlari kreativ (ijodiy) bo'lishga intilishadi, inson faoliyatining turli sohalarida yangi g'oyalarni yaratmoqda. Mavjud muammolarni noan'anaviy va sifatli hal qilinishi jamiyatning o'sishi, rivojlanish sur'atini tezlashtirishiga olib keladi.

Kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olamio'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy- iqtisodiy shart-sharoitlar hamda insonontogenezi - tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Kreativlik (ing. "create"- yaratish, ijodkor) - shaxs yangi g'oyalarni ishlabchiqishga tayyorgarligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Kreativlik hayotimizning istalgan sohasida namoyon bo'ladi. Bu har bir shaxsning rivojlanishida muhimdir. Usiz yangi mahsulotni yaratish, noyob martaba va orzularingizni haqiqatga aylantirishning iloji yo'q [6].

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik", "kreativ yondashuv" tushunchalarining ma'nosini tushunib olish talab etiladi.

Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui"[6] sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan



amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim"[7].Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir [5].

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, "kreativlik muammo yoki ilmiyfarazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi"[3].

O'qituvchilarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Shuningdek, o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, o'quvchilarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Kreativ fikrlash — bu qimmatli va asl g'oyalarni yaratishga olib keladigan fikrlash yo'nalishidir. Barcha insonlar ijodiy fikrlash hamda «kundalik» ijodkorlik (kundalik muammolarga nostandart tarzda yechim topish) bilan shug'ullanishlari mumkin. Ijodiy fikrlash nafaqat ijodiy asarlarni yaratish yoki san'at bilan bog'liq tasavvur etish vaziyatlarida, balki muammolarni yoki ijtimoiy masalalarni hal qilish kabi boshqa sohalarida funktsional bo'lgan vazifalarda ham qo'llanilishi mumkin.

Ta'lim sohasida olib borilgan bir qator izlanishlar orqali bilim va ko'nikmalarning hosil qilinishi ehtimolini oshiradigan o'qitish yoki o'rganishning turli usullari tadqiq etildi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlash bilim va ko'nikmalarni hosil qilishga imkon beruvchi jamoaviy muhitda birgalikda ishlash orqali samarali rivojlantirilishi mumkin. Boshqacha aytganda, maktablar bilim va ko'nikmalarni hosilqiluvchi tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatib, unda o'quvchilar yangidan-yangi g'oyalar bilan sug'orilgan ijodiy



va muntazam faoliyat turi bilan faol shugullanadi. Qachonki bilim hosil qilish jarayoni ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lgan maqsadli faoliyatga, ya'ni kundalik faoliyat turiga aylansa, oquvchiyangidan-yangi fikr-mulohazalari va mazkur fikr-mulohazalarni doimiy rivojlantirib boradigan amaliy faoliyatlar bilan jamiyat rivojiga o'z hissasini qoshadi.

Har qanday mutaxassis kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun o'quvchilik yillarida poydevor qo'yiladi. O'rta ta'lim tizimida o'qish faoliyatida bo'lgan o'quvchilar kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari uchun ularda o'quv va tarbiya jarayonlarida an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalar haqida fikr yuritishi, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi. Ko'pincha kreativlik va daho tushunchalari bir-biriga sinonim hisoblanadi. Aksariyat hollarda, bu haqiqat 2022- yil ilk marotaba Xalqaro PISA dasturida o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalari baholanadi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash iborasi o'quvchilarning tasavvurlarini ifodalash, bilim olishni rag'batlantiruvchi, original va samarali yechim topishga yonaltiruvchi g'oyalarni shakllantirish, baholash va takomillashtirishda faol ishtirok etish kompetensiyasi sifatida ta'riflangan.

Kreativ tushunchalar va yondashuvlar dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga matematika, tabiiy, falsafa, san'at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bular bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya hisoblanib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishlariga imkon beradi. Dunyo miqyosidagi tashkilotlar va jamiyatlar innovatsion g'oyalar va kreativ fikrlashga nisbatan umumiy tashabbuskorlik deb qarab, yuzaga kelayotgan murakkabliklarni yengishda innovatsion g'oyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashga e'tibor qaratmoqda.

Kreativfikrlashdata'limningasosiyrolio'quvchilarnijamiyatdamuvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarning dunyoqarashlarini shakllanishi va rivojlanishi uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi. Kreativ fikrlashni o'rgatish bugungi kun o'quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. O'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishning ahamiyati mehnat bozori talabiga ko'ra ortib bormoqda. Maktablar o'quvchilarni o'z qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga va aniqlashlariga shu bilan bir qatorda, kreativ qobiliyatlarini namoyon etishlarida muhim o'rin tutadi.[1]



O'quvchilarni o'zlari yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi ekanligini va jamiyatning rivoji uchun o'zlarining muhim hissalarini qo'shishlari mumkinligi va buni his etishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash o'quvchilarning tajribalar, hodisalar hamda vaziyatlarni yangicha va mazmunli tarzda talqin etishlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning bilim olishlariga ko'maklashadi.

Dunyoning turli mintaqalarida kreativ tushinchalar insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, tabiiy, falsafa san'at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga asos bo'ldi. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy fikrlashdan farq qiladi. Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo'lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi. Ta'limning vazifasi o'quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Bular sababli ular globallashtirish jarayonida tez o'zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan va hozirgi zamon talablariga ega moslashuvchan ishchilarni dunyoga moslashishiga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o'quvchi yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib, hali yaratilmagan sektorlarda ishlash, shu qatorda mashina bajara olmaydigan ishlarni bajarish va global muammolarni yechish qobiliyatlari rivojlanadi. Maktablarda ham o'quvchilarni kreativ fikrlashga bo'lgan ehtiyoji maktab bozori talabidan kelib chiqqan holda ortmoqda. Maktablarning jamiyat hayotidagi ahamiyati shundan iboratki: o'quvchilarni jamiyatning bir qismi ekanligini his qilgan holda, jamiyat ravnaqi uchun o'z hissalarini qo'shish va uning oldidagi burchlarini bajarish kabi tuyg'ularni ularda oshirishdir. Xalqaro tadqiqotlar esa o'quvchilarda kreativ fikrlashini oshirish orqali ularning, tajribalar, hodisalar va shu qatorda vaziyatlarni yangicha uslubda yondashishini ta'minlaydi, bilim olishiga yordam beradi. O'quvchining fikrlashi, qiziquvchanligini tezlashtirish va rag'batni oshirish uchun uning ijodkorlik imkoniyatlari shuningdek yangicha qirralarini ochib beradigan yangi uslubdagi texnologiya va o'rganish shakllari shakllantirilishi kerak. Bu kabi rivojlanish uslublari ta'lim olishi sust o'quvchilarni o'z fikrini ifodalash hamda qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Kreativ fikrlash ham boshqa qobiliyatlardak maqsadli va amaliy bo'ladi. Bazi o'qituvchilar nazarida o'quvchini kreativ fikrlashini oshirish o'quv dasturidan tashqari boshqa faoliyat turiga jalb qilishdek ko'rinadi. Aslini olganda esa, o'quvchilar mavjud hamma fanlar kesimida kreativ fikrlay olish qobiliyatlari hisobga olinadi. Kreativ fikrlashning afzal tomonlaridan yana biri o'quvchiga yotlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishiladi.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi o'qituvchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda avvalo rejalashtirilgan bir qolipdagi mashg'ulot turlaridan voz kechib, o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, ya'ni yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishiga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lishi darkor. O'quv mashg'ulotlariga yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki ularning kasbiy faoliyatini ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish quyidagi to'rt yo'nalish bo'yicha harakat qilishni talab qiladi:

1) O'qituvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyish etishi va erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

2) O'quvchilar tomonidan o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishiga rag'batlantiruvchi strategiyani joriy etish;

3) Innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammolarning yechimi)ni topishda ijodiy yondashuvning ustivorligini ta'minlash;

4) Belgilangan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni to'laqonli bajarish orqali kutiladigan natijaga erishish.

Xullas, har bir o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyish eta olishi, kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirib borishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. O'qituvchi kreativligining shakllanishi «ehtiyotlar, yo'nalishlar va "Men" kontsepsiya"laridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir. O'qituvchining kreativlik faoliyati bu avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan umumiy xulosani shakllantiradi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Jumladan, ta'lim jarayoni va ma'naviy-ma'rifiy ishlar loyihalarini tayyorlash, ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo'shqin tashkil etish va hok. Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajaa ekanligiga bog'liq bo'ladi. Pedagog kreativlik potensialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur: har bir



pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq hisoblanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun o'quvchilik yillarida poydevor qo'yiladi va izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Adabiyotlar:

1. A. Ismailov [va boshq.]. Kreativ fikrlashni baholash. Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021-yil.
2. Агабабян А. Р., Арутюнян Н. Д. К вопросу взаимосвязи креативности с личностными характеристиками // Ананьевские чтения, 2007: Материалы научно-практической конференции. СПб., 2007 С. 598–599.
3. Алейников А.Г. О креативной педагогике / А.Г. Алейников // Вестник высшей школы. - 2009 - №12. - С. 29-34.
4. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. – Казань: Изд-во КГУ, 1996 – 566 с.
5. Вишнякова Н.Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. - Мн.: Народная асвета, 2007 - 300 с.
6. Muslimov N.A. va boshqalar. "Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent. 2019
7. www.edu.uz.
8. www.pedagog.uz.
9. www.lex.uz
10. www.Ziyo.net.uz.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada, kreativ fikrlash, o'qituvchi va o'quvchilarda kreativ fikrlashini rivojlantirish va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini shakllantirishning shartlari ko'rsatilgan. Bo'lg'usi o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash va ularda shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish haqida fikr bildirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье творческое мышление, развитие творческого мышления у учителей и учащихся, показаны условия формирования творческого потенциала учащихся. Высказано мнение о профессиональной подготовке будущих учителей и развитии их личностных способностей.

SUMMARY

In this article, creative thinking, the development of creative thinking in teachers and students. The conditions for the formation of creative potential of students are shown. An opinion was expressed about the professional training of future teachers and the development of their personal abilities.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARNING KASBIY INNOVATSION KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ismoilova Sh.

*UrIU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar" kafedrası
stajor o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: innovatsiya, kompetentlik, maxsus kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, kasbiy kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik.

Ключевые слова: инновация, компетентность, специальная компетентность, личностная компетентность, технологическая компетентность, профессиональная компетентность, социальная компетентность.

Key words: innovation, competence, special competence, personal competence, technological competence, professional competence, social competence.

Kirish. Keyingi yillarda yurtimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlarni malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratilyapti. Bunda innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shu bo'yicha zarur huquqiy mexanizmlarni yaratishga ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgani muhimdir. Shular asosida, oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda attestatsiyadan o'tkazish tizimi yanada rivojlantirilmoqda, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichiga qator yangiliklar tatbiq etilayotir. Shuningdek, dissertatsiya tadqiqotlarining sifati, ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish bo'yicha zamon talablari asosida muayyan ishlar olib borilyapti.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Professor-o'qituvchilar tarkibini yuqori darajada kasbiy pedagogik mahoratga, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega mutaxassislar bilan mustahkamlash, amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni ta'lim jarayoniga keng jalb etilmoqda. Talabalarining mustaqil tayyorgarligini chuqurlashtirishni inobatga olgan holda nazariy mashg'ulotlar yanada optimallashtirildi, ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, yuristda tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv



rejasi, dastur va o'quv-metodik materiallar o'quv jarayonida qo'llanilyapti. Modul tizimi va o'qitishning innovatsion metodlarini rivojlantirish, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash, talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarni global axborot-huquqiy va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, amaliyot, stajirovka o'tish tartibini takomillashtirish, shuningdek, klinik ta'limni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv, ilmiy va boshqa adabiyotlar, shu jumladan xorijiy adabiyotlar fondini, o'qitishning texnik vositalari, shuningdek, global axborot-huquqiy va ta'lim resurslarini muntazam yangilanayotir. Yetakchi xorijiy ilmiy-ta'lim muassasalari, tahliliy, tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar, qolaversa, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatura bilan faol hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi:

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi demakdir.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy – pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy- pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, information, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Psixologik kompetensiya – o'z fani bo'yicha kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakaga egalik. Tadqiqotchilik va kreativlik – ta'lim jarayonida innovatsion muhit yaratish ko'nikmasiga egalik .

AKT kompetensiya – AKT texnologiyasi asoslarini bilish va qo'llay olish.

Innovatsion kompetensiya – o'z-o'zini tahlil qilish va baholash.



Individual rivojlantirish dasturi, pedagogning individual rivojlanish dasturi, o‘z- o‘zini rivojlantirish, pedagogning o‘z ustida ishlashi, pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichlari, o‘z-o‘zini baholash. “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin olgan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi. “Kompetentlik” tushunchasi ta‘lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma‘lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarini o‘zlashtirish.

Pedagogning o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular



Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;
- ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.

“O'qituvchining kasbiy kompetentligi” tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O'qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarni ifodalaydi.

Buning uchun u :

- Ijodiy izlanishlar jarayoning boshqarishga moyil bo'lishi;
- Ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga

Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida turli xildagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to'liq to'plamini nazarda tutish kerak bo'ladi. Bunda inson duch kelgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va yangi kompetentliklarni egallashiga bevosita ta'sir etadi.

Kompetentlikning mavjudligi inson mehnatining natijasiga qarab aniqlanadi. Har bir mutaxassisning kompetentlilik darajasi, uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo'lib, uning o'ziga xos tomonlari shuki, kompetentli mutaxassisning bilimlari tezkor va harakatchan bo'lib, ular doimo yangilanib turadi. Muammoning mazmunini tushunishning o'zi yetarli bo'lmay, uni jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, shu bilan birga, kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto'g'ri yo'llarni chiqarib tashlash, ya'ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosi ma'lum maqsadlarga bo'ysunuvchi bir qancha o'zaro aloqador va funksional komponentlarni o'z ichiga olgan tizim sifatida ifodalanishi mumkin. Bo'lg'usi o'qituvchining innovatsion tayyorligi uzluksiz ta'lim sharoitida pedagogik innovatikaning to'liq mazmun-mohiyatini egallash bo'yicha uning nazariy, amaliy va psixologik-fiziologik saviyasidir.

Adabiyotlar:

1. T. G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Tafakkur nashryoti 2011
2. J. Yo'ldashev, S.Usmonov "Pedagogik texnologiya asoslari" T – 2004
3. Abdukarimov H., Suvonov O. Umumiy pedagogika: Texnologiya va amaliyot. O'quv-metodik qo'llanma. T., 2012 y., 120 b.
4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'z MU. 2003.- 66 b.
5. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., "Moliya", 2003y., 172 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion g'oyalardan foydalanish imkoniyatlari haqida ma'lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о возможностях использования инновационных идей в формировании профессиональной компетентности будущих педагогов.

SUMMARY

This article provides information about the possibilities of using innovative ideas in the formation of professional competence of future teachers.





КАСБИЙ ТАЪЛИМ (СУВ ХЎЖАЛИГИ ВА МЕЛИОРАЦИЯ) ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ АСОСИДА КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТ - ШАРОИТЛАРИ

Inoyatov I. Sh.

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurislarni boshqarish
instituti sirtqi bo'lim boshlig'i*

Таянч сўзлар: инновацион, электрон ресурс, анимация, технологиялар, дастурий маҳсулот, касбий фаолият, трансфер, лойиҳалаш, конструкторлик.

Ключевые слова: программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

Key words: software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

Бугунги кунда эркин шахсни шакллантириш муаммоси таълим муассасаларида ўқув-тарбиявий ишларни замонавий педагогик технологияга ўтказишни тақозо этади. Бу жараён осон кечмайди, чунки ихтиёрий қуриладиган ва жорий этиладиган ўқитиш тизимини қатъиян илмий асосланган педагогик тизимга айлантириш керак. В.П.Беспальконинг таърифига кўра «педагогик тизим маълум шахс сифатларини шакллантиришга тартибли, аниқ мақсадни кўзлаб ва олдиндан ўйлаб педагогик таъсир этишни вужудга келтириш учун зарур бўлган ўзаро боғлиқ воситалар, усуллар ва жараёнлар йиғиндисидир». Ҳар бир жамиятда шахсни шакллантириш мақсади белгилаб олинади ва унга мос равишда педагогик тизим мавжуд бўлиши керак. Агар мақсад ўзгарса мавжуд тизим ҳам ўзгариши муқаррардир.

Ҳозирда мамлакатимизда мутахассисларнинг илмий салоҳиятини бирлаштиришга имкониятлар етарли даражада, чунки назария ва амалиёт бирлигининг таъминланиши таълим технологиясининг асл моҳиятини аниқлашга йўл очади. Педагогик технология бу соҳадаги назарий ва амалий изланишларни бирлаштириш доирасидаги фаолиятни акс эттиради. Эндиликда таълим-тарбиянинг мақсади бутунлай янгиланади, унга мос ҳолда мазмун ҳам, педагогик жараён ҳам янгиланиши билан инсон



фаолияти чегараси ниҳоятда кенгайиб бораяпти, аудиторияга ўқитиш имкониятлари катта бўлган янги технологиялар (саноат, электрон, ахборот) кириб келмокда. Олий ўқув юртларида бўлажак мутахассисларнинг касбий, илмийтехникавий ва ижодкорлик қобилиятларини ўстириш – ҳар қандай тур, босқич ёки даражадаги таълимнинг асосий вазифаларидан биридир. Зотан, бугунги кун ёшлари техника ва технология, иқтисодиёт асослари борасидаги билимлардан хабардор бўлса-ю, улардан фойдаланиш кўникмаларига эга бўлмаса, улар кўзлаган мақсадга эриша олмайди. Ўзлаштирилган билимларни амалиётда қўллаш йўллари ва воситаларини билишгина ишлаб чиқариш жараёнларини такомиллаштириш, янги техника, меҳнат қуроллари ва янги технологиялар яратиш имконини беради. Кенг қўламли ва мустаҳкам билим, кўникма, малака, қизиқувчанлик, ташаббускорлик, муаммоларни мустақил ҳал этишда аниқ мақсадга интилиш ва шахсий фаолиятга нисбатан талабчанлик бўлажак мутахассислар ижодкорлик қобилиятларини шаклланишининг заминидир. Бўлажак мутахассислар ижодкорлик қобилиятини шакллантиришнинг муҳим шарти бу – фаолиятдир. Демак, кадрларнинг асосий вазифаси ушбу фаолиятни ташкил этиш шакл, метод, усул, восита ва йўналишларини белгилаб берувчи зарур ахборотлар билан таъминлаш ҳисобланади. Шу сабабли ахборот таъминотини педагогик жиҳатдан бошқариш, уларнинг илғор техника ва технология ютуқлари билан бойитилганлигини ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир. Илмий-техник тараққиёт ва ижодкорликка эришиш жараёнини педагогик жиҳатдан бошқаришнинг предмети инсон омили бўлиб, у ўзига хос таълимтарбия ишлари ва уни бошқариш, ижодий масалаларни ечиш методикаси ва алгоритминини ўрганишни кўзда тутди. Бўлажак мутахассислар илмий-техник ижодкорлик фаолиятини ташкил этиш, тайёрлаш жараёнига нисбатан педагогик ёндашув тизими шахс ижодкорлиги ва яратувчанлигини бошқаришнинг бош масалаларидан бири ҳисобланади ва у ўз ичига зарурий ахборотларни йиғиш, таҳлил қилиш, уни қайта ишлаш, мақсадни аниқлаш, мақсадга эришиш режасини ишлаб чиқиш, режа бўйича ижодкорлик ишларини ташкил қилиш, унинг амалга ошишини назорат қилиш, ушбу тизим фаолиятини тартибли олиб бориш ва махсус ечимлар қабул қилиш каби босқичларни олади. Шундай қилиб, таълим технологияси бўлажак мутахассисларда ижодий қобилиятни шакллантиришга имкон берувчи ахборотлар йиғиш ҳамда улардан машғулот жараёнида фойдаланиш йўлида маълум имкониятларни яратади. Ушбу маълумотлар эса фан асосларининг ахборот таъминоти мазмуни ва ижодкорлик методларини бошқариш имкониятларини белгилайди. Иқтисодчи мутахассисларнинг



касбий маҳоратини шакллантиришда таълим технологияларидан фойдаланиш, ижодий фаолиятга тайёрлаш жараёнининг самараси кўп жиҳатдан унинг ахборот таъминоти педагогик жиҳатдан бошқариш йўналишларининг тизимли ва узлуксиз бўлишини тақозо этади. Таълим - педагогик жараённинг муҳим таркиби бўлиб, ўқувчи - талаба билан ўқитувчининг шахсга йўналтирилган ўзаро муносабатлари ҳисобланади: Ижтимоий билимга тенг бўлган педагогик технологияларнинг ташкил топишида фаннинг роли ортиб бормоқда. Замонавий педагогик технологияларнинг психологик - педагогик нуқтаи назардан такомиллашувининг асосий йўналишлари қуйидагилар билан ифодаланади: ўқувчи - талабанинг ёдлашдан эслаб қолиш функциясига ўтиши, яъни ўзлаштирилганини ишлатиш имконини берувчи ақлий ривожланиш жараёнига ўтиши; билимнинг ассоциатив статистик моделидан ақлий ҳаракатнинг динамик таркибий тизимларига ўтиш; ўртача ўқувчи-талабага йўналтирилганликдан ўқитишнинг табақалашган ва индивидуаллаштирилган дастурларига ўтиш; ўқувчи-талабанинг ташқи мотивациясидан ички маънавий иродали тартибга ўтиш. Таълимда замонавий дидактика ва таълим таркибларининг самарадорлигини ошириш, янги ғоя ва технологияларнинг илмий ишлаб чиқилиши ва амалий асосланишига ўтилмоқда. Педагогик технологиянинг ўзига хос томони шундан иборатки, унда ўқув мақсадларига сўзсиз эришиш ўқув жараёнида лойиҳалаштирилади ва амалга оширилади. Маълумки, замонавий педагогик технологиянинг ДТС талаблари жиҳатидан асосий сифат кўрсаткичлари қуйидагилар ҳисобланади: Давлат таълим стандартида белгиланган таълим даражасига эришишнинг таъминланиши. Мўлжалланган таълим натижасига эришиш самарадорлигининг таъминланиши. Ўқувчи вақтининг самарадорлигини ошириш, педагогик куч-ғайрат ва таълимнинг дидактик воситалари “тежамлиги” ва оптималлигини таъминлаш. Замонавий педагогик технологияларни, унинг сифат кўрсаткичларини оптимал амалга оширишга таяниб, мақсад сари йўналтирилган ҳолда ишлаб чиқиш, методик тизим, яъни яхлит таълим жараёни умумий тузилишининг узвий қисми ўқув жараёнини ташкил этиш, ўқувчи фаолиятининг шакллари, ўқитувчининг касбий-педагогик маҳорати, таълим жараёнини бошқариш, унга ташҳис қўйиш, ислоҳ қилиш кераклигини шарт қилиб қўяди. Дарс жараёнига инновацион ёндошган ҳолда ўқитувчи – талаба позицияларини ўзгартириш яъни ўқитувчининг мутлақ ҳокимлигидан воз кечиш, талабанинг мустақил фикрлашига имкон бериш, уни ҳар бир мавзу юзасидан бериладиган маълумотларни ўзлаштириш, қиёслаш, таҳлил қилиш ва татбиқ этиш даражасига етказишга қаратилган усулларни ишлаб



чиқиш кун талабига айланган. Бунинг эса замонавий технологияларсиз тасаввур қила олмаймиз.

Ҳозирги даврда ишлаб чиқаришда техника ва технологияларнинг янгиланаётганлиги, илм ва фан жадал тараққиёти мутахассис кадрлардан ўз билимларини мустақил ҳамда мунтазам равишда чуқурлаштириб, янгилаб, тўлдириб ва кенгайтириб боришни талаб этади. Педагогик тажрибалар таҳлили шуни кўрсатадики ўқув-тарбия жараёнини мақбуллаштириш, жадаллаштириш фақат таълим мазмунини такомиллаштириш, ўқитишнинг ҳар хил усуллари ва шакллари билан боғлиқгина бўлиб қолмай, балки фанларни ўқитишда қўлланиладиган ўқитишнинг дидактик воситалари билан ўқув муассасасининг қанчалик таъминланганлигига билан ҳам боғлиқ муаммодир. Охирги йилларда, ўқув муассасалари ҳар хил техникавий ўқитиш воситалари билан жиҳозланмоқда. Улар учун хилма-хил экранли товушли аппаратлар, диографопроекторлар, телевизион қурилмалар, видеомагнитофонлар, электрон ҳисоблаш қурилмалари, билимларни назорат қилиш учун дастурлаштирилган қурилмалар, тренажёрлар, компьютерлар медиа аппаратуралар ва бошқалар ишлаб чиқилмоқда. Аммо, талабаларнинг инглиз тили бўйича билими, кўникмаси ва малакасини шакллантириш ва ўқув машғулотларини ташкил қилиш, ўзлаштиришлар ўқув муассасасидаги ўқитишнинг дидактик воситалари мажмуаси сони, турига боғлиқ бўлмай балки уларни ишлатиш методикасига кўп жиҳатдан боғлиқлиги амалиётда тасдиқланган. Чунки дастурдаги мавзуларни ўзлаштириш қанчалик ушбу мавзу учун зарур бўлган ўқитиш воситаларининг имкониятларини, функцияларини билиш ва улардан тўғри фойдаланишга боғлиқдир. Бунинг учун ўқитувчи ўқитиш воситаларининг имкониятларини яхши билиши зарур. Бу каби шароитлар талабаларнинг ишлаб чиқариш ва касбий фаолиятларига тайёрланишларида яхши имконият бўлади. Ўқитишнинг дидактик воситалари нима? Дидактик воситалар-ўқув муассасасининг материал - техник таъминланишининг таркибий қисми бўлиб, талабаларда зарурий билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш, уларнинг таълимий билиш, ўрганиш, илғаш фаолиятини бошқариш, баркамол ривожлантириш, тарбиялаш учун ўқув-тарбиявий жараёнида фойдаланиладиган материаллар тизимидир. Дидактик воситалар ўқув маълумотини (ахборотли) узатиш учун, ўқитиш жараёнини бошқариш, назорат қилиш ҳамда таълим мазмунини ўргатувчи ва ўрганувчи фаолиятида муҳим ўринга эга бўлиб, уларни ўз ўрнида ишлатишни талаб қилади. Дидактик воситаларни инглиз тилини ўқиш жараёнида асосли қўллаш учун авваламбор уларнинг турларни, функционал имкониятлари-



ни билиш керак. Шунинг учун ҳам ҳар битта ўқитиш воситасининг функционал (хизмат вазифаси) нимадан иборат эканлиги ҳақида тушунчага эга бўлмоқ керак. Ўқитиш воситалари классификацияси. Ўқитиш воситалари моддий ва идеал объектларга бўлиниб, улар таълим жараёнида ахборотларни берувчи, етказувчи узатузчи сифатида қўлланилади ва талаба ҳамда ўқитувчининг (педагогининг) фаолият қуроли сифатида фойдаланилади. Ўқитиш воситалари хилма - хил бўлиб, унинг асосига қўйилган белгиларига қараб қуйдагича таснифланиши мумкин; Объектлар таркиби бўйича моддий (хона, жиҳозлар. мебель, компьютерлар, дарс жадвали ҳамда идеал (беками - кўст) -сонли моделлар, ҳаёлий тажрибалар, образли кўриниш, олам модели ва бошқалар;) Манба кўриниши бўйича - сунъий (приборлар, расмлар, дарсликлар) ва табиий (натурал объектлар, препаратлар, гебарийлар); Мураккаблиги бўйича - оддий (намуналар, моделлар, хариталар) ва мураккаб (видеомагнитофонлар. компьютерлар сети); Фойдаланиши бўйича динамикли (видео) ва статистик (кодопозитивлар); Тузулиш хусусиятига қараб - текис (карталар), ҳажмли, (Макетлар), аралаш (ер модели), виртуалли (мультимедия дастурлари); Таъсир этиши характерига қараб - визуаль (кўринишли) -диаграммалар демонстрация приборлари, аудиоальбом, магнитофонлар, радио) овозли кўринишли (телевизорлар, видеофильмлар); Ахборотларни ташиши ёки бериши бўйича - қоғозли (дарсликлар картотекалар), магнит оптимли (фильмлар), электронли (компьютер дастурлари), лазерли (CD - ROM); Таълим мазмуни бўйича - дарс даражасидаги ўқитиш воситалари (матнлар ва бошқалар) фан даражасидаги (дарсликлар) ўқитиш жараёни даражасида (ўқув кабинетлари); Технологик тараққиётга нисбатан бўйича-анъанавий (кўргазмалар қўлланамалар музейлар, библиотекалар), ҳозирги даврда қўллаб ишлатиладиган (ахборот воситалари, ўқитишининг мультимедияли ўқитиш воситалари, компьютерлар, веб-сайтлар, локаль ва глобал компьютерлар сетлари ва бошқалар. Таълим жамиятининг ижтимоий – иқтисодий, маданий тараққиётида ҳал қилувчи аҳамиятига эга. Айниқса, ХХІ асрда таълимга бўлган талаб мисли қурилмаган даражада ўсиб бормоқда. Ёш авлоднинг янги билимларни, ғоя ва қўникмаларини эгаллашида, ижтимоий, маданий ҳамда иқтисодий тараққий этишда таълим ҳал қилувчи омил бўлмоқда. Мутахассисларнинг таъкидлашича, ХХІ аср таълим олишнинг ўзига хос даври бўлиши кутилмоқда, чунки эндиликда таълимнинг барча турлари ахборотлар оқими шароити фаолиятида бўлади.

Замонавий таълим жараёнида илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш ҳамда самарали амалий натижаларга эришиш жаҳон интеллектуал са-



лоҳиятида рақобатга кириша олиш замонавий ахборот технологияларидан фойдалана олиш даражасига боғлиқ, бу албатта касбий фаолиятга тайёргарликни тақозо этади. Ўқув – билув жараёнининг такомиллашуви ҳар бир талабанинг ўқув материални ўзлаштиришида маълум қулайликларни яратади. Талаба ўқув материални ўзлаштириш жараёнида ўз олдига қўйган мақсадларга эришиш учун вужудга келадиган муаммоларни ҳал этиш зарур бу ҳолат педагогик шарт – шароитларга ҳам боғлиқдир.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон республикаси Фармони “ Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси “2019 йил 8 октябрь, ПФ-5847-сон .
2. Movlonov M. “The role of subjects in teaching future engineers to solve problems related to production practice” ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 11, Issue 4, April 2021. ISSN 2249-7137.P.158-161 (Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492)
3. Абдуқодиров А.А., Турсунов С.Қ. Таълимда ахборот технологиялари. Дарслик. Т.: “Адабиёт учкунлари”, 2019 й
4. Байденко В.И. «Болонский процесс: результаты обучения и компетентностный подход. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2009. – С. 482-492.
5. Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. -М.: «Народное образование», 2007. -№ 2. - С.54-55.
6. Пригожин И. Введение в термодинамику необратимых процессов. — Ижевск: НИЦ «Регуляторная и хаотическая динамика», 2001. — с. 160.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақоладаги педагогик шароитлар-педагогик омиллар пайдо бўладиган муҳит бу ҳолатлардир. Педагогик шароитлар талабини ўқув жараёнида касбий ва ижодий фикрлаш даражасига еришишни таъминлайдиган чора-тадбирлар мажмуи сифатида кўриб чиқиш мумкин бўлади.

РЕЗЮМЕ

Педагогические условия в этой статье - среда, в которой возникают педагогические факторы, являются этими ситуациями. Можно будет рассматривать требование педагогических условий как совокупность мер, обеспечивающих достижение уровня профессионального и творческого мышления в образовательном процессе.

SUMMARY

The pedagogical conditions in this article - the environment in which pedagogical factors arise are these situations. It will be possible to consider the requirement of pedagogical conditions as a set of measures that ensure the achievement of a level of professional and creative thinking in the educational process.



КАСБИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТЕМИР ЙЎЛ МУҲАНДИСЛИГИ ЙЎНАЛИШ ТАЛАБАЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ

Джалилов Х. Х.

*Ўзбекистон темир йўллари» АЖ ТТЙТ қошидаги МТМ да
катта ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: педагогик, психологик, анимация, дидактик, кластер, касбий фаолият, технологиялар, лойиҳалаш, конструкторлик.

Ключевые слова: педагогический, психологический, анимационный, дидактический, кластер, профессиональная деятельность, технология, дизайн, конструирование.

Key words: pedagogical, psychological, animation, didactic, cluster, professional activity, technology, design, construction.

Таълим ва ахборот маконида таълим муассасалари ва корхоналар фаолиятининг кесишиши мавжуд бўлиб, бунинг натижасида таълим кластерининг барча иштирокчилари ва субъектларининг ўзаро таъсири бир чизиққа жойлаша бошлайди.

Бундай макон кластерда ягона касбий йўналиш муҳитининг пайдо бўлишига ёрдам беради, бу эса ўқувчиларда касбий ва шахсий ўзини ўзи англаш қадриятларини шакллантириш имконини беради. Бундай муҳит тизимли, узлуксиз ва интеграл тавсифга эга бўлиб, ўқувчиларда ўзлари олган касб ҳақида тўлиқ тасаввур ҳосил қилиш имконини беради, бу эса шахснинг касбий мотивацияси сифатига ижобий таъсир қилади. Бу таълим кластерида таълим жараёнининг мазмуни, усуллари ва ташкилий шакллари тизимини ишлаб чиқиш мақсадларига изчил эришиш имконини беради. Касбга йўналтириш муҳитининг яхлитлиги туфайли турли хил билим манбалари ва воситаларининг таъсирига эришилади, билим элементлари маълум бир кетма-кетликда танланади ва тақсимланади.

Ушбу шартнинг натижаси ўқувчининг кейинги таълим ва ҳаёт йўлини шакллантириш учун таълим кластерининг мақсадли фаолиятини белгилайди.

Иккинчи шарт - таълим кластерининг ривожланишини мониторинг қилиш. У, кўпгина тизимлар сингари, динамизм хусусияти билан ажралиб туради, шунинг учун у ўз фаолияти жараёнида бир қатор босқичларни (кластер шаклланиши, ривожланиши, барқарорлик босқичлари, таназзул ва



ўзгаришлар) босиб ўтади. Кластер ҳолатини доимий равишда баҳолаш кластер фаолияти самарадорлигини оширадиган меъёр ва қоидаларни танлаш учун у амалга ошириладиган босқични аниқлаш имконини беради.

Шу мақсадда, таълим кластери фаолиятининг ҳар бир босқичининг характеристикалари мажмуасининг ўзига хослигини ҳисобга олган ҳолда, амалга ошириш учун қуйидаги чора-тадбирлар мажмуаси зарур бўлади:

- кластерни шакллантириш ва ривожлантириш босқичида ўзаро муносабатларни мустаҳкамлаш учун таълим кластери субъектлари томонидан қўшма тадбирлар ўтказиш, чунки бу босқичда уларнинг ҳаракатларида парчаланишлар намоён бўлади;
- барқарорлик ва парчаланиш босқичида кластер ҳаддан ташқари мураккаблик ва мослашувчанликни йўқотиш ҳавфига дуч келади, битирувчилар меҳнат бозори талабларига жавоб бермайди, шунинг учун яратилган таълим майдонини янгилашнинг муқобил усуллари излаш муҳим;
- трансформация босқичи кластернинг янги аъзоларини излашга йўналтирилган, уни ривожлантиришнинг энг эҳтимолий йўллари белгиловчи тадбирлар билан бирга бўлиши керак.

Ушбу шартнинг амалга оширилиши таълим кластери каби мураккаб тизим объектини ташкил этиш ва бошқариш самарадорлигини ошириш имконини беради, бу унинг фаолияти натижасига - кўрсатиладиган таълим хизматларига ижобий таъсир кўрсатади.

Навбатдаги шарт таълим кластери субъектлари ўртасидаги тармоқ ўзаро алоқасини ташкил этишдир. Шу билан бирга, тармоқ ўзаро таъсири деганда кластер субъектларининг ҳар бирининг турли хил имкониятларини интеграциялашган ҳолда ташкил этиш ва мазмунига умумий ёндашувлар билан ягона таълим муҳитини яратиш мумкин бўлган фаолият усули тушунилади [4].

Бундай шартни амалга ошириш туфайли унда иштирок этувчи барча субъектлар учун умумий ўзаро таъсир майдони яратилади: уларнинг ҳар бири ташкилот фаолияти билан боғлиқ ҳар қандай маълумот билан танишиш имкониятига эга. Шу билан бирга, ўзаро таъсир иштирокчилари таълим кластерининг умумий мақсади ва қадриятларини, тармоқ ўзаро таъсири ва уни бошқаришга маъно берадиган бундай ўзаро таъсирнинг истикболларини тушунади. Таълим кластери тузилмасининг мослашувчанлиги унда мавжуд бўлган тармоқ ўзаро таъсири билан бевосита таъминланади ва шу билан бирга, яратилган алоқалар сони босқичма-босқич шакллантирилган тармоқ касбий йўналтириш тузилмаси фаолиятининг сифатини таъминлайди.



Шунингдек, таълим кластери доирасида тенг ҳуқуқли шерикларнинг тармок ўзаро ҳамкорлиги нафақат юқори малакали кадрларни, балки турли касбий соҳалар мутахассисларининг яқин ҳамкорлиги орқали ривожланган шахсни тарбиялаш имконини беради.

Тўртинчи шарт - таълим кластерининг субъектларини бир-бирига боғлиқ ўзаро таъсирни таъминлаш

Ушбу шартга риоя қилиш таълим кластери тузилишида мослашувчанликка олиб келади ва натижада уни ташқи омиллар таъсирига чидамли қилади. Кластер аъзоларининг ўзаро таъсири нафақат ташкилий (кадрлар, молиявий, моддий-техникавий) масалаларни ҳал қилишда, балки ўқув жараёнида, хусусан, ўқувларнинг илмий-тадқиқот фаолиятида ҳам намоён бўлади.

Психологик-педагогик шароитлар гуруҳи қуйидаги асосий шартлар орқали ифодаланади

Кўриб чиқиладиган гуруҳда биринчи бўлиб ўқувчиларнинг маълум бир касбни эгаллаши учун ижобий мотивацияни таъминлаш. Мотивацияни ҳаракатга туртки, инсонга ўз ҳуқ-атворини ўзи ҳақидаги онгли ва онгсиз ғоялар тизими асосида қуриш имконини берувчи жараёнлар тизими сифатида қараш мумкин. Шу билан бирга, салбий мотивация муваффақиятга тўсқинлик қилади, фаолият натижаларини пасайтиради, ўқувчи шахсига салбий таъсир қилади, ижобий мотивация эса муваффақиятга, самарали фаолиятга ёрдам беради. Муайян касбни эгаллаш учун ижобий мотивацияни шакллантириш учун ўқитувчи:

- ҳар бир ўқувчини ўзига хос шахс деб билиш, уни кадрлаш, қўллаб-қувватлаш ва ишониш;
- муваффақиятга эришиш, қўллаб-қувватлаш ва дўстона муносабатда бўлишдан иборат бўлган шахс учун қулай шарт-шароитларни яратиш ва қўллаб-қувватлаш;
- бўлажак мутахассисларни ташкил этилган фаолият орқали ўз-ўзини англаш учун шароит яратиш.

Психологик-педагогик гуруҳнинг иккинчи шarti - улар билан ишлашнинг фаол шакллари қўллаш орқали ўқувчилар фаолиятини фаоллаштириш. Ихтисослаштирилган таълимдаги ўқув ва илмий-тадқиқот фаолияти юқори синф ўқувчиларининг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш ва ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ҳамкорликдаги ҳамкорлик фаолиятини ташкил этиш имкониятини беради. Ўқувчилар томонидан тадқиқот фаолиятини амалга ошириш имконияти уларнинг аста-секин шахсий ўсишига ёрдам беради, бунда ўрганиш, ўқув фаолиятини режалаштириш учун когнитив мотивация мавжуд бўлади.



Тадқиқот фаолияти жараёнида ўқувчини касбий тайёргарлигини ривожлантириш муҳокама, семинар, ролли ўйин, экскурсия каби фаол иш шакллари орқали амалга оширилади. Улар когнитив қизиқишнинг ортишига, ўқув мотивациясининг ошишига олиб келади, бажарилган ишда мустақиллик ва амалий тажрибани ўзлаштириш улушини оширишга ёрдам беради ва ўқувчиларнинг фаоллигини оширади. Муайян касблар бўйича мутахассисларни тайёрлашда фаол иш шаклларида фойдаланиш уларнинг салоҳиятини юзага чиқаришга ёрдам беради: ўқувчилар экспериментга тайёргарлик кўрадилар (режа тузиш, мавзу бўйича билимларни тўлдириш), ўз фикрини айтишдан қўрқмайди, муҳокама қилади, ўрганади, ностандарт вазифаларни ҳал қилади. Ўзларини ҳақиқатга яқин вазиятда топиб, ўқувчилар мақсадга эришишга қаратилган ҳаракатлар режасини тузадилар ва фан соҳасидаги билимларни бошқарадилар. Бу уларнинг ижтимоийлашуви ва жамиятда ўз ўрнини топишига ёрдам беради.

Дидактик шартлар гуруҳида биз учта асосий шартни ажратамиз.

Биринчи шарт – таълим кластерида ўқувчиларнинг фан бўйича юқори даражада тайёрланишини таъминлаш. Таълим кластери доирасида ушбу шартнинг бажарилиши касбий билимларга эга бўлган мутахассисларнинг яқин ўзаро ҳамкорлиги туфайли амалга ошади. Шундай қилиб, мактабда ўқитувчи фан бўйича асосий билимларни беради, ОТМ ўқитувчиси кенгайтирадиган ва чуқурлаштирадиган пойдевор яратади, шу жумладан ўқувчиларда экспериментал кўникма ва қобилиятларни ривожлантиришга қаратилган усуллардан фаол фойдаланилади. Иўлаб чиқариш жараёнида ўқитувчилар таълим муассасаларида ўқувчиларнинг эгаллаган билимларини амалий билим, кўникма ва малакалар билан тўлдиради. Ушбу ёндашув чуқур тизимли билимга эга битирувчини тайёрлашга имкон беради.

Бу гуруҳнинг иккинчи шarti ўқувчиларнинг касбий тайёргарлигига қаратилган интеграл амалиётга йўналтирилган технологиядан фойдаланишдир. Ушбу технология режалаштирилган натижага эришиш учун ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўзаро боғлиқ фаолиятини ташкил этиш ва амалга оширишнинг энг оқилона усули ҳисобланади.

Ўқувчиларнинг касбий тайёргарлигига эътибор аудитория ва мустақил ишларни мақбул уйғунлаштириш орқали яратилса, ўқитувчи билан ҳамкорликда олиб бориладиган илмий-тадқиқот фаолияти орқали юқори синф ўқувчиларининг ижодий салоҳиятини юзага чиқаришга алоҳида эътибор қаратилади.

Ушбу технологиянинг амалиётга йўналтирилганлиги ОТМ ва ишлаб чиқаришнинг биргаликдаги саъй-ҳаракатлари натижасида эгалланган билимлардан реал ишлаб чиқариш шароитида амалга оширишни кўриш имконини берадиган шундай ташкилий шакллардан фойдаланиш орқали



эришилади. Технологияни интеграциялашувига ўқув жараёнини ташкил этишда таълим кластери субъектлари ўртасидаги яқин ҳамкорлик орқали эришилади.

Учинчи шарт - таълим дастури мазмунини шакллантиришда таълим кластери субъектларининг ўзаро таъсирини таъминлаш. Таълим дастури-ни ишлаб чиқишда унинг мазмунига алоҳида эътибор берилади. У шундай қилинганки, ҳар бир кластер аъзоси томонидан амалга ошириладиган алоҳида фанлар дастурлари унинг фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олади ва бир-бирини тўлдиради. Шу билан бирга, ихтисослаштирилган фанлар дастурининг мазмуни шундай тузиладики, кластер аъзолари ҳар бири ўз бўлими учун масъул бўладилар ва бир вақтнинг ўзида бир-бири билан ўзаро муносабатда бўлишади, материални бир оз ўзгартириш имкониятига эга бўладилар. Ушбу шартнинг амалга оширилиши кластер аъзолари ўртасидаги тармоқ ўзаро таъсирини сақлашга ёрдам беради ва ўқитиш мазмунига кўпроқ амалий йўналиш беради.

Шундай қилиб, “Мақтаб – ОТМ – ишлаб чиқаиш” таълим кластери доирасида ўқувчиларнинг касбий тайёргарлигини ривожлантиришнинг педагогик шартларини аниқлаш бўйича олиб борилган тадбирлар шуни кўрсатдики, ўқувчиларни касбий тайёргарлигининг турли жиҳатларини қамраб олиш учун келтириб ўтилган шартларнинг уч гуруҳини амалга ошириш учун зарур ва етарли: ташкилий-педагогик, психологик-педагогик ва дидактик ёндошувлар асосида шаклланади.

Адабиётлар:

1. Байденко В.И. «Болонский процесс: результаты обучения и компетентностный подход. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2009. – С. 482-492.
2. Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. -М.: «Народное образование», 2007. -№ 2. - С.54-55.
3. Пригожин И. Введение в термодинамику необратимых процессов. — Ижевск: НИЦ «Регуляторная и хаотическая динамика», 2001. — с. 160.
4. Николис Г., Пригожин И. Самоорганизация в неравновесных системах. — М:Мир, 1979. — с. 512.
5. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. — Toshkent: ABU Matbuot — Konsalt, 2015. — 280 b.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада касбий тайёргарликни ривожлантириш жараёни мураккаб ва узок давом этади, шунинг учун уни амалга оширишга ёрдам берадиган педагогик шароитларни тизимлаштириш ва тавсифлаш тавсия этилади.

РЕЗЮМЕ

В данной статье процесс развивающего профессионального обучения является сложным и длительным, поэтому рекомендуется систематизировать и описать педагогические условия, способствующие его реализации.

SUMMARY

In this article, the process of developing vocational training is complex and lengthy, therefore it is recommended to systematize and describe the pedagogical conditions that contribute to its implementation.



ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КАФЕДРА ПРОФЕССОР-ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ИЛМИЙ- МЕТОДИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Боқиев Х.

*Шаҳрисабз давлат педагогика институти
Математика ва информатика кафедраси мудири*

Tayanch soʻzlar: kommunikatsiya, oʻquv jarayoni, bilim, koʻnikma, telekommunikatsiya.

Ключевые слова: общение, учебный процесс, знания, навыки, телекоммуникации.

Key words: communication, educational process, knowledge, skills, telecommunications.

Ҳозирги вақтда олимлар илмий ва методик фаолият функцияларининг учта асосий гуруҳини ажратиб кўрсатмоқдалар [1, 145-б]:

1-функция ўқитувчи шахсини шакллантириш, унинг касбий билимлари, кўникмаларини бойитиш, қадрият йўналишларини, ижодий педагогик фаолият мотивларини, ўқитувчи шахсининг барқарор ахлоқий фазилатларини, замонавий касбий педагогик фикрлаш методини, педагогик техникани, бадиийликни ва бошқаларни ривожлантиришга қаратилган.;

2-функция профессор-ўқитувчилар таркибига қаратилган бўлиб, уни ҳамфикрлар жамоаси сифатида бирлаштиришга, инновацион педагогик тажрибани аниқлаш, таҳлил қилиш, умумлаштириш ва тарқатиш, кимматли методларни алмашиш, жамоани ўқув-услубий ва илмий-тадқиқот фаолияти билан таништиришга қаратилган;

3-функция таълим муассасасидан ташқарида ишларни ташкил этишга қаратилган. Педагогик ўқишлар, илмий-амалий ва илмий-методик конференциялар, илмий нашрларда ўз нашрлари каби шакллар орқали таълим муассасалари амалиётига инновацион педагогик тажрибани жорий этиш мақсадида таълим муассасалари ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг кенг доирасини таъминлайди.

Илмий-методик фаолият ва методик фаолият ўртасидаги фаркни ўқитувчилар фаолиятининг мақсад ва вазифалари, мотивлари, методик ишларнинг етакчи йўналишлари ва шаклларида (бу ўзига хос хусусиятлар 1-жадвалда келтирилган), шунингдек, ушбу фаолиятни бошқариш учун зарур ташкилий-педагогик шароитларда кузатиш мумкин. Илмий ва



методик фаолиятни методик иш билан таққослаганда янги тур ёки йўналиш деб ҳисоблаш хато бўлади. Улар ўртасида узлуксиз чизик ёки қарама-қаршилиқ йўқ ва бўлиши мумкин эмас. Булар таълим жараёнидаги бир хил занжирнинг бўғинлари бўлиб, улар таълим ривожланишининг турли босқичларида жорий таълим вазифалари билан боғлиқ ҳолда янги мазмун билан тўлдирилади. Аммо профессор-ўқитувчиларнинг илмий-методик фаолияти янги технологиялар, янги педагогик техника билан боғлиқ янги анъаналарнинг пайдо бўлишига қаратилган бўлиб, уларни амалга ошириш фақат илмий асосда амалга оширилади. Шу билан бирга, йиллар давомида тўпланган эски анъаналар йўқолмайди, балки илмий ва методик ишларни ташкил этиш нуқтаи назаридан профессор-ўқитувчилар таркибини ривожлантиришга янги ёндашувларда мужассамланган.

Ушбу функцияларни тўлиқ амалга ошириш учун 1990-йилларнинг бошларида олий таълим муассасаларида илмий ва методик ишлар лавозим жорий этиган. Н.И.Дереклеева бундай йўналишларни таълим муассасасида ўқув-услубий ишлар бўйича проректор ишида белгилайди:

- диагностик ва таҳлилий фаолият-ўқитувчининг касбий маданиятини, унинг гуруҳ, алоҳида талабалар билан ишлаш маҳоратини, касбий тилни билишини, ўқув машғулотларини ташкил этиш ва ўтказиш методларини ўрганишдан иборат;
- таълим муассасаси кафедрасининг барча илмий ва методик ишлари тизимини яратишга қаратилган ташкилий-педагогик фаолият. Бу таълим муассасаси кафедрасининг методик ишлари тизимини режалаштириш, ўқитувчиларни методик фаолиятни режалаштириш бўйича изчил ўқитиш, ўқитувчилар учун уларнинг касбий қизиқишлари ва касбий йўналиши, таълим муассасаси манфаатларини ҳисобга олган ҳолда семинарлар, тренинглар ташкил этиш ва ўтказишдан иборат;
- тузатиш ва маслаҳат фаолияти-ўқитувчига ўз касбий фаолияти самарадорлиги билан боғлиқ муаммоларни ўз вақтида кўришга ёрдам бериш, уларни таниб олиш ва ижобий натижа таъсирини секинлаштирмайдиган тарзда тузатишга ҳаракат қилишдан иборат.

Маслаҳат иши, биринчи навбатда, ўқитувчи фақат шарҳлар оладиган машғулот лойиҳасини таҳлил қилишдан эмас, балки қийинчиликларнинг сабабларини ўрганишдан ва аниқланган қийинчиликларни ҳал қилишнинг конструктив методларини таклиф қилишдан иборат [4, 270-6]. Муаллиф ишнинг дидактик жиҳатини кўпроқ таъкидлайди, тақдим этилган соҳа-



ларнинг ҳеч бирида лойиҳага йўналтирилган ёндашувга асосланган бошқарув мавжуд эмас.

Вакт ўтиши билан кафедранинг тубдан янги табиатини кўрсатадиган вазифалар ўзгаради. Биз ишлаётган кафедрадан ривожланаётган кафедрага ўтмоқдамиз ва ҳар қандай ривожланиш фақат илмий тадқиқотлар, кенг қамровли тадқиқот ишлари асосида содир бўлиши мумкин.

Илмий тадқиқотлар натижаларини ўқув жараёнига жорий этишга қаратилган профессор-ўқитувчининг ўқув-услубий фаолияти. Ушбу турдаги иш ўқитувчи учун асосий ҳисобланади, усиз ўқув жараёни тўлиқ ишлай олмайди. Унга қуйидагилар киради: ишчи ўқув дастурларини лойиҳалаш, ўқув материаллари мазмунини дидактик таъминлаш, оралиқ ва якуний материаллар тўпламини лойиҳалаш, назорат ҳужжатлари таркибини лойиҳалаш, баҳолаш воситалари фонди, тест топшириқлари, реферат мавзularини ишлаб чиқиш, курс ишлари, якуний саралаш ҳужжатлар, уларни баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш, ўқув жараёнига янги технологияларни жорий этиш, таълим ва тарбия методлари, шакллари; ўқитувчининг ўзи учун касбий қизиқиш мавзуси бўйича ўз илмий тадқиқотлари натижаларини ўқув жараёнига киритиш, муаллифнинг методик материалларини лойиҳалаш, илмий тадқиқотлар натижаларини ўқув жараёнига жорий этиш, касбий ва педагогик фаолиятни ўз-ўзини таҳлил қилиш, уларнинг педагогик тажрибасини кенг доирадаги профессор-ўқитувчиларга, тегишли таълим муассасалари вакилларига, ижтимоий шерикларга тақдим этиш.

Адабиётлар:

1. Computer networking: a top-down approach / James F. Kurose, Keith W. Ross.—6th ed. 2013. by Pearson Education, Inc., publishing as Addison-Wesley.
2. TCP/IP protocol suite/Behrouz A. Forouzan.—4th ed. Published by McGraw-Hill, a business unit of The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020. Copyright © 2010.
3. Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. -М.: «Народное образование», 2007. -№ 2. - С.54-55.
4. Java Network Programming, Fourth Edition by Elliotte Rusty Harold. 2014.
5. Mariano Martin Martin. Introduction to software for Chemical engineers. CRC Press, 2014;
6. Karimov Q.M., Razzoqov I.D., Mathcad va Matlab muhitida ishlash. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Nasaf" nashriyoti, 2014;
7. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. — Toshkent: ABU Matbuot — Konsalt, 2015. — 280 b.
8. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/55>.

**РЕЗЮМЕ**

Ушбу мақолада таълим стандартлари таҳлили шуни кўрсатдики, информатика ўқитувчиларини тайёрлаш доирасида олий таълимнинг давлат таълим стандартларига мувофиқ ва педагогик йўналишнинг турли йўналишлари бўйича зарур касбий компетенцияларни шакллантиришни таъминлайдиган ягона фан мавжуд эмас. Компютерни визуализация қилиш технологиялари билан боғлиқ фанларнинг рўйхати ва кўлами ҳам турлича бўлади.

РЕЗЮМЕ

Анализ образовательных стандартов в данной статье показал, что в рамках подготовки учителей информатики не существует единой науки, предусматривающей формирование необходимых профессиональных компетенций в соответствии с государственными образовательными стандартами высшего образования и по различным направлениям педагогического направления. Список и объем дисциплин, связанных с технологиями компьютерной визуализации, также будут варьироваться.

SUMMARY

The analysis of educational standards in this article has shown that within the framework of computer science teacher training there is no single science providing for the formation of the necessary professional competencies in accordance with state educational standards of higher education and in various areas of pedagogical direction. The list and scope of disciplines related to computer visualization technologies will also vary.





BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING MA’NAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Mamajonov O‘. T.

*Andijon davlat universiteti, Pedagogika
fakulteti o‘quv ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari*

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, kreativlik, pedagogik jarayon, individual ta’lim, ekstremal kompetentlik, kompetensiya, kasbiy rivojlanish, psixologik ta’lim, didaktik malaka.

Ключевые слова: компетентность, креативность, педагогический процесс, индивидуальное образование, экстремальная компетентность, компетентность, профессиональное развитие, психологическое образование, дидактическая компетентность.

Key words: competence, creativity, pedagogical process, individual education, extreme competence, competence, professional development, psychological education, didactic competence.

O‘qituvchi shaxsiyati ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lishi, ko‘pgina badiiy va ilmiy asarlarni o‘qigan va dunyo hamjamiyatida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardor bo‘lishi lozim. Mana shularga tayangan holatda o‘qituvchi o‘zining ma’naviy bilimlarini kompetentliklar asosida o‘z o‘quvchilariga namoyish etadi. “Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axbborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi”.[1] Avvalo o‘qituvchi shaxsiyatini tarbiyalash borasida oliy ta’lim muassasalarida bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlar rivoji bilan tanishsak. Bunda, talablarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, qolaversa ularning o‘rganayotgan bilim natijalarini amaliy tajribada sinash maqsadida maktablar bilan hamkorlikni uzviy aloqaga qo‘yish borasida ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, joriy yilda respublikamizda 4+2 ta’lim tizimining amalga o‘rnatilishi ham oliy ta’lim o‘qituvchilari ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘rganilayotgan bilim va o‘zlashtirilgan salohiyat, ko‘nikmalarini amaliy ravishda tajribadan o‘tkazishlari uchun maktab ta’limi ya’ni to‘rt kun oliy ta’lim muassasasida hamkorlik, ikki kun esa maktab



muassasalarida o'rganilgan bilimning amaliyotini amaliyotchi talaba sifatida o'zlashtirishlari amalda qo'llashlari mumkin. Bu asosan bo'lajak kadrlarni tayyorlashda ularning turli xil vaziyatlar, moddiyatlar va holatlarda o'zlarini sinashlari uchun katta imkon yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Haqiqatdan ham ma'naviy kompetentlik kishining yurish-turishi nutq odobi, axloqi, dars tizimida yoki o'zining kundalik hayotida ham namoyon bo'ladi. Kompetentlikni rivojlantirish turli xil ko'nikmalar asosida amalga oshirilishi haqida gapirib o'tdik. Endi kompetentlik va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ommabop usullari haqida turli xil holatlarda samarali foydalanish, yuqori darajadagi o'zlashtirilgan malaka, tajribalardan kasb muhitida foydalanish bu lozim bo'ladi. Kompetentlik inglizcha tildan olingan bo'lib, qobiliyat, o'zlashtirilgan degan ma'nolarda ifodalanib, kishining kundalik faoliyati, natijasida orttirilgan bilimlarini nazariy yoki amaliy jihatdan foydalanishiga, ularning yuqori natijalarni berilishini sarf qilinishiga kompetentlik deyiladi. Endi ma'naviy kompetentlik esa o'qituvchi shaxsiyatidan o'z bilim darajalarini imkon qadar rivojlantirish, odob axloq, tarbiya qonuniyatlari va ma'naviy jihatdan yuksak salohiyatlilikni tashkil etishi bu katta natijalarni berishi bilan farqlanadi. Pedagog o'zida qanday qobiliyatlarni shakllantirishi kerak, yoki kompetentlikning sifatlari qanday holatda tashkil etilishi kerak va mana shu negizda qanday holatda ish faoliyatini qanday holatda amalga oshirib borishi bu yaxshi, albatta. Bu haqida ma'lumotlar turli xil davrlarda, turli xil yilnomalarda va olimlarning ijodiy ilmiy salohiyatida ko'rsatilgan va bu bugungi kunga qadar bosqichma bosqich tarzida rivojlanishga olib keldi.

Kompetentlik va kasbiy kompetentlik tushunchalarining mohiyati turlicha bo'lib, kasbiy kompetentlik amaliyotda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning o'z kasbini amalga oshirishda erishgan yutuqlari va mana shu yutuqlarga erishilish davomida orttirilgan bilim yoki malakalarning amalda yuqori darajada qo'llay olishi kasbiy kompetentlikda namoyon bo'ladi. Kompetentlikning o'zi esa umumiy bilimlar majmuasi bo'lib kasbiy kompetentlik yo'naltirilgan bilimlar asosida kompleks tarzida amalga oshadi. Kasbiy kompetentlikning ma'naviy kompetentlik bilan aloqadorligi mavjud, chunki har bir kishi tug'ilganidan boshlab bilim olar ekan, maktabda oliy o'quv yurtlarida tahsil olganidan so'ng u o'z faoliyatida kasbida qo'llay boshlagan bilimlari kasbiy kompetentlik asosida amalga oshadi. Turli holatlarda bu asosan o'z ifodasini ko'rsatadi. Buni aytishimiz mumkinki, bo'lajak o'qituvchining kelajakdagi maktab faoliyati bilan umumiy olganda o'quv dars faoliyati bilan amaliyotini qo'llaganda murakkab jarayonlarda mana shunday holatlar yuzaga kelib, noaniq bo'lgan ma'lumotlar, holatlar yoki kechinmalarda o'zini tutishi, o'quvchilarni



to'g'ri yo'lga yo'naltirilishi yoki axborot va manbalarning to'g'ridan to'g'ri ifodalanishiga, izohlanishiga munosabat bildirishi bilan ham shakllanib keladi.

“Kompetentlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- Har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o'z o'rnida va tezkorlik bilan to'g'ri qo'llay bilish;
- Qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish;
- Ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish;
- Faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko'zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o'rnatish imkonini beradigan kommunikativ ko'nikmalar” lozim.[2]

Ta'lim tizimida shunaqangi bir rivojlanish sistemasida ishlash lozimki, bunda kasbiy kompetentlik ma'naviy kompetentlik bilan amaliyotga qo'llaniladi. Va ma'naviy kompetentlikda qanday qilib rivojlantirish mumkin degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. O'z bilimlarining doimiy ravishda oshirilib borilishi ya'ni bilimlarning orttirilishiga erishish; bunda o'qituvchilardan yoki bo'lajak o'qituvchilardan qotib qolmaslik; yangi islohotlar kashfiyotlar bilan ilmiy bashoratlari bilan doimiy tanish bo'lish va o'z dars tizimiga samarali qo'llash bunda kuzatiladi. Yangi axborotlarni o'zlashtirish, bilamizki dars tizimida siyosiy axborotlar davri mavjud bunda darsda o'qituvchi zamonda mana shu vaqt va makonda amalga oshirilayotgan islohotlarni birmuncha ma'lumotlar nazarida berib o'tadi. Ya'ni o'qituvchi ma'naviy kompetentligini mana shu axborotlarning yangilanishi bilan belgilab borishi kerak. Chunki, tarix o'zgarishlarga uchragandan so'ng ta'lim tizimida yangiliklar bo'lishi bu tabiiy albatta. Bunda novatsion holatlar yoki fanlararo integratsiya mana shunday vaziyatlar ko'zga tashlanadi. Davr talablarini chuqur anglash bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentligi davr talablarini chuqur anglash bilan belgilanib boriladi. O'qituvchilar o'zlari istagan holatda bilim olishiga imkoniyat yaratish, ya'ni o'qituvchilarning bilim olishlari uchun noodatiy muhitni shakllantirish, ular bilan turli tamoyillarda dars tizimini tashkil qilish bunda tengdosh tengdoshga, yoki o'qituvchi o'qituvchi, ona bola, opa-singil, opa-uka tarzida muomala madaniyatlarining amalda qo'llanilishi bu ma'naviy kompetentlikning oshkor bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuni unutmaslik kerakki, bo'lajak o'qituvchi ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish barobarida faqat dars ta'lim tizimida axborot beruvchi sifatidagina qotib qolmasdan u yo'naltiruvchi sifatida ham xizmat qilishi kerak. Bunda o'zaro obyekt va subyekt munosabatida yo'naluvchi va yo'naltiruvchi o'rtasidagi munosabatda turli xil sohalar



amalga oshiriladi va o'qituvchi turli sohalar yo'naltiruvchi sifatida ma'naviy bilimlarini ishga soladi. Shuni aytish lozimki, birgina soha asosida o'z bilim va ko'nikmalari bilan qotib qolmasdan turli davrning axborot, ilm-fan yangiliklari, yangi bilimlarning talabalar talab doirasidagi axborotlar bilan tanishib borishi ham bu katta natijalarni berib dars sifatini oshirishga albatta xizmat qiladi. Yangi bilimlarni izlab topish, bunda bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligi kasbiy kompetentlik bilan amalga oshirilib o'z kasbi doirasida yoki mavzu doirasidan chetlashmagan holatda ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanish nazarda tutiladi. Ilmiy ijodiy qobiliyatlarning o'zaro fikr almashinish, tadqiq qilish, isloh qilish kabi qonuniyatlar bilan amalga oshirilishi bu o'quvchilarda ham o'qituvchining naqadar bilim salohiyatining kuchli ekanligidan darak beradi. O'qituvchi ma'lum bir vaqtlar davomiyligida o'z bilgan bilimlarini ya'ni kompetentlik qobiliyatlarini qayta ishlash kerak. Bu o'z amaliy faoliyatidan samarali qo'llanilishni ta'minlovchi asosiy-dasturiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Buni aytmoqchimizki, ma'lum bir vaqtlar davomida chorakliklar yoki yarimyilliklar davomiyligida o'z bilimlarining qayta rekonstruksiya qilinishi, olinishi ma'naviy bilimlarning ma'naviy kompetentlikni oshirishga xizmat qiladi. "Pedagoglarning kompetentligini baholash quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan tizimdir:

- pedagoglarning malaka darajasi - baholash uchun etalonga mos mezonlar ishlatiladi;
- mehnat unumdorligi va ish sifati;
- shaxsiy xususiyatlarning ta'lim yo'nalishiga muvofiqligi;
- qo'shimcha ko'nikmalar mavjudligi;
- shaxsiy o'sish va kasbiy rivojlanish istagi. Pedagoglarning kompetentligini baholashda xatti-harakatlarning ko'rsatkichlariga tayanib ish tutish samaralidir. Aynan shu narsa kompetensiya va kompetentlik orasidagi farqlar nimani anglatishini aniq ko'rsatib beradi".[3] Kasbiy kompetentlik ma'naviy kompetentlik bilan o'zaro aloqadorlikni tashkil etib, turli xil sifatlarni yuzaga keltiradi. Bu holatlar asosan quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik
2. Maxsus kompetentlik
 - a) psixologik kompetentlik
 - b) metodik kompetentlik
 - c) informatsion kompetentlik,
 - d) kreativ kompetentlik
 - e) innovatsion kompetentlik



- f) kommunikativ kompetentlik
- g) shaxsiy kompetentlik
- h) texnologik kompetentlik
- i) ekstremal kompetentlik

Kompetentlikning turli holatlar bilan shaxsiy yoki maxsus vositalar bilan tarkibiy asoslari birlashishi ijtimoiy kompetentlikda ko'proq namoyon bo'ladi. Bu asosan, individual rivojlanish bilan bog'liq. O'qituvchining ma'naviy kompetentligini oshirish individual ta'lim tizimi bilan bog'liq. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash borasida turli islohotlar amalga oshirilayotgani yuzasidan shuni aytish mumkinki, metodik jihatdan ularni ilmiy izlanishga o'rgatish, ularni individual tarzda bilim salohiyatlarini rivojlantirish pedagogik kompetentlikning bosh omillaridan va tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shaxsiy kompetentlik individuallik bilan birgalikda izchil ravishda o'z kasbining salohiyat darajasini o'sishi va mana shunday yangiliklarga erishish natijalarini qo'lga kiritishda shaxsiy tajribalar va orttirilgan tajribalarning umummilliy dastur asosida birlashtirilishiga olib keladi. Kasbiy kompetentlik o'z faoliyatida ichki imkoniyatlarni ham namoyish etishi, ularning nazariyasi qator tadqiqotlarda amalga oshiriladi. Va mana shu holatlarga amal qilingandagi holati milliy-ma'naviy kompetentlikning oshirilishiga erishish mumkin. Bu borada Makrova va Nazarovalar ham o'z munosabatlarini bildirgan. O'z tadqiqot ishlarida Makrova pedagoglarning turli holatlarida o'zlarini tutish qonuniyatlari kasbiy kompetentligini tarkibiy qismlar asosida rivojlantirishga belgilab beruvchi qonuniyatlarni belgilab bergan. Bunda asosan, bosqichlar mavjud. O'qituvchi o'z ijtimoiy faoliyatini kundalik tahlildan boshlashi kerak. Bunda ish faoliyatining dastlabki yillaridagi tahlil, o'ziga o'zi nisbatan kelgusi yillardagi tahlil, yoki atrofdagilarga nisbatan tahlil asosida berilishi bu taqqoslilik va sog'lom muhitni rivojlantirishga yordam beradi va ma'naviy jihatdan o'z-o'zini baholashni belgilab, kompetentlikning turli yutuq va kamchiliklari ham mana shunda namoyon bo'ladi. Ikkinchisi, o'z yutuqlarini boyitish uchun harakatlarining maxsus dastur asosida amalga oshirilishi va kamchiliklarning bartaraf etilishi yuzasidan ma'lum va belgilangan ijroviy qarorlarni belgilab olish bu asosan o'zining kelgusida qo'ygan rejalari va mana shu rejalar asosida erishiladigan yutuqlar, yutuqlarga borish davomiyligidagi bosqichlar, davomlarni belgilash va mana shu yutuqlarni erishishga halaqit beruvchi holatlardan chetlashish, ulardan voz kechish o'z ustida ishlash, individuallik bilan ham amalga oshirilib, ma'naviy jihatdan islohotlardan o'qituvchi o'z oldida namoyon bo'ladi. Galdagisi xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish. Bu ham yaxshi natija berib o'quvchilar bilan o'zaro



bo'lajak o'qituvchilarning munosabatlarini belgilash bo'lajak o'qituvchilarning amaliyot jarayonida alfabet kiritgan yutuqlarni boyitish kamchiliklarini esa bartaraf etish munosabatini yo'lga qo'yish nazarda tutiladi. "Funksiyalarni to'g'ri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, har tomonlama rivojlanib, kasbiy o'sishi uchun qaysi yo'nalishda harakatlanishini bilishi kerak. Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'xshash bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalaridir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi".[4]

Galdagisi esa xato kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish bu ham yaxshi natija berib o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarini belgilash bo'lajak o'qituvchilarning amaliyot davomiyligida qo'lga kiritgan yutuqlarini boyitish, kamchiliklarini esa bartaraf etish munosabati anglashiladi. Bunda o'zaro pedagogik munosabatlarning yo'lga qo'yilishi anglashiladi. Bo'lajak o'qituvchining o'zi ustida amalga oshiriladigan qarorlari, individual qarorlarini bajarishda doimiy nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Bu bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatiga nisbatan danksalikdan qochish, turli minimal bosqichlarda o'zini normada tutib tura olish pedagogning o'z ustida ishlash qobiliyati bilan aloqadorlikni tashkil etadi. Bu borda turli darajadagi bosqichlarni rivojlantirishda kompetentlikni yo'lga qo'yadi. Ushbu holatlarning umumiyliqi nuqtai nazaridan olib qaraganda aytish mumkinki pedagog o'z ustida ishlashi komponentlik bilan aloqadorlikni yuzaga keltiradi. Ma'naviy kompetentlikning aniq va ravshan tarzda namoyon bo'lishida orttirilgan bilimlarning ko'nikmalar bilan ifidalanishi asosida o'z bilimlarining atrof muhit va jamiyatda xizmat qilayotgan kishilarning malakalarini oshirishga yordam berish va qolaversa, orttirilgan malakani o'rtoqlashish bilan natijalarga erishish mumkin. Ma'naviy jihatdan egallangan bilimlarning doimiy ravishda tadqiq qilinishi izlanuvchanlik qobiliyatining shakllanishi tadqiqot ishlarini olib borishga imkon yaratadi. Bularning barchasi esa ma'naviy kompetentlikning rivojlanishi uchun rivojlanishi, kasbiy kompetentlikning rivojlanishi uchun ham o'ziga xos vosita bo'lib xizmat qiladi. Haqiqatdan ham, psixologik kompetentlik hamda ekstremal kompetentlik kabilar bu borada o'z natijalarini beribgina qolmasdan salbiy odatlardan voz kechishga yordam beradi. Kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish kamoetentlik asosida o'z qobiliyatlariga erishgan



holda uning shaxsiy faoliyatda rivojlantirishga ibodiy jihatdangina yondashish bilan cheklanib qolmasdan kasbiy nuqtai nazardan ham rivojlanishga erishish borasida hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Bunda asosan o'qituvchilarning malakalarini oshirish bilim yurtlarida xizmat faoliyatlarini yuritayotgan shaxslar bilan pedagoglarning murosaga kirishishi ijtimoiy holatlar bilan ham amalga oshiriladi. Ma'naviy kompetentlik mehnatsevarlik xususiyatlarning rivojlantirilishida hamda o'z o'ziga nisbatan talabchanlikning yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. Pedagoglarning yoli pedagogik sohada ishlashni niyat qilgan kishilarning ham o'z ustida ishlashi ham bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Eng muhimi erishilayotgan va kutilayotgan natijalarning asos qism vazifalarida belgilanadigan holatlarda o'z ahamiyatini namoyon etadi. Shuningdek, boshlanich sinf o'quvchilarida ma'naviy kompetentlikning yuzaga kelishida psixologik kompetentlik rioyaviyligini ham inobatga olish keram. Bunong sababi, ma'naviyat jihatdan yuksak salohiyatga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchi psixologik jihatdan ham kuchli bo'lishi lozim, chunki u o'quvchilar, atrof jamiyat bilan bevosita munosabat bog'layotganda asosan psixologik jihatdan sog'lom muhit yarata olishi, o'quvchilar bilan har tomonlama muomala madaniyatiga kirisha olishi lozim. Bu borada aksariyat holatlarda yuz beradigan sinf o'quvchilarining turli xil kayfiyati, xarakter xususiyatlari bilan yaqindan tanishish, ularning salbiy psixologik holatlarda ziddiyatlarga kirishmasligini ta'minlab berishi ham kompetentlikning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanishi mumkin. Pedagogik kompetentlik esa metodik kompetentlikni aloqadorlikka chorlaydi. Metodik kompetentlik ma'naviy kompetentlik bilan o'zaro aloqadorlikni tashkil etib, faoliyat ishlarining to'g'ridan-to'g'ri bajarilishida hamda qisqa muddatda yuqori natijalarga erishish, atrofdagi kishilarni jalb etish borasida metodik kompetentlik yuqori natijalarni berishi bilan boshqalaridan farqlanadi, xarakterlanadi.

Kompetentlik bilan o'zaro bog'liqlikda qo'llaniluvchi kreativlik nomli tushuncha bo'lib, kompetentlikda kreativlik yuqori arajada baholanib, o'z ijtimoiy faoliyatiga nisbatan kundalik hayotiga o'zgacha qarashlar ya'ni, tanqidiy, ojodiy yondashish bilan birgalikda pedagoglarning ijodiy malakalarining ham o'sib borishiga yordam beradi. Bu holat esa kreativlik kompetenti bilan aloqadorlikni tashkil etadi. Kreativlikning ham bosh omili ma'naviyatga borib taqaladi. Ma'naviy kompetentlikning ahamiyati asosan manashunday holatlarda namoyon bo'ladi. Endi shaxsiy kompetentlikning ichki o'sib borishda yoki texnologik kompetentlik bilan aloqadorligini belgilashda ekstremal kompetentlik ham favqulotda vaziyatlarda o'qituvchi va o'quvchi munosabati ham o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.



Ekstremal vaziyatlarda o'qituvchilar o'zilarini tuta olishi, boshqaruvchanlik qobiliyatini yo'qotmasligi, o'quvchilarni yo'naltira olish majburiyati va shu kabi holatlar kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida O'zbekiston Respublikasida belgilangan milliy o'quv dasturning yetakchi g'oyalaridan biri sifatida belgilanadi. Texnologik kompetentlik esa ma'naviy kompetentlik bilan aloqadorlikda bilim va malakalarni boyitishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Haqiqatdan ham, bugungi zamonaviylashdan dunyoda ta'lim tizimining moderenizatsiya qilinishi kompetentlikning qator yo'nalishlari bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi. Shuning uchun, bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviylashgan texnologiyalar bilan ishlashi, texnik - texnologik savodxonlik, ilmiy pedagogik mahorat kabilarni umummilliy tarzda baholash, birlashtirish asosida yaxlitlikni o'zaro shakllantirishda bosh omil vazifasini bajarishi ham katta natijalarni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N., Usmonboeva M., Sayfurov D., To'rayev A. Pedagogikaning kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent: - 2015
2. Rahimov Sobir Toshtemirovich. "Pedagogik kompetentlik ta'lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida" maqola. Zamonaviy ta'lim - 2019
3. Tojiboyeva Gulmira arifovna, Pulatova Dildora Turgunovna. "Pedagogik kompetentlik: Nazariya va amaliyot" maqola. Academic research in educational sciences scientific journal - 2020
4. Egamberdiyev Oyatiullo Alisher o'g'li, Turdaliyev Abror Yigitali o'g'li, Maxamadjonov Jaxongir Zokirjon o'g'li. "Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari" maqola. "Science and Education" Scientific Journal - 2021

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentligini rivojlantirish yo'llari xususida so'z yuritilgan bo'lib, yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilyotgan ishlar yuzasidan qarashlar mavjud. Shuningdek, kompetentlikning turli yo'nalishlar asnosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorati shakllanishida ma'naviy kompetensiya, informatsion kompetensiya, kreativ va innovatsion kompetensiyalarning o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Maqolada ma'naviy kompetentlikning pedagogik jarayondagi o'rni va ahamiyati yuzasidan qarashlar mavjud.

РЕЗЮМЕ

В данной статье речь идет о путях развития духовной компетентности будущего учителя, а также взгляды на работу, проводимую в сфере образования в нашей стране. Также специфические характеристики духовной компетентности, информационной компетентности, творческой и инновационной компетентности выражаются в формировании педагогических умений будущих учителей в рамках разных областей компетентности. В статье содержатся взгляды на роль и значение духовной компетентности в педагогическом процессе.

SUMMARY

This article deals with the ways of developing the spiritual competence of the future teacher, as well as views on the work carried out in the field of education in our country. Also, the specific characteristics of spiritual competence, informational competence, creative and innovative competence are expressed in the formation of pedagogical skills of future teachers within different areas of competence. The article contains views on the role and importance of spiritual competence in the pedagogical process.



КЛАСТЕРЛИ ТАЪЛИМ ШАРОИТИДА УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЎҚУВ ВА БИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА МЕТОДОЛОГИК ЁНДАШУВЛАР

Эшмуродов О. Н.

*Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани 178 - сонли ихтисослашган
умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: инновацион, электрон ресурс, анимация, технологиялар, дастурий маҳсулот, касбий фаолият, трансфер, лойиҳалаш, конструкторлик.

Ключевые слова: программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

Key words: software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

Таълимдаги интеграцион жараёнлар таҳлил қилинган манбалар кўрсатганидек, куйидаги даражаларда амалга оширилади: 1) концептуал, тизимли (жуда кам сонли манбалар), 2) ташкилий-меъёрий, 3) мазмунли-фаолиятний (ўқув дастурлари даражаси). Ҳақиқий мактаб таълимига нисбатан уларнинг сони ўзгарувчан таълим тизими учун аҳамиятсиз. Шундай экан, “мактаб-ОТМ-ишлаб чиқариш” таълим кластерида мактаб таълимини ривожлантиришнинг шарт-шароитлари ва методологияси ҳақида гапирганда, интеграциядан фойдаланиш имкониятларини ёдда тутиш керак: 1) олий таълим ва касбий фаолият тизимидаги бинар жараён сифатида, 2) умумий ўрта таълим, олий таълим ва касбий фаолиятни бирлаштирувчи уч томонлама тизим сифатида ва 3) тизим ичидаги жараён сифатида.

Ҳар бир ёндашув куйида аниқ мисоллар билан муҳокама қилинади. Шуни таъкидлаш керакки, барча ҳолатларда ўзгаришларнинг глобал тавсифи назарда тутилади, улар шароитида таълим, фан ва ишлаб чиқаришни интеграциялашга уринишлар амалга оширилади. Шу билан бирга, лойиҳаларнинг ҳеч бири “мактаб-ОТМ-ишлаб чиқариш” тизимидаги интеграция муаммосини ҳал қилиш учун етарли асос бўла олмайди, балки



тажриба, таълим ва таълим тизимини модернизация қилишга қаратилган ўзига хос уриниш сифатида эътиборга олиниши мумкин.

Таълимини модернизация қилиш концепцияси мавжуд бўлиб, у билан «мактаб-ОТМ-ишлаб чиқариш» кластерли таълим муҳитида мактаб таълимини ривожлантиришнинг концептуал ва назарий асосларини боғлаш керак, агар бунинг учун зарур шарт-шароитлар мавжуд бўлса. Ва бу масала бундан кейин ҳам муҳокама қилинади. Бироқ, бизни қизиқтирган муаммога нисбатан назарий асосларни ишлаб чиқиш учун тизимли асослар мавжуд эмаслиги сабабли, биз методологик ёндашувларга (фалсафий, умумилмий ва илмий) таянамиз: контцепцияларни куриш ва таълим тизимини ривожлантириш (моно- ва интегратив), «мактаб-ОТМ-ишлаб чиқариш» кластерли таълим муҳитида мактаб таълимини ривожлантиришнинг прогностик концепциясини ишлаб чиқиш.

Шундай қилиб, тизимли ёндашув асосида яратилган академик фан ва олий таълим интеграцияси контцепциясида (107) контцептуал лойиҳа интеграциянинг ҳозирги босқичининг мақсад ва қадриятларини тақдим этиш уларнинг прогнози нафақат минтақавий даражада, балки миллий ва трансмиллий миқёсда, яъни анча кенг қўламли ижтимоий-маданий параметрлар орқали белгиланади: ташкилий, ахборотли, иқтисодий, ҳуқуқий ва тегишли мотивацион рағбатларни таъминлайдиган минтақавий, миллий ва трансмиллий даражаларда ягона илмий ва таълим маконини шакллантириш.

Бизнинг фикримизча, замонавий мутахассиснинг интеллектуал, ижодий ва шахсий салоҳияти қуйидаги талабларга жавоб бериши керак:

- назарий ва эмпирик тадқиқот усулларининг диалектик бирлиги, қадрият йўналишлари, воқеликни ўзлаштиришнинг илмий-когнитив ва ижтимоий-амалий шакллариининг конструктив яқинлашуви асосида ижтимоий ва гуманитар муаммоларни яхлит, кўп қиррали, тизимли тушуниш қобилияти;
- индивидуал, тор соҳага йўналтирилган вазифаларни ҳал қилишнинг муқобилига эмас, балки илмий тадқиқотнинг универсал услубий парадигмалари ва услубий кўникмаларини шакллантиришга йўналтирилган «стратегик» фикрлаш ва маданий потенциалнинг муҳим даражасини идрок этиш;
- замонавий илм-фан ва жамият талаб қилаётган, ижтимоий масъулиятли, инсонпарварлик ва ижодий йўналтирилган, мослашувчан ва ўзгарувчан ижод мазмуни ва шароитларига мослаша оладиган, танланган вазиятда мақбул эчимларни топа оладиган, илмий фикрнинг



илғор ривожланишини ва унинг ижтимоий тараққиётга фаол таъсирини таъминлаш учун «ўз» субъектини ташқи «маданий макон»га кирита олиш;

- фаолияти давомида доимий ўз-ўзини тарбиялаш, малака ошириш, бозор шароитлари, илмий ва ижтимоий устуворликлар ўзгариши муносабати билан ихтисосликни ўзгартиришга мослашувчан қобилиятни шакллантириш учун барқарор мотивация;
- муаммоларни ҳал қилишда барча қидирув ва ахборот имкониятларини тезкор сафарбар этиш қобилияти;
- мутахассиснинг жаҳон илм-фани ва маданиятига очиклигини таъминловчи юқори даражадаги маданий ва лингвистик тайёргарлиги.

Мутахассиснинг истикболли моделининг ушбу параметрларига мувофиқ, академик фан ва олий таълим интегратсиясининг ҳозирги босқичидаги вазибаларни қуйидагича шакллантириш мумкин:

1. Академик фан ва олий таълим ўртасидаги ўзаро ҳамкорликнинг истикболли ташкилий шакллари (шу жумладан, мақсадли ўзаро боғлиқ молиялаштириш) рағбатлантириш; тадқиқот ва таълимнинг илғор даражадаги академик дастурларини ишлаб чиқиш.

2. Умумий таълим, мажбурий ва танлов фанларнинг ўзгарувчан нисбати билан муаммоли таълимга асосланган мослашувчан таълим технологияларини ишлаб чиқиш, тадқиқот элементининг аҳамиятини ошириш. таълим, рефлексив-методологик фикрлашни ривожлантириш.

3. Академик фан ва олий таълим интегратсияси соҳасида самарали тартибга солишни таъминлайдиган ягона ҳудудий ҳуқуқий маконни шакллантириш.

“Мактаб-ОТМ” тизимида, қисқа муддатда эса “мактаб-ОТМ-ишлаб чиқариш” сифатида ривожланаётган мактаб таълимига келсак, кўрсатилган мақсадлар ҳам қадриятларни акс эттиради. Бу барқарор мотивацияга асосланган ўз-ўзини тарбиялаш, ахборот маданияти, фанлараро мазмундаги мураккаб муаммоларни ҳал қилишга имкон беради. Ушбу концепцияда мақсадларни белгилаш ва қадриятларни танлашнинг камчиликлари иккита муҳим жиҳатдир: инсон саломатлиги каби қадриятнинг йўқлиги ва мактабларни ким, қайси битирувчилари деган саволга (ғамхўрлик сифатида) қизиқиш йўқлиги, яъни таълимнинг узлуксизлиги тамойили тшламайди. Бу концепция, бизнинг фикримизча, таълимнинг аввалги ОТМгача бўлган даражасига, яъни умумтаълим мактабига қаратилган (бўлиши керак), чунки у мактабни таълим мазмунини ва зарур шарт-шароитларни шакллантириш имконини беради.



Юқоридаги таҳлил бизга қуйидаги хулосалар чиқариш имконини бери.

Шубҳасиз, бундай мураккаб кўп босқичли муҳитда касбий муаммоларини ҳал қилишнинг “мактаб-ОТМ-ишлаб чиқариш” кластерли таълим муҳити назарий ва услубийликни талаб қилади. Тизимли ёндашув умумилмий йўналиш сифатида маҳаллийлаштиришга имкон беради; ҳар бир элемент ўзига хос функцияга эга бўлиб, вазифаларни янада аниқ ва кўзга кўринган релефда намоён қилади.

Гуманитар-аксиологик ёндашув тизим кадриятларини бир-бирини тўлдирувчи тизими сифатида кўриб чиқишга имкон беради, уларнинг интегратив асоси Маданият (жамият) ва Маънавият (шахс) ўзаро боғлиқлигида.

Интегратив-кадриятли ёндашув таълим мазмунини икки инвариантнинг (мазмун ва фаолият таркиби) интеграциясига асосланган бинар интегратив тизим сифатида қуриш ва инсон фаолияти кадриятларини ҳамкорликнинг умумий асослари сифатида асослаш имконини беради. Тадқиқот ёндашуви ҳар қандай фаолият турини амалга оширишга имкон беради, унинг мантиғи илмий тадқиқот мантиғига тўғри келади.

Мантиқий-дидактик ёндашув ўқитишда ўқувчиларнинг тизимли ва самарали билимларини шакллантириш, таълимнинг илмий моҳиятини ошириш учун ўқув билимлари ва ўқув фаолиятининг ўзига хос тури сифатида илмий билимларнинг функцияларини ўқув билимларининг мазмуни ва тузилишига бирлаштиришга имкон беради.

Ресурс ёндашуви тизимнинг ички ва ташқи имкониятларини ресурслар сифатида кўриб чиқиш, уларни ривожланаётган тизимнинг оптимал ишлаши учун бирлаштириш имконини беради. Ресурс ёндашувининг аниқ ифодаси лойиҳавий ёндашувдир.

Рефлексив-диалогик ёндашув инсонпарварлик жараёнларини бошқариладиган, ўз-ўзини ташкил этувчи ва ўз-ўзини ривожлантирувчи деб ҳисоблаш имконини беради. Бу тизим элементларига таъсир қилишдан тизим ичидаги ва тизимлар орасидаги элементларнинг ўзаро таъсирини умумий кадриятларга, ресурсларни бирлаштиришга ва ўзаро тушунишга асосланган ҳолда ташкил этишга ўтиш имконини беради.

Адабиётлар:

1. Computer networking: a top-down approach / James F. Kurose, Keith W. Ross.-6th ed. 2013. by Pearson Education, Inc., publishing as Addison-Wesley.
2. TCP/IP protocol suite/Behrouz A. Forouzan.-4th ed. Published by McGraw-Hill, a business unit of The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020. Copyright © 2010.
3. Karimov Q.M., Razzoqov I.D., Mathcad va Matlab muhitida ishlash. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Nasaf" nashriyoti, 2014;



4. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. - Toshkent: ABU Matbuot - Konsalt, 2015. - 280 b.

5. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/55>.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада ўрганилаётган муаммони ҳал қилишнинг методологик ёндашувларини таҳлил қилиш асосида кластерли таълим муҳитини назарий асосларини асослаб бериш ҳамда мактаб таълимини ривожлантириш концепциясини таклиф қилишдан иборат. Шундан келиб чиқиб, ушбу бўлимнинг мақсади бизни қизиқтирган муаммони ҳал қилишнинг методологик ёндашувларини аниқлашдир.

РЕЗЮМЕ

На основе анализа методологических подходов к решению проблемы, изучаемой в данной статье, необходимо обосновать теоретические основы кластерной образовательной среды и предложить концепцию развития школьного образования. Исходя из этого, целью данного раздела является определение методологических подходов к решению интересующей нас проблемы.

SUMMARY

Based on the analysis of methodological approaches to solving the problem studied in this article, it is necessary to substantiate the theoretical foundations of the cluster educational environment and propose a concept for the development of school education. Based on this, the purpose of this section is to identify methodological approaches to solving the problem we are interested in.





OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILINI O'RGATISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH

Ergasheva F. A.

Jizzax Politexnika Instituti

Tayanch so'zlar: pedagogika, pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, o'qitish, uslub, kasbiy pedagogika.

Ключевые слова: педагогика, педагогические технологии, инновационные технологии, обучение, метод, профессиональная педагогика.

Key words: pedagogy, pedagogical technologies, innovative technologies, education, method, professional pedagogy.

Oliy ta'lim o'qituvchisining faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning extiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini ochish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Pedagogikaning muhim muammolaridan biri o'qituvchining mutaxassisligi va faoliyatining asosini tashkil etish shart bo'lgan pedagogik jarayon nazariyasini ishlab chiqishdir.

Ana shularni e'tiborga olgan holda, yosh pedagoglarning malakasini oshirishda asosiy masalalar quyidagicha belgilanadi:

- o'qitish jarayoning samaradorligini oshirishda pedagogik malakalarini shakllantirish;
- ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakkurni shakllantirish;
- o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq egallash;
- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash;

Tinglovchilar o'zlari o'qitayotgan talabalarning ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo'la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quv tarbiya jarayonidagi o'rni, ulardan foydalanish shuningdek, "Aqliy hujum" "Tarmoqlar" (Klaster) usullari, "Bumerang", "Skrabey", "Charxpalak",



“Rezyum” va shu kabi texnologiyalar haqidagi bilimlarga ega bo‘lishlari va ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga qo‘llay olishlari lozim .

Shaxs, texnologiya, pedagogik texnologiya, interfaol uslublar, pedagogik mahorat, “Klaster” texnologiyasi, “Aqliy hujum” uslubi muammoli ta’lim “Tarozi” texnologiyasi, mualliflik texnologiyasi, sinetik texnologiya.

O‘qitish jarayoni 5 kunlik jadal interfaol trening ko‘rinishida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” uslubi. To‘g‘ridan – to‘g‘ri jamoaviy aql bilan ishg‘ol qilish usulubi. Ijodiy masalalarni hal qilish texnologiyasi: “Qora quti” uslubi: “Kundaliklar” uslubi: 6x6x6 uslubi; sinetik texnologiya, muammoning qo‘yilishi;

Ma’ruza – suhbat. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim mazmuni.

Ta’lim turlari: an’anaviy, noan’anaviy, rivojlantiruvchi, masofali, muammoli, dasturlashtirilgan, turli darajali, modul tizimli, loyihalashtirish, yevristik interfaol ta’lim, kattalar ta’limi, informal ta’lim; rasmiy ta’lim norasmiy ta’lim. Tarqatma materiallar va slaydlar bilan ishlash.

“Zinama-zina” texnologiyasi; Dars o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakli. Dars tuzilishi va turlari; An’anaviy, noan’anaviy, rivojlantiruvchi, muammoli yevristik darslar va ularning o‘xshashligi va farqlari:

“3x4” texnologiyasi: Namunaviy yoki ochiq darslarning ahamiyati, ularning oddiy darslardan farqi:

Darslarga kirish va tahlil qilish texnikasi:

“Soniya” texnologiya: o‘quv jarayonini loyihalash Tarqatma materiallar. Kichik guruhlarda ishlash.

“Rezyume” texnologiyasi: Tanqidiy tafakkur texnologiyalar;

“Muammo” yoki “Ko‘prik” texnologiyasi: Muammoning yechimini topish. Yakka tartibda.

“Bumerang” texnologiyasi: o‘qituvchining o‘quv jarayonini tashkil etishga inovatsion yondashuvi: Tarqatma material. Yakka tartibda, kichik guruhlar va jamoa bo‘lib ishlash.

“Sobirint” texnologiyasi: o‘qituvchining pedagogik mahorati; o‘qituvchi faoliyati va o‘quv jarayonida uchraydigan pedagogik nizolar, vaziyatlar va muammolarni yechish usullari; davra guruhida ishlash.

Trening “Feedback” innovatsion texnologiyalar mazmuniga yakun yasash va baho berish.

“FSMU” texnologiyasi; tarqatma material yakka tartibda, kichik guruhlarda va jamoa bo‘lib ishlash:



Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, qaratilgan. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunga ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilar; Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dastur" da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonida tizimli faoliyat yondashuvchi keng joriy etish imkoniyatini o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llanilishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishi ta'minlaydi;

O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda zamonaviy o'qitish uslublari – interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rnida ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rnini qisman talabalarining faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Bunday pedagog va talaba (yoki o'quvchi) larning birgalikda o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularga;

- talaba (yoki o'quvchi) tshtp dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talabalarining fanga bo'lgan qiziqishlari doimiylikini ta'minlanishi;
- talabalarining fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- pedagog va talaba (yoki o'quvchi) larning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarni qo'llanishi: pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi va talabaning belgilangan



maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyasiga bog‘liq. O‘qitish jarayonida, maqsad qo‘llaniladigan har bir ta‘lim texnologiyasi o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlab, ijobiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o‘zlari xulosa qila olsalar, ularga baho beriladi.

Har bir dars, mavzu o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor. O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u talaba yoki o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O‘quvchi va talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijada erishishga qaratilgan bo‘lib bunda talabalarning bilim saviyasi guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi.

Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar kerak bo‘ladi.

Baholash – ta‘lim jarayoning ta‘lim bosqichida, o‘quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida belgilash, o‘lchash, tahlil qilish jarayonidir. O‘qitish jarayonini samarali va natijali bo‘lishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan quyida keltirilgani interfaol uslublar va o‘qitish texnologiyalarining barchasi ushbu uslubiy qo‘llanma mualliflaridan biri R.Ishmuxamedov tomonidan ko‘p yillar mabaynida yaratilgan bo‘lib, hozirgi kunda ular respublika maxsus, umumiy o‘rta ta‘lim kasb-hunar hamda oliy ta‘lim muassasalari o‘quvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari va fakultetlarida kamda ijobiy natijalarsh bermoqda .

“Tushunchalar tahlili” uslub: Uslubning maqsadi: Talabalarni mashg‘ulotda o‘tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olishi, o‘zlarning bilim darajalarini baholay olishi, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash;

Uslubning qo‘llanishi; O‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun, shuningdek yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo‘ljallangan mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar; tarqatma materiallar tayanch tushunchalar ruyxati, qalam, slayd.



Izoh; reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadiga mos tayyorlangan tarqatma materiallar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi;

- talaba (yoki o'quvchi) larni guruhlariga ajratiladi.
- talabalar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
- talabalar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar;
- talabalar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar bilimlari asosida izoh yozadilar;
- har bir talaba to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar.
- "zinama-zina" texnologiyasi; Ushbu mashg'ulot talabalarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash;

Texnologiyaning maqsadi: Talabalarni erkin mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushunchalar hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda, egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanishi; ma'ruza seminar amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin.

Mashg'ulot o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi talabalarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi.
- talaba (yoki o'quvchi) lar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvchi bo'lgan varaqlar tarqatiladi;
- o'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.
- guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma ko'rinishida ifoda etadilar;

Tarqarlangan materiallar to'ldirgan, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi:



Taqdimot aloxida guruhlar tomonidan tayyorlangan material albatta audotoriya doskasida mantiqan tagma-tag ilinadi;

O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Adabiyotlar:

1. Bo'ronov J. "Chet tili o'qitish metodikasi" Toshkent 1996 yil 132-b.
2. Yo'ldoshev J. "Yangi pedagogik texnologiyayo'nalishlari, muammolari, yechimlari xalq ta'limi" 1999 yil № 4.
3. Jalolov J.J. "Chet tili o'qitish metodikasi" Toshkent 1996.
4. "O'rta umumiy ta'lim maktabida ingliz tili o'qitish bo'yicha o'quv dastur" (5-9) sinflar Toshkent 1999 yil.
5. Rogova G. "Methods of teaching English" Moscow 1983.
6. Hoshimov O'.H. Yoqubov I.Y. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" Toshkent 1993 yil.
7. Prof. Setlin.B.S. "O'rta maktabda chet tili o'qitish kursi" Toshkent 1978 yil.
8. Jalolov J.J. "Chet til o'qitish metodikasi" Toshkent 1990 yil.
9. Temirov Y., Suyarova N. "Chet tili o'qitish metodikasi" – Qarshi 2009 yil.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида чет тилини ўргатишда инновацион технологиялардан фойдаланишнинг йўллари кўрсатилган. Шу билан бирга қайси методлардан фойдаланиш афзалликлари таҳлил этилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье показаны пути использования инновационных технологий в обучении иностранному языку в высших учебных заведениях. При этом анализируются преимущества использования каких методов.

SUMMARY

This article shows the ways of using innovative technologies in teaching a foreign language in higher educational institutions. At the same time, the advantages of using which methods are analyzed.



“МУҲАНДИСЛИК ЧИЗМАЧИЛИГИ” ФАНИДА СТАНДАРТЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Атаханова С. О.

*Чирчиқ давлат педагогика университети Санъатишунослик факультети
“Муҳандислик ва компьютер графикаси” кафедраси ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: муҳандислик чизмачилиги, стандарт норматив ҳужжат, чизма стандартлаштириш.

Ключевые слова: инженерная графика, стандартный нормативный документ, стандартизация чертежей.

Key words: engineering graphics, standard regulatory document, standardization of drawings.

Кириш. Маълумки, ҳар қандай буюм ёки предметни ишлаб чиқаришдан олдин унинг эскизлари ва чизмалари яратилади. Ана шу яратилган чизмаларга асосан, ишлаб чиқариш корхоналарида буюмлар ясалади.

“Муҳандислик чизмачилиги” фанига бевосита алоқадор бўлган давлатлараро стандартлаштиришнинг стандартлар тизими бугунги кунгача мустақил ҳамдўстлик давлатларида амал қилиб келмоқда. Қуйидаги жадвалда уларнинг айримлари келтирилган.

1-жадвал

Тизим синфи	Шартли белгиси	Тизимнинг номланиши
1	ГСС	давлат стандартлаштириш тизими
2	ЕСКД	конструкторлик ҳужжатларнинг ягона тизими
3	ЕСТД	технологик ҳужжатларнинг ягона тизими
4	СПКП	маҳсулот сифатининг кўрсаткичлари тизими
14	ЕСТПП	ишлаб чиқаришни технологик тайёрлашнинг ягона тизими
21	СДПС	қурилиш учун лойиҳалаш ҳужжатлари тизими
27	НТ	техникада мустаҳкамлик стандартлар тизими

Адабиётлар таҳлили ва методологияси. Мураккаб буюмларнинг тайёрланишида бир эмас бир неча ишлаб чиқариш корхоналарининг муҳандис ва техник ходимлари ва малакали ишчиларнинг катта гуруҳи иштирок



этишлари мумкин. Бу ишлаб чиқариш корхоналари ҳатто бир бирларидан жуда олис масофада жойлашган бўлишлари ҳам мумкин. Шу буюмларни ташкил этувчи узел ва деталларнинг чизмалари маълум қоидалар талабларига биноан бажарилади. Яна қоидалар КҲЯТ (КОНСТРУКТОРЛИК ҲУЖЖАТЛАРНИНГ ЯГОНА ТИЗИМИ) деб аталувчи ўзига бир қанча стандартларни бирлаштирган меъёрий ҳужжатларда жамланган.

Муҳандислик чизмачилигида асосан, КҲЯТ га тегишли давлат стандартлари қўлланилади.

Конструкторлик ҳужжатларни расмийлаштиришдаги ҳар хиллик ва келишмовчиликлар туфайли ишлаб чиқариш корхоналарининг бир маромдаги ишлаш тартиби бузилибгина қолмай, балки бунинг оқибати ишлаб чиқаришнинг барча иқтисодий кўрсаткичларига ҳам салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Шунинг учун чизмаларни расмийлаштириш учун барча ишлаб чиқарувчиларга бирдек тааллуқли қоидаларни яратишга эҳтиёж сезилади. Ана шу қоидалар КҲЯТ га тегишли стандартларда ўз аксини топган.

КҲЯТ 130 дан ортиқ стандартларни ўз ичига олади. Уларда чизмаларни бажариш ва расмийлаштириш қоидаларининг ягоналиги стандартнинг амал қилиш муддати, чизмаларни сақлаш ва ҳисобга олиш қоидалари, ҳамда уларга ўзгартиришлар киритиш қоидалари ёритилган.

КҲЯТ - бу давлат стандартининг комплекси бўлиб у конструкторлик ҳужжатларининг муомалада бўлиши, уларни расмийлаштириш ишланмалар тартиби бўйича маълумотлар ва ўзаро боғлиқ қоидаларни ўрнатади ва мустақил ҳамдўстлик давлатларида амал қилади.

КҲЯТ стандартларининг асосий вазифаси – ташкилот ва корхоналарда конструкторлик ҳужжатларнинг муомалада бўлиши расмийлаштиришнинг ягона қоидалари асосида бажаришини таъминлашдан иборатдир.

КҲЯТ га тегишли давлат стандартларини ҳар бири эса чизма график ишлари ва уларга оид матнли ҳужжатларни расмийлаштириш бўйича бир неча тоифаларга тақсимланган.

КҲЯТ стандартлари таснифининг гуруҳлар бўйича тақсимланиши қуйидаги жадвалда келтирилган.

2 жадвал

Гуруҳ шифри	Гуруҳдаги стандартнинг мазмуни
0	Умумий маълумотлар
1	Асосий маълумотлар
2	Конструкторлик ҳужжатларида буюмлар белгиланишларининг таснифланиши



3	Чизмаларни бажаришнинг умумий қоидалари
4	Машинасозлик ва асбобсозлик буюмларининг чизмаларини бажариш қоидалари.
5	Конструкторлик ҳужжатлар билан муомалада бўлиш (ҳисобга олиш сақлаш ўзгартиришлар киритиш)
6	Таъмирлаш ва ишлатиш ҳужжатларини бажариш қоидалари
7	Схемаларни бажариш қоидалари
8	Қурилиш ва кemasозлик ҳужжатларини бажариш қоидалари

2 - жадвалдаги, бевосита “Муҳандислик чизмачилиги”га алоқадор бўлган стандартларга 1, 3 ва 4 гуруҳ шифрларига тегишли бўлган “Асосий маълумотлар”, “Чизмаларни бажаришнинг умумий қоидалари” ва “Машинасозлик ва асбобсозлик буюмларининг чизмаларини бажариш қоидалари” стандартлари киради.

Асосий маълумотлар стандартида бевосита “Муҳандислик чизмачилиги”га алоқадор бўлган қуйидаги стандартлар мавжуд.

3 жадвал

Стандартнинг тартиб рақами	Стандартнинг номланиши
ГОСТ 2.103-68	Лойиҳалаш боскичлари
ГОСТ 2.104-68	Асосий ёзувлар
ГОСТ 2.108-68	Спецификация
ГОСТ 2.109-73	Чизмаларга бўлган асосий талаблар

“Машинасозлик ва асбобсозлик буюмларининг чизмаларини бажариш қоидалари” ва “Схемаларни бажариш қоидалари” стандартларида бевосита “Муҳандислик чизмачилиги”га алоқадор бўлган қуйидаги стандартлар мавжуд.

4 жадвал

Стандартнинг тартиб рақами	Стандартнинг номланиши
ГОСТ 2.401-68	Пружиналарнинг чизмаларини бажариш қоидалари
ГОСТ 2.402-68	Занжирли узатмалар тишли ғилдираклари, рейкалари, червяклари ва юлдузчаларини шартли тасвирлаш
ГОСТ 2.403-75	Цилиндрик тишли ғилдиракларнинг чизмаларини бажариш қоидалари



ГОСТ 2.404-75	Тишли рейкаларнинг чизмаларини бажариш қоидалари
ГОСТ 2.405-75	Тишли ғилдиракларнинг чизмаларини бажариш қоидалари
ГОСТ 2.406-76	Цилиндрик червяк ва червякли ғилдиракларнинг чизмаларини бажариш қоидалари
ГОСТ 2.409-74	Шлицали (тишли) бирикмаларнинг чизмаларини бажариш қоидалари
ГОСТ 2.420-69	Йиғиш чизмаларида юмалаш подшипникларининг соддалашган тасвири
ГОСТ 2.701-76	Схемалар. Турлари ва русумлари. Уларни бажаришга умумий талаблар.
ГОСТ 2.703-68	Кинематик схемаларни бажариш қоидалари
ГОСТ 2.704-76	Пневматик ва гидравлик схемаларни бажариш қоидалари

“Чизмаларни бажаришнинг умумий қоидалари” стандартлари тўпламидаги барча стандартлар “Муҳандислик чизмачилиги” фанига бевосита алоқадор бўлган асосий стандартлардан ҳисобланади.

5 жадвал

Стандартнинг тартиб рақами	Стандартнинг номланиши
ГОСТ 2.301- 68	Форматлар
ГОСТ 2.302- 68	Масштаблар
ГОСТ 2.303- 68	Чизиқлар
ГОСТ 2.304-81	Чизма шрифтилари
ГОСТ 2.305-68	Тасвирлар кўринишлар қирқимлар кесимлар
ГОСТ 2.306-68	Материалларни график тасвирлаш ва уларни чизмаларга тушириш қоидалари
ГОСТ 2.307-68	Ўлчамларни ва чекли четланишларни қўйиш
ГОСТ 2.308-79	Чизмаларда қўйимлар шакллари ва юзаларнинг жойлашувларини кўрсатиш
ГОСТ 2.309-73	Юзаларнинг ғадир будурликларини белгилаш
ГОСТ 2.310-68	Чизмаларда қопланишлар термик ва бошқа турдаги ишлов беришларни қўйиш
ГОСТ 2.311-68	Резьбани тасвирлаш



ГОСТ 2.312-72	Пайвандлаш бирикмаларининг чокларини белгилаш ва шартли тасвирлаш
ГОСТ 2.313-82	Ажралмайдиган бирикмаларни белгилаш ва шартли тасвирлаш
ГОСТ 2.314-82	Чизмаларда буюмларни тамғалаш
ГОСТ 2.315-68	Маҳкамлаш деталларининг шартли ва соддалаштирилган тасвирлари
ГОСТ 2.316-68	Чизмаларда ёзувлар, техник талаблар ва жадвалларни қўйиш қоидалари
ГОСТ 2.317-69	Аксонетрик проекциялар
ГОСТ 2.318-81	Тешикларнинг ўлчамларини соддалашган ҳолда қўйиш қоидалари
ГОСТ 2.319-81	Диаграммаларни бажариш қоидалари
ГОСТ 2.320-82	Конусларни ўтказиш қўйим ўлчамларини қўйиш қоидалари

КХЯТ стандартлари 9 та таснифий гуруҳларга тақсимланган бўлиб ҳар бир таснифий гуруҳда 99 та стандарт ҳисобда бўлиши мумкин.

Шунинг учун КХЯТ стандартлари гуруҳи уларнинг рақамланишдаги тартиб рақамини бузмасдан тўлдирилиши мумкин. КХЯТ стандартини белгилашга мисол:

Чизма чизиқлари - ГОСТ 2.303-68 бу ерда,

2 - КХЯТ стандартларига берилган синф

3 - стандартларнинг таснифий гуруҳи

03 - стандартнинг гуруҳдаги тартиб рақами

68 - стандартнинг қайд этилган йили

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда “Муҳандислик чизмачилиги” фанини юқори даражада ўзлаштириш орқали “Амалий механика”, “Машина деталлари”, “Машинасозлик технологияси” каби фанлар бўйича бўладиган курс лойиҳаларини сифатли даражада бажаришга имкониятлар очилади.

Шунингдек, жанговор техникада кечадиган кинематик жараёнларни англаб олиш ва уларни фазовий тасаввур этиш имкони мавжуд бўлади.

Адабиётлар:

1. С.О.Атаханова, “Чизма геометрия ва муҳандислик графикаси” фанини ўқитиш модул-кредит тизимининг имкониятлари, Academic research in educational sciencer volume 1/ISSUE 3/ 2020,ISSN: 2181-1385, Scientific Jourunal Impact Factor (SJIF) 2020:4.804, 1022- 1034 b.

2. С.О.Атаханова, Г.А.Чубарова. Повышение качества преподавания начертательной геометрии в вузах, Maktab va hayot, ilmiy-metodik jurnal, Maxsus son №2, 2020 г., 22-23 стр.



3. Atakhanova Svetlana Ornbaevna, Chubarova Galina Andreevna, Improving the quality of teaching draft geometry in universities, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol. 8 No. 12, 2020 Part III, ISSN 2056-5852, p148-151.

4. Atakhanova Svetlana Ornbaevna, Descriptive geometry and modern possibilities in the process of studying IT, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Volume 8 Number 11, 2020, ISSN 2056-5852, p 90-94.

5. Sutanov Xaytboy Eralievich, Ataxanova Svetlana Orinbayevna, Xalilov Ruslan Shavkatovich, The importance of exhibitions and competitions in organizing fine art clubs in schools, jurnal of critical reviews, VOL.7, ISSULE 15, 2020, ISSN-2393-5125, p 2519-2523.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада муҳандислик чизмачилигини бажаришда қўлланиладиган норматив ҳужжатлар қаторига кирувчи давлат стандартлари ҳақида асосий маълумотлар ёритилган. Мақолада Ҳамдўстлик мамлакатларида бугунги кунда амал қилиб келаётган стандартлар ҳақида асосий маълумотлар келтирилган.

РЕЗЮМЕ

В этой статье освещены основные сведения о государственных стандартах, которые входят в число нормативных документов, применяемых при выполнении инженерных чертежей. В статье приведены основные данные о действующих в настоящее время стандартах в странах Содружества.

SUMMARY

This article highlights the basic information about state standards, which are among the regulatory documents used in the execution of engineering drawings. The article provides basic data on the standards currently in force in the CIS countries.





INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'RGATISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Ergasheva F. A.

Jizzax Politehnika Instituti

Tayanch so'zlar: leksika, leksikologiya, so'z yasash usullari, so'zlarning semantik tuzilishi, sinonim, omonim, antonim, frazeologizm, og'zaki va yozma nutq.

Ключевые слова: лексикон, лексикология, способы словообразования, семантическая структура слов, синоним, омоним, антоним, фразеология, устная и письменная речь.

Key words: lexicon, lexicology, word formation methods, semantic structure of words, synonym, homonym, antonym, phraseology, oral and written speech.

Ta'lim jarayonida o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish, bunda o'quvchilarning yosh-psixologik xususiyatlarini hisobga olish shu kunning asosiy talabidir. Biz quyida maktabda boshlang'ich davrda ingliz tili o'qitishning ba'zi jihatlarini to'g'risida to'xtalmoqchimiz. Zero, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan usullar, yondashuvlar maktablarda endigina ish boshlagan yosh mutaxassislar uchun amaliy yordam vazifasini o'tishiga ishonamiz.

Amaliyot ko'rsatdiki, til o'rganish jarayoni sinf o'quvchilarni guruhlariga ajratib tashkil etilganda samaliroq bo'ladi. chunki bu o'quvchiga dars jarayonida guruhlariga zaruratdan kelib chiqqan holda turli yondashish, takrorlashga ko'proq e'tibor berish tez o'zlashtirayotgan o'quvchiga esa qo'shimcha topshiriqlar berish imkonini beradi. O'tiladigan darslar bir qator-ta'limiy, tarbiyaviy maqsadlarni o'zida mujasamlashtirgan bo'ladi. ushbu maqsadlarga erishish uchun o'qituvchi qator mashqlardan foydalanishi mumkin.

Rasmlar ham til o'rganish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunda o'quvchilar uchta guruhga bo'linadi. Bu o'quvchilarga turli xil kartochkalar tarqatish orqali amalga oshiradi. Masalan, mevalar rasmi chizilgan kartochkalar tarqatiladi. Bir xil mevalar rasmini olgan o'quvchilar 1 ta guruhda har bir guruhda 4 nafardan ishtirokida bo'ladi, ularga bittadan rasm beriladi va guruhdagi har bir ishtirokchi rasmda aks ettirilgan narsalarni inglizcha ifodalab, yozib boradi. Faraz filaylik biror bir rasmda sinfxona tasvirlangan.

1-o'quvchi

Window

a door

2-o'quvchi

a map

a bookshelf

3-o'quvchi

blackboard

a table

4-o'quvchi

a picture

a table



a flowers

a desk

a chair

a book

a book

classroom

a pen

O'quvchilar sinfxonadagi bor jihozlarning inglizcha nomini yozishadi. Bu birinchi bosqich bo'lib, unga 2 daqiqa vaqt beriladi. O'qituvchi guruhlar yozgan so'zlarni tinglaydi. Har bir guruh o'quvchilari yozgan so'zlarning miqdoriga qarab, guruhlar baholab boradi. Agar guruh ishtirokchilari rasmda tasvirlab yozgan so'zlarida bir xillik holatlari uchrab qolsa, bunday holatda so'zlar hisobga olinmaydi va baholanmaydi.

Ikkinchi bosqichda guruh a'zolari o'zlari yozgan so'zlari orqali matn tuzishadi. Masalan, this is our classroom our classroom is large and light there are a lot of maps, flags in our classroom. There are 8 desks and chairs in it we like our room. There are a lot of books on the shelves.

Ikkinchi bosqich jarayoniga 3 daqiqa vaqt beriladi. O'qituvchi har bir guruhning yozgan matnini tinglaydi.

Uchinchi bosqichda matn tuzishda yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlanadi. Bunda guruhlar yozgan matnlarini bir-birlari bilan almashinishadi va guruhlar bir-birlarining yo'l qo'ygan xatolarini topishadi. Albatta, o'qituvchi ham guruhlar yo'l qo'yyotgan xatolarni eslab qolishiga to'g'ri keladi. Shu sababli o'qituvchi sinfxonani aylanib yurar ekan, ularni o'zida qayd qilib borishi zarur. Mashq oxirida qayd etib qo'yilgan ba'zi odatiy yoki muhim xatolarni o'qituvchi aytib o'tishi lozim. O'quvchilarni juftlik yoki guruh ishlari davomida shovqin solmasdan va xushmuomalalik bilan gapirishga hamda vazifani bajargandan so'ng, qo'shimcha vazifa olishga tayyor turishga o'rgatish kerak. Agar mashqni bajarishdan oldin aniq ko'rsatmalar berilsa, o'quvchilar vazifani adashmasdan va ortiqcha shovqinlarsiz bajara oladilar.

Rasmlarga munosabat mashqini bajarish yuzasidan xulosa shuki, bunday mashqdan foydalanish o'quvchilarning tekshirish, og'zaki tasvirlash, muhokama qilish, fikr yuritish, qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bir-biriga do'stona munosabatda bo'lish, birgalikda faoliyat yuritishi muxiti yaratiladi. Bu mashqni bajarish rivojlantiruvchi maqsadga erishish uchun imkon ham beradi, ya'ni o'quvchining fikrlash, tasavvur qilish, diqqat e'tibor, xotira ko'nikmalarini rivojlantiradi, mustahkamlaydi. Darsni yanada samaliroq olib borish uchun turli mashqlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.

Bu mashqlarni bajarish jarayonida so'zlarni ona tilida aytib, ingliz tiliga tarjima qilish talab qilinadi.

"Menga ayt-chi?" mashqni bu usul o'quvchilarning so'z boyligi fikrlash, tarjima qila olish malakalarini muntazam ravishda rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu mashqda o'quvchilar doira shaklida yig'ilishadi, o'qituvchi qo'liga koptokni oladida, har bir o'quvchiga o'tilgan mavzu asosida so'zlardan aytadi. Masalan, "maktab" so'zi aytilib o'qituvchi o'quvchiga koptokni otadi. O'quvchi



koptokni ilib olib, chaqqonlik bilan “school” deb javob qaytarishi lozim. Shu tariqa o‘qituvchi o‘quvchilarga koptokni navbatma-navbat otadi.

Bu mashq hozir javoblikka o‘rgatish bilan birga jismoniy tetiklashtirishga, shaxsiy qo‘rquv va vaziyatni yumshatishga yordam beradi. Bundan mashqlardan faqat darsning boshlanishida foydalanilmay, sinf kayfiyatini yoki ishlash sur‘atini o‘zgartirish uchun ham foydalanish kerak. Shuningdek, bu mashqni savol tarzida ham olib borish mumkin.

Masalan; o‘qituvchilar “where are you from? (sen qayerliksan) savoliga o‘quvchi chaqqonlik bilan I am from Uzbekistan” deb javob qaytarishi lozim.

Ba’zi hollarda o‘quvchi so‘zlarni ayta olmasligi yoki savolga javob bera olmasligi mumkin. Javob berolmagan o‘quvchi bu mashqni tark etish oldidan ingliz tilida she’r yoki ashula aytib davradan chiqib ketadi.

Ushbu turdagi mashqlar o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘quvchilarda chaqqonlik, diqqat-e’tibor ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘tilgan mavzu, yangi so‘z hamda iboralarni qanday darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlash va baholashga mumkin.

Ikkinchi bosqichni bajarishdan oldin o‘qituvchi grammatik materiallar ustida ishlashni maqsad qilib olishi kerak. Masalan o‘qituvchi gap bo‘laklari to‘g‘risida ma’lumot beradi:

Har bir gap bo‘laklari qanday so‘roqqa javob berishini ta’kidlab o‘tadi va gap tuzish formulasini doskaga yozib qo‘yadi. Ega + kesim + to‘ldiruvchi + aniqlovchi + hol bunda guruhning har bir ishtirokchisi orqasiga so‘zlar yoki tinish belgilari yozilgan kartochkalar yopishtiriladi. So‘ng o‘quvchilar gaplashmasdan, imo-ishora orqali grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuza olishlari kerak. Buning uchun o‘quvchi bimalol harakat qila oladigan katta sinfxona kerak bo‘ladi. bu mashqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Har bir guruhda 5-6 nafar ishtirokchi bo‘lishi mumkin:

Masalan;

- | | | | | | |
|---|----|----|------|--------|----|
| - | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| - | of | he | fond | sports | is |

- To‘g‘ri natija: he is fond of sports (2, 5, 3,1, 4,6) shaklida bo‘ladi:

- Uchinchi bosqichda har bir guruh tuzgan gaplarini tahlil qilib, tarjima qilishadi: Ushbu mashqning barcha ko‘rinishlarida guruh ishtirokchilari o‘z joylariga joylashmaguncha, vazifa bajarilmagan bo‘ldi. Agar guruh gap tuzishda qiynalsa, bu o‘qituvchi yordami orqali amalga oshiriladi.

- Navbatdagi oxirgi bosqichda o‘quvchilarga “maslaxatli doira” raqamini bajartirish mumkin. bu mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar 1,2,3 raqamini aytib, guruhlarga bo‘linadilar. Bunda guruh ishtirokchilarning biri o‘qituvchi uzatgan konvertlar orasidan 3 tadan kartochka joylangan konvertni oladi.

- Bu kartochkalarda yozib qo‘yilgan tugallanmagan gaplarni davom ettirish lozim bo‘ladi:



- Masalan If you lat too many sweyets ... I'm fond of ...
- Bunday mashqlar
- Hamjihatlikni oshiradi.
- O'quvchilarning ijobiy fikrlashiga ko'mak beradi.
- Ishonch bilan bog'liq munosabatni yuzaga keltiradi.

Mazkur mashq nalerbal muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi va guruh vazifasini bajarishda asnosida o'quvchilarda hamkorlikda ishlash va ishonch bilan bog'liq munosabatlar yuzaga chiqadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o'qituvchining vazifasi nafaqat bolalarga bilim yetkazish, balki o'zlashtirishlariga, o'rganishlariga yordam berishdir. Bu borada, hurmatli ustozlar har bir darsni qiziqarli samarali o'tishga egamiz. Foydalanib tinglovchilarni lingvistik analizini turli uslublari bilan tanishtirish, hozirgi zamon ingliz tili lug'at tuzilishining synxronik va dyaxronik ta'rifini tushuntirish, lug'atlar ustida ishlash malakasini oshirish hamda notanish tekstlarni o'qib turli xil lug'atlar yordamida analiz qilishga o'rgatishdan iborat.

Og'zaki va yozma nutqning semantik va ekspressiv, stilistik, leksik va sintaktik farqlari; og'zaki va yozma nutqning aralash shakllari sifatida monologik va dialog nutq. Ijtimoiy aloqa muammosida dialog eng ko'p ishlatiladigan shakl ekanligi mualliflar uslubining yagonalik muammolarini o'rganadi.

"Ingliz tili leksikasi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak.

- Leksikologiya – zamonaviy ingliz tili lug'at sistemasini o'rganuvchi fan ekanligi haqida tasavurga ega bo'lish;
- Ingliz tili so'zlarining morfologik tuzilishi va so'z yasaliishi;
- So'z yasash usullari va ularning ishlatish o'rni;
- ingliz tili so'zlarning semantik tuzilishi va undagi muhim ahamiyatlari:
- zamonaviy ingliz tilidagi sinonim omonim va antonim so'zlar haqida;
- ingliz tilida so'z birikmalari va ularning qo'llanishi;
- ingliz tili frazeologizmlari va ularning asosiy xususiyatlari; iboralar, so'z birikmalari; va ularning ma'nosiga putur yetkazmay tarjimada aks ettira olishi;
- Frazeologizmlarning stilistik usulda ishlata olishi;
- ingliz zabon mamlakatlar ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlari;
- ingliz tili lug'at sistemi va ularning rivojlanishi;
- lug'at turlari va ulardan to'g'ri foydalanish;

O'quv jarayonida tinglovchilarga mavzularning mazmunini kengroq yoritib berish ish uslublarini to'g'ri bajarish maqsadida texnik vositalar qo'llaniladi.

Tinglovchilarning o'zlashtirish mezonini ham pyuter orqali, test va reyting usulida aniqlandi.

Leksikologiya fan bo'yicha o'tiladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar tinglovchilarda ilmiy-ijodiy yondashuv, tanqidiy tahlil, muammoli munozara, sintez, o'zi va o'zgalar qarashlarini to'g'ri baholash, olingan axborotni to'g'ri



yetkaza bilish, axborotni ixchamlashtirish va kengaytirish malakalarini egallashga qaratilgan noananaviy usullarda;

Nutqiy modullarni chuqur o'rganish va mashq qilish hamda vaziyatli va rolli o'yinlar baxs munozara, debatlar, loyihalash usuli; taqdimot, kichik himoya. Ta'lim jarayonida quyidagi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Aqliy hujum;
- Guruhlarga bo'lish;
- "Skrabey" texnologiyasi;
- "Veyer" texnologiyasi;
- Loyihalash usulini qo'llab ta'lim berish;
- O'yinlar orqali o'rgatish texnologiyasi;

Ko'rgazmali qurollar;

Plakatlar;

Tablitsalar;

Slay;

Tarqatmalar;

Tinglovchilarning ishlaridan namunalar.

Adabiyotlar:

1. Bo'ronov J. "Chet tili o'qitish metodikasi" Toshkent 1996 yil 132-b.
2. Yo'ldoshev J. "Yangi pedagogik texnologiyayo'nalishlari, muammolari, yechimlari xalq ta'limi" 1999 yil № 4.
3. Jalolov J.J. "Chet tili o'qitish metodikasi" Toshkent 1996.
4. "O'rta umumiy ta'lim maktabida ingliz tili o'qitish bo'yicha o'quv dastur" (5-9) sinflar Toshkent 1999 yil.
5. Rogova G. "Methods of teaching English" Moscow 1983.
6. Hoshimov O'.H. Yoqubov I.Y. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" Toshkent 1993 yil.
7. Prof. Setlin.B.S. "O'rta maktabda chet tili o'qitish kursi" Toshkent 1978 yil.
8. Jalolov J.J. "Chet til o'qitish metodikasi" Toshkent 1990 yil.
9. Temirov Y., Suyarova N. "Chet tili o'qitish metodikasi" – Qarshi 2009 yil.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада инглиз тили лексикасини ўргатишда янги педагогик технологияларнинг аҳамияти ҳақида сўз боради.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о важности новых педагогических технологий в обучении английской лексике.

SUMMARY

This article talks about the importance of new pedagogical technologies in teaching English vocabulary.



O'QITUVCHINING O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHIDA DARS O'TISH USULLARIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Ayslanbekova I. F.

Jizzax Politehnika Instituti

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, rolli o'yin, interaktiv o'qitish, kuzatish, tushuntirish, so'zli usullar, metodik uslublar.

Ключевые слова: обучение, обучение, ролевая игра, интерактивное обучение, наблюдение, объяснение, словесные приемы, методические приемы.

Key words: education, training, role play, interactive teaching, observation, explanation, verbal methods, methodical methods.

O'qituvchining o'rni va uning vazifalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham u o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga solish, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Dars o'tish usullariga psixologik yondashuv

Pedagogik jarayon bevosita pedagog tomonidan tashkil etiladi. Pedagogik jarayon qayerda va qanday pedagog tomonidan tashkil etilmasin, u baribir bitta tuzilishga ega bo'ladi: ya'ni maqsad-tamoyillar mazmuni-metodlari-vosita-shakli.

Maqsad - pedagog va o'quvchi intilayotgan birgalikdagi pedagogik harakatlarning yakuniy natijalarini aks ettiradi. Tamoyillar-maqsadga erishishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Mazmuni – bu tanlangan yo'nalish bo'yicha qo'yilgan maqsadlariga erishishi uchun o'quvchilarga beriladigan ajdodlar tajribasining bir qismidir. Ta'lim mazmuni – maxsus tanlab olingan va jamiyat tomonidan (davlat tomonidan) tan olingan ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun o'zlashtirilishi zarur bo'lgan insoniyatning obyektiv tajribasi elementlarining tizimidir. Ta'lim mazmuni - o'quv muassasasi erishishga intiladigan yakuniy natijadir, bilimlar, mahorati, ko'nikmalari, shaxsiy sifatlari kategoriyalarida ifoda etiladigan o'sha darajasi va o'sha yutuqlaridir. Metodika – bu mazmuni yetkaziladigan va qabul qilinadigan pedagog va o'quvchining harakat vositalari, mazmuni bilan moddylashtirilgan



predmetli «ish» usuli sifatida metod bilan birgalikda foydalaniladi. Pedagogik jarayonni tashkil etish shakli unga mantiqiy yakunlanganlik, tugallanganlikni beradi. Pedagogik jarayonning dinamikligiga uning uch tarkibi o‘zaro bog‘liqligi natijasida erishiladi: pedagogik, metodik va psixologik. Pedagogik tuzilishning asosiy jarayonlarini tashkil etish masalalarini hal etib ta’lim va tarbiya, uning maqsadlarini, shaklini, mazmunini va shu kabilarni aniqlashni ta’minlaydi. Metodik tuzilishini yaratish uchun maqsad bir qator masalalarga bo‘linadi, unga binoan pedagog va o‘quvchilarning faoliyat bosqichi ketma-ketligi tartibi aniqlanadi. Masalan, metodik tuzilishiga tayyorlanuvchi yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, kuzatish joyiga harakatlanish, obyektни kuzatishni, ko‘rganlarini qayd etishni o‘z ichiga oladi. Pedagogik jarayonlarning pedagogik va metodik tuzilishlari uzviy ravishda bir-biri bilan bog‘liqdir. Bu ikki tuzilishdan tashqari pedagogik jarayon yanada murakkab bo‘lgan – psixologik tuzilishni ham o‘z ichiga oladi. Psixologik tuzilish esa quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

idrok etish, fikrlash, anglash, eslash, ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonlarini;
o‘quvchilarning qiziqishlari, ishtiyoqlari, o‘qish sabablari, hissiy kayfiyatlari dinamikasini;

jismoniy va nerv – psixik keskinlikni kuchaytirish va pasaytirish, faollik dinamikasi, ishchanlik qobiliyati va toliqishini;

Shunday qilib, darsning psixologik tuzilishi uchta tarkibiy qismdan iborat:

idrok etish jarayonlari;

bilim olish sabablari;

keskinlik.

O‘qitish metodlari pedagogik jarayon tuzilishida o‘zining alohida o‘rniga ega. Ularni o‘quv materiallarini ishlab chiqish yordamida ma’lum maqsadga erishishga qaratilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro aloqalari usullarini navbatma – navbat almashinishi tushiniladi. «Metod» so‘zi (grekcha – biror narsaga yo‘l) – maqsadga erishish usuli, bilim olish usulidir.

O‘qitish shakli – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning bilim olish davomidagi uyushtirilgan o‘zaro aloqalaridir. Adabiyotlarda quyidagi o‘qitish shakllari ko‘rsatiladi: frontal, individual, guruhli, sinfda – dars paytida, kechki (hamda shunday shakllari ham mavjudki dars, ekskursiya, seminar, ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, ishlab chiqarish amaliyoti, imtihonlar, maslahat). Metodni shakldan farq qiladigan asosiy ko‘rsatkichi bilim olish usuli ko‘rsatilganligi va o‘quvchining o‘zi ishtirok etishga bog‘liqligidir.

Pedagogik adabiyotlarda «o‘qitish metodi» tushunchasini o‘rnini aniqlash borasida hech bir fikr aytilmagan. Masalan, Y.K.Babanskiy shunday deb hisoblaydi: «O‘qitish metodi deb ta’lim masalalarini hal etishga qaratilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning tartibga solingan va o‘zaro bog‘langan faoliyati



usuliga aytiladi». T.A.II'ina o'qitish metodi deganda «o'quvchilarning idrok etish faoliyatini tashkil etish usuli», deb tushunadi.

Didaktika tarixida o'qitish metodlarini turlicha guruhlariga ajratish yuzaga kelgan – so'z bilan, amaliy, ko'rgazmali – bu usullar eng ko'p tarqalgan hisoblanadi.

Har qanday usullar va metodik uslublar pedagogika amaliyotida uslublar bilan amalga oshiriladi. Metodik uslublar - o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning alohida harakatlarini ifoda etuvchi u yoki bu usulning elementidir. Metodik uslublarning turli – tumanligi ularni tizimlashtirishni talab etadi. Ular mantiqiy, tashkiliy va texnik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda turli usullarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan uslublarga ajratish mumkin.

Barcha uslublarda ham bir xil mantiqiy uslublardan foydalaniladi: belgilarini ajratish, hodisalarni (obyektlarni) o'xshashligi va farqi bo'yicha taqqoslash, xulosalar, umumlashtirish va boshqalar. Bu holat o'quvchilar fikrlashi va ularning ishdagi mustaqilliklarini rivojlantirishda hamma usullar imkoniyatlarini muhim darajada belgilaydi. Tashkiliy uslublar o'quvchilarning e'tiborini, idrok etish va faoliyatlarga yo'naltiriladi. Texnik uslublarga turli uskunalar, yordamchi vositalar, metodikalardan foydalanish kiradi.

Mashg'ulotlarda har bir usul ko'plab xususiyat va turlarga ega bo'lgan metodik uslublar bilan ochib beriladi. Idrok etish qiziqishlarini uyg'otish va rivojlantirish, mehnat madaniyatini tarbiyalash uslublarini ko'rsatish mumkin, lekin ular uchta asosiy guruh metodik uslublar bilan amalga oshiriladilar. Metodik uslublarning ko'pligi va ayniqsa ularning birga bo'lishi o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini va pedagogik mahoratlarini ko'rsatadi. Ijodiy ishlovchi pedagog yangi uslublar kashf etadi, hammaga ma'lum uslublarni o'zgartiradi, yanada yaxshiroq ta'lim va tarbiyaviy samaraga erishadi.

So'zli usullar. Suhbat masalalari hal etishda o'qituvchilar va o'quvchilar ham ishtirok etishi bilan ta'riflanadi. Suhbatning maqsadi o'quvchilarning bilimini hal etilishi kerak bo'lgan masalaga yo'naltirilishi bilan belgilanadi. Suhbat natijasida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida ma'lum xulosaga kelishlari, umumlashtirishlari kerak. U o'qituvchilarga noma'lum materiallardan qurilmasligi kerak: o'quvchilarda bo'lmagan bilimlarni ulardan qiynab talab etishga vaqtni bekorga o'tkazish mumkin emas. Suhbat yakunlovchi yoki umumlashtiruvchi darslarga va ilgari bilimlarini yangilari bilan bog'lovchi darslarda, ayniqsa, ahamiyatga ega bo'ladi.

Har qanday suhbatning asosiy tuzilish elementi o'qituvchining savollari hisoblanadi. Ular bayon etilayotgan materialdan tabiiy kelib chiqishi va o'quvchilarning diqqati muhimlarini o'zlashtirishga qaratilishi kerak,



ilgarigi tayyorgarligi yoki o'quvchining haqiqiy mavjud shaxsiy tajribasiga tayanishi kerak. O'qituvchi o'quvchilar faolligini ularga beriladigan savollarni murakkablashtirib borish yordamida suhbatda ishtirok etishlari darajasini asta oshirib boradi. O'qituvchining savollari o'quvchilarning bilimlaridan o'zlari mustaqil foydalanishlariga o'rgatishlari kerak. Savollarning mos ravishda to'g'ri qo'yilishida javoblar ham rivojlanadi, murakkablashadi, o'quvchilar yanada mantiqiy masalalarni yechib boradilar. Bu esa aqliy rivojlanishning muhim tomoni hisoblanadi.

Savol – javob usulida bayon etilganida o'quvchiga o'z diqqatini uzoq vaqt jalb etishi kerak bo'lmaydi, chunki murakkab fikrlar uning oldida qismlarga ajratilib ifoda etiladi, ularni o'zlashtirish doimiy tekshirib boriladi.

Hikoya qilish usuli biror bir hodisalar yoki odamlar hayotidan hodisalarni, buyuk kashfiyotlar tarixi, olimlar hayoti, umuman inson ongi, uning psixologiyasini o'rganish bilan bog'liq ijodiy faoliyati haqida bo'lsa psixologiya mashg'ulotlarida qo'llaniladi. Ba'zi hollarda o'qituvchining hikoyalari mashg'ulotlarda syujetli va obrazli ko'rinish oladi. Aynan hikoyada javob yoki pedagogikada shunday ataluvchi so'z bilan tasvirlash qo'llaniladi.

Hikoya qilish boshqa usullar kabi induktiv qurilishi mumkin, bunda bir qator ma'lumotlardan umumlashtirish kelib chiqadi yoki deduktiv, bunda umumiy holat ma'lumotlar bilan tushuntiriladi.

Tushuntirish - hikoyadan farq qiladi - o'quv materiallarini faktlarni tahlil qilish va xulosalar ifoda etib isbotlash asosida aniq bayon etish hisoblanadi.

Amaliy ishlarni bajarish bo'yicha qisqacha, aniq ko'rsatmalar o'tkazish ham tushuntirish hisoblanadi.

Maktab ma'ruzasi faqatgina katta sinflarda (kollejlarda) qo'llaniladi. Shunda ham o'qituvchi butun dars davomida materialni aytib berish bilan shug'ullanmaydi: dars paytida u o'quvchilardan so'raydi, topshiriq beradi va uy vazifasini tushuntiradi.

Har qanday usuldan foydalanishda ham o'qituvchi o'quvchilar nutq madaniyatiga katta e'tibor beradi. Ayniqsa, so'zli usullarda uning rivojlanishini ko'zda tutish juda muhim. O'quvchilarga beriladigan savollar asta – sekin murakkablashtiriladi. O'quvchilar avvaliga qisqacha, keyin esa keng javob berib, mustaqil ravishda taqqoslaydilar, xulosa chiqaradilar, mulohazalarni bayon etadilar. Keyinchalik o'quvchilar ilmiy mavzularda qisqacha xabarlar va hisobotlar bilan ishtirok etishga o'rgatiladilar.

Ko'rgazmali usullar. Ko'rgazmali usullarni umumiy yaqqollik, pedagogik tamoyil bilan aralashtirish kerak emas. Darsni ko'rgazmali usullar bilan o'tkazganda ko'rgazmali qurollarga yordamchi emas, balki asosiy o'rin beriladi.



Amaliy usullar. Psixologiya fanida qo'llaniladigan ilmiy tadqiqotlar usuli bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, ilmiy psixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan ko'plab usullar ichida, eng ko'p qo'llaniladigani aynan kuzatish va tajriba hisoblanadi, ya'ni narsa va hodisalar inson psixikasini bevosita laboratoriya va tabiiy sharoitlarda o'rganish bilan bog'liq usul hisoblanadi.

Kuzatish – bu hodisalar berilishiga aralashmay turib, psixik jarayonlarni tabiiy sharoitlarda maqsadga muvofiq bevosita his etib qabul qilishdan iborat.

O'quvchilar kuzatishni ko'chada, uyda va darsda shu bilan birga kuzatishni o'quvchilar bevosita o'qituvchi rahbarligi ostida, mustaqil, og'zaki yoki yozma topshiriqlar bo'yicha olib borishlari mumkin.

Psixologik fan sohasida ilmiy tadqiqot vazifalarining va maktabda psixologiya o'qitishning turlicha bo'lishiga qaramasdan (psixika va ongning yangi faktlari va qonuniyatlarini ochish) maktabda (kollej, liseyda) psixologiyadan dars o'tish usullari o'quvchilarni ilmiy tadqiqot metodikasi boshlanishi bilan tanishtirishi yaqqol ko'rinib turadi. Shuningdek, kuzatishlar ularni amalga oshirish muddati bilan ikki guruhga ajratiladi.

Qisqa vaqt va uzoq vaqt davom etadigan usullar. Qisqa vaqtlilari to'laligicha darsga qaratiladi va tarqatilgan materiallar bilan bajariladi. Uzoq vaqtlilari darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi, lekin ularning olib borilishi va natijalari darsda namoyish etiladi. Bu jarayonda o'z-o'zini kuzatish muhim rol o'ynaydi. Tajriba ham qisqa vaqtli va uzoq davom etadigan ko'rinishda bo'ladi. Tajriba ishlarini o'quvchilar odatda mashg'ulotlardan tashqari vaqtda olib boradilar. O'quvchilar uylarida oddiy tajriba o'tkazishdan boshlab tajribalar olib borishga, bog'chada, maktabda yanada murakkabroq va uzoq davom etadiganlariga tayyorlanib boradilar.

Psixologiyada o'qitish usulini tanlash tasodifiy ixtiyoriy bo'lishi mumkin emas. Uni ikki muhim pedagogik talablarga rioya qilib amalga oshiriladi: birinchidan, o'quv material; ikkinchidan o'quvchilar yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Psixologiyadan dars o'tishda idrok etish faoliyati turlari va fikrlash shakllarini yo'naltirish maqsadida o'qitishning ko'p ko'rinishli usullaridan foydalanish zarurdir. Hozirgi zamonaviy faol o'qitish usullarida ko'rsatilgan fikrlash turlarini shakllantirishni boshqarish maqsadida foydalanish uchun eng qiziqarli bo'lgan uchta usulini ko'rsatamiz. Bular dasturlashtirilgan o'qitish, muammoli o'qitish va interaktiv (kommunikativ) o'qitish usullaridir. Bu usullar ishlab chiqilishi va tarqalishi tarixiga to'xtalib o'tirmay, ularning har biri an'anaviy o'qitish usullarining cheklanmaganligini va yangi «faol» usullar bilan yaratiladigan to'siqlarni yengib o'tishga urinish sifatida paydo bo'lganligini ta'kidlash mumkin. Masalan, dasturlashgan o'qitish metodlari an'anaviy o'qitishning maqsad, vazifalarni yechish usullarini, rag'batlantirish shaklini va



darsni bilishini nazorat qilishni aniqlash va operasialashtirishni hisobiga qayta tashkil etishni ko'zda tutgan. Muammoli o'qitish usuli o'qitish jarayonining dasturlashtirish metodlari yo'nalishida haddan tashqari rasmiylashtirishga ma'lum miqdorda javob bergan. Bu metodlar, dasturlashtirish aspektiga emas, balki o'quvchi shaxsi tushib qolgan vaziyatga e'tibor beriladi. Ularni tashkil etilishi va boshqarish markazida o'quvchining muammoli vaziyatda ishtirok etishi hisobiga ular fikrlash faoliyati sababi va usullarini qidiradilar. Interaktiv o'qitish usullari bilimlarni inson o'zaro munosabatlari va aloqalarini tashkil etish yordamida o'zlashtirish jarayonini boshqarish usullariga murojaat etadi. Shu bilan o'qitishni boshqaruv markaziga o'qitilayotgan odamning o'zini, uning o'quv jarayonining boshqa real ishtirokchilari bilan o'zaro aloqalarini qamrab oladi. O'qitish – bu ijtimoiy, jamoatchilik jarayoni bo'lib, juda individual emasligini tan olgan holda qo'yilishi dastlabki qadam bo'ldi.

Bu usullardan har biri o'ziga xos harakatlar yig'indisi yaratilib, ular bilan o'quvchilarning idrok etish faoliyatini rivojlantirish jarayonini boshqarish vositasi sifatida usul mazmuni ifoda etiladi va uning ta'sir chegaralari belgilanadi.

Dasturlashtirilgan o'qitish metodlari tizimi – bu dasturning dozashtirilgan qadamidir. Muammoli o'qitishning algoritmi – muammoli vaziyat va uning turlari, evristik dasturlar va boshqalardan iborat. Interaktiv o'qitish – jamoa bo'lib bahslashish, o'quv – rolli o'yinlar, dialoglar ssenariysi va muammoni jamoa bo'lib birgalikda hal etishda poliloglar (o'zaro munosabatlarni bosqich va davrini ko'rsatib) masalani birgalikda hal etuvchilar o'rtasida («mozgovoy shturm» misollaridan biri) o'zaro munosabatdan iboratdir. Muammoni jamoa bo'lib hal etish algoritmi, evristika va ssenariysi, ularning har birini qo'llanilishi doirasiga mosligini hisobga olgan tizimidagina o'qitishni boshqarish maqsadida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ko'p turli usullari sifatida qaralishi kerak. Rasmiy va norasmiy fikrlashni shakllantirish uchun faqatgina algoritmlar kamlik qiladi va aksincha, oddiy ko'nikmaga o'qitish uchun murakkab evristika mos kelmaydi. Muammoni jamoa bo'lib hal etish esa «vaziyatni hal etish» va intuisiyaning yuzaga keltirish vazifasiga mos keladi.

Birgalikdagi o'quv faoliyatining umumiy xususiyatlari shaxsni tubdan o'zgartirish hisoblanib, shaxsning rivojlanish qonuniyatlarini qayta qurish o'zlashtirilgan mazmuniga munosabati sifatida, o'zlashtirilgan o'zaro aloqalar ham qadriyatli ko'rsatmalar, ma'noli yo'nalishlar, o'qitish maqsadi va o'qitish ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar usullarini o'zida ifoda etiladi.

Shaxsning holatlardagi o'zgarishi faoliyatni o'zlashtirishning yangi bosqichiga va o'quvchi o'quvchilar bilan o'zaro aloqalarning yangi shakllariga o'tishiga sabab bo'ladi. O'quvchilar, o'quvchilar idrok etish faoliyatini faollashtirishga yordam beruvchi usullar orasida o'quv – rolli o'yin alohida o'rin tutadi. Bu



tushunchaning mohiyati bo'yicha o'quvchilar, o'quvchilar tomonidan shartli ravishda va o'quv maqsadida odamlarning haqiqiy faoliyatlarini qayta takrorlash (o'xshatish) dan iborat bo'ladi. O'quv – rolli metodni boshqa usullardan farq qiluvchi muhim belgisi, unda har bir o'quvchining jamoa bo'lib - o'ynalayotgan syujetning ma'lum rolini qabul qilib olib va bajarishi yo'li bilan haqiqiy vaziyatni qayta tashkil etish, amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

O'quv – rolli o'yinda quyidagi amaliy mahoratlar shakllantiriladi:

Mustaqil bilimlarni egallash mahorati;

Masalani yechishdagi evristik, shu jumladan umumiy mahoratlari;

Sinflarda aniq – fan masalalarini mustaqil yechish mahorati.

O'quv – rolli o'yinda o'quvchilarda ilgari salbiy yoki spesefik munosabat uyg'otgannazariyqoidalar(qonunlar,qoidalar,tushunchalar)yaxshio'zlashtiriladi. O'quv – rolli o'yinning xususiyati unda masalani yechish jarayonini jamoaviy xarakterdaligi ko'zda tutiladi. Natijada shunday namunalarda o'qitish uchun sharoit yaratiladiki, bunda bo'sh o'quvchilar kuchliroq o'quvchilarni kuzatadilar va o'zlari ham ularning namunalari bo'yicha harakat qiladilar. Rolli - o'yinda o'quvchilarga javob aloqasi ahamiyatli bo'ladi, unda ular haqiqiy hayotda odamlar o'zlarining qilmishlari oqibatlari haqida qanday qilib bilib olishlarini tasavvur qiladilar va bilib oladilar. Buning natijasida o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarish asosida o'qitish imkoniyati yuzaga keladi.

O'quv – rolli o'yinlarning samaraliligini uning ishtirokchi-larining o'yin paytida masalani hal etishda faolliklari keskin o'sib borishi, ishtirokchilarning faolligini o'sishi manbai esa savollarning kuchliligi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. G'oziyev. E. Muomala psixologiyasi. T.: 2001 y.
2. M. A. Maqsudova. Muloqot psixologiyasi. T.: “Turon – Iqbol” 2008 y.
3. G'oziyev. E. Umumiy psixologiya. T.: 2001 y. I - kitob.
4. G'oziyev. E. Umumiy psixologiya. T.: 2002 y. II – kitob.
5. G'oziyev. E. Yosh davrlar psixologiyasi. T.: 2000 y.
6. I. Petroveskiy. Umumiy psixologiya. 1978 y.
7. G'oziyev. E. Jabborov. A. “Faoliyat va xulq – atvor motivasiyasi. T.: “Zarqalam” 2006 y.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада ўқитувчининг ўқувчилар билан ишлашида дарс ўтиш усулларига психологик ёндашув масалалари кўриб чиқилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются вопросы психологического подхода к методам обучения в работе учителя со студентами.

SUMMARY

This article discusses the issues of a psychological approach to teaching methods in the work of a teacher with students.



O'QUV- TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ILMIY PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA O'RGANILISHI

Ayslanbekova I. F.

Jizzax Politexnika Instituti

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, o'quv jarayoni, psixologik yondashuv, siyosiy, ma'naviy, pedagogik-psixologik, o'quv faoliyati.

Ключевые слова: воспитание, обучение, воспитательный процесс, психологический подход, политическая, духовная, педагогико-психологическая, воспитательная деятельность.

Key words: education, training, educational process, psychological approach, political, spiritual, pedagogical-psychological, educational activity.

Butun jahon tajribisidan ma'lumki, yoshlarni har tomonlama kamol toptirish ularni bilim salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayoni o'ta murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'lib, ushbu soha mutaxassislaridan har tomonlama ya'ni ilmiy, siyosiy, ma'naviy, pedagogik-psixologik va amaliy psixologik yondashuvni talab etadi.

Ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uni samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalar va ularning echimlari qadimiy manbalarda turli millat va xalqlarda o'rganilib o'z ifodasini topganligi va uning hozirgi davr uchun tarixiy manba ekanligi barchamizga ma'lum.

O'rganilayotgan mazkur hodisa va muammolarga nisbatan biz ta'lim jarayonida o'quv-tarbiya muammolarining psixologik jihatlarini o'rganish uchun qisman bo'lsada psixolog olimlar tomonidan olib borayotgan psixologik tadqiqot ishlari ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan psixologik xususiyatlarini qisqacha tahlil qilishga harakat qildik.

B.G. Anan'ev o'quv-tarbiya jarayonining muhim omili hisoblangan muomala kategoriyasi haqidagi tadqiqotlarida o'qituvchining baholash va tahlil qilish huquqi, tarbiyachilik imkoniyati, o'quvchilarning aqliy va axloqiy rivojlanishlari uchun muhim omil yoki manba ekanligi mukammal talqin qilingan.

Muallifning mulohazalaricha, muomala o'quv-tarbiya jarayoni faoliyatining o'ziga xos turi sifatida uning maxsus va etakchi fazilati inson o'z munosabatini o'zгалar orasida amalga oshirishida ifodalanadi. Xuddi shunday fikrni



B.G.Ananev “Inson bilishning predmeti sifatida” asarida quyidagicha ifodalaydi: “Inson xulqi ijtimoiy faoliyat ko’rinishlari (turlari)ning nafaqat murakkab majmuasi, mazkur muhitning moddiylashuvi sifatida namoyon bo’ladi, balki u muomala shaklida har xil ijtimoiy tuzilmalarda odamlarning o’zaro amaliy ta’siri tarzid. Uning fikricha, muomala qanday kechishidan qat’i nazar, hamkorlik munosabatlarida inson shaxsiy harakatini o’zi boshqarishi bilan bir paytda, uning ichki dunyosining qayta tuzilishi o’rtasida o’zaro aloqa hukm suradi.

A.V. Petrovskiy shaxslararo munosabatlar jamoadagi faoliyatdan kelib chiqishini o’rgangan holda, ta’lim jarayonida o’qituvchining o’quvchilar bilan faoliyatini tashkil qilish faqat ularning muloqotga, muomalaga nisbatan ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o’quv materialini o’zlashtirishning ham muhim vositasi ekanligini ta’kidlaydi.

Bu masalaga A.A.Bodalev boshqacharoq yondashadi va o’qituvchi bilan o’quvchining munosabati ularning o’quv-tarbiya jarayoninini samarali tashkil etishni vujudga keltirish uchun zarur asos deb hisoblaydi. Buning uchun o’qituvchilar o’quvchilarning shaxsiga xos xususiyatlari va fazilatlarini, maqsad va ehtiyojlarini hisobga olishlari shartligi, jamoa mu’tadil faoliyat ko’rsatish uchun unda ruhiy vaziyat osoyishta, do’stona, bir-biriga xayrixoh bo’lishi zarurligi uqtiriladi. Jamoada bunday psixologik muhitni tashkil etish uchun sinfdan o’qituvchining pedagogik mahorati, ishlab-chiqarishda rahbarlarning boshqarish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

U odamlarni ham obekt, ham sub’ekt sifatida ta’riflar ekan, o’zaro munosabatlarda bir-biriga moslik yoki mos kelmaslik hal qiluvchi omil ekanligiga alohida e’tibor beradi. O’zaro munosabatlarda shaxsning aqliy taraqqiyot darajasi, hissyoti, xarakter xislatlari, irodasi, dunyoqarashi va shaxsning barcha xususiyatlari qatnashadi.

V.Ya.Lyaudis tomonidan ishlab chiqilgan o’quv faoliyati tizimi va uning mazmun mohiyati jihatidan pedagogik psixologiya sohasi erishgan eng muhim yutuqlar hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan turli psixologik jabhalarni o’rganish keyingi yillarda O’zbekistonda ham amaliyotchi psixologlarni tayyorlash va uning o’rni va vazifalarini tadqiq qilish psixologiya fanining keng tadqiqot ob’ektiga aylanib bormoqda.

M.G.Davletshin o’z tadqiqotlarida o’quvchilarning o’qish faoliyatidagi ko’nikma, malakalarni hosil bo’lishi va psixik qobiliyatlarni rivojlantirish masalalarini ilgari surdi. Shuningdek, uning shogirdlari tomonidan tadqiqot muammosini ilmiy dalillar asosida asoslab berganlar.



M.G.Davletshin ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning samaradorligini oshirishda o'qituvchi bilan o'quvchilar faoliyatining sostial-psixologik mexanizmlaridan o'rinli foydalanish zamonaviy pedagogda muallimning shaxsiga, kasbiga xos xislatlarning mujassam bo'lishi va ulardan o'qitishda o'rinli, me'yori bilan foydalana olishini nazarda tutadi.

Shuningdek, o'qituvchining ezgu maqsad sari intilishi, uddaburonligi, mehnatsevarligi, kamtarligi, haqgo'yligi, sadoqatli bo'lishi, xulq-atvori, yurish turishi, o'zini qo'lga ola bilishi, tashqi qiyofasi, xullas, o'qituvchining milliy va umuminsoniy ahloq me'yorlariga mos keluvchi sifat hamda fazilatlarini ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi faoliyatining samarasini ta'minlovchi muhim omillar ekanligini e'tirof etadi.

Psixolog E.G'oziev tomonidan ham o'quvchilar o'quv faoliyatlari xususiyatlari o'quvchilar o'qish jarayonlari va undagi qiyinchiliklar masalalari tadqiq qilingan. Uning "O'quv faoliyatini boshqarish" nomli o'quv qo'llanmasida o'quv jarayonni boshqarish, bu borada xorij tadqiqotlari o'quvchi shaxsi va aqliy taraqqiyot, intellekt muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, olim tomonidan tafakkur muammosi keng doirada talqin qilinib, yoshga xos tafakkur jarayonlarini rivojlanish ko'rsatkichlari tadqiqot natijalari asosida yoritib berilgan.

Ma'lumki o'quvchilarning yetakchi faoliyatini o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati jarayonida mutaxassislarni tayyorlash asosiy maqsadlariga erishiladi. O'qish faoliyati o'quvchining psixik jarayonlarini xususiyatlarini rivojlanishiga kasbiy muhim bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashga ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qish ijodga aylansa, o'quvchilarning hissiy sohasiga ijobiy ta'sir qiladi., diqqat va xotirasini rivojlantiradi, qoniqish hissini yuzaga keltirdi, faoliyatga nisbatan qiziqishi ortadi.

V.M.Karimova o'z tadqiqotlarida o'quv-tarbiya faoliyati samarali bo'lishi uchun saboq oluvchilar erkinligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlashlari uchun zarur psixologik imkoniyatlarni ishga solish lozimligini ta'kidlaydi. Muallif o'quvchi va o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish uchun, avvalo, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-professor o'zaro munosabatlarini tubdan o'zgartirish, bilim oluvchi shaxsni ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylantirish lozimligini ko'rsatadi. Buni maqsadga muvofiq amalga oshirishning bir qator psixologik shartlari va omillari mavjudligini ta'kidlaydi.

B.R. Qodirov o'zining ko'p yillik ilmiy izlanishlariga tayangan holda ta'lim jarayonida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari eng avvalo, nimalarga e'tibor berish, ishni qanday boshlash zarurligi haqida qimmatli ma'lumotlar



va ilmiy tahlillarni keltirib o'tadi. Olimning fikricha, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta'minlashda, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining psixologik jihatlarini oqilona yo'lga qo'yishda tashxis markazi xodimlari va psixologik xizmatning ahamiyati kattadir. Mazkur sohaning mas'ul xodimi, 'ni amaliyotchi psixolog:

- o'quvchining individual-psixologik imkoniyatlarini har tomonlama chuqur o'rganib, shunga mos o'quv-tarbiya jarayonlarni tashkil etishda;
- ta'limda jarayonida o'qituvchining o'quvchi bilan ishlashi va muloqotga kirishishining mos va qulay usullarini tanlashda va o'zgartirib turishda;
- ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'quvchilarning psixik rivojlanganlik darajalari va munosabatlariga qarab moslash hamda o'quvchilarda shaxsiy va kasbiy kutilayotgan psixologik imkoniyatlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda ta'lim sub'ektlariga yaqindan yordam berib borishni alohida qayd etadi [125;126].

G'.B.Shoumarov ta'lim tizimida psixologik xizmat muammolariga oid tadqiqotlarida bir qator qimmatli g'oyalarni va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalarni ilgari suradi. Olimning fikricha, bugungi kun ta'limi samaradorligini ta'minlash uchun ta'lim jarayonida o'qituvchi-o'quvchi faoliyatini oqilona yo'lga qo'yish zarur. Buning uchun avvalo, ta'lim jarayonini o'quvchining individual-psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish, mavzuni samarali o'zlashtirishni e'tiborga olib, o'quvchi mustaqilligini amalga oshirish va mustaqil fikrlashi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish lozimligi o'z navbatida o'qituvchida ta'lim jarayoni faoliyatini tashkil etishi uchun zaruriy bilimlar, malaka va mahoratlar mavjud bo'lishini alohida ta'kidlaydi.

G'.B.Shoumarov ta'lim jarayonini har tomonlama samarali tashkil etishda ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni belgilangan talab va me'yorlar darajasida yo'lga qo'yish lozimligini ham alohida ko'rsatib o'tadi [120].

A.M. Jabborov tadqiqotlarida ta'lim va tarbiya jarayoniga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va milliy-madaniy omillar, o'zbek maktabi o'qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlari, o'qituvchi-o'quvchilarning milliy-psixologik omillari keng qamrovli o'rganilgan. O'qituvchi va o'quvchi hamkorligining muvaffaqiyati pedagogning shaxsiy, kasbiy va milliy-psixologik qiyofasi qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi, deb baholaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, o'qish, o'qitish masalasiga e'tiborining ortishi bu boradagi tadqiqot ishlari olib borilishiga turtki bo'ladi. O'quv faoliyati masalasining mohiyati mazmuni o'rganilgan bo'lsada, yosh olimlarimiz tomonidan uning o'rganilmagan jabhalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.



Psixologolimlartomonidan olib borilgan yuqoridagi qator ilmiy tadqiqotlarida ta'lim tizimini takomillashtirishga oid doir muammolarning juda ko'p jihatlari o'rganilgan va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirishda amaliyotga keng taqdim etilmoqda.

Adabiyotlar:

1. G'oziyev, E. Muomala psixologiyasi. T.: 2001 y.
2. M. A. Maqsudova. Muloqot psixologiyasi. T.: "Turon – Iqbol" 2008 y.
3. G'oziyev, E. Umumiy psixologiya. T.: 2001 y. I - kitob.
4. G'oziyev, E. Umumiy psixologiya. T.: 2002 y. II – kitob.
5. G'oziyev, E. Yosh davrlar psixologiyasi. T.: 2000 y.
6. I. Petroveskiy. Umumiy psixologiya. 1978 y.
7. G'oziyev, E. Jabborov, A. "Faoliyat va xulq – atvor motivasiyasi. T.: "Zarqalam" 2006 y.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада ўқув-тарбия жараёнини ташкил этишнинг илмий психологик адабиётларда ўрганилиши масалалари ёритилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещены вопросы изучения организации образовательного процесса в научной психологической литературе.

SUMMARY

This article highlights the issues of studying the organization of the educational process in the scientific psychological literature.





TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNI MAVZU ASOSIDA KOMPOZITSIYA ISHLASHGA O'RGATISH

Ibrgimov X. X.

CHDPU Tasviriy san'at va dizayn kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kompozitsiya, eskiz, tasviriy san'at, etyud, rassom, kompozitsiya markazi.

Ключевые слова: композиция, этюд, изобразительное искусство, этюд, художник, композиционный центр.

Key words: composition, study, fine arts, study, artist, composition center.

Kompozitsiya - qonuniy tashkil qilingan organizm, uning hamma qismlari mustahkam aloqada va o'zaro bog'liqlikda. Bu aloqa va o'zaro bog'liqlik xususiyati rassomning g'oyaviy fikri bilan belgilanadi. Fikr mohiyatiga xos bo'lgan konstruktiv g'oya kompozitsiyaning amaliy asosini beradi.

Ye.A.Kibrik

Tasviriy san'at inson hayotida, uning axloqiy tarbiyasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. Insonning his qilish, san'at obyektidan hissiy lazzatlanish xususiyatlarini shakllantirishda – san'atning yo'naltiruvchi asosiy kuchini ko'ramiz.

San'at asarlarini chuqur tushunish, fikrlash undan lazzatlanish, qoniqish hosil qilish – rassomning yaratgan asaridagi mahoratiga bog'liq.

Har bir ijodkor rassom atrofidagi go'zallikni ko'ra bilishi, his qilishi, zavqlana olishi va uni yaratayotgan ijodiy asarida ko'rsata olishida kompozitsiyaning ahamiyati juda katta.

Ma'lumki tasviriy san'atning barcha tur va janrlarida kompozitsiya muhim ahamiyatga ega. Kompozitsiya so'zi lotinchadan "kompositio" - ya'ni predmetlar bo'laklarini solishtirib, ma'lum tartibda yaxlit joylashtirish, g'oyaga muvofiq ijod qilish, bayon qilish, kompozitsiya tuzish demakdir. Kompozitsiya orqali rassom asardagi mazmunning muayyan tarkibdagi chiziq, shakl, rang va boshqa vositalar orqali tomoshabinga ta'sir kuchini oshiradi. Uning elementlarini o'zaro bog'lab joy-joyiga qo'yadi, fazoviy kenglikni yaratadi. Har bir tasviriy san'at asari ma'lum kompozitsiyaga ega bo'ladi. Zero, kompozitsiya asar yaratilishida birinchi galda hal etiladigan muhim ish hisoblanadi.



Mashhur rassomlarning aytishicha insonni to'qinlantiradigan va tinchlik bermaydigan qandaydir bir g'oya tug'ilgandagina darhol eskiz qilinadi. Kompozitsiya ustida ishlaganda soxta vazifalardan kelib chiqmaslik va kartinani qandaydir bir mazmuniy geometrik sxemalar asosida qurish kerak. Toki qiziqarli mavzuni topmasdan turib, kompozitsiya bilan shug'ullanish yaramaydi.

Mavzu deganda rassom o'ylagan, o'zining yaratilajak asarida ifodalamoqchi bo'lgan hissiyot va fikrlar, g'oyalar yig'indisi tushuniladi.

Mavzu albatta chuqur bilim doirasida hayotiy voqealar va tajriba asosida tug'ilishi kerak, mavzu "dolzarblik"ni ro'kach qilib, majburiy va soxta, notabiiy holda tanlanmaydi. Agarki, rassom odamlarga aytiladigan ichki yangilik, qandaydir voqeaning zarur va ahamiyatli tomonini ko'rsatmasa va o'z qobiliyatiga qarab mavzuga kirishmasa, u asar yaratilmaydi.

Agarki, mavzu topilib va rassom unga qiziqqan bo'lsa, tarixiy, hujjatli, portret yoki manzara materillarini o'rganish uchun astoydil ish boshlanadi. Bunday materiallarni har tomonlama chuqur o'rganish bilangina ijodiy tasavvurda kartina mazmuni yaqqolroq namoyon bo'ladi. Tasvir g'oyasi, mavhum ko'rinishdagi chiziqlar, shakl va bo'yoqlarda emas, balki jonli, konkret obrazlarda ifodalanadi. Kartinada personajlarning gavda holati, turishi, ularning ruhiy xolati motivlashtirilgan holdagina tasvir mazmunni jonlantiradi va badiiy obrazga aylantiradi. Har bir realistik asarning zaruriy asosi mazmunli voqeani topish bilan belgilanadi. Mazmunni esa, harakatdagi odamlar soni, ularning joylashishi, gavdaning o'lchami, ko'rish nuqtasini tanlash va boshqa shu kabilar belgilaydi.

Bir mavzuning o'zi turli xil mazmunda yoritilishi mumkin. Masalan, urushga qarshi mavzularda garchi barchasining mazmuni, voqeasi har xil bo'lsada bir nechalar mashhur kartinalar yaratilgan. Rassom uchun mazmun darrovagina topilmaydi, balki o'ylangan mavzuni chuqur va to'liq ochib berish imkonini beruvchi kompozitsion yechim izlaniladi, toki, uning ko'ngildagidek aniq, tushunarli ifodasi topilmaguncha juda ko'plab qoralamalar qilinishiga to'g'ri keladi. Mazmun topib olingach esa, shu zahotiyoq kompozitsiya eskizi ustida tinimsiz, zahmatli ish boshlab yuboriladi. Birinchi eskizlar kichik o'lchamda bo'lgani ma'qul.

Eskiz - bu kartina loyihasi, kartina ustida ishlashning birinchi bosqichi hisoblanadi. Eskizda qog'oz yoki xolstning formati, tasvirni o'lchami, ko'rish nuqtasi, gorizont balandligi aniqlab olinadi. Eskizning turli variantlarida yechimning eng maqbul, tushunarli ifodasiga erishishi, obyektlar predmetlarni ishonarli joylashtirish, figuralarni guruhlashtirish, g'oyaviy markazni topish,



tomoshabinni asosiy e'tiborini tortadigan bo'lishi lozim. Har bir figura yoki detal o'zini umumiy g'oyasi ichida alohida ahamiyatli o'rnini topishi va barcha vaziyat mavzuni ochib berish uchun xizmat qilishi kerak.

Tasviriy san'atda teatr yoki adabiyotdan farqli o'laroq faqat bir moment, yoki bir zumlik on tasvirlanadi. Harakat konsentratsiyasi yagona tasviriy momentdagi kompozitsiyaning qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Vaholanki, obrazli yechimning kuchi vaqtning ma'lum bir narsasini idrok etish bilan bog'liq bo'ladi. Kartina kompozitsiyasi shunday tuzilishi kerakki, tomoshabin undagi voqeaning davomiyligini va bu sahnada nima voqea bo'lib o'tganini va nima bo'lishini his qilsin. Mana shu holdagina kartinada hayot harakati beriladi, u quruq va jonsiz, harakatsiz bo'lib qolmaydi.

Eskizda kompozitsion yechim hal etilgach, (personajlarning harakati va holati, ularning psixologik xarakteristikasi, kiyinishi, vaziyati, va boshqa) kartina uchun etyud bajarishga o'tiladi. Bu ishni yaxshiroq bajarish uchun, kartina holatini yoritish maqsadida alohida bir tipaj topish zarur bo'ladi.



Qoralama va etyudlarni albatta kartina voqeasi tasvirlanishiga mos holdadagi vaziyat va yoritilganlik sharoitida bajarilishi shart.

Masalan, M.E.Repin 1878 yilning yozida birinchi marta «zaporojelik kazaklarnig turk sultonining asir bo'lishga undovchi xatiga javob»i bilan tanishib qoladi. Kazaklarning bu javobidan rassom qattiq xayratga tushadi. Uni erkin, hech qachon xech kim tomonidan zabt etib bo'lmagan Zaporoje Sechi yurtining qahramonona ruhiyati qoplaydi. Shundan so'ng u kartina yozish ishtiyoqi bilan yonib yuradi.

Birinchi marta Abramsevada kartina mazmunini qoralamasini qiladi. Unda erkin, kulishayotgan kazaklar obrazi ko'rsatiladi. So'ng biroz vaqt o'tgach birinchi rangtasvir eskizini chizadi. Barcha sahnani rassom tomoshabinga yaqinlashtiradi, asosan kazaklarning yuz ifodasi va xarakatlariga, ularning xarakterli qiyofalariga e'tiborni tortadi. Orqa planda quyosh yog'dusida yaltirab turgan Dnepr daryosini tasvirlaydi. Voqea vaqti major, tasvirlanayotgan voqega mos hayotiy-quvonchli, tantanali ifodasini topgan. Bu eskiz faqat ijodiy ishning boshlanishi edi. Repin tarixni, davrni, tevarak atrof muhitni chuqur o'rganmasdan turib ishni davom ettirishni tasavvur ham qila olmasdi. Shu bois, shogirdi yosh V.Serov bilan 1880 yili Ukrainaga Zaporoje Sechi joylashgan yerga keladi.

Repinni kazaklarning xarakterli tiplari qiziqtirardi. Ukrain manzarasi va asosan Ukrain milliy xarakteri belgilari: tabiiy ongi, jasurlik, o'ziga ishonch,



va yumor. Repin deyarli barcha Zaporozhe cherkovlariga bordi, ularni ichki ko'rinishi va buyum-anjomlarini chizdi, shuningdek, kazaklarning bayroqlari, miltiq, qilichlari, kiyinishidagi harbiy farqli belgilarini o'rganib chiqdi. Xomaki rasmlar bilan bir necha albomlarni to'lg'azadi va shundan keyingina navbatdagi ishga kirishadi. Repin birinchi variantidagi rangtasvir eskizdan farqli holda xolstning formatini kattalashtiradi. Voqeada qatnashuvchi shaxslar sonini ko'paytiradi va ayrim figuralarni butunlay olib tashlaydi. Kazaklarni butun galasi bilan yaxlit biroz orqaroqqa oladi va kartinani mazmunli maishiy ko'rinishda emas, balki qahramonona mazmundagi tarixiy kartina sifatida ko'rsatishga urinadi.

Kartina ustida ishlash jarayonida Repin o'zining qahramonlari portret xarakteristikasidagi kamchiliklarni sezib qoladi va 1888 yili Zaporozhe kazaklarining avlodlari yashayotgan Kubanga boradi. Qariya kazaklarning yuzidagi chuqur ajin va tirtiqlarida u eng avvalo donolik, boy hayotiy tajribalarni va qahramonona harakatlar qila oluvchi halq timsolini ko'radi. Masalan, oddiygina, kichik bir stansiyada yashovchi Vasiliy Oleshkoda u, dono va jasur zaporozjeliklar atamani Ivan Serkoning xarakterlovchi belgilarini ko'radi va o'z o'rnida kartinaga kiritadi va ko'plab naturadan qilingan etyudlarni do'stlari tanish-bilishlari ichidan o'ziga kerak bo'lgan obrazlari uchun qiyofalarini topib tasvirladi va 1891 yili kartinani tugalladi. V.I.Surikov bejiz aytmagan: «Men avvalo qadimiy ustozlarning kartinalaridagi kompozitsiyada hamma narsani kuzatdim, shundan so'ng uni ko'rishga o'rgandim»



Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki rassom mavzuli kompozitiya ishlash jarayonida eskizlar ishlashi va bajarilgan eskizlar asosida yakuniy asar yaratishi va yaratgan ijodiy asaridan lazzatlanishi, zavqlana olishi, qalbidagilarni tomoshabinga yetkazib bera olishida albatta kompozitining oʻrni beqiyosdir.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Gʻ. Kompozitsiya oʻquv qoʻllanma. T.2007 y
2. Egamov A. Kompozitsiya asoslari. T., “Sanʼat”, 2005 y
3. Кузин В.С. Наброски и зарисовки. М., 1970 y

Elektron adabiyotlar:

1. www.cspi.uz
2. www.pedagog.uz

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola tasviriy sanʼat sohasida ijod qilayotgan barcha pedagog rassomlar uchun moʻljallangan. Maqolada ijodkor tomonidan yaratilayotgan asarda kompozitsiyaning ahamiyati va mavzu asosida kompozitsiya ishlash jarayonlari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья предназначена для всех художников-педагогов, работающих в сфере изобразительного искусства. В статье кратко рассматривается значение композиции в произведении, созданном художником, и процесс композиции на основе темы.

SUMMARY

This article is intended for all artists-educators working in the field of fine arts. The article briefly discusses the meaning of composition in a work created by the artist and the theme-based composition process.





MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI O'RNI

Ko'kiyev B. B.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Muhandislik va kompyuter grafikasi
kafedrası mudiri*

Tayanch so'zlar: proyeksiya, texnologiya, metodika didaktika, usul, ijodiy, metod.

Ключевые слова: проектирование, технология, дидактическая методика, метод, творчество, метод.

Key words: projection, technology, didactic methodology, method, creativity, method.

Hozirgi kunda yurtimizda o'qituvchilarga yaratilib berilayotgan shart sharoitlar pedgoglarning o'z ustida yanayam ishlashi fanni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Bugungi kunda barcha fanlar qatori tasviriy san'at va chizmachilik fan o'qituvchilarining o'ni beqiyosdir. Bu fanlarning biri aniqlikda sifatli, ishlashni o'rgatsa, ikkinchisi unga bezak joziba berishi bilan alohida ahamiyat kasb e'tadi. Shu kunlarda bu fanlarni o'qitayotgan fan o'qituvchilarining darslarni tashkil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, darslarni tashkil qilinishi talab qilinmoqda, o'quvchining fanlarga qiziqtirishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanib fanga qiziqtirish mumkin. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi barcha o'qitish metodologiya va metodikalarning ilmiy tahlili natijasida asta-sekin maydonga kelgan hosilidir. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada dastlab Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Niderlandiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Yaponiya, Amerika Qo'shma shtatlari, Isroil kabi mamlakatlarning ta'lim muassasalarida keng ko'lamda sinala boshlanadi.

Ushbu hamkorlikda o'qitish texnologiyasi turli mamlakatlarada turli yillarda rivojlantira boshlangan. Masalan, AQSh da dastlab Kaliforniya universiteti professori J.Arnsen tomonidan joriy etilgan. Minesot Universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonsonlar va J.Hopkins Universiteti professori H.Slavin hamda Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sheron tomonidan ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan hamkorlikda o'qitish asosan, o'quvchilarda DTS (Davlat ta'lim standarti) va



fan dasturlarida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan. Isroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralari olib borishni ko'zda tutadi. Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqoza etadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining ahamiyati.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi-o'quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish – o'rganishdir. Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rganish, shaxs sifatida ongliklik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni muslahkamlash, tahsil olishda ma'suliyat hissini shakllantirishni nazarda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyatiga olib kelishini aniqlagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib o'zaro yordam uyushtirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil qilishning bir nechta metodlari mavjud. Ular: 1. Komandada o'qitish metodi. 2. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish metodi. 3. Hamkorlikda o'qitishning “zigzak” yoki “arra” metodi. 4. Hamkorlikda o'qitishning “birgalikda o'qiymiz” metodi. 5. Kichik guruhlariga ijodiy izlanishni tashkil etish metodi. Quyida har bir metod haqida qisqacha axborot beriladi. Darslarni yuqorida keltirib o'tilgan pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilinishi, o'quvchilarda jamoviy ishlash, birgalikda harkat qilish va natijaga erishish mumkin ekanligini uqtirish mumkin. Darslarda birgalikda biron bir asarni yaratish, birgalikda biron bir binoning loyihasini tuzish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bunda o'quvchi bir birlari bergan takliflar orqali boshqasi uni to'ldirib borishi va yaratilayotgan asar, loyihaaning mukammal chiqishiga hissa qo'shgan bo'ladi. Bu bilan o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga jamoviy, hamkorlikda erishishi, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Murodov Sh.K va boshkalar, (2020). Chizma geometriya. Oliy pedagogika o'quv yurtlari uchun darslik, Toshkent, "Iqtisod-moliya".
2. Muradov Sh.K., Ko'kiyev B.B., (2020). Qiyshiq burchakli yordamchi proyeksiyalash bilan bissektor tekisligida yechiladigan pozitsion masalalar yechimini topish. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, 2(23) 10-12.



3. Kukiev, B., O'g'li, A. N. N. & Shaydulloyevich, B. Q., (2019). Technology for creating images in autocad. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12), 49-54.
4. Муродов, Ш. К., Кўкиев, Б. Б., Облокулова Л. Ф., (2019). Якқол тасвирлар куришда кий-шиқ бурчакли аксонометрик проекциялардаги ўзгариш коэффициентларининг ўзаро боғлиқлиги. *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti*, 2(74). 282-285.
5. Xalimov Moxir, Achilov Nurbek, Bekqulov Qudrat, Xo'jaqulov Elbek, Ko'kiyev Boburmirzo., (2020). Chizmachilik va chizmageometriya fanlarida burchak topishning bazi usullari. *Физика математика фанлари журналы*, 4 (1), 47-52.
6. Achilov, N.N., (2020). O'yinli texnologiyalardan foydalanib chizmachilik darslarida o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va dars samaradorligini oshirish metodikasi. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 49-60.
7. Murodov Shmidt., Boburmirzo Kokiev., (2021). Позицион масалаларини ечишда ёрдамчи проекциялаш усулининг афзаллиги. *Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations*, 556-559.

РЕЗЮМЕ

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarining darslarni tashkil qilishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va darsa jarayoniga tadbiiq e'tish, bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

Статья содержит рекомендации будущим учителям по использованию новых педагогических технологий в организации уроков и их применению в учебном процессе.

SUMMARY

The article contains recommendations for future teachers on the use of new pedagogical technologies in the organization of lessons and their application to the lesson process.





EKOLOGIK XAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Muxtarova L. A.

Termiz davlat pedagogika instituti

*“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tayanch so‘zlar: ekologik xavfsizlik, madaniyat, kognitiv, akmeologik, aksiologik omillar, o‘quvchilar, tabiiy fanlar, tabiiy savodxonlik.

Ключевые слова: экологическая безопасность, культура, познавательный, акмеологический, аксиологический факторы, студенты, естествознание, природоведческая грамотность.

Key words: environmental safety, culture, cognitive, acmeological, axiological factors, students, natural sciences, natural literacy.

Kirish. Fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanishda noqulay ekologik vaziyat qamrovi jihatidan umumbashariy ahamiyatga molik ekologik xavfni yuzaga keltirmoqda. Ekologik xavfning kelib chiqish sabablari tabiat, jamiyat va texnika orasidagi fanlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish xamda ekologik xavfga yo‘l qo‘ymaslik bugungi kunning asosiy muammosi bo‘lib qoldi.

Ona tabiatimizga ko‘rsatilayotgan tajovuzkorona munosabat oqibatida yuz berayotgan ekologik muammolarni bartaraf etishda ekologik ta‘limning o‘rni beqiyos. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoevning 5712-son farmoniga[1] muvofiq o‘quvchilarning tabiiy savodxonligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ta‘lim jarayoniga o‘qitishning innovatsion shakl va usullarini joriy etish maqsadida ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilab berildi [6].

Ekologik ta‘lim va tarbiya orqali o‘quvchilarda koinotdagi yagona hayot mavjud bo‘lgan er cayyoraci haqidagi tacavvurlar, o‘z yashash muhiti to‘g‘ricidagi bilimlar, atrofimizdagi olam, tabiat va inconlarni o‘zaro uzviy bog‘langanlik haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar, o‘z o‘lkaci va vatanining ekologiktizimlari(ekotizimlari), ularningpaydobo‘lishi, evolyusionrivojlanishi, antropogen o‘zgarishi, makon va maydon bo‘yicha tarqalish qonuniyatlari, undan kelib chiqadigan xucuciyatlari, boyliklari, holati, kelajak ictiqbollari,



milliy, regional va global miqyodagi tabiat va jamiyat munocabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, er yuzaci atrof-muhitini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashga oid muammolarni anglash va ularning echimini topishga doir to'g'ri qarorlarni qabul qilish kompetensiyaci, ularni tanlagan kacblarga qarab ekologik ta'lim va tarbiya shakllantiriladi xamda rivojlantirilad [3; B-12].

“Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi”da umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari mazmuni quyidagi malakalar bilan boyitilishi ta'kidlangan: o'quvchilarda ekologik mada-niyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirish, o'quv fanlari doirasidagi ekologik bilimlarni amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkoni-ni beruvchi amaliy topshiriqlar bilan boyitish (nazariya yoki muxokamadan amaliyotga o'tish), matematika, iqtisodiy bilim asoslari fanlari mazmuni-ni tejamkorlikka oid aniq iqtisodiy-ekologik masalalar bilan boyitish, ekologik bilim berishda “oddiydan murakkabga”, “uzviylik va uzluksizlik” kabi pedagogik tamoyillarga tayanish, ekologik madaniyat xamda tarbiyaning bosqichma-bosqich shakllanishini ta'minlaydigan maqsadli faoliyatni tashkil etishni nazarda tutadi[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyatni shakllantirishning ayrim pedagogik jihatlarini E.O.Turdiqulov, B.X.Xodjaev, Yu.G'.Mahmudov, X.J.Xudayqulov, N.J.Isakulova, X.B.Norbutaev, Sh.L.Maxmudova, V.N.Sattorov, Ye.B.Aydarov, U.G.Saidova, A.R.Malikova, M.K.Shirinov, N.A.Mirzaeva, G.A.Ismoilova, A.Yu.Kuchkinov, G.I.Qosimova, L.M.Abdunazarov, I.X.Ayubovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola muammoga doir ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va taxlil etish, ekologik bilim berishda “oddiydan murakkabga”, “uzviylik va uzluksizlik” kabi pedagogik tamoyillarga tayanish asosida yoritilgan bo'lib, o'quvchilar ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar. Ta'lim texnologiyalari o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'z oldiga ta'lim shakllari samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs zahiralari, ularning aloqasini xisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limni takomillashtirishda innovatsion ta'lim texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri [4; 85-b]. Zero, bilimni ehtiyojga aylantirmasdan, o'quvchida motivatsiya hosil qilmasdan ta'limiy maqsadga erishib bo'lmaydi. Shu maqsadda boshlang'ich sinf o'quvchilarida



ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning kognitiv, akmeologik, aksiologik omillari ta'limiy sharoitda aniqlashtirildi.

1. Kognitiv omil - tabiiy-ilmiy bilimlarni olish jarayoniga aloqador: xavo va suvning ifloslanishi, global isish, maishiy chiqqindilar, kislotali yomg'ir va issiqxona effekti. Mazkur omil o'quvchining ekologik mazmundagi o'quv topshiriqlarini anglash, qo'llash va mulohaza yuritish ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda o'quvchilarda fanlararo nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obektlar, xodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi; kundalik xayotda kuzatish mumkin bo'lgan tabiiy xodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni fan mazmuniga oid bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi; jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'ladi shuningdek, o'z faoliyatini kreativ rivojlantira oladi; tabiiy va boshqa resurslarning jamiyatdagi o'rni xamda shaxsiy faoliyatidagi ahamiyatini biladi; insonning atrof-muxitga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishini tushuntiradi; ekologik muammolarni hal etish yo'llari va g'oyalarini ilgari suradi, o'z fikrini bayon etadi; salomatlik va sog'lom turmush tarzining nazariy xamda amaliy asoslarini biladi.

2. Akmeologik omil - o'quvchi shaxsining rivojlanishiga aloqador: motivatsiyaning yuksak darajasi, ekologik bilimlarni egallashga intilish, ijtimoiy intuitsiya, ijodkorlik, shaxsiy fazilatlarini ifodalash qobiliyati, tabiatdagi ob'ekt va xodisalarni qiyoslash, ijodkorlik, shaxsiy fazilatlarini ifodalash, o'z-o'zini anglash istagi.

Akmeologiya fan sifatida nafaqat "akme" (yuksaklikka)ga erishish mexanizmlarini ochibgina qolmay, balki shaxsning xatti-xarakatlar modelini (xususan, bolalik va o'smirlik davrida) ishlab chiqadi, bu unga etuk yosh davriga maksimal darajada yaqinlashishiga imkoniyat yaratadi. Shaxs ekologik dunyoqarashi akmeologik fenomen sifatida uzluksiz rivojlanib boradigan akmeologik tizimining sub'ekti «inson (shaxs, faoliyat) - tabiat (atrofimizdagi olam) munosabatlarida ekologik bilimdonlik, ekologik madaniyatlilik kabi shaxsiy fazilatlarini egallashida ifodalanadi.

N.V.Kuzmin va A.A.Rean akmeologik omillarni ob'ektiv, sub'ektiv va ob'ektiv-sub'ektivga ajratadi. Ular ob'ektiv akmeologik omillarni yuqori natijalarga erishishga qaratilgan xarakatlarning xaqiqiy tizimi va ketma-ketligi bilan bog'laydi.

Akmeologik omilning xususiyatlaridan biri bu insonning o'zini o'zi rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyoji, shuningdek, ushbu



ehtiyojni qondirish uchun harakatlarni amalga oshirishdir. Akmeologik omilni - harakatlantiruvchi kuchlar xususiyatiga ega bo'lgan asosiy sabablar, tabiiy-ilmiiy savodxonlikni shakllantirishning asosiy belgilovchilari sifatida belgiladik.

Akmeologik omilning ikki turini kuyidagicha izoxlaymiz:

- ob'ektiv, ya'ni o'quvchi o'quv-biluv faoliyatning real tizimi bilan bog'liq va ba'zan tashqi topshiriq, ya'ni me'yorlar bilan bog'liq mezonlar sifatida namoyon bo'ladi va shaxsning tabiat va atrof muhit bilan uyg'unlikda hayot kechirishi, turmush tarzi, ekologik muammolarni ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi.

- sub'ektiv omil shaxsning ichki ehtiyojlari, individual shartlar, motivlar, yo'nali'lar, qobiliyat, malaka, kompetensiya, shaxs ijodkorligi, borliq va atrof-olamga qiziqishi, tabiat, atrof muxitni e'zozlash va oqilona munosabatlarini anglash. Uning namoyon bo'lish o'lchovi ekologik xavfsizlik madaniyatining o'sishiga yordam beradigan sub'ektiv sabablardir.

3. Aksiologik omil - o'quvchi shaxsi qadriyatlariga aloqador: o'quvchining ekologik madaniyati, ekologik qadriyatlarni asrab, sog'lom turmush tarziga amal kilish, ma'naviy, estetik, axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, xavfsiz hayot ko'nikmalarini egallash. Ekologik xavfsizlik madaniyatini ekologik madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qiyoslash mumkin. Demak, o'quvchining ekologik xavfsizlik madaniyatiga oid bilim kompetensiyasini egallanganligi uning atrof-muxitdagi tabiiy xavf-xatarlardan himoyalalanish ko'nikmasini aks ettiradi[5].

Ekologik xavfsizlik madaniyatini ekologik madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qiyoslash mumkin. Demak, o'quvchining ekologik xavfsizlik madaniyatiga oid bilim kompetensiyasini egallanganligi uning atrof-muxitdagi tabiiy xavf-xatarlardan himoyalalanish ko'nikmasini aks ettiradi.

Biz tomondan taklif etilgan modelda o'quvchilar ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish bosqichlari, didaktik tamoyillar (shaxsga yo'naltirilgan, insonparvar, individual, sub'ektiv), tabiiy savodxonlik kompetensiyalari (kontekst, bilim, munosabat), tabiiy-ilmiiy kontekstlar (shaxsiy, maxalliy, global), ilmiy bilish turlari (fan mazmuniga oid, metodologik, epistemik), ekologik bilimlarni o'zlashtirishning kognitiv darajasi (yuqori, o'rta, quyi) vizuallashtirish ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan mexanizm aks ettirilgan.

Taklif etmoqchi bo'lgan modelimiz uch bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqichda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyatiga doir bilimlarning shakllanganlik darajasi xamda o'quvchilarning fanlararo o'qishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish imkoniyatlarini o'rganish.



Ikkinchi bosqichda ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo takomillashtirish metodikasining samaradorligi, xamda fanlararo aloqadorlik asosida ekologik bilimlarni baholashda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakala va kompetensiyalari ijodiy tavsifdagi o'quv va test topshiriqlar orqali o'zlashtirish darajasini aniqlash.

Uchinchi bosqichda o'quvchilarning fanlararo o'qishga bo'lgan qiziqishlarini motivatsiyali, kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv komponentlar asosida o'ttirish.

Model DTS talablari asosida ishlab chiqilgan. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, baholashning mazmunli asosi tarkibiy qismlariga mos keladigan model quyidagi uchta asosiy qismlarga ajratildi: maqsadli, jarayonli va natijaviy blok.

Maqsadli blokda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirish jarayoni definitsiyasi zamonaviy yondashuvlar asosida qiesiy tahlil qilindi. Ilmiy-nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida tadqiqot bosqichlari belgilandi. Tayyorlov bosqichi (tayyorgarlik ko'rish, qulay muxitni yaratish), tajriba-sinov bosqichi (diagnostik metodika, anketa so'rovnoma o'tkazish) va ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichi (natijalarni qayta ishlash) mazmunida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Jarayonli blok baholashdan o'tish bosqichlari ketma-ketligini belgilaydi xamda ekomazmundagi mavzularni fanlararo o'qitish metodikasi samaradorligi, shuningdek, ushbu bosqichda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni loyihalash, o'qitishning maqbul usul va vositalarini tanlash, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mahsuldorligini tashislashning yorqin ifodasi kuzatiladi.

Tajriba-sinov jarayonida "Hayot qadriyatlar", "Ekologik tasavvur", "Xavfsiz faoliyat", "Xavfsiz sog'lom ko'nikma" mazmunidagi diagnostik materiallar bilan boyitilgan metodika xamda anketa so'rovnomalardan foydalanildi. Suhbat natijasiga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Ekologik xavfsizlik" mazmunidagi mavzularni fanlararo aloqadorlik asosida birlashtirib o'qitish metodikasida uchraydigan murakkabliklarni aniqlash imkonini berdi. Diagnostik metodika natijalari tahlili orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat mazmuni aniqlandi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan o'tkazilgan suxbatda fanlararo aloqadorlik o'rnatishda uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash imkonini berdi. Tajriba-sinov jarayonida fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyati bo'yicha ma'lumotlar yig'ish hamda taklif etilayotgan metodikaning samara berishini isbotlash hamda taklif va tavsiyalar berish maqsadida olib borildi. Fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyatini takomillashtirish jarayonida o'quvchilarda



o'quv faolligining shakllanganlik darajasini o'quvchilarga tushuntirib berish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

O'quvchilar o'rtasida ekologik xavfsizlik madaniyatini diagnostik-baholash modeli asosida yaratilgan g'oya o'quvchi uchun uni o'z vaqtida tashxislash va shakllantirishning individual traektoriyasini qurish, ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan.

Bizning fikrimizcha ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirishda o'quvchining olgan ekologik bilimlari asosida egallangan biror-bir faoliyat yoki harakat yangi sharoitlarda bajarish qobiliyatiga muvofiq bo'ladi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyati o'quvchining atrofida va ta'lim faoliyati uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan ruhiy-madaniy olamini ifodalovchi yuksak onglilik va mas'uliyatni his etgan xolda ekologik javobgarlik, qadriyatlarga hurmat va ehtiromni to'liq ifodalash, hayoti va o'z salomatligi borasida qayg'urish, inson faoliyatiga taxdid soluvchi xavfli omillarni bartaraf etishning maqbul vositasi sifatida atrof-muxit muhofazasida faol qatnashish, moddiy va atrof-muxitga zarar etkazmaslik, uni e'zozlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'z-o'zini anglash, inson-tabiati-jamiat birligi, atrof-muxit va kelajak avlod xayoti xamda rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ekologik qulay shart-sharoitlarni yaratish negizida shakllanadi.

Ekologik xavfsizlik madaniyati o'quvchining hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boradigan ekopedagogik faoliyati bo'lib, uni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirishda shaxsiy fazilatlar bilan bir qatorda, hosil bo'lgan ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asosiy rol o'ynaydi. Kulturologik-madaniy yondashuv biz tomonimizdan o'quvchining ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish mexanizmi sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda ekopedagogik tashxis ikki xil yondoshuv asosida qaralishi kerak. Birinchidan, atrof-muhitning insonga qay darajada ta'sir ko'rsatishini baholash. Ikkinchidan, o'quvchi tomonidan egallangan fazilat va sifatlarining namoyon qilinishi qay darajada atrof-muhitning o'zgarishiga ta'sir etishini aniqlash.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash bugungi kunda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustivor vazifalardan biridir. Bizning fikrimizcha, ekologik xavfsizlik bir biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan quyidagi tarkibiy qismlar asosida qurilishi kerak: motivatsiyali, kognitiv, refleksiv, amaliy-faoliyatli komponentlar.



Motivatsiyali komponent asosida o'quvchilarda ekologik xavfsizlik tushunchasi, mazmun-mohiyatini bilishga ehtiyoj va qiziqishni shakllantirildi. Mazkur komponent o'quvchi faoliyatini rejalashtirish, qunt bilan o'qish, ehtiyoj, qiziquvchanlik va shaxsiy munosabatlar, bilim sifatini oshirishda mustakil o'qish, qadriyatlar va shaxsiy qarashlarni o'z ichiga olib jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda shakllangan e'tiqodga asoslangan mas'uliyat, burch, vijdonlilik, zo'ravonlik qilmaslik, tabiatning yaxlitligini saqlash, har birimizni tabiatning ajralmas qismi ekanligimizni his qilish, xavf-xatarlardan va atrof-muhitdagi tahdidlardan himoyalalanish, hayotga muxabbat, kelajak avlodlar uchun tabiatni asrash kabi e'tiqodlarni tarbiyalashga asoslanadi.

Kognitiv komponent o'quvchining ekologik mazmundagi o'quv topshiriqlarini anglash, qo'llash va muloxaza yuritish ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bilishga oid kognitiv sohada o'quvchi o'quv materialini tushunish, yodga olish, xotirlash, tasvirlash hamda hayot bilan bog'lab amaliy misollar keltirish ko'nikmalari o'stiriladi.

Qo'llashga oid kognitiv soxada o'quvchilar o'quv materialini taqqoslaydi, tasniflaydi, bog'liqlikni aniqlashtiradi, ma'lumotni talqin qiladi, izohlaydi, tabiiy modellardan samarali foydalanadi.

Mulohaza yuritishga oid kognitiv sohada o'quv materialini tahlil qilish, sintezlash, muammoli savollar qo'yish, g'oya va farazlarni ilgari surish, baholash, asoslash, xulosalash, bashoratlash, umumlashtirish, kichik tadqiqotchilik va loyixalash malaka va kompetensiyalari shakllantiriladi. Bunda o'quvchilar uchun xavfsiz muhit va yashash sharoitlari mavjudligini ilmiy bilish, favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilishni o'rganishadi.

Biz inson hayoti va salomatligi xavfsizligi masalalariga qanchalik mas'uliyat bilan yondashsak, jamiyatning ijtimoiy-tabiiy muhitni asrab-avaylash borasidagi harakatlari shunchalik puxta o'ylangan bo'ladi. Shu jixatdan modelning kognitiv komponenti uslubiy yondashuvlarni: aksiologik, kulturologik (madaniy), vaziyat bilan bog'liq muammoli, faoliyatga asoslangan o'z ichiga oladi. Mazkur uslubiy yondashuvlarga mos tarzda ekopedagogik ta'lim maqsadi aniqlandi hamda o'quvchi shaxsining ekopedagogik faoliyatidan kelib chiqib aniq vazifalar belgilandi.

Fanlararo aloqadorlik asosida o'qitish o'quvchilar tomonidan o'quv materialini idrok etish samaradorligini ta'minlash uchun turli xil ta'lim shakllarini talab qiladi. Fanlararo o'qitishning mazkur shakli bu o'quv jarayonini mavjud bo'lish yo'li, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq. Ushbu jarayon o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda,



muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasi sifatida o'quvchi shaxsida tayanch va fanga oid kompetensiyalari inobatga olinadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarning bilim olishdagi mustakilligini, faol fukarolik pozitsiyasini, tashabbuskorli-gini, o'z faoliyatida ommaviy axborot vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishni, kasbiy faoliyatida sog'lom raqobatbardoshlik fazilatlarini rivojlantiradi. Bu esa inson hayotida zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalarni shakllantirishda tabiatshunoslikning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Xulosa. Pedagoglar bilan o'tkazilgan suhbatda fanlararo aloqadorlik o'rnatishda uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash imkonini berish bilan birga fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyati bo'yicha ma'lumotlar yig'ish hamda taklif etilayotgan metodikaning samara berishini isbotlash hamda taklif va tavsiyalar berish maqsadida olib borildi. Fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyatini takomillashtirish jarayonida o'quvchilarda o'quv faolligining shakllanganlik darajasini o'quvchilarga tushuntirib berish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

O'quvchilar o'rtasida ekologik xavfsizlik madaniyatini diagnostik-baholash modeli asosida yaratilgan g'oya o'quvchi uchun uni o'z vaqtida tashxislash va shakllantirishning individual traektoriyasini qurish, ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan.

Bizning fikrimizcha ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirishda o'quvchining olgan ekologik bilimlari asosida egallangan biror-bir faoliyat yoki arakat yangi sharoitlarda bajarish qobiliyatiga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlar, taxlillar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyati o'quvchining atrofida-gilar va ta'lim faoliyati uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan ruhiy-madaniy olamini ifodalovchi yuksak onglilik va mas'uliyatni his etgan xolda ekologik javobgarlik, qadriyatlarga hurmat va ehtiromni to'liq ifodalash, hayoti va o'z salomatligi borasida qayg'urish, inson faoliyatiga tahdid soluvchi xavfli omillarni bartaraf etishning maqbul vositasi sifatida atrof-muhit muhofazasida faol qatnashish, moddiy va atrof-muhitga zarar etkazmaslik, uni e'zozlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'z-o'zini anglash, inson-tabiat-jamiyat birligi, atrof-muhit va kelajak avlod hayoti hamda rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ekologik qulay shart-sharoitlarni yaratish negizida shakllanadi.



2. O'quvchilarda olamning yaxlit manzarasi haqidagi ma'lumot va dalillarni ilmiy jihatdan majmuaviy talqin qilish, idrok va tasavvurlarini boyitish, o'z-o'zini anglash, mustaqil faoliyatini tashkil etish faoliyatiga yo'naltirilgan komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirildi.

3. O'quv-tarbiya jarayonida fanlararo aloqadorlik maqsadlariga erishish uchun tarbiya, ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar o'quv dasturlari hamda mavzularida didaktik aloqalar izchilligi o'rnatilgan, o'quvchilarda ekologik xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni hal qila olish qobiliyatlari shakllantirildi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисидаги ПФ – 5712- сонли Фармони. ПФ-5712-сон 29.04.2019. (lex.uz)

2. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // AJMR: Asian Journal of Multimensional Research Journal. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).

3. Muxtarova L.A. Yoshlarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga doir masalalarda innovatsion yondashuv. Ilm ham jamiyet. Илмий-методик журнал. - Нукус, 2020. 4-сон. - Б. 84-86 б.

4. Muxtarova L.A. Boshlang'ich ta'limda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning metodologik asoslari // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси ilmiy-nazariy jurnali. 2021, 12-сон. – Б. 657-662.

РЕЗЮМЕ

Maqolada ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning kognitiv, akmeologik, aksiologik omillari, ekologik xavfsizlikning tuzilmasi va komponentlari ta'limiy sharoitda aniqlashtirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье определены когнитивные, акмеологические, аксиологические факторы формирования культуры экологической безопасности, структура и компоненты экологической безопасности в образовательной среде.

SUMMARY

In the article, the cognitive, acmeological, axiological factors of the formation of environmental safety culture, the structure and components of environmental safety in the educational environment are defined.





BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARIDA GRAFIK MATERIALLARDA TASVIRLAR BAJARISHGA O‘RGATISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ismatov U. Sh.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: tasviriy san’at, rangtasvir, kompozitsiya, badiiy ijod, kompozitsion yaxlitlik, ritm, rang, kolorit.

Ключевые слова: изобразительное искусство, живопись, композиция, художественное творчество, композиционная целостность, ритм, цвет, колорит.

Key words: fine arts, painting, composition, artistic creativity, compositional integrity, rhythm, color, coloring.

Ma’lumki, tasviriy san’at sohasida bo‘lajak pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash, tasviriy san’at ashyolarini ishlatish texnologiyalarini bilish, ularni badiiy ijodda qo‘llash masalalari muhim hisoblanadi. Tasviriy san’atdan bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy mahoratlarini rivojlantirish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari rossiyaning yetuk olimlari - A.A.Alexin, S.Ye. Ignatev, V.I.Kozlov, T.S.Komarova, V.V.Koreshkov, V.S.Kuzin, V.K.Lebedko, S.P.Lomov, L.G.Medvedev, N.N.Rostovsev, N.M.Sokolnikova, A.S.Xvorostov, A.A.Unkovskiy, N.K.Shabanov, Ye.V.Shoroxov, T.Ya.Shpikalova kabi olimlar muvaffaqiyat bilan ilmiy ishlarini olib borgan bo‘lsalar, pedagogik sharoitlarning mohiyati va tuzilishi, funksiyalari bilan olimlardan Yu.K. Babanskiy, V.I. Andreev, A. Ya. Nayna, M.V. Zvereva, I. Y. Lerner, A.V.Tutolmin, V.G. Maksimova va boshqalarning asarlarida ko‘rib chiqilgan. Har bir olim turli xil fikr bildirganlar. O‘zbek olimlaridan S.Abdullaev, B.Azimov, B.Baymetov, N.Tolipov, B.Oripov, R.Hasanov kabi ko‘plab boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Dastavval, bo‘yoqlar bilan ishlashga oid ish qurollari va ularni ishlatish texnologiyasi bilan tanishib chiqamiz. Bo‘yoqlar ikki turga bo‘linib, suv bilan ishlatiladigan bo‘yoqlar va moybyoqlarga bo‘linadi. Suv bilan ishlatiladigan bo‘yoqlar turiga akvarel, tempera, guash bo‘yoqlari va tushlar kiradi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini suv bilan ishlatiladigan bo‘yoqlardan



foydalanishning o'ziga xos mahoratlarini egallab olganlaridan so'nggina, moybo'yoqda rangtasvir ishlashga o'tadilar. Bo'yoqda rangtasvir ishlashning o'ziga xos tartib-qoidalar hamda tayyorgarlik bosqichlari mavjud bo'lib ushbu maqolada ana shu ma'lumotlar ustida to'xtalamiz. Quyida ranglarning nomlari va xarakterli xususiyatlari bilan tanishtirishga xarakat qilamiz. Zero, mazkur xususiyatlari bilmay turib, badiiy asar yaratishdek kerakli maqsadga erishish qiyin albatta. Tasviriy san'at ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida ranglar vositasida, bo'yoqlar bilan ishlash muhim o'rin tutadi. Bu boradagi bilimlar nazariy hamda amaliy ko'nikmalarni egallashni taqozo etadi. Buning uchun albatta rangshunoslik fanini puxta va sinchkovlik bilan o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tabiatda biz ko'rayotgan yoritilgan buyumdan qaytgan yorug'lik ko'z qorachig'i orqali ko'zimizga o'tadi va ko'z ichidagi asab hujayralarini qo'zg'atadi. Bu hujayralar asab tolalari orqali miya bilan bog'langanligi uchun ko'zlarimiz orqali miyaga o'tadi va ongimizda buyumni ko'rish tuyg'usi paydo bo'ladi, natijada biz buyumni tiniq va yaqqol ko'ramiz. Sezgi organlarimiz orqali atrof-muhit haqida juda ko'p ma'lumotlar olamiz. Bu ma'lumotlarning 90% ni ko'rish orqali qabul qilamiz va yorug'lik oqimi bu ma'lumotlarni eltuvchi hisoblanadi. Ma'lumki, rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lajak pedagog-rassomlarga ranglarning tabiatda hosil bo'lishi va tarqalish masalalarini ularning atrof muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarni tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.



Akvarel bo'yoqlar yelim bo'yoqlar qatoriga kiradi. Bu bo'yoq suvda tez eriydi. Akvarel tarkibiga bo'yoq moddasi (o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni) va biriktiruvchi modda sifatida olcha yelimi, glesirin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo'lgani uchun bo'yoqqa suv qo'shib suyultirib ishlatiladi.

Akvarelda oq -rang ishlatilmaydi. uning o'rnini

oq qog'ozning o'zi o'taydi. qog'oz oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g'adir-budir bo'lishi zarur. U agar juda silliq bo'lsa, sathida ranglar yetarli



darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo'yash jarayonida umumiydan xususiyya yoki aksincha xususiyydan umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Akvarel bo'yoqning bog'lovchisi o'simlikdan olinadigan rangsiz yelimlardan iboratdir.

Akvarel bo'yoqqa yana gliserin va kand ham ko'shiladi. Shuning uchun mazkur bo'yoq yuzada mayin va yumshoq bo'lib tovlanadi. Glitserin esa bo'yoqning tez qurib qolishiga yo'l qo'ymaydi,



u namlikni saqlab turadi. Akvarel bo'yog'i boshqa bo'yoqlarga nisbatan yorqin, toza va jozibalidir. Shuning uchun ham u bilan ishlangan tasvirlar chiroyli va nafasatli ko'rinishi sababli kishi e'tiborini jalb qiladi. Akvarel bo'yog'ida o'quv-mashq vazifalarni, shuningdek badiiy asarlarni yaratish mumkin. Bunda albatta bo'yoqning va rang tanlashning xususiyatlarini yaxshi bilish lozim. Akvarel bo'yoq bilan rangtastasvirni uzoqroq ishlash uchun bo'yoqni qog'ozga juda yupqa qilib surkash zarur, shunda bo'yoq qog'ozga puxta birlashadi va rangning tiniq chiqishiga yordam beradi. Bo'yoqni yupqa ishlatish xavo perspektivasini va oradagi masofani ko'rsatish, quyuqroq soyalarni topish va temir, shisha, chinni buyumlar ko'rinishini o'z xususiyatlari bilan ko'rsatishga yordam beradi. Akvarel bo'yoq bilan qog'ozga ishlanganda qog'ozning oq rangidan yorqin joylarini ishlashda foydalanish mumkin. Akvarel texnikasini mukammal egallash, bu sohada malaka hosil qilish uchun birinchi navbatda ish qurollari va ashyolarning shay bo'lishi katta ahamiyatga ega. Qog'oz, albatta oq, yetarli darajada qalin va yuzasi g'adir-budur bo'lishi kerak. Haddan tashqari silliq qog'ozga bo'yoq tekis surtilmaydi. Qog'ozning yuzasi g'adir-budur bo'lsa, bo'yoq zarrachalari uning g'ovaklariga singib, quriganda mustahkam qotadi. Qog'ozning chekkalari bukilib ketmasligi uchun uni maxsus planshetga tarang qilib maxkamlash kerak.



Buning uchun planshetdan 1,5-2 sm kattaroq qog'oz olib chetlari buklanadi. Qog'ozning yuzasi avaylab xo'llanadi (buklangan joyidan tashqari). Qog'oz chekkalariga (buklangan qismiga) yelim surkab, planshetga yopishtiriladi. Bunda barmoqlar bilan qog'ozni asta sidirib, burishgan va ko'tarilib qolgan joylarini tekislab qo'yish kerak. Qog'oz tekis yopishtirilgach planshetni gorizontal holatda yotqizib quritiladi. Akvarel texnikasining guash tempera va moybo'yoqlaridan farqi uning tiniqligi va havoilyligi, bo'yoqlarning yorqinligi va tozaligi bilan uyg'unlashib ko'rinishidir. Akvarel bo'yoqlar bilan tasvir ishlaganda mayin mo'ynali, yumaloq shakldagi, uch tomoni ingichkalashib boradigan mo'yqalamlardan foydalanish kerak. Mashqlar bajarish davrida ikkita mo'yqalam yetarli. Ulardan biri kattaroq, ikkinchisi kichikroq bo'lishi maqsadga muvofiq. Sifatli mo'yqalam xo'llanganda mo'ynalari bir joyga yig'ilib, konussimon holatga keladi. Katta hajmdagi mo'yqalam o'ziga ko'p miqdorda bo'yoq eritmasi oladi va bir yo'la ancha keng yuzlarni qoplashi mumkin. Mo'yqalamlarni ishlatishning bir qancha usullari mavjud. Keng yuzalarni bo'yash kerak bo'lganda mo'yqalam qiyalatib ushlanadi, hamda mo'yqalamni qog'ozning tepa qismidan pastga, chap tomonidan o'ngga tortib bo'yab chiqiladi. Akvarelda o'quv-mashq vazifalarini ikki xil yo'l bilan ishlash tamoyilga kirgan. Ulardan biri tezkorlikda, qog'ozdagi namlik qurilmagan ho'l yuzaga ishlanadi va «Alya prima» uslubida bajariladi. Ikkinchi usul esa uzoq muddatda bosqichma-bosqich ishlanadi va bo'yoq qatlami quritib ustma-ust beriladi. Umuman olganda har bir kishi o'zining qobiliyati, bilim darajasi va mahoratiga yarasha bo'yoqning keng imkoniyatlaridan unumli, samarali foydalanadi.

Xulosa o'rnida shularni aytish kerakki, oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarga amaliy mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishda tasviriy san'at ashyolari va jihozlarini to'g'ri tanlash va ularni tizimli ishlata olish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining piravordida o'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga tayyor, kasbiy vazifalarni bajarish uchun yuqori motivatsiyaga ega raqobatbardosh va ijodkor mutaxassis bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish talablarini e'tirof etgan xolda "San'ashunoslik" fakultetlarida tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish va yuqori malakalarga ega mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbiy fanlar blokidagi fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishni taqazo etadi. Pedagogik tizimlarni takomillashtirish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish muammolari bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning eng muhim jihatlari, bu o'qitish tizimida amalga oshirilayotgan



kompleks tadbirlarning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, asoslash va tekshirishdan iborat. Amaliy mashg'ulotlar jarayonini takomillashtirish va bo'lajak pedagogni badiiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida tasviriy san'atdan yuqori kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish, pedagogik shart-sharoitlari o'rganish muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Baymetov Botir Boltaboevich Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year: 2020, Volume: 10, Issue:5 Firstpage: (1122)
2. Botir Boltabaevich Baymetov, Muratov Khusan Kholmuratovich, Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Vol. 63. No. 2, (2020) @ www.solidstatetechnology.us
3. Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of working on graphic materials in fine arts classes (on the example of working still life in the pen). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), Part II, 41-45.
4. Botir Boltaboyevich Baymetov, Ulfat Shuhratovich Ismatov. Improvement of technologies for teaching fine art teachers to image images in graphic materials. Global Symposium on Humanity and Scientific Advancements Hosted From Paris France <https://conferencepublication.com>. November 30th 2021.
5. Ismatov Ulfat Shuhratovich. Technologies of Working on Graphic Materials in Fine Arts Classes. Journal of Asian Multicultural Research for Educational Study ISSN: 2708-9703 Vol. 1 No. 2, 2020 (page 001-004)
6. Baymetov Botir Boltabaevich. Aktualnie voprosy podgotovki pedagogicheskix kadrov respublike Uzbekistan. Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal «VESTNIK NAUKI» 2020/10. Tom 1. 10 (31). Stranisy 5-9.
7. Botir Boltabayevich Baymetov. Technologies Of Moving Images Of People From Different Views In Fine Arts Lessons. The American Journal of Social Science and Education Innovations. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: January 31, 2021. Str. 463-468
8. Botir Boltabaevich Baymetov. oliy pyedagogik ta'limda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning ba'zi masalalari. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 1 | 2021. 277-283 betlar.
9. Botir Boltabaevich Baymetov. Art Of Modern Uzbekistan: The History Of Its Development During The Years Of Independence. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2020/10. 125-132.
10. BB Boltaboevich. Methods of portraiture in the process of making sketches and drawings of the human face in higher pedagogical education. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020. Tom 24. Nomer 5.Stranisy 6408-6415.
11. BB Baymetov, XX Muratov. Tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlarida talabalarining tasvirlash mahoratlarini takomillashtirish texnologiyalari. Science and Education, 2021. 349-356.
12. Ulfat Shuxratovich Ismatov Botir Boltabaevich Baymetov. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarini bosh namunasini tasvirlashga o'rgatish orqali tyexnik mahoratlarini takomillashtirish. 2020/11. «Science and Education» Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8 Stranisy 476-484
13. Botir Boltabaevich Baymetov, Ulfat Shuhratovich Ismatov. Development of competencies of future fine art teachers in description of nature in graphic materials. 2020. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.tom 10.Nomer 11.Stranisy 864-871.



14. Shuhratovich, I. U. (2020). Application of innovation in teaching process. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (5), Part II, 4-8.

РЕЗЮМЕ

Maqola bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda tasviriy san'at texnologiyalaridan foydalanish, tasviriy san'atning akvarel texnikasida mashqlar bajarishning nazariy asoslari va metodikasi va uning talabalarga badiiy asar yaratishdagi qonun-qoidalari ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье показано использование изобразительных художественных технологий в профессиональной подготовке будущих учителей изобразительного искусства, теоретические основы и методика выполнения упражнений в акварельной технике изобразительного искусства, ее правила создания художественных произведений для учащихся.

SUMMARY

The article shows the use of fine art technologies in the training of future fine art teachers, the theoretical foundations and methods for performing exercises in the watercolor technique of fine art, its rules for creating works of art for students.





MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI RESTAVRATSIYA ISHLARIDA QO'LLANILISHI

Ko'kiyev B. B.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrası mudiri p.f.f.d., (PhD)

Tayanch so'zlar: proyeksiya, texnologiya, metodika didaktika, usul, ijodiy, metod.

Ключевые слова: проектирование, технология, дидактическая методика, метод, творчество, метод.

Key words: projection, technology, didactic methodology, method, creativity, method.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni hamda "2022 - 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-martdagi 110-son qaroriga muvofiq Turizm obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, madaniy meros obyektlarini restavratsiya, konservatsiya qilish va obodonlashtirish hamda turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani qurish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va madaniy-ko'ngilochar infratuzilmalarni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi qoshida arxeologik topilmalarni o'rganish va tiklash bo'yicha zamonaviy laboratoriya tashkil etildi, deb xabar berdi Turizm va sport vazirligi. Soha mutaxassislari uchun mahorat darslari o'tkazilib, 95 ta eksponat qayta tiklandi.

Hozirgi kunda tarixiy obyektlarni, inshootlar va ularning majmualari, tasviriy va amaliy bezak san'ati asarlari, arxeologik topilmalar va boshqalarni qayta tiklash va o'z xolida saqlab qolishga alohida qaror va farmonlar chiqarilmoqda. Shularni xisobga olgan holda tasviriy va amaliy bezak san'ati asarlarini tiklashda muhandislik grafikasi fanlarini amaliy ahamiyati haqida to'xtalib o'tsak.

Umuman olganda tarixiy obidalarni tiklash va ularni kelajak avodga yetkazish buyuk tariximizdan yosh avlodni habardor qilish har birimizni burchimizdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda qadimiy buyumlarni tiklash ularni qanday





ko'rinishda bo'lganligi ularni elektron variantlarini tayyorlashda muhandislik grafikasi fanlarini ham alohida o'rni mavjud. Birinchi navbatda restavratsiya so'zining ma'nosiga to'xtalsak, Restavratsiya (lotincha: restauratio - tiklash) - buzilgan, shikastlangan yoki vayron bo'lgan tarixiy va madaniy yodgorliklar (alohida me'moriy inshootlar va ularning majmualari, tasviriy va amaliy bezak san'ati asarlari, arxeologik topilmalar va boshqalar)ni asliga o'xshatib yoki asliga yaqinlashtirib qayta tiklash va mustahkamlash (qarang Ta'mirlash) ma'nosida keladi.

Ta'mirlash - biror narsani asli xoliga o'xshatib yoki asliga yaqinlashtirib tiklash, bunyod etish; ma'lum qiymatga ega qadriyat san'at asarlari va moddiy madaniy yodgorliklarni tuzatish, yaxshilash, yaroqli holga keltirish. Me'morlikda tarixiy inshootlarni qisman yoki to'la dastlabki qiyofasiga keltirish 1-rasm a,b, (restavratsiya), keng ma'noda tarixiy bino yoki majmuani o'zgartirib qayta qurish (rekonstruksiya) jarayonini ifodalaydi.



1-rasm a, Samarqand shahridagi Registon maydonidagi Sher-Dor madrasasi

(Usta Shirin Murodov, Toshpo'lat Arslonqulov,



1-rasm b, O'zbek xalq amaliy bezak san'ati namunalarini qayta tiklash namunlari

O'zbekistondagi qadimiy yodgorliklar pishiq puxta, chidamli va mukammal qilib qurilganiga qaramay, davr ularning jozibasi va ko'rkini astasekin yemirib borgan. Keyingi yillarda O'zbekistondagi barcha madaniy yodgorlik va obidalarda Tamirlash ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda. Tamirlashni muvaffaqiyatli bajarish uchun tajribali xalq ustalari Shamsiddin G'ofurov, Quli Jalilov, Abdulla Boltayev, Mahmud Usmonov, Saidmahmud Norko'ziyev va boshqalar)dan tamirlash qoidalaridan o'rinli va mohirona foydalanish talab qilingan va ular shunga rioya qilgan holda ijobiy rivojlantirganlar.



Turli sabablar oqibatida yemirilgan ko'ha obidalarini ta'mirlash uchun dastavval bino poydevori arxeologik jihatdan avaylab, sinchkovlik bilan o'rganiladi. Keyin uning me'moriy tuzilishi koshin va naqshlari, rangi, uslubi jihatlarini tadqiq qilinadi.



Tasviriy va amaliy bezak san'atida ta'mirlash odatda, san'at asarlarini so'nggi holatini mustahkamlash va ularni buzib turgan qatlamlaridan tozalash orqali asl holiga keltirish bilan amalga oshiriladi. Avvalo bu ishlar asarlar va buyumlarning xom ashyosi, yaratilish usuli, buzilishiga sabab bo'lgan omillar va turlarini puxta ilmiy tahlil qilish hamda san'at va moddiy madaniy yodgorliklar tarixini chuqur o'rganish zaminida olib boriladi. Bunda spektral, xromatografik mikrokrystal va boshqa tahlillar, rentgenografiya, makro va mikrofotografiya, infraqizil nurlar va boshqa vositasida tekshirishlardan foydalaniladi.

Qadimiy inshootlaridagi naqshlarni qayta tiklash ishlari amalga oshirilishi mumkin bo'lgan inshootlar

Adabiyotlar:

1. Murodov Sh.K va boshkalar, (2020). Chizma geometriya. Oliy pedagogika o'quv yurtlari uchun darslik, Toshkent, "Iqtisod-moliya".
2. Muradov Sh.K., Ko'kiyev B.B., (2020). Qiyshiq burchakli yordamchi proyeksiyalash bilan bissektor tekisligida yechiladigan pozitsion masalalar yechimini toppish. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, 2(23) 10-12.
3. Kukiev, B., O'g'li, A. N. N. & Shaydulloyevich, B. Q., (2019). Technology for creating images in autocad. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7 (12), 49-54.
4. Муродов, Ш. К., Кўкиев, Б. Б., Облокулова Л. Ф., (2019). Якқол тасвирлар куришда кий-шиқ бурчакли аксонометрик проекциялардаги ўзгариш коэффициентларининг ўзаро боғлиқлиги. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2(74). 282-285.
5. Xalimov Moxir, Achilov Nurbek, Bekqulov Qudrat, Xo'jaqulov Elbek, Ko'kiyev Boburmirzo., (2020). Chizmachilik va chizmageometriya fanlarida burchak topishning bazi usullari. Физика Математика фанлари журналы, 4 (1), 47-52.
6. Achilov, N.N., (2020). O'yinli texnologiyalardan foydalanib chizmachilik darslarida o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va dars samaradorligini oshirish metodikasi. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 49-60.
7. Murodov Shmidt., Boburmirzo Kokiev., (2021). Позицион масалаларини ечишда ёрдамчи проекциялаш усулининг афзаллиги. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations, 556-559.

**РЕЗЮМЕ**

Maqolada muhandsilik grafikasi fanlaridan foydalanib restavratsiya ishlarida qo'llanilishi, qayta tiklanishi kerak bo'lgan buyumlarni proyeksiyalarini va yaqqol tasvirlarini tiklash haqida ma'lumotlar keltirilgan. Muhandsilik va kompyuter grafikasi fanlari orqali qayta tiklanadigan buymlarni yaqqol tasvirlarini kompyuterda saqlash va uzatishni amaliy ahamiyati haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В статье приведены сведения об использовании инженерной графики в реставрационных работах, восстановлении проекций и четких изображений реставрируемых объектов. Обсуждается практическая важность компьютерного хранения и передачи четких изображений возобновляемых продуктов с помощью инженерной и компьютерной графики.

SUMMARY

The article provides information on the use of engineering graphics in restoration work, restoration of projections and clear images of objects to be restored. The practical importance of computer storage and transmission of clear images of renewable products is discussed through engineering and computer graphics.





PEDAGOGIK INNOVASIYALARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISHNING TASHKILIY ASOSLARI

Ortiqova N. A.

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta'lim texnologiyasi, pedagogik innovasiyalar.

Ключевые слова: педагогическая технология, дидактическая технология, образовательная технология, педагогические инновации.

Key words: pedagogical technology, didactic technology, educational technology, pedagogical innovations.

Kirish. Ma'lumki, didaktikaning predmetini o'rgatish, o'rganish ta'lim mazmunini tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan 3 ta komponent bir-birlari bilan shunday uzviy aloqadagi, ulardan birini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Xo'sh, nimani nimadan boshlash kerak? Ishni o'rganish yoki o'rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda savol tug'iladi: nimani (qanday mazmundagi o'quv materialini) o'rganmoqchisiz yoki o'rgatmoqchisiz? O'rgatish ham, o'rganish ham asosiy maqsadga yo'naltirilgan ta'lim ob'yekti va oxirgi natija - mahsul bo'lmish ta'lim mazmuniga bog'liq.

Har xil mazmun uni o'zlashtirishning o'ziga hos usullari bilan farq qilganligi uchun o'rganishning qanday bo'lishi uning mazmuniga bog'liq, bu esa o'rganishni tashkil etuvchi o'rgatuvchiga bog'liq. Shunday qilib, didaktik tafakkur - bu o'rganish, o'rgatish va ta'lim mazmunining doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir.

O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi, Shu boisdan ham «pedagogik texnologiya», «didaktik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi» atamaları qatoridan «pedagogik innovasiyalar» atamasi mustahkam o'rin olmoqda.

Muhokama. Yuqorida sanab o'tilgan tarzda o'rgatish, o'rganishda ta'lim mazmuni asosiy o'rin tutadi. Shuning uchun ham, o'z oldimizga Davlat ta'lim standartlarini yaratish birinchi galdagi vazifa qilib qo'yildi. Bu vazifaning uddasidan chiqdik; Davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi



Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanib, har bir ta'lim muassasalariga, har bir o'quvchiga yetkazildi. Endigi vazifa shu standartlarni tezroq hayotga tatbiq etish mexanizmini yaratishdan iborat.

Biroq, e'tirof qilish kerakki, hali Respublikamizda yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'lim innovasiyalarini to'plash, ular ichidan faoliyatimizda eng ko'p Samara beradiganlarini tanlash, tajriba-sinovdan o'tkazish va qo'llash - joriy etishni yo'lga qo'yadigan tizim (mexanizm) shakllantirilmagan edi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari asosida ishlab chiqilgan umumiy ta'lim fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishilgandan keyin bu sohadagi ishlarni aniq bir tizimga solish, qo'llab-quvvatlash, yangiliklarni joriy etishga yetarli shart-sharoitlar yaratadigan tizimlarga bo'lgan ehtiyoj yaqqol ko'zga tashlandi. Chunki Davlat ta'lim standartlari o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan majburiy minimal daraja bo'lib, davr o'quvchilarga ta'lim standartlari darajasi talablaridan oshirib bilim, iqqidor va ko'nikmalar berishni taqozo etadi. Bu masalani ijobiy hal qilish ilg'or tajribalar, yangi pedagogik texnologiyalarni izlash, ularning didaktik imkoniyatlarini sinab ko'rgan holda amaliyotga tadbiq etishga bo'lgan hayotiy ehtiyojni oshirib yubordi. Bundan kelib chiqadigan amaliy xulosa - ta'limiy ilg'or yangiliklarni aniqlash, ularning jamg'armalarini tashkil etish, sinab ko'rish, pedagogik amaliyotga tadbiq qilishning ilmiy xulosalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish tizimini yaratishning dolzarbligini oshirib yubordi. Hozirgi kunda bu tizimni yaratish yo'lida bir qator izlanishlar, sa'y - harakatlar boshlab yuborilgan.

Jumladan, vazirlik, viloyat xalq talimi boshqarmalari tarkibida Davlat ta'lim standartlari boshqarmalari va bo'limlari (monitoring) tashkil etildi. Ta'limni boshqarish tizimida tashkil qilingan yangi bo'g'inlar quyidagi ishlarni amalga oshirib bormoqda:

- ta'lim sohasidagi qonunlar, me'yoriy hujjatlarning bajarilish nazoratini yuritish;
- «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tadbiq etish, Davlat ta'lim standartlari va dasturlari bajarilishining monitoringini olib borish;
- ta'limni boshqarish mahalliy organlari va o'quv muassasalarining umumiy tashkiliy pedagogik ishlari qatori pedagogik innovasiyalarning samaradorligini tahlil qilib borish;
- pedagogik tajribalarning borishini analitik tahlil qilish, umumlashtirish, ommalashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;



- pedagogik texnologiyalarni kuzatuvchi, nazorat qiluvchi va joriy etuvchilarni o'quvchini tashkil qilish shunga oid seminarlar o'tkazish treninglar tayyorlash choralari ko'rish;

pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish haqida tegishli ma'lumotlar jamg'armasini yaratish, tahlil qilish va tartibga solib turish.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Davlat ta'lim standartlari- bu o'quvchilar bilim va saviyasining minimal darajasini belgilaydi, bu darajadan yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun ma'lum izlanish va tashabbus lozim, pedagogik innovasiyalarni yaratish va ularni boshqarish avvalambor ana shu dori zarb vazifalarni hal qilib beradi.

Shu boisdan ham pedagogik innovasiyalarni izlab topish, o'rganish, tahlillar ostida eng ko'p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotga qo'llash tartibini belgilab beradigan bir tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, buning uchun, birinchidan, innovasiyalar haqida aniq ma'lumotlar jamg'armasini yaratish bo'lib, buni shartli ravishda innovasiyalarni «TO'PLASH» jarayoni deb qabul qilamiz.

Innovasiyalarni to'plovchilar jadvalga ko'ra vazirlik tizimida yangi tashkil qilingan markazlar, jumladan, Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish instituti maktabgacha ta'lim rahbarlari malakasini oshirish bo'yicha doimiy ishlovchi Respublika doimiy kursi qoshidagi monitoring markazi va Respublika ta'lim markazi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Mazkur ishlarni boshqaruvchi Davlat ta'lim standartlari monitoringi maktab pedagoglar kengashlari, metod birlashmalari, tuman, shahar xalq ta'limi bo'limlari, viloyat malaka oshirish institutlarida o'rganib, to'plangan pedagogik innovasiyalarni o'z vaqtida «tanlovchi»larga yetkazish yoki ayrimlarini to'g'ridan-to'g'ri «qo'llovchi»larga yo'llashni muvofiqlashtirib boradi.

Pedagogik innovasiyalarni tanlashda amaliy ish olib boruvchi «Pedagogik texnologiyalar markazi»;

- ma'lumotning yo'nalishini aniqlaydi;
- joriy qilish va qo'llashda ilmiy-metodik jihatdan yordam beradi;
- metodik qo'llanma, dastur va metodik tavsiyalarni nashrga tayyorlaydi va pedagogik matbuotga uzatadi;
- reyting tizimi, o'quvchilarni maktabgacha tayyorlash, Davlat ta'lim standartlarini joriy qilishdagi ilg'or tajribalar majmuasini yaratadi;
- xorijiy davlatlardagi ta'lim sohasidagi tajribalarni o'rganadi, taqqoslaydi va tavsiyalar tayyorlaydi;
- amalga tadbiq qiluvchilarni o'qitadi, malakasini oshiradi, tajriba almashuvlar tashkil qiladi;



- pedagogika sohasidagi olimlar, ilmiy izlanuvchilar bilan hamkorlik ishlarini olib boradi;
- innovasiyalarning qo'llanilishini dinamik ravishda kuzatib boradi;
- innovasiyaga oid Respublika ilmiy-amaliy kengashlari, konferensiyalarni o'tkazadi;
- malaka oshirish institutlari, tuman metodika va maktab pedagogik kengashlarini yangi axborotlar bilan ta'minlab boradi.

Pedagogik innovasiyalarni qo'llash bilan uni to'plab, ilmiy jihatdan xulosalar tayyorlovchi bo'g'in o'rtasidagi «Pedagogik matbuot» asosan nashr ishlari, ommalashtirish, keng pedagogik jamoalar, ilmiy-pedagogik xodimlarga ularni yetkazish, ularning taklif va mulohazalarini olish, tajriba-sinov xulosalari asosida innovasiyalarni yanada takomillashtirish ishlari bilan shug'ullanadi.

O'ylaymizki, ta'lim texnologiyasi, pedagogik innovasiyalarga bunday tizimli yondashuv Davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishda o'z samarasini ko'rsatadi.

«Pedagogik tizim» va «Pedagogik tizimda yangiliklar kiritish» tushunchasini aniqlab olamiz.

Pedagogik jarayonni biz bilamizki, pedagogik tizimda o'tib boradi. Pedagogik tizim - bu tashkil etuvchilarni birlashtirish bo'lib, ular o'zgarishlarda barqarorligicha qolaveradi. Agarda o'zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo'lgan chegaradan oshib ketsa, tizim buziladi, uning o'rniga yangi boshqa xususiyatli tizim yuzaga keladi. Pedagogik tizim - elementlarning juda mustahkam birlashuvidir. Har qanday pedagog tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar variantlari yig'indisi o'zaro bog'liqligi ko'rinishidan iborat bo'ladi: o'quvchi; tarbiyaning maqsadi; tarbiya mazmuni; tarbiya jarayoni; o'quvchilar (yoki TSO - ta'lim texnik vositalari); tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllari.

Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri har qanday darajada elementlarga detallashtirib yoyib ko'rsatilishi mumkin.

Qurilgan tizimning tarkibiy tuzilishi emas deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko'rsatib o'tilganlarga qo'shila olmaydigan pedagogik tizim muhim tarkibiy qismlari shuningdek «Natijalar», «O'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish», «Texnologiya»lardan iborat.

Ular berilgan rasmdagi Pedagogik tizim modelida ko'zga tashlanadi. Maqsadlar natijalar bilan mos kelib uzluksiz sikl tashkil etadi. Maqsadlarning natija bilan to'la mos kelishi pedagogik jarayonning ishonchi, o'lchov ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik tizim boshqaruv, birlashtiruvchi



hamma tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil qism hisoblanadi, chunki ular o'z maqsad va tuzilishlariga egalar.

Pedagog tizimning tizim tashkil, etuvchi tarkibiy qismi bo'lib ko'pgina o'quv tarbiya jarayonini texnologiyasini ko'rsatadilar, uni alohida protsyeddan omillar birligida ko'rsatgan holda. Bunday yondashish pedagogik tizim ko'zlangan mahsadga erishishni ta'minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo'ladi. Shuni tasdiqlash kerakki pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir. Ana shu belgisi bo'yicha pedagogik tizimni tarkibiy qismlar ixtiyoriy «To'plamidan» ajratib olish oson. Texnologik - bu qat'iy tashkiliy mantiqqa bo'ysunuvchi imkoniyatlarini belgilovchi tizimning ichki sifatidir.

Shu bilan birga topshiriqni baholash darajasining o'zidayoq texnolog ma'lum jarayonlar hamda hodisalarga tayanadi. Ma'lum jarayonlar muvaffaqiyat ifodasi dalili sifatida foydalaniladi, ajoyib hodisalar natijalari esa yangi sabab va formula manbalari sifatida amalga oshiriladi. O'quv texnologiyalarni loyihalashtirish metodik «Tajribalarni umumlashtirishdan» farqli «Mumkin emas» xulosasini bilmaydi. Texnolog uchun bu faqatgina vaqt va harajatlar masalasidir. Texnolog faqatgina yaxshi ma'lum, tekshirib ko'rilgan, asoslangan, shubha qilinmaydigan fikrlarga asoslanadi. Texnolog tajribalar o'tkazmay, aniq ko'zlangan natijalar bilan ish olib boradi. Texnologiya variantlikka yo'l qo'ymaydi, uning asosiy vazifasi - aniq kafolatlangan natija olishdir, u har doim ham asosiy yechimida oddiydir. Asosiy yechimni tushunish qolgan hammasini, o'zaro zarur elementlar sistemasi tartibini mazmunini ochib beradi. Texnologiyadan hech bir qismini olib tashlab bo'lmaydi, u yerda ortiqchasi bo'lmaydi, bo'lishi mumkin emas. Bu juda murakkab holat, har ikkinchi o'qituvchi izlash - tadqiqotchilik tartibida ish olib boradi, shu bilan bolaning maktabdagi hayoti natijasi noaniqligini kuchaytiradi.

Har doim, ayniqsa «aniq» fanlar deb nomlanuvchi yo'nalish vakillari orasida pedagoglarni harakterlari uchun koyib turuvchilar topiladi, va ular har galgidek pedagogika tizimi modellarini reviziya qilish va moderizasiyalashdan boshlaydilar, pedagogika tizimi sodir bo'ladigan jarayonlarni ba'zi prinsipal harakteristikalarida to'xtalib o'tamiz. Pedagogika tizimining har bir aniq modifikasiyasi ko'zlangan natija erishish aniq xususiyat va imkoniyatlarga ega degan qoidadan kelib chiqamiz. Bu imkoniyatlar sistemaning aniq xususiyatlari bilan qattiq belgilab qo'yilgan. Bu tarzda biz ta'lim va tarbiyaviy ko'zlangan daraja va sifatga erishmoqchi bo'lsak, unda shunga mos pedagogika sistema haqida qo'yishimiz kerak, uning ishlashi pedagogik jarayonning kerakli yo'nalishi va intensivligini ta'minlaydi. Buning natijasi, o'quv-tarbiyaviy



jarayonning yanada yuqoriroq samaradorligi, har doim pedagogik tizimni takomillashtirish oqibatidir. Bu juda murakkab muammo, ularni ishlab chiqishga Dunyo endi kirishmoqda. Hozirgi umumiy ko'rinishga juda ko'p ko'rinishli ko'rsatgich, «Harajat» va natijalarni to'plash mumkin bo'lmoqda va muammoni foydaliligini aniqlash iqtisodiy nuqtai nazariga o'tkazish mumkin bo'ldi. Intuitiv va sub'yektiv baholarni juda oson noto'g'ri deyish mumkin va bu yerda vaziyatdan chiqish faqatgina fikrlarni to'plashdan iborat bo'ladi.

Har qanday pedagogikaning maksimal umumiy samarasi 100% ko'zlangan maqsadga to'la erishilgan hisoblanib tarbiyachilar uchun mumkin bo'lib ilgari erishilgandan pastroq darajada bo'lmasa.

Yana bir bor pedagogika tizimi tuzilishiga nazar tashlaylik, u «yomon» va «yaxshi» pedagogik sistema uchun ham birdir. Uni o'qituvchi ham birdir, Uni o'qituvchi, o'quvchilar munosabatigacha soddalashtiramiz. Bu munosabatlar o'rganilgan edi va umumiy xulosa ma'lum: deyarli 50% o'qituvchidan, 50% esa o'quvchigacha bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, masalan: eng yomon pedagogika sistemaning samaradorligi, aytaylik o'qituvchi umuman hech qanday harakatlarni amalga oshirmagan holda, ammo sistema ishlasa 50% dan kam bo'lmaydi. An'anaviy pedagogik tizimning foydali harakat koeffisienti 60% dan oshmaydi deb hisoblanadi. Bu esa maktab tarbiyalanuvchilarining faqatgina yarmidan ozgina ko'prog'ini dasturni to'la egallashiga erisha oladi deganini bildiradi.

Yana bir muhim fikr, tizimning umumiy nazariyasidan ma'lumki tizimni baravariga bir necha parametrlar bo'yicha yaxshilash mumkin emas. To'g'ri yo'l yangilikni asta-sekin, uning foydaliligiga ishonch hosil qilib, har tomonlama tekshirib ko'rib, keyingi ishlarni o'ylab kiritishdan iborat. Tajribalar shuni ko'rsatadiki har bir yaratilgan yangilik oldiniga albatta ilgarigisidan ham yomon ishlaydi. Chunki o'rganish, moslashish, sustkashlikni yengish kerak.

Pedagogik tizimni takomillashtirishning asosiy yo'llari ikkita: intensiv va ekstensiv. Intensiv rivojlanish pedagogik sistemani ichki imkoniyatlar hisobiga, ekstensiv yo'l esa qo'shimcha kuchlar jalb etish - ya'ni, vositalar, asbob-uskunalar, texnologiyalar hisobiga takomillashtirishni ko'zda tutadi. Pedagogika texnologiyaning intensiv rivojlanish imkoniyatlari tugagan deb hisoblanadi: maktabning mavjudligi ming yilliklar davomida hamma yo'llarni sinab ko'rib bo'lgan, hozirgi pedagoglar nasibasi qaytarish, tarbiya mazmuni va vazifasini, mantiqiy chuqur esga olish, uning birlamchi asoslariga chuqur tushib borishdan iborat.

Yana bir bor qaytarib aytamiz, agarda maktab hali o'lmagan bo'lsa, agarda u yashayotgan, rivojlanayotgan va bolalarni o'qitayotgan bo'lsa, bu faqatgina



o'zining konservativ tabiati hisobigadir. Ba'zi nazariyotchilar aytadilarki, juda yaqin vaqt ichida pedagogikada innovasiya bir ma'noni - orqaga, o'tmishga, o'ylab va oqilona tarbiyalash, ma'naviy tarbiyalovchi, yangiliklarsiz va tirishishlarsiz tinch tizimga qaytishnigina bildiradi degan fikrni aytmoqdalar.

G'arb maktablari ekstensiv yo'l bilan pedagogik mahsulotni yangi informasion texnologiyalar, vaqtni turli xil o'quv faoliyatlariga taqsimlash, sinfdagi differenzasiya va individuallashtirish hisobiga oshirish bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan pedagogik mahsulot sifati yaxshilanmoqdaki, bu savol aniqligicha qolmoqda: ko'pchilik mustaqil ekspertlar bunga ishonchsizlik bildirmoqdalar. Bu holatdan chiqish yo'li «Integrirovannge innovasii (yangiliklar)» deb ataluvchi, intensiv va ekstensiv yo'llarni birlashtirishga imkon beruvchi pedagogik sistema rivojlanishi hisoblanadi. Bu pedagogikaning foydalanilmagan imkoniyatlarini chuqur tekshirishni talab qiladi, ular turli ko'rinishdagi turli karakterli va turli darajadagi pedagogik tizim tashkil etuvchilari uchrashgan nuqtada namoyon bo'ladi.

Bo'sh joylarini yangi texnologiyalar bilan mustaxkamlab, pedagogik sistemaning umumiy samarasini yaxshilashga urinsa bo'ladi. Bunday yondoshishda innovasiya o'ylab topilgan «tashqi» chora bo'lib ko'rilmaydi, balki chuqur mazmunli talab va tizimni bilish, anglab yetilgan qayta tuzish hisoblanadi.

Agar shunday nuqtai nazar bilan innovasion chaqiriqlarga qaralsa ularda deyarli yangi jihatlar yo'qdek tuyuladi. Jumladan eski muammolarni hal etish uchun yangi «resept»lar ham yo'q. Umuman olganda innovasion g'oyalarga insoniyat taraqqiyoti jarayoni haqidagi yangi bilimlarga asoslangan, pedagogik muammolarni hal qilishga ilgari qo'llanilmagan nazariy yondashuvlar, aniq amaliy texnologiyalardan olingan yuqori natijalarni kiritishta majburmiz.

Xulosa. Pedagogika fanida berilgan g'oyalarni ishlanganlik darajasining muvofiqlik jihatlari bo'yicha umumiy va qisman innovasion loyihalar miqdori, shuningdek, pedagogik amaliyotda ularda foydalanishning tahliliy umumiy pedagogik innovasiyalarga kiritish imkonini berdi.

1) Pedagogik fan tizimi va pedagogik amaliyotni, yangi bo'lmagan biroq doimiy dolzarb va o'zidan o'quv-tarbiya jarayonini bitimlashtirishning umumiy g'oyalari va amaliy texnologiyalarini o'ziga mujassam qilgan.

2) Insonparvalik pedagogikasini barcha nazariy qoidalari va amaliy texnologiyalarining yig'indisi jamlagan.

3) Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga yangi g'oyaviy yondashuvga asoslangan.



4) Axborotlashtirish, ommaviy kommunikasiyalashning yangi g'oyalari va vositalarini qo'llashga asoslangan texnologiyalarni innovasion texnologiyalar hisoblanadi:

Pedagogik tizimda innovasion tuzilmalarining bosh yo'nalishi:

- yaxlit pedagogik tizim:-o'quv yurti:
- pedagogik nazariya:
- o'qituvchi:
- o'quvchilar:
- pedagogik texnologiya:
- mazmun:
- shakl, metodlar, vositalar:
- boshqaruv:
- maqsad va natijalar.

Tizim osti tuzilmalarining chuqurligi bo'yicha innovasion yangi kiritmalarning mohiyati, sifati va maqsadga muvofiqligi haqida xulosa qilish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ravshanbek, J. (2022). Credit-module system, its basic principles and features. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(4), 304-309.
2. O'G'Li, J. R. M. (2022). Methods of organizing independent study of students in the credit-module system. *Ta'lim fidoyilari*, 25(5), 93-97.
3. Jumaboyev, R. M. (2023). Methodology for teaching information culture to students in the system of higher education. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 126-134.
4. Jumaboyev, R. M. (2023). Analysis of the system of granting academic and financial independence to foreign universities. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 135-145.
5. Maxamadyusuf o'g'li, J. R. (2022). Methods of organizing independent study of students in the credit-module system. *Conferencea*, 33-37.
6. Jumaboyev, R. (2022). Methods of organizing independent study of students in the credit-module system. In *International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany*. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany.
7. Jumaboyev, R. (2022). Credit-module system, its basic principles and features. *Pedagoglar*.
8. Jumaboyev, R. (2021). Teaching students to critical thinking in the educational process and organizing independent education. *Sciencweb academic papers collection*.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada pedagogik innovasiyalarni amaliyotga tatbiq etishning tashkiliy asoslari tahlil etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируются организационные основы внедрения педагогических инноваций в практику.

SUMMARY

This article analyzes the organizational foundations of the practical implementation of pedagogical innovations.



O'QITUVCHINI INNOVASION FAOLIYATGA TAYYORLIGINI TASHXIS QILISH DIAGNOSTIKASI METODLARI

Ortiqova N. A.

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: innovasion faoliyat, pedagogik faoliyat, didaktik tashxis, innovasiya tashxisi.

Ключевые слова: инновационная деятельность, педагогическая деятельность, дидактическая диагностика, инновационная диагностика.

Key words: innovation activity, pedagogical activity, didactic diagnosis, diagnosis of innovation.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchi innovasion faoliyatiga tayyorligini tashxis qilish diagnostika deganda o'qituvchi bu faoliyatni amalga oshirishga mutaxassis sifatida tayyorligini ko'rsatuvchi belgilarni o'rganish va baholash usullarining to'plami tushuniladi. Innovasion faoliyat muvaffaqiyatligini tashxis diagnoz qilish butunlay mustaqil tadbir bo'lmay, u yanada kengroq innovasion jarayonlar tarkibiga kiradi. Yangiliklarni tatbiq etishni tashxis qilish yo'llarini tahlil etish quyidagi asosiy vazifalarni belgilashga imkon beradi:

1. Ko'zlangan yangilikni kiritishdan maqsad umumiy va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatlarini tahlil qilish;
2. Yangilikning o'zidagi va uni tatbiq etishni tashkil etishdagi kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf qilish;
3. Yangilikni boshqalar bilan taqqoslash, ulardan eng samaradorini tanlab olish, uning muhimligi va tayyor bo'lganligini aniqlash;
4. Yangilikni tatbiq etish foydaliligi darajasini tekshirish;
5. Bu yangilik tatbiq etiladigan tashkilot innovasion qudratiga baho berish.

Yangilik kiritish diagnostikasi usullarini ikki guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh-yangilik haqidagi bilimlar olishga qaratilgan usullar: ikkinchi guruh - innovasion jarayon tashkiliy doirasini baholashga qaratilgan usullar. Shunga qaramay, odatiy usullar innovasiya tashxisi (diagnozi) mantiqiga bo'ysunadi.

Muhokama. Birinchidan, yangilik kiritish haqida standartlar bosqichlari to'plamini o'z ichiga oluvchi jarayon sifatida. Tadqiqotchi o'z didaktikani



nimaga qaratishga qarab bu jarayonning ikki tushunchasi shakllanadi. Birinchi holda uning mazmuni qaror qabul qilish mantiqi deb hisoblansa, ikkinchida -jarayonning asosi yangilik kiritishning hayotiy sikli deb olinib va uning bosqichliligi ketma-ketligi qaraladi.

Ikkinchidan, yangilik kiritishning o'ziga hos yuzaga keluvchi va rivojlanuvchi oddiy jarayon deb qarash mumkin. Shu munosabat bilan shunday tashxis diagnostika predmetlari tarqatiladiki, xususan innovasion jarayon va muhit rivojlanadi.

Innovasion faoliyat diagnostikasi uch bosqichda amalga oshiriladi.

1. Yangilikni amalga oshirishgacha, u o'z ichiga mutaxassislik o'z ichiga mutaxassislik tayyorgarlik muammolarini aniqlaydi, analitik ko'rinishda bo'ladi.

2. Innovasion faoliyatini amalga oshirish vaqtida konstruktiv-o'zgartiruvchan tusda bo'lib, kamchiliklarni tuzatish, pedagogik tajriba dasturlarni qayta ishlash va o'qituvchi faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'ladi.

3. Yangilikni pedagogik jarayonga tatbiq etish va amalga oshirilgandan so'ng, amalga oshirilgan yangilikdan olingan natijalarni va maqsadni taqqoslash qaror qabul qilish bosqichida mutaxassislik tayyorgarlikni tashxis qilish qisman «pedagogik vaziyatlarni» tahlil «qilish», tashkiliy faoliyati bilan bog'liq o'yinlar metodlariga asoslangan /ODI/ metodikalar yordamida amalga oshiriladi. Muvofiqliligini baholashda qaror natijalari ko'rsatuvchi turli son-sifat ko'rsatkichlari qo'llaniladi, ular orasida turli konstruktiv xal etish soni kabi ko'rsatkich asosiy o'rinda turadi.

«Faoliyat doirasi» yoki mumkin bo'lgan yechimlar «kengligi»ni aniqlash bilan baholash ishlari cheklanmasligi kerak.

Innovasion faoliyat komponenti bo'lgan innovasion harakatlarni tahlil qilish va baholash kabilarni tashxis qilish ham muxim ahamiyatga ega.

Ijrochilik qismini tashxis qilish harakatlari operasional tarkibini tahlil qilish va baholashga asoslanadi, ular kuzatuv kartalari yoki tabiiy sharoitda yoki innovasion faoliyat vaziyatini o'xshatuvchi maxsus tashkil etilgan uyin vaziyatlari yordamida amalga oshiriladi. Bu yerda, ODI, bolalar va o'qituvchining o'zi innovasion faoliyati, guruh treningiga katta rol o'ynaydi. Birinchi blok metodikalar yangilik haqida xabari borligini, yangilikka bo'lgan munosabatini aniqlashga qaratilgan. Shu maqsadda yangilik tashabbuskori bilan intervyu tashkil etiladi. Bu intervyuda shunday savollar kiritilgan.

1. Yangilikning mazmuni, texnologik maqsadi, nimadan iborat, boshqalarga qaraganda samaradorligi bilan farqi nimada.



2. Yangilikning kelib chiqish tarixi qanday: uning o'ziga hoslik va qiziqarlilik tomonlari bormi yoki ilgari mavjud bo'lgan pedagogik g'oyalarni yangi sharoitda ko'zlashdan iboratmi? Bu hol uchun shartlar farqi nimada ilgari yangilikni tarkib etish vaqtida qanday qiyinchiliklarga uchragan, bu g'oyani kiritishga boshqa urinishlar ham ular nima bilan yakunlangan.

3. Yangilikning tashkiliy tarkibi qanday, kim tashabbuschi uning mutaxassislik darajasi qanday, tajribani moddiy qo'llab ta'minlash kimga bog'liq va boshqalar.

4. Yangilik kiritishda qanday asosiy qiyinchiliklarga uchrash mumkin, ba'zi bosqichlarning to'la ishlab chiqilmaganligi, yangilikka qarshilik ko'rsatish, rahbarlarning shaxsiy qiziqishlari yetarli emasligi, moddiy ta'minotning yo'qligi va boshqalar.

5. Yangilikni joriy etish davrida bolalar shaxsi rivojlanishi, ish mazmuni, o'qituvchining shaxsi va mutaxassislik o'sishda nimalar o'zgaradi?

Intervyuni-yopiq savollar anketasiga aylantirish mumkin, ya'ni o'qituvchilar javob berayotib, mosini tanlaydilar. Ushbu metodlar quyidagi natijalarni olishga imkon beradi: yangilik kiritishning mazmunli tomonlari bilan tanishib olish, asosiy qiyinchiliklarini bilib olish, birinchi qarashda manfaatdor shaxslarni aniqlab olishi, maktablarda innovasion jarayonlar xususiyatlarini tahlil qilish ko'pchilik o'qituvchilar faoliyati ijodiy uslubga mo'ljallanmay o'z ustilarida ish olib borishlarini ko'rsatadi, o'qituvchilarning 45% yangi didaktik va tarbiyaviy konsepsiyalar, ularning farqi va afzalliklarini bilmas ekanlar. Pedagogik mahorat va ko'nikmalariga o'ziga - o'zi baho berishda asosan odatiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi: o'z fanini bilishi, dars berishni bilishi, munosabat madaniyati, tashkilotchilik mahorati, bular o'qituvchi mutaxassislik mahoratini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlar bo'lib qolaveradi. Bularning hammasi zamonaviy o'qituvchi va uni diagnostikasi qilish metodi pedagogik faoliyat tizimiga yangicha nazar bilan qarash zarurligini ko'rsatdi.

Xulosa. Shu sababli innovasion faoliyat bo'yicha o'z faoliyatini tahlil qilish metodikasi katta ahamiyatga ega. Bu metodikasi quyidagi savollarni o'z ichiga oladi:

1. Sizningcha maktabga birinchi o'rinda qaysi yangiliklar zarurdir?
2. Siz maktabda tajriba ishlari tashkil etish metodikasi bilan tanishmisiz?
3. Siz qanday o'ylaysiz, turli yangiliklarni o'qituvchi qayerdan bilib olishi mumkin?

4. Agar sizga innovasion faoliyati bilan shug'ullanishiga imkon berilsa, siz kimga yordam so'rab murojaat etardingiz?



5. Siz nima deb o'ylaysiz yangilikni joriy qilishda qanday qiyinchiliklar uchrashi mumkin?

6. Yangiliklarni amalga oshirish paytida sizning faoliyatingizda nimalar o'zgarishi mumkin?

7. Yangilikni kirishda siz yordam so'rab kimlarga murojaat etishingiz mumkin?

8. Siz kiritayotgan yangilikka sizning hamkasblaringiz qanday munosabatda bo'ladilar?

9. Siz nima deb o'ylaysiz, turli yangiliklarni qo'llashga o'qituvchini nima majbur etadi?

10. Siz o'zingizga pedagogik jarayonga yangilik kiritishdan qanoatlanish kutasizmi?

O'qituvchilar ishlariga tayyorgarliklarini tekshirishda biz kuzatuv kartasi va anketalardan foydalandik, unda o'z-o'zini baholash va baho berish besh ballik shkala bo'yicha olib boriladi.

Adabiyotlar:

1. Ravshanbek, J. (2022). Credit-module system, its basic principles and features. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(4), 304-309.
2. O'G'Li, J. R. M. (2022). Methods of organizing independent study of students in the credit-module system. *Ta'lim fidoyilari*, 25(5), 93-97.
3. Jumaboyev, R. M. (2023). Methodology for teaching information culture to students in the system of higher education. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 126-134.
4. Jumaboyev, R. M. (2023). Analysis of the system of granting academic and financial independence to foreign universities. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 135-145.
5. Maxamadyusuf o'g'li, J. R. (2022). Methods of organizing independent study of students in the credit-module system. *Conferencea*, 33-37.
6. Jumaboyev, R. (2022). Methods of organizing independent study of students in the credit-module system. In *International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany*. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany.
7. Jumaboyev, R. (2022). Credit-module system, its basic principles and features. *Pedagoglar*.
8. Jumaboyev, R. (2021). Teaching students to critical thinking in the educational process and organizing independent education. *Scienceweb academic papers collection*.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o'qituvchini innovasion faoliyatga tayyorligini tashxis qilish diagnostikasi metodlari tahlil etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируются методы диагностики готовности педагога к инновационной деятельности.

SUMMARY

This article analyzes the methods of diagnostics of the teacher for the diagnosis of readiness for innovative activities.



UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOTNI TIZIMLASHTIRISH

Rustamov L. X.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professor v.b

Tayanch so'zlar: uzluksiz pedagogik amaliyot, jarayon, tizimlashtirish, muhim kasbiy malaka, ko'nikmalar, holatlar, hodisalar, shartlar.

Ключевые слова: непрерывная педагогическая практика, процесс, систематизация, важные профессиональные качества, навыки, ситуации, события, условия.

Key words: continuous pedagogical practice, process, systematization, important professional qualities, skills, situations, events, conditions.

Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning bir qator shartlari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

– sharoitlar pedagogik amaliyot jarayonini tizimlashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi muhim shart-sharoit hisoblanadi. N.I.Kondakov sharoitlar predmetlar, hodisalar mavjudligi va usiz mavjud bo'la olmaydigan muhit deb ta'kidlaydi; boshqalar bog'liq bo'lgan holat. Mantiqan zarur va yetarli sharoitlarni farq qilinadi. Zarur sharoitlar, bu harakat yuzaga kelishi bilan har doim mavjud bo'ladigan sharoitlar; yetarli sharoitlar bu albatta ushbu harakatni yuzaga keltiradigan sharoitlar. O'zi harakatlanuvchi sifatida inson shaxsining tashkil topishi jarayoni esa ichki va tashqi sharoitlar bilan belgilanadi.

– pedagogika sohasidagi tadqiqotlar rivojlanuvchi shaxs faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan. Pedagogik hodisalarni faqat tashqi tomonlarini tahlil qilish bilan chegaralanmaslik kerak, pedagogik holatlar, hodisalar va jarayonlarni o'rganish, ularning ichki mohiyatini ochish zarur.

– turli xil manbalar, me'yoriy materiallarni tahlil qilish va shaxsiy tajribalar hamda o'tkazilgan tadqiqotlar uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish pedagogik shartlarini ajratib ko'rsatishimizga imkon berdi:

1. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tashkil etish jarayonini puxta rejalashtirish;
2. Talabalar kasbiy faoliyatlarida shaxsga yo'nalgan yondashishni amalga oshirish;
3. Uzluksiz pedagogik amaliyot o'tkazilishi monitoringini amalga oshirish;
4. Amaliyot metodistlari kasbiy malakalarini oshirish;



5. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish samaradorligini tahlil qilish.

Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish taklif etilgan pedagogik shartlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

1. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tashkil etish jarayonini puxta rejalashtirish.

2. Uzluksiz pedagogik amaliyot tuzilishi oliy ta'lim muassasasi butun o'quv jarayoni tuzilishidan alohida qaralishi mumkin emas.

Oliy pedagogik ta'lim tarixida pedagogik amaliyotni tashkil etishga ikki xil yondashish yuzaga kelgan.

Birinchisi yondashish – Oliy ta'lim muassasasida butun ta'lim olish davomida amaliyotni tashkil etishni ko'zda tutgan – uzluksiz pedagogik amaliyot. Pedagogik amaliyot nazariy bilim olish bilan birga olib borilgan, ularning bir qismi pedagogik amaliyot davriga ko'chirilgan.

Ikkinchi yondashish - avval umumnazariy tayyorgarlik zarurligini va praktikum, treninglar orqali amaliy tayyorgarlikni amalga oshirish va shundan keyingina – nazariyani amaliyotda qo'llash va ta'lim yakuniy bosqichida pedagogik amaliyotni tashkil etish bilan ifodalangan.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-metodik boshqarmasi tomonidan o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishning me'yoriy hujjatlari (2022-2023 o'quv yili) 60112200 - Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari uchun o'quv jarayoni jadvalida malakaviy amaliyotlar quyidagicha belgilangan;

2-kurslar uchun yil davomida (5+1);

3-kurslar uchun yil davomida (4+2)

4-kurslar uchun yil davomida (4+2).

Talabalarining kasbiy tayyorgarliklari darajasini tahlil qilib, amaliyot hajmi talabalar pedagogik faoliyatlarida mustahkam kasbiy malaka va ko'nikmalar olishlariga yetarli emas degan xulosaga keldik.

1. UPAni tashkilashtirish jarayonining rejasi

Har bir turdagi amaliyotni bevosita tashkil etish uchta o'zaro bog'liq bo'lgan bosqichlardan tashkil topadi:

I bosqich – tayyorgarlik, u ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- talabalarni qabul qilishga tayanch tayyorgarlikni tashkil etish;
- talabalarni bo'lajak ishlarga tayyorlash.

II bosqich – asosiy va eng muhim bosqich, o'quv-tarbiyaviy, sinfdan tashqari, ilmiy-tadqiqotchilik va boshqa turdagi ishlarni tayyorlash, o'tkazish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi.



III bosqich – yakuniy, uning asosiy maqsadi – amaliyot yakunlarini ishlab chiqish.

Pedagogik amaliyot kurs rahbari kafedralar metodistlari va tayanch tashkilotlar xodimlari bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Kurs rahbari kafedra o'qituvchisi, pedagogik amaliyotni olib borishga mas'ul xodimlar bilan birgalikda talabalar avvalgi pedagogik amaliyotlar natijalari, o'zlashtirishlari, ixtisoslari va holatiga qarab amaliyot bazalariga taqsimlaydilar. Ikkinchi kurs talabalari bilan ushbu yo'nalishda yanada puxta ishlar olib boriladi.

Tadqiqotlarimiz tayanch tashkilotlar ma'muriyati bilan pedagogik amaliyotning maqsadlari, vazifalari, rejalashtirilgan pedagogik tajribalar mazmuni, idrok etish tomonlari, talabalar amaliyot davrida o'tkazishni rejalashtirgan sinfdan tashqari tadbirlar tashkiliy shakllari haqida hamda bazalar xodimlari va amaliyotchilarning vazifalari haqida albatta yo'riqnomalar o'tkazilgan joylarda pedagogik amaliyot birinchi kunlardan oq uyushqoqlik bilan samarali o'tishini ko'rsatadi.

Tadqiqotimizda olib borilgan tadqiqot ishlari amaliyotchilar guruhlarini bir ixtisosli o'nta (avvalgi 20 kishi o'rniga) talabadan tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Talabalarni shunday taqsimlash yaxshi natijalar beradi: metodist rahbarlik qiladigan qisqartirilgan va bir turdagi guruh tarkibi unga har bir talabaga ko'proq e'tibor qaratishiga, amaliyotga aniq rahbarlik qilishiga imkon beradi, o'z guruhi a'zolari xususiyatlarini bilish yanada unumli rahbarlik qilishiga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha o'zgarishlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y, 6-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot so'halari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son oamda 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islo'atlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori
3. Белик В.П. Исследование некоторых вопросов профессиональной подготовки студентов факультетов физического воспитания педагогических институтов.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук.-М.: 1971.-22с
4. Двоеглазов А.Н. Формирование профессионально-педагогических умений у студентов института физической культуры в условиях практической деятельности. Автореф. дисс... канд. пед. наук.-Омск, 1989.-18с.
5. Rustamov L.X Uzluksiz pedagogic amaliyotni tizlashtirish. Metodik qo'llanma Toshkent 2012 y

РЕЗЮМЕ

Pedagogik amaliyot kurs rahbari kafedralar metodistlari va tayanch tashkilotlar xodimlari bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Kurs rahbari kafedra o'qituvchisi, pedagogik amaliyotni olib borishga mas'ul



xodimlar bilan birgalikda talabalar avvalgi pedagogik amaliyotlar natijalari, o'zlashtirishlari, ixtisoslari va holatiga qarab amaliyot talablari bilan ushbu yo'nalishda yanada puxta ishlar samaradorlik bilan foydalanish imkonini beradi.

РЕЗЮМЕ

Заведующий курсом педагогической практики работает в тесном взаимодействии с методистами кафедр и работниками обеспечивающих организаций. Руководитель курса, преподаватель кафедры совместно с персоналом, ответственным за проведение педагогической практики, студенты смогут более эффективно использовать результаты предыдущей педагогической практики, свое мастерство, специализацию и требования практики в данном направлении.

SUMMARY

The head of the course of pedagogical practice works in close cooperation with the methodologists of the departments and employees of providing organizations. The head of the course, the teacher of the department, together with the staff responsible for conducting teaching practice, students will be able to more effectively use the results of previous teaching practice, their skills, specialization and practice requirements in this area.





BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA FOYDALANILADIGAN MASALA VA MASHQLARNI TANLASH MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI

Raxmatov U. E.

*Nizomiy nomidagi TDPU Biologiya
va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Xolmurodova O. S.

*Nizomiy nomidagi TDPU Biologiya
mutaxassisligining II bosqich magistranti*

Tayanch so‘zlar: ta’lim tizimi, ta’lim samaradorligi, biologik masala va mashq, ilmiy dunyqarash, biologiya fani konsepsiyasi, o‘quv reja, o‘quv dastiri, didaktik va metodik talablar.

Ключевые слова: система образования, эффективность обучения, биологическая проблема и упражнение, научное мировоззрение, концепция биологической науки, учебный план, образовательная программа, дидактические и методические требования.

Key words: education system, learning effectiveness, biological problem and exercise, scientific outlook, biological science concept, curriculum, educational program, didactic and methodological requirements.

Jahon ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar intellektual salohiyatli, iqtidorli, kreativ fikrlash qobiliyatlariga ega bo‘lgan mutaxassislarga ehtiyojni namoyon etmoqda. Shu bois, kasbiy va metodik jihatidan yetuk mutaxassislarni tayyorlashning innovatsion metodikasini takomillashtirish bugungu kunning muhim dolzarb muammolaridan sanaladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida biologiyaga oid masala va mashqlardan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlashlarini, shuningdek, ilmiy dunyo-qarashini rivojlantirish va kengaytirishga imkon yaratadi. Ayrim ma’lumotlar, masalan, turli xil savol, topshiriqlar, biologik ob’ektlarni aniqlash, o‘simlik, hayvon, mikroorganizmlarning tashqi, ichki tuzilishini, hatto ularning hujayraviy tuzilishini o‘rganish, rasm hamda sxemalarni chizishga doir topshiriqlar asosida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilari va talaba hamda o‘quvchilarda kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Turli savollarga javob berish, masala va mashqlar yechish, topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilarni dasturidan o‘rin olgan xususiy hamda umumbiologik tushunchalarni kengroq o‘zlashtirishga, biologik nazariya va qonunlarning



mohiyatini to'liq anglashiga, o'z fikrining to'g'riligini isbotlash, topqirlik, tezkorlik, o'zaro hurmat, tabiat va mehnatga muhabbati, tirik organizmlarning xilma-xilligi haqidagi bilimlarni o'rganishlari asosida turli kasblarga qiziqishi ortib boradi [1]

Biologiya ta'limida foydalaniladigan masala va mashqlar turlari, tanlab olish mezonlari va ko'rsatkichlarini o'rganishga doir o'quv - metodik, didaktik, ilmiy adabiyotlar tahlillaridan ma'lum bo'ldiki, mazkur materiallardan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim - tarbiyaviy ishlarni mazmun va sifat jihatdan takomillashtirishga, o'quvchilarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar hamda kompetensiya-larning shakllanishiga keng imkoniyat yaratadi [4].

Biologiya ta'limida foydalaniladigan masala va mashqlar mazmuni quyidagi muammolarni hal etishi zarur:

- biologiya ta'limida o'qitish samaradorligini oshirishda tanlangan masala va mashqlar mazmunidan kelib chiqqan holda, dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda an'anaviy, noan'anaviy metodlardan qanday foydalanishni aniqlash;

- biologiya fani bo'yicha tanlangan masala va mashqlar bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlashlarini, bilish faolligini rivojlantirish, mantiqiy va kreativ mushohada yuritishlarini hisobga olish;

- biologiya fanidan tanlangan masala va mashqlarni o'quvchi va talabalarga innovatsiyon o'qitish metodikasini ishlab chiqish.

Biologiya fani mazmuniga oid tanlangan masalalardan o'quv jarayonida foydalanish deganda, quyidagi maqsadlar nazarda tutilishi lozim:

- tanlangan masalalar biologiya fanining o'quv rejasi va dasturi talablariga mos kelishi;
- o'quvchi va talabalarning qiynalmasdan ishlay olishlariga yordam berishi;
- bo'lajak biologiya o'qituvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishi;
- talabalarda mustaqil va kreativ fikrlashlarini rivojlantirishi;
- o'quvchilarning abstrakt tafakkurini, mantiqiy mushohada yuritishlariga xizmat qilishi;
- o'quvchi yoki talabalar tomonidan egallagan nazariy bilimini amaliyotga qo'llay olishi;
- biologiya fani mazmuniga oid tanlangan masalalardan o'quv jarayonida foydalanish maqsadli va rejali asosda bo'lishi, zaruriy pedagogik vaziyatni aniqlash va tanlash.

Bo'lg'usi biologiya o'qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorlash jarayonida o'quv fani mazmuniga oid tanlangan masalalarga quyidagi didaktik talablarni qo'yish mumkin:



- tanlangan biologik masala va mashqlar mazmuni didaktik hamda metodik talablarga javob berishi kerak;
- tanlangan biologik masala va mashqlar mazmuni sodda, qisqa tugallangan matnda ifodalangan bo'lishi zarur;
- tanlangan masalalar mazmuni va undagi faktlar haqqoniy bo'lishi lozim;
- tanlangan masalalar mazmunan aniq hamda tushunarli bo'lishi lozim.

Biologiya fani mazmunini shakllantirish va uni o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishining nazariy va pedagogik tajriba - sinov ishlarining amaliy natijalari, olingan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar quyidagi didaktik talablarga bo'ysunishi shart:

- tanlangan masala va mashqlar biologiya fani konsepsiyasida, DTSlarida, o'quv dastur va rejasida o'z mazmunini topgan bo'lishi;
- hozirgi globallashuv jarayonida zamon taraqqiyotiga javob berishi;
- tanlangan masalalar takrorlanmasligi;
- o'quvchilar uchun notanish, qiyin masalalar bo'lmashligi lozim.

Mazkur mezonlar va ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda, bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining egallagan kasbiy kompetensiyalarini baholashda biologik masalalarga quyiladigan quyidagi talablar atroficha tahlil qilinishi muhim sanaladi:

- biologik masalalar amaliyotdagi vaziyatni o'zida bevosita aks ettirilishi;
- masalalarning yechimi turli fanlardagi bilimlarni talab qilishi;
- biologiyadan masalalar turli murakkablik darajasida bo'lishi;
- biologiyadan masalalar yechimi kreativ qobiliyatini aniqlashga qaratilgan fundamental bilimlarni talab qilishi va h,k.

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilari biologik masalalar yechimi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash uchun quyidagi mezonlarga ustuvorlik berilishi lozim:

- ✓ tanlab olingan masalaning optimal yechimining mavjudligi;
- ✓ turli masalalar bo'yicha ballar miqdori (soni) aniq belgilanishi;
- ✓ biologik masalalarni yechishdagi me'yoriy davom etish muddati;
- ✓ umumiy ballar miqdori tanlangan mezonlar asosida bo'lishi lozim.

Bo'lgusi biologiya o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida masala va mashqlar murakkablik darajasi qarab tasnif qilinishi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Biologiyadan masalalarni tanlash jarayonida bo'lajak biologiya o'qituvchilari dastlab o'quvchining yosh xususiyatini hisobga olgan holda, tanlashi tavsiya etiladi. Bunday tipdagi masalalar 11-12 yoshli o'quvchilarda prototista, bakteriya, o'simlik, hayvonot duyosiga mansub organizmlarning morfologik tuzilishiga oid bo'lgan bilimlarni o'zida aks ettirishi, 13-14 yoshli o'quvchilarga



esa prototista, bakteriya, zamburug‘, o‘simlik, hayvonot duyosi vakillarining anatomik, morfologik, sistematik belgilarini aks ettirgan masalalar, 15-18 yoshli o‘quvchilarga prototista, bakteriya, zamburug‘, o‘simlik, hayvonot duyosi vakillarining hayotiy jarayonlarini yoritib beradigan masalalarni tanlab olishlari maqsadga muvofiq sanaladi [3].

Shu bilan birga masalalar tanlaganda oddiydan murakkabga tomon murakkablik darajasi ortib borish tartibida tanlashi lozim. O‘quvchi va talabalarga taklif etilayotgan masala va mashqlar (u darsda yoki olimpiada bo‘lishidan qat’i nazar), bugungi kunda ularni 5 ta darajaga ajratib klassifikatsiya qilish mumkin. Biologik masala va mashqlarni bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bilan chalkashtirmaslik kerak. Chunki, didaktikada bilimlarni o‘zlashtirishni uch guruhga bo‘lishi ma’lum, ular reproduktiv o‘zlashtirish, standart masalalarni yechish va ijodiy masalalarni yechishni bilish hisoblanadi[2]. Biologik masala va mashqlarning murakkablik darajasiga qarab tanlashda quyidagi ko‘rsatkichlarni asos qilib olinishi biologik ta’lim sifatini oshirish jarayonidagi dastlabki qadam sanaladi.

Birinchi darajali masalalarda oddiy bilimlarni taqqoslash bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar. Bunday masalalar ko‘proq o‘quvchilarning xotirasini tekshirishga xizmat qilishi zarur.

Ikkinchi darajali murakkablikka ega bo‘lgan masalalarni yechishda ayrim biologik qonunlarni tatbiq eta olishni va ayrim hodisalarni taqqoslashga asoslangan bo‘lishi lozim.

Uchinchi darajali masala va mashqlarni yechishda taqqoslash, analiz va sintez qilishga asoslangan bo‘lishi muhim sanaladi.

To‘rtinchi darajali masala hamda mashqlarga javob berishda o‘quvchilar boshqa fanlardan kimyo, fizika, matematikadan olgan bilimlarini ham safarbar etishni talab etadigan masalalar.

Beshinchi darajali masala va mashqlarni shartlari murakkab bo‘lib uning ichida yashiringan tushunchalarni tushunish ancha qiyin bo‘lib uni ishlashda biologik qonuniyat va nazariyalarni tatbiq eta olishi hamda kimyo, fizika, matematikadan olgan bilimlarini taqozo etadigan masalalar o‘rin egallashi muhim hisoblanadi [1].

Biologik masala va mashqlarni murakkablik darajasi bo‘yicha tanlab olish jarayonida o‘quv fanining har bir kursida, har bir bo‘lim, bob va hattoki har bir mavzusidan olish mumkin. Masalaning murakkablik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik ko‘proq fikrlashni va murakkab mantiqiy operatsiyalar algoritmlarni amalga oshirish talab etadi. Biologiyaga oid masala va mashqlar yechish jarayonida masalalarning mohiyatini tushunib yetishda fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish muhim amaliy ahamiyatga kasb etadi.



Biologiyadan masalalar tanlab olishda o'qituvchi o'quvchilarda avval o'zlashtirgan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllanishiga xizmat qiladigan masalalarni saralab olinishi lozim. Masalan, energiya almashinuviga oid masalalarni yechish jarayonida biopolimerlarga oid bo'lgan masalalar berilishi o'quvchi yoki talabalarda biopolimer, biomolekula, kJ, kk kabi bilimlardan foydalanishga xizmat qilishi muhim sanaladi.

Umumta'lim maktablari biologiya fani o'qituvchilari o'quvchilar ongida ilmiy tushunchalarni shakllantirishga oid masalalarni tanlay olish kompetensiyasiga ega bo'lishlari zarur [3].

Xususan, gen mutatsiyalari (tranzitsiya va taransversiya), xromosoma tuzilishining o'zgarishi (deletsiya, duplikatsiya, inversiya, translokatsiya), oqsil biosintezi (transkripsiya, teskari transkripsiya transliyatsiya), genetik kod, nukleyin kislotalarning biologik roli kabi ilmiy tushunchalarning shakllantirilishiga oid masalalarni tanlay olishi va dars jarayonida masalalar yechishi yoki tuzish metodikasi orqali nazariy o'zlashtirilgan bilimlar mazmun mohiyatini chuqur o'zlashtirishga asos bo'ladi.

Biologik bilimlarni o'quvchilarda shakllanish jarayonida izchillilikka asoslangan masalalardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Biologik masala va mashqlarni yechish jarayonida izchillilik asosida o'quvchilarga yoki talabalarga berilganda ularning masalani ishlash jarayonida faolligi yuqori darajaga ko'tariladi. Chunki, bir masalani yechish metodikasini tushunib olishi bilan ikkinchi masalani yechish ko'nikmasi shakllanib boradi. Mobodo biologik masalalarni turli tipda berilsa o'quvchi yoki talaba masalalarni birini ishlagandan so'ng ikkinchi masalaning yechish metodikasiga tushunmasdan o'quvchida masalalarni ishlashga nisbatan umidsizlik paydo bo'ladi. Bu holat esa biologik ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini zoologik bilimlarni shakllantirish jarayonida biologik mashqlarini o'rni beqiyos sanaladi. Chunki, sistematik tushunchalarni shakllantirishda har bir tip, sinf, turkum, oilalarga oid mashqlarni tuzish orqali bilimlarni tizimlashtirish imkoniyati yaratiladi. Jumladan, hasharotlar sinfi vakillarini sistematik jihatidan turkumlarga ajratish, xordallilar tipining har bir sinfi vakillarini klassifikatsiyalash, taksonlarni tizimlashtirish, biologik ob'ektlarni tanish, ularning o'xshashlik va farqli jihatlarini aniqlash ko'nikmalari shakllantiriladi[1].

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy mahoratlarini shakllantirishda integrativ masalalardan foydalanish amaliy ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'ldiki, ko'pchilik talabalar biologiya darsliklaridagi mavzularga oid masalalarni yechishga qiynalishadi, buning asosiy sababi fanlararo bog'lanishlarni masalalar yechish jarayoniga tatbiq eta olmasligi



hisoblanadi. Hozirgi vaqtda o'qituvchi dars jarayonida fanlararo bog'lanish asosida biologiyaga oid masalalar yechish biologiyaning ko'plab tarmoqlari bilan amalga oshirish mumkin. Biologiya o'quv kursini kimyo, fizika, matematika, geografiya, informatika kabi fanlar bilan aloqasini orqali tirik organizmlarda ro'y beradigan biologik jarayonlarning mazmun mohiyatini to'liq tushunib yetish mumkin.

Shuningdek, o'quvchi biologiyaga oid masalalarning yechish jarayonida fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish orqali jamiyatda ro'y beradigan yangi bilimlar mazmunini tushunib yetadi, masala shartida berilgan yangi holatlar bilan tanishadi, zarur bo'lgan masalani yechishda biologiyaga tegishli qonun va nazariyalarni qo'llash orqali masalani yechishga oid yangi usullarni o'ylab topadi. Fanlararo bog'lanishlar asosida ma'lum tipdagi masalalarni yechish usuli va uni bir necha marta takrorlash orqali o'quvchida ko'nikma va malakalar shakllanishi bilan bir qatorda biologik bilimlari orta boradi.

Yuqoridagi keltirilgan mulohazalar asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarni kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida masala va mashqlar turlari, tanlab olish mezonlari va ko'rsatkichlari asosida tanlab olinishi va dars jarayonida foydalanilishi biologik ta'lim samaradorligini oshirishi imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (sitologiya va genetika asoslari). O'quv qo'llanma "Tafakkur avlodi", 2020. - 272 b.
2. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. O'quv qo'llanma. "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent-2017 y. 260 b.
3. G.A.Shakhmurova, U.E.Rakhmatov, U.Sh.Saidjanova A complex of entertaining tasks and exercises on Biology as one means of enhancing the cognitive skills of students. ASIA LIFE SCIENCES The Asian International Journal of Life Sciences (ISSN 0117-3375) Volume 30.2021. -P.88-97.
4. Problems of improving teaching in the process of biological education. Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) Volume 03 ISSUE 02 Sijf impact factor (2021:5. 714) OCLC – 1242041055 Metadata if – 8.145

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lajak biologiya o'qituvchilarning tayyorlash jarayonida foydalaniladigan masala va mashqlarni tanlab olish mezonlari va ko'rsatkichlari yoritib berilgan. Shuningdek, talabalarining kasbiy metodik jihatidan tayyorlash jarayonida biologik masala va mashqlardan foydalanish metodikasi bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье выделены одна из важных задач, стоящих перед системой образования, критерии и показатели отбора вопросов и упражнений, используемых при подготовке будущих учителей биологии. Также описан метод использования биологических задач и упражнений в процессе обучения студентов с профессионально-методической точки зрения.

SUMMARY

The paper involves one of the important tasks standing in front of the education system, the criteria and indicators for the selection of questions and exercises used in the preparation of future biology teachers. So, the method of using biological tasks and exercises in the process of teaching students from a professional and methodological point of view is described.



BIOPOLIMERLAR MAVZULARINI O'QITISHDA OLIMPIADA MASALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Zayniyev S. I.

*Nizomiy nomidagi TDPU Biologiya
va uni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: DNK, oqsil, lipid, glukoza, nuklein kislota, energiya almashinuvi, moddalar almashinuvi, fizika, matematika, kimyo, olimpiada.

Ключевые слова: ДНК, белок, липид, глюкоза, нуклеиновая кислота, энергетический обмен, обмен веществ, физика, математика, химия.

Key words: DNA, protein, lipid, glucose, nucleic acid, energy metabolism, metabolism, physics, mathematics, chemistry.

Biologiya fanidan qiyin masalalarni yoki olimpiada masalalarini yechish o'quvchilarning ilmiy dunyoga kirishdagi dastlabki qadami hisoblanadi. Har bir masala mustaqil ravishda hal qilinishi lozim bo'lgan kichik ilmiy muammodir.

Olimpiada masalalari - bu olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlarida uchraydigan ilmiy muammolarning bir turidir.

Olimpiadaning turli bosqichlari uchun masalalar qiyinlik darajasi bilan sezilarli darajada farq qiladi. O'quvchilardan biologik qonunlarini hamda biologik hodisalarni amalda qo'llashga doir ijodiy ko'nikmalarni, rivojlangan assotsiativ fikrlashni talab qiladigan qiyin masalalar olimpiadaning yakunlovchi bosqichida beriladi.

Faqat yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, fikrlash darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar yakuniy bosqich vazifalarini to'liq bajara oladilar. Olimpiada masalalarini o'rta-umumta'lim maktab dasturi doirasidan chiqmaydigan bilim va ko'nikmalar asosida tuziladi. Masalani yechish odatda, murakkab va noqulay hisob-kitoblarni talab qilmaydi, asosiy e'tibor masalalarning biologik mazmuniga qaratiladi.

Olimpiada masalalari o'quvchini chuqur fikrlashga, o'z ustida ishlab, iqtidorini-malakasini takomillashtirishga, boy fantaziyaga ega bo'lishga, qat'iyatli inson bo'lishga va qaror qabul qila olishga o'rgatadi. Ma'lumki, olimpiada masalalari o'quvchilarni mantiqiy fikrlash bilan birga o'z xulosalarini asoslashga undaydi. Masalalarni yechish davomida o'quvchilar nazariy bilimlarni takrorlaydi va uni amaliy jihatdan qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

O'qituvchi o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlar ekan avvalo o'quvchining biologiya, kimyo hamda matematikadan bilim saviyasiga va mantiqiy fikrlash qobiliyatiga e'tibor berishi lozim. Iqtidorli o'quvchini tanlab olib, yoshiga mos tarzda soddadan murakkabga yo'nalgan masalalarni tanlab yechish usullari o'rgatib borilsa, uning bilim saviyasi oshib boradi va albatta fan olimpiadasida yuqori natijalarga erishadi.



Fan olimpiadasiga masalalar tanlash me'zonlari bo'yicha aniq ko'rsatmalar mavjud emas bunda ma'suliyat olimpiada tashkilotchilari zimmasiga tushadi.

Masalalarning qiyinlik darajasi fan olimpiadasining nechanchi bosqichi tashkil etilayotgani va qatnashuvchilarning yoshiga qarab tanlanadi. Respublika va Xalqaro miqyosdagi olimpiada masalalarining quyi boshqich olimpiada masalalaridan asosiy farqlaridan biri masala shartining bir nechta bosqichdan iborat bo'lishi va topilishi kerak bo'lgan noma'lum kattaliklarning ko'pligi hisoblanadi.

Hozirgi kunda olib borilayotgan zamonaviy ta'limni rivojlantirishdagi pedagogik tadqiqotlarning muhim masalalaridan biri biologiyadan masala va mashqlarni to'g'ri o'zlashtirishga qaratilgan dars jarayonini tashkil etish va uning samaradorligiga erishishdir hamda shu orqali o'quvchilarni olimpiada masalariga qizig'iqishini oshirish. Bu borada bir qancha olimirlarimiz ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan: A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullayev, X.Xolmatov "Genetikadan masala va mashqlar yechish metodikasi", G.A.Shaxmurova, I.T.Azimov, U.E.Raxmatov "Botanikadan masala va mashqlar yechish", G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, U.E.Raxmatov "Zoologiyadan masala masala va mashqlar yechish", G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, U.E.Raxmatov "Odam va uning salomatligidan masala va mashqlar yechish", G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, U.E.Raxmatov "Biologiya (sitologiya va genetika asoslari)", G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, U.E.Raxmatov "Biologiyadan masala va mashqlar yechish" kabi darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy qo'llanmalar orqali biologiya fanida masala va mashqlar yechish hamda olimpiada masalarini yechishga ko'nikma va qiziqishlarini shakllantirib borish mumkin. Yuqorida keltirilgan olimlar tomonidan genetika va biologiyaning boshqa tarmoqlari bo'yicha biologik masala va mashqlardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan biologik bilimlarni egallashda eng samarali usullardan biri masala va mashqlardan foydalangan holda mavzu mazmunini yoritib berishdir. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda masalalarni amaliy ahamiyati nihoyatda kattadir. Biologik ta'limning samaradorligini oshirishda va o'quvchi ma'lum darajada o'z oldiga qo'yan biologik maqsadlarga erishishda, matematik savodxonligini oshirishda masalalar o'ziga xos o'rin egallaydi. Shuning uchun biologiya darslarida ko'proq masalalardan foydalanishni yo'lga qo'yish va ulardan foydalanish usullaridan ishlab chiqish biologiya o'qitish metodikasining dolzarb vazifalaridan biri sifatida ilgari suriladi. Masalalar yechish metodikasini to'g'ri yo'lga qo'yish o'quvchilarda biologik bilimlarni yuqori darajada egallashlarida hamda biologik jarayonlar mexanizmini chuqur anglab olishga yo'llaydi.

Masala yechish bo'yicha A.Ya.Xinchin quyidagi fikrlarni bayon etgan. Masala yechishda o'quvchilar to'g'ri fikrlashni, eng muhimi o'quvchilar to'liq argumentlarni egallashga o'rganadilar. Masala yechishda fikrlar aniq ma'lumotlarga yo'naltirilgan, noqununiy umumlashtirishlarga yo'l qo'yilmagan holda, masalada berilgan faktlarni to'liq qamrab olishni talab etilishi, klassifikatsiyalashga to'liq e'tibor berish talab etiladi. Biologik masalalarni yechish davomida o'quvchilarda o'ziga xos fikrlash qobiliyati: ana'naviy fikrlash sxemasidan farq qiladigan fikrlar bayoni, fikrlarni sharhlash, belgilar aniqligi, fikrlash davomida fikrlarni aniq bo'laklarga bo'lib fikrlash shakllanadi.


Hozirgi vaqtda biologiya darslarida masala va mashqlardan foydalanish orqali fanlararo bog'lanishni amalga oshirish dolzarb mavzulardan hisoblanadi.



Ayniqsa modda va energiya almashinuvi hamda nuklein kislotalar, oqsillar biosintezi mavzusiga bog'liq masalalar o'quvchilarga biologik jarayon mexanizmlarini aniq tasavvur etish imkonini beradi.

Quyida Respublika va tuman fan olimpiadalarida biologiya fanidan o'quvchilarga berilgan biopolimerlar mavzusiga oid masala va mashqlarni yechish metodikasi bilan tanishsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

1-Masala: (9-sinf–Olimpiada. III bosqichi). Quyida glukozaning xamirturush (achiqti zamburug'i) bilan aerob va anaerob sharoitlarda parchalanishining kimyoviy reaksiyalari berilgan:



Tajribada jami 0,5 mol glukozaning aerob va anaerob sharoitlarda parchalanishi natijasida 1,8 mol CO_2 hosil bo'ldi.

- Glukozaning qancha qismi=ulushi (%) aerob sharoitda parchalanganini aniqlang.
- Mazkur jarayondagi nafas olish koeffitsientini ($RQ=Respiratory\ Quotient$) hisoblang. (ajralib chiqqan CO_2 ning sarflangan O_2 ga molyar nisbati asosida aniqlanadi)

Masalaning yechimi:

a) 1) Aerob sharoitda parchalangan glukozani x, anaerob parchalangan glukozani y deb olsak,

$$\begin{array}{rcl} x+y & = & 0,5 \\ 6x+2y & = & 1,8 \\ \hline 6x+6y & = & 3 \\ \hline 6x+2y & = & 1,8 \\ \hline 4y & = & 1,2 \end{array}$$

$y=0,3$ mol glukoza anaerob parchalangan.

2) $0,5-0,3=0,2$ mol glukoza aerob parchalandi.

$$\begin{array}{rcl} 0,5 \text{ mol glukoza} & \text{---} & 100 \% \\ 0,2 \text{ mol glukoza} & \text{---} & x \% \end{array} \quad \left| \quad x=40 \% \right.$$

b) Reaksiya orqali yutilgan O_2 hajmi topiladi ya'ni, 1,2 mol O_2

$$\begin{array}{rcl} 1 \text{ mol glukoza} & \text{---} & 6 \text{ mol } O_2 \\ x \text{ mol glukoza} & \text{---} & x \text{ mol } O_2 \end{array} \quad \left| \quad x=1,2 \text{ mol } O_2 \right.$$

$$2) RQ = CO_2 / O_2 = 1,8 / 1,2 = 1,5$$

Javob: a) 40 %, b- $RQ=1,5$

2-Masala. Mubining ovqat ratsionida yog' miqdori oqsil miqdoridan 1,2 barobar kam, uglevod miqdori esa, yog'dan 1,4 barobar ko'pligi ma'lum bo'lsa, Mubining tana massasi 60 kg bo'lib, asosiy moddalar almashinuviga sarflanadigan energiya umumiy energiyani 72,144 % ni tashkil qilsa, Mubining ovqati tarkibidagi uglevoddan ajralgan energiyani (kkal) da hisoblang.

Masalaning yechimi:

1) Tana massasi 70 kg bo'lgan odamda asosiy moddalar almashinuviga sarflanadigan energiya miqdori 1680 kkalga teng bo'ladi. Shundan kelib chiqib,



$$\begin{array}{lcl}
 70 \text{ kg} & \text{---} & 1680 \text{ kkal} \\
 60 \text{ kg} & \text{---} & x \text{ kkal} \\
 2) 1440 \text{ kkal} & \text{---} & 72,144 \% \\
 x \text{ kkal} & \text{---} & 100 \%
 \end{array}
 \quad \left| \begin{array}{l} x = 1440 \text{ kkal} \\ x = 1996 \text{ kkal} \text{ energiya umumiy ovqatdan ajralgan energiya.} \end{array} \right.$$

3) yog' x gr desak, oqsil $1,2x$ gr va uglevod $1,4x$ gr bo'ladi.

$$\begin{array}{lcl}
 1 \text{ gr yog' parchalansa} & \text{---} & 9,3 \text{ kkal} \\
 x \text{ gr yog' parchalansa} & \text{---} & a \text{ kkal}
 \end{array}
 \quad \left| \begin{array}{l} a = 9,3x \text{ kkal} \end{array} \right.$$

$$\begin{array}{lcl}
 4) 1 \text{ gr oqsil parchalansa} & \text{---} & 4,1 \text{ kkal} \\
 x \text{ gr oqsil parchalansa} & \text{---} & a \text{ kkal}
 \end{array}
 \quad \left| \begin{array}{l} a = 4,92x \text{ kkal} \end{array} \right.$$

$$\begin{array}{lcl}
 5) 1 \text{ gr uglevod parchalansa} & \text{---} & 4,1 \text{ kkal} \\
 x \text{ gr uglevod parchalansa} & \text{---} & a \text{ kkal}
 \end{array}
 \quad \left| \begin{array}{l} a = 5,74x \text{ kkal} \end{array} \right.$$

$$6) 9,3x + 4,92x + 5,74x = 1996 \text{ kkal}$$

$$19,96x = 1996 \text{ kkal}$$

$$x = 100 \text{ gr yog'}$$

$$7) 100 \times 1,2 = 120 \text{ gr oqsil}$$

$$8) 100 \times 1,4 = 140 \text{ gr uglevod}$$

$$9) 140 \times 4,1 = 574 \text{ kkal (uglevoddan ajralgan energiya)}$$

Javob: Mubinaning ovqati tarkibidagi uglevoddan ajralgan energiya 574 kkalga teng.

3-Masala: Nazariy jihatdan o'simliklardagi energetik almashinuvda 7 molekula glukoza to'liq va to'liqsiz parchalanganda 122 molekula ATF hosil bo'ldi. To'liqsiz parchalangan glukozani xloroplastda sintezlash uchun necha molekula ATF kerak bo'ladi?

Masalaning yechimi:

1) To'liqsiz parchalangan glukozani X mol

To'liq parchalangan glukozani Y mol deb olsak,

$$\begin{array}{lcl}
 2) 1 \text{ mol glukoza to'liqsiz parchalansa} & \text{---} & 2 \text{ mol ATF} \\
 X \text{ mol glukoza to'liqsiz parchalansa} & \text{---} & a \text{ mol ATF}
 \end{array}
 \quad \left| \begin{array}{l} a = 2x \text{ mol ATF} \end{array} \right.$$

$$\begin{array}{lcl}
 3) 1 \text{ mol glukoza to'liq parchalansa} & \text{---} & 38 \text{ mol ATF} \\
 Y \text{ mol glukoza to'liq parchalansa} & \text{---} & a \text{ mol ATF}
 \end{array}
 \quad \left| \begin{array}{l} a = 38y \text{ mol ATF} \end{array} \right.$$

$$4) x + y = 7 \quad \left| \begin{array}{l} 2 \end{array} \right.$$

$$2x + 38y = 122$$

$$2x + 2y = 14$$


$$2x + 38y = 122$$

$$\hline -36y = -108$$

$$y = 3 \text{ mol glukoza to'liq parchalangan.}$$

$$5) 7 - 3 = 4 \text{ mol glukoza to'liqsiz parchalangan.}$$

6) Fotosintezning qorong'ilik bosqichida 18 mol ATF dan 1 mol glukoza sintezlanadi va quyidagi reaksiya tenglamasi hosil bo'ladi.



$$\begin{array}{lcl}
 6) 18 \text{ mol ATF} & \text{---} & 1 \text{ mol glukoza} \\
 X \text{ mol ATF} & \text{---} & 4 \text{ mol glukoza}
 \end{array}
 \quad \left| \begin{array}{l} X = 72 \text{ mol ATF} \end{array} \right.$$



Javob: *To'liq parchalangan glukozani xloroplastda sintezlash uchun 72 molekula ATF kerak bo'ladi.*

Xulosa. Modda va energiya almashinuvi, nuklein kislotalar, oqsillar biosintezi bo'yicha masalalardan foydalanilib tashkil etiladigan dars davomida izchil va maqsadga yo'naltirilgan holda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llashi orqali o'quv materialini faol o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Natijada ularning fikrlash qobiliyatlari kengayadi, bilim saviyasi ortadi hamda fanga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. Zero har bir o'qituvchining vazifasi va maqsadi yosh avlodni layoqati, qobiliyati, iqtidorini aniqlash, ochish va ularning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020 yil.
2. G.A.Shaxmurova, I.T.Azimov, U.E.Raxmatov. "Biologiyadan masala va mashqlar yechish" (Odam va uning salomatligi) uslubiy qo'llanma. Toshkent -2017 yil.
3. G.A.Shaxmurova, I.T.Azimov, U.E.Raxmatov. "Biologiyadan masala va mashqlar yechish" (Sitologiya va genetika asoslari) o'quv qo'llanma. Toshkent -2020 yil.
4. A.Zikiryayev, A.To'xtayev, I.Azimov, N.Sonin. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinfi darsligi. Toshkent – 2019 yil.
5. A. G'afurov, A. Abdukarimov, J. Tolipova, O. Ishankulov, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi darsligi. Toshkent – 2017 yil.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada biologiyadan oqsillar, uglevodlar hamda nuklein kislotalar mavzularini o'qitishda olimpiada masalalariga oid ma'lumotlar berilgan. Bayon etilayotgan ma'lumotlar oqsillar almashinuvi, energiya almashinuvi va nuklein kislotalar mavzularini o'qitishda foydalaniladigan asosiy tushunchalarni kimyo hamda fizika fanlarida qo'llaniladigan tushunchalar bilan bog'lab o'qitishda olimpiada masalalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о проблемах олимпиады в преподавании тем белков, углеводов и нуклеиновых кислот из биологии. Представленная информация направлена на совершенствование методики использования олимпиадных задач в обучении путем соединения основных понятий, используемых при обучении тем белкового обмена, энергетического обмена и нуклеиновых кислот, с понятиями, используемыми в химии и физике.

SUMMARY

This article provides information about the problems of the Olympiad in teaching the topics of proteins, carbohydrates and nucleic acids from biology. The presented information is aimed at improving the methodology for using Olympiad tasks in education by combining the basic concepts used in teaching the topics of protein metabolism, energy metabolism and nucleic acids with the concepts used in chemistry and physics.



БИОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАДБИРКОРЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Мирзаева Н. И.

Низомий номидаги ТДПУ

Таянч сўзлар: ёш тадбиркор, миллий тарбия, тадбиркорлик сифати ва қобилияти, таълим тарбия, иқтисодий компетенция, лойиҳа, касбга йўллаш, ҳамкорлик, инсектарий, капалаклар боғи.

Ключевые слова: молодой предприниматель, национальное образование, предпринимательские качества и способности, образовательное воспитание, экономическая компетентность, проект, профессиональная ориентация, сотрудничество, инсектарий, сад бабочек.

Key words: young entrepreneur, national education, entrepreneurial qualities and abilities, educational upbringing, economic competence, project, professional orientation, cooperation, insectarium, butterfly garden.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги “Худудларда аҳолини тадбиркорликка кенг жалб қилиш ва оилавий тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ - 4231-сон Қарорида худудларда оилаларни тадбиркорлик фаолиятига кенг жалб қилишга, уларнинг барқарор ва қўшимча даромад манбаига эга бўлишига, миллий хунармандчилик янада ривожланишига, хотин-қизларнинг тадбиркорлик ташаббуслари амалга оширилишига, ёш тадбиркорларнинг истикболли ғоялари ва лойиҳалари рўёбга чиқишига ҳамда шу асосда аҳолининг бандлиги таъминланишига замин яратиш долзарблиги қайд этилган.[1]

Миллий тарбия тизимида синовдан ўтган ўғитлар, чин инсоний фазилатлар ёш авлодни ҳар томонлама етук қилиб тарбиялашнинг асоси – ҳалоллик, ростгўйлик, ўзаро ҳурмат, меҳнат қилиш, хунар эгаллаш, меҳнатни қадрлаш, масъулиятли, ташаббускор бўлиш кабиларда акс этади ҳамда хунар ўрганиш, ҳалол ишлаб қўшимча даромад топиш устувор ҳисобланади. Замонавий мактабларда ўқувчиларимизда бу каби хислатларни шакллантириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Шу сабабли мазкур вазифа давлат сиёсати даражасида кўриб чиқилмоқда.



Таҳлил натижалари ёшлар тадбиркорлиги ривожланишини янада рағбатлантириш бўйича давлат органлари томонидан ёшлар ўртасида тадбиркорликни ташкил этилишига кўмаклашиш, ушбу фаолиятга ёшларни кенг жалб қилиш мақсадида имтиёзли кредитлар бериш, ёшларга тадбиркорлик фаолияти асосларини ўқитиш, таълим муассасалари билан иш берувчилар ўртасида шартнома асосидаги ҳамкорликни ривожлантиришнинг ташкилий - ҳуқуқий асослари мустаҳкам ишлаб чиқилганлигини, бироқ тадбиркорлик таълимининг педагогик-психологик механизмлари, дидактик таъминоти замонавий шарт - шароитларга тўлиқ жавоб бермаслигини кўрсатди. [3;11-12-б]

Ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш иқтисодий компетенциянинг асосий компонентларидан биридир. Ана шу сабабли ўқувчиларда тадбиркорликни ривожлантиришни таълим-тарбия жараёнининг таркибий асоси сифатида қараш лозим. [2; 90-91-б.]

Биология дарсларида ҳам ўқувчиларда ривожлантирилиши лозим бўлган тадбиркорлик кўникмалари тавсифини аниқлаштириш учун “тадбиркорлик” тушунчаси, тадбиркорлик сифатлари ва қобилиятлари билан алоқадорликда замонавий жамиятда тадбиркорликнинг тутган ўрнини аниқлаштириб олишни тақозо этилади.

Мактаб таълимида асосий эътибор ўқувчиларнинг кичик ишлаб чиқариш корхоналарига жалб этишга қаратилади. Мазкур кичик ишлаб чиқариш корхоналари ўқувчиларни бизнес оламига олиб кириш орқали уларда амалий кўникма ва шахсий сифатларни ривожлантириш, ташаббускорлик ва ижодкорлик қобилиятларини очилишини таъминлайди, уларда мустақил ўз-ўзини иш билан таъминлаш имконияти мавжудлигига ишончни қарор топтиради ва касбга йўналтиришга ёрдам беради. [3;41-42-б]

Биология дарсларида ўқувчиларнинг тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш имконияти юқори. Чунки, ўқувчилар асосий биологик объектлар ҳисобланган ўсимликлар, ҳайвонлар, замбуруғларни илмий жиҳатдан ўрганиш билан бирга уларнинг инсон ҳаётидаги иқтисодий аҳамиятини мазмун ва моҳиятини тўлиқ тушуниб борадилар. Айнан шу объектлар устида тадбиркорлик ишларини ташкил этиш осонроқ ҳисобланади, боиси, ўқувчиларнинг аксарияти оилавий тадбиркорлика жалб этилган бўлиб, ўсимлик ва ҳайвонлар устидаги тадбиркорликда иштирок этишади. [4;36-44-б]

Шу сабабли ҳозирги вақтда оила ва мактаб олдида турган асосий вазифа нафақат таълим бериш, балки ўқувчи шахсини шакллантириш, мақсадли касбга йўналтириш ва ҳаётий фаолиятга тайёрлашдан иборат бўл-



моғи лозим. Мактаб ўқув режалари ва уларни амалга ошириш шакллари академик тавсифга эга эмас, таълим-тарбия мазмунини кўпроқ реал ҳаёт билан алоқадор бўлишини тақозо этади. Бунинг учун оила ва мактаб ҳамкорлигига алоҳида ёндашув талаб этилмоқда. Шу сабабли ривожланган давлатлардаги ўқувчиларни тадбиркорликка ўргатиш, уларда ишбилармонлик сифатларини шакллантиришга йўналтирилган тажрибаларини таҳлил этиш ва миллий тарбия тизимига жорий этиш алоҳида аҳамият касб этади.

Биология дарсларида айниқса, зоологиянинг умуртқасизлар курси мавзуларини ўқитишда турли хил лойиҳа ишлари ва бизнес режаларни шакллантириш тўғрисида маълумотларни бериб бориш ўзининг таълимий ва тарбиявий аҳамияти билан ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш имконини беради[5;14-6]. Мисол учун ўқувчиларга тангачақанотлилар туркумини ўқитишда “Капалаклар боғи” деб номланган лойиҳани тавсия этиш мумкин. Албатта бу лойиҳа ўқувчиларнинг билиш даражаси ва ёш хусусиятларига мос келади. Бу лойиҳа албатта нафақат ўқувчиларни балки ёши катталарни ҳам қизиқтириши мумкин.

Ҳар қандай илгари сурилган лойиҳа ўз мақсади ва йўналиши жиҳатидан такрорланмас ва ўзига хос ҳисобланади. Албатта ҳар қандай бизнес режа ва лойиҳани амалга ошириш учун жой ва маблағ масаласи туради. Катталар томонидан “Капалаклар боғи”ни ташкил этиш учун алоҳида жой, теплица, оранжерея, савдо марказлари ёки офис хоналари талаб этилади. Бу лойиҳани амалга оширишда жуда катта эътибор талаб этилади яъни жойни жихозлаш, дизайн учун маҳсус смета тузиш керак бўлади. Лекин ўқувчилар бу лойиҳани уйида ёки умутаълим мактабларидаги тирик табиат бурчагида биология ўқитувчиси билан ҳамкорликда яратишлари мумкин.

“Капалаклар боғи”ни ташкил этиш учун капалакларни парвариш қилиш учун қулай шароитларни яратиш шу билан бирга боғга экскурсияга келувчилар ҳамда меҳмонлар учун барча шароитларни яратиш талаб этилади. “Капалаклар боғи” бўйича кўргазмани ташкил этиш фақат бир марталик сарф ҳаражатлар етарли эмас унинг давомийлигини таъминлаш учун капалак ғумбакларини турли хил ўсимликлар ва зарур жихозлар доимий сотиб олинади. Капалаклар боғи базасида турли хил тадбирлар яъни синфдан ташқари машғулотлар, кечалар, фотосессиялар ва ўқувчилар томонилан ташкил этиладиган тадбирлари амалга оширилади. Бир вақтнинг ўзида тадбиркорлик билан шуғулланилади турли хил сувенирлар яъни ойна остига жойлаштирилган капалаклар, хаттоки турли хил байрамлар



ва тўйларда “Салют” сифатида фойдаланиш учун тирик капалаклар сотиш йўлга қўйилади.

Капалак салютлари ҳар қандай одамни эътиборини тортади ва эстетик завқ беради. Бу лойиҳа фақат инсонларни дам олишлари учун чиройли жой балки табиатни севувчилар ҳамда ўқувчиларнинг ўқув билиш фаолиятини ривожлантирадиган марказ вазифасини ҳам бажариши керак.

“Капалаклар боғи”да ташкил этиладиган тадбир меҳмонлари бу жойга келувчилар учун жуда қизиқарли ва чиройли бўлиши билан бир қаторда улар капалакларнинг училишини кузатиб қолмай балки улар капалакларни қўлларида ушлаб кўришлари, расмга тушишлари ҳамда ҳашаротларнинг ривожланиш цикли бўйича кўпгина қизиқарли маълумотларга эга бўлишлари мумкин.

Капалакларнинг кўпайтиришнинг энг қулай варианты уларнинг ғумбагини сотиб олишдир. Ҳозирги вақтда кўплаб интернет сайтларида капалак ғумбагини сотиш ва етказиб бериш бўйича ўз таклифларини билдиришмоқда. Вояга етган ҳашаротдан кўра, капалак ғумбагини топиш ва ундан капалакни ривожлантириб олиш мумкин.

Капалак ғумбаги учун буюртма бериш уни табиатдан қидириб топишдан олдин капалак учун яшаш жойи тайёрлаш лозим. Бундай жойни фанда инсектария деб юритилади. Уни иситувчи ва намликни сақлаб турувчи қурилмалар билан жиҳозлаш лозим. Харорат +25 градусдан паст бўлмаслиги, намлик эса 70% атрофида бўлиш керак. Уйча капалаклар яшаши учун қулай бўлиши керак, 10 та капалакни сақлаш учун инсектарий баландлиги камида 1 метр, эни ярим метрдан баланд бўлмаслиги керак. Ташқи деворларни имкон даражада ойнадан қилиш керак ёки шаффоф пластик махсулотлардан ҳам фойдаланиш мумкин. Деворнинг қолган қисмларини бошқа махсулотлардан фанер ёки алюминли махсулотлардан тайёрлаш мумкин. Инсектарияда бир биридан узоклиги 20 см бўлган капалаклар қўниши учун махсус мосламалар жойлаштирилади. Инсектариянинг бурчагига шохчаларни қўйиш керак, бу шохчаларга ғумбакдан янги чиққан капалаклар қўниб қанотини куритади.

Капалаклар учун қулай шаорит улар кўпая олсагина яратилган бўлади.

Капалаклар ўсимлик нектари, ширин мевалар, шакар эритмалари билан озиқланиши мумкин. Агар капалаклар кўпая бошласа уларнинг личинкаси учун зарур бўлган яшил ўсимликларни заҳира қилиш керак бўлади.

Капалаклар бизнес - идея сифатида муҳим амалий аҳамият касб этади. Тирик капалакларни болалар ва катталар учун байрамларда салютлар сифатида ва конвертларга битта ёки бир нечтасини солиб яқин кишиларига



совға сифатида тақдим этишлари мумкин. Капалакларнинг нархи турли диапазонларда европа давлатларида битта чиройли капалакнинг нархини 20 доллардан деб баҳолашади. Агар капалакларни тўғри ва яхши парариш қилинса ўртача уч ҳафтагача яшайди.

Капалак нобуд бўлгандан сўнг ҳам яхшигина фойда келтириши мумкин. Нобуд бўлган капалакни тўғри қуритилиб чиройли рамкали ойна остига жойлаштириб сотиш мумкин. Бундай рамка ичидаги капалакни қизиқувчилар келишилган нархда сотиб олишлари мумкин. Шунингдек, ўқувчилар технологик таълим ўқитувчилар билан ҳамкорликда чиройли рамка ва панолар яшашни ўрганиб олишиб, капалакларнинг қуриган қанотларидан чиройли қилиб панно ёки рамкаларга жойлаштириб ўз бизнесларини амалга оширишлари мумкин, албатта бундай паннолар ниҳоятда қиммат туради.

Хонадонларда экзотик капалакларни кўпайтириш қийин эмас ундан катта фойда кўриш мумкин. Чиройли қилиб безатилган инсектария хонадон эгалари ва меҳмонлар учун эстетик завқ беради. Капалакларни кенг доирада кўпайтириш кўрғазмалар ташкил этиш имконини яратади ва жуда яхши реклама бўлиб катта миқдорда маблағ олиш имконини беради.

Шунинг учун бундай бизнес лойиҳалар асосида кичик мактаб ёшидаёқ болаларни “табiiй фанлар” курсини ўқитиш жараёнида иқтисодий билимлар билан мақсадга йўналтирилган тарзда таништириб борилади, замонавий ишлаб чиқариш ва асосий касблар ҳақида умумий тушунчалар бериб борилади. Меҳнат стажировкаси жараёни, дастури ва ўтказиш жойи ота-оналар билан келишилади, ўқувчилар оилавий даромадга наф келтирадиган пул мукофоти олишади. Бундай лойиҳа ишларида ўқувчиларни тадбиркорлик фаолиятига тайёрлаш бирга ўз соғасини устаси бўлган мутахассисларни тайёрлашдан бевосита манфаатдор компания ва корхоналар фаол иштирок этишади. Бу эса ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ривожлантириш билан бирга тадбиркорлик кўникмаларини ҳам ривожлантиради.

Албатта бундай тадбиркорликни ўз ичига олган дарсларни узвий равишда амалга ошириш ўқувчиларнинг биология дарсларини кўпроқ иштирок этиш хошиш-истакларини оширади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги “Худудларда аҳолини тадбиркорликка кенг жалб қилиш ва оилавий тадбиркорликни ривожлантиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” га ПҚ-4231-сонли Қарори / “Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси”, 09.03.2019 й.,



2. Б.Ходжаев Б. Ўқувчиларнинг мустақил фикрлашини шакллантириш йўллари / – Т.: ТДПУ, 2008. – Б. 90.
3. О.Ҳасанбоева, М.Артикова, М.Мамажонов. Оилада ўқувчиларни тадбиркорликка тайёрлашда моддий ва маънавий ҳаёт уйғунлиги / –Т.: «Fan va texnologiya», 2011. – Б.80.
4. Г.А. Шахмурова, И.Т. Азимов, У.Э. Рахматов. Биологиядан масала ва машқлар ечиш. 2017. Тошкент -Б147.
5. Г.А. Шахмурова, И.Т. Азимов, У.Э.Рахматов. Биологиядан масала ва машқлар ечиш(зоология). 2016. Тошкент -Б 82.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада ўқувчиларнинг биология дарсларида тадбиркорлик элементларини такомиллаштиришга қаратилган маълумотлар ўз аксини топган. Мақолада тадбиркорликни амалга оширишнинг методологик асослари ва ўқувчиларнинг билиш фаолияти ривожлантиришдаги таълим - тарбиявий аҳамияти ёритилган. Шунингдек ўқувчилар учун тадбиркорлик элементларни ўзида акс эттирган бизнес лойиҳа ишлари ҳамда инсектарий ва унда организмларни парвариш қилиш, улардан бизнес фаолиятида фойдаланиш тадбирлари ҳақида маълумот берилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье приводятся сведения по совершенствованию элементов предпринимательства у учащихся на уроках биологии. В статье рассматриваются методологические основы реализации предпринимательства и учебно-воспитательного значения в развитии познавательной деятельности у учащихся. В нем также представлена информация о работе над бизнес-проектами, которая отражает элементы предпринимательства для учащихся, а также о деятельности инсектария и уходе за организмами в нем, их использовании в предпринимательской деятельности.

SUMMARY

This article provides information on improving the elements of entrepreneurship among learners in biology class. The article discusses the methodological foundations of the implementation of entrepreneurship and educational significance in the development of cognitive activity in learners. It also provides information about working on business projects, which reflects the elements of entrepreneurship for learners, as well as about the activities of the insectarium and the care of organisms in it, their use in entrepreneurial activities.





BIOLOGIYA DARSLARIDA RAQAMLI RAQAMLI TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ergasheva G.S.

Nizomiy nomidagi TDPU prof.

Umarova M.N.

Nizomiy nomidagi TDPU

Biologiya va uni o'qitish metodikasi yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Tayanch so'zlar: ta'limni raqamlashtirish, raqamli ta'lim, raqamli texnologiya, biologiya, dars, AR-texnologiya, VR-texnologiya, XR-texnologiya, MR-texnologiya.

Ключевые слова: цифровизация образования, цифровое образование, цифровые технологии, биология, урок, AR-технология, VR-технология, XR-технология, MR-технология.

Key words: digitalization of education, digital education, digital technologies, biology, lesson, AR technology, VR technology, XR technology, MR technology.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda ta'lim tizimini raqamlashtirish sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalari va resurslaridan samarali foydalanish orqali o'quv jarayoni sifatini ta'minlash, o'quvchilarning axborot kompetentligini shakllantirishni talab etadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchi va talaba yoshlarga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida bilim berish, raqamli ta'limni joriy etish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108 sonli qarori bilan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmonida "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish" [2] masalasi alohida ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, bugungi axborotlashtirilayotgan jamiyatning har qanday sohasini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunga muvofiq,




mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, jumladan, ta'lim sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunday chora-tadbirlarning yangi bosqichini, ustuvor vazifalarni belgilab berishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmonida "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'lim vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda tegishli tumanlarda IT-infratuzilmasini yaratishni, kompyuter uskunalari bilan jihozlashni nazarda tutgan holda maktabgacha va umumta'lim maktablari hamda sog'liqni saqlash muassasalarini raqamlashtirishni yakunlash bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek, axborot tizimlarini joriy etish hamda mas'ul xodimlarni o'qitishni tashkil etish" [1] alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, intellektual va ma'naviy salohiyatli yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish ham bugunning asosiy vazifalari qatoriga kiradi.

Bugungi kunda respublikamiz ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish va qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Raqamli texnologiya metodlari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning zarur bilimlarni raqamli ta'lim resurlari va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida mustaqil o'rganish, o'zlashtirilgan bilimlarni faol amaliy qo'llash orqali o'quv materiallarini puxta o'zlashtirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar ma'lumotlarni ishlab chiqaradigan, saqlaydigan yoki qayta ishlaydigan elektron vositalar, tizimlar, qurilmalar va resurslar tizimidir.

Raqamli ta'lim – bu texnologiyadan foydalanadigan har qanday ta'lim turi. Raqamli ta'lim texnologiyalari o'qitishning ma'lumotlar bilan ishlashda maxsus usullardan, dasturiy va texnik vositalardan (kino, audio va video, kompyuterlar, telekommunikatsiya tarmoqlari) foydalanilgan holda tashkil etiladigan pedagogik texnologiyadir. Raqamli resurslarni qo'llash va ularning ahamiyati haqida o'quvchi yoshlarda tasavvur uyg'otish kuchli pozitsion bilimlarni shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim sohasini tashkil etishda yetakchilik qilayotgan bu texnologiya keng qamrovli bo'lib, uning bir nechta turlari mavjud. Quyida uning turlari bilan tanishishingiz mumkin (1-rasm).

Biologiya kursi maktabdan boshlanadi. Faqat katta tajribaga ega bo'lgan o'qituvchi barcha ma'lumotlar hajmini malakali tarzda tuza oladi va uni




1-rasm. Ta'lim sohasida qo'llanilayotga raqamli texnologiyalar tasnifi

qiziqarli tarzda taqdim etadi, shunda bolalarda ushbu qiyin mavzuni o'rganishga ishtiyoq tug'iladi. Mavzu qanchalik chuqurroq o'rganilsa, o'quvchilarning tushunishi shuncha qiyinlashib boradi, natijada, muammolar o'quv materialini o'zlashtirishda muammolar vujudga kela boshlaydi. Masalan, hujayraning tuzilishi haqidagi ma'ruzada ko'pchilik uning qanday ko'rinishini tasavvur qilish qiyin.

Virtual haqiqat etarli darajada vizuallashtirish bilan an'anaviy ta'lim shaklining makur muammosini to'liq hal qilishga qodir. VR o'qituvchilarga o'quvchilarni o'rganish tushunchalariga jalb qilish va singdirish uchun yangi muhitni taqdim etadi, ko'pincha bu darsliklar yoki 2D ekranlar orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarining biologiya ta'limida joriy etilishi quyidagi imkoniyatlarni beradi (2-rasm):

Raqamli texnologiya metodlari yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilar tasavvurini to'laligicha shakllantirib, zamonaviy axborot vositalaridan faol foydalanish orqali bilimning xotirada mustahkam muhrlanishiga imkon beradi. Taraqqiy etgan davlatlar va respublikamizning yetakchi ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida o'qitish dasturlarini tahlil etilganda sifat jihatdan



2-rasm. Biologiyani o'qitishda raqamli texnologiyaning imkoniyatlari.

yangi o'qitish vositalari bo'lib, ular an'anaviy o'qitish vositalaridan tubdan farq qilishini ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan sinfda foydalanish ta'limning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Bu texnologiyadan foydalangan holda darslarni tashkil etishning bir necha turlari mavjud bo'lib ular: darslar-ma'ruzalar, darslar-testlar, yangi ma'lumotlarni joriy etish darslari, o'yin darslari va boshqalar. Quyida biologiya fanida virtual texnologiyalardan foydalanishga oid dars ishlanmasi taqdim etiladi.

Fan nomi: Biologiya

Mavzu: Tiriklikning tuzilish darajalari.

Darsning maqsadi:

Darsning ta'limiy maqsadi: tiriklikning tuzilish darajalari haqida ma'lumot berish orqali o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarga tiriklik xususiyatlari va ularning tuzilish birliklari haqida bilim berish va shu orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning tiriklik tuzilishi haqidagi bilimlarini kengaytirish orqali ilmiy izlanish, mustaqil tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish.

Darsning texnologiyasi: raqamli ta'lim texnologiyasi.

Darsda foydalaniladigan metodlar: raqamli texnologiya metodlari, blits savol-savob, "Kimning daraxti birinchi gullaydi" virtual o'yini.



Darsda foydalaniladigan jihozlar: Mavzuga oid virtual ma'lumotlar, rasmlar, mavzuga oid ko'rgazmali materiallar, taqdimotlar, multimedia o'yinlari. **Texnologik xarita**

Tashkiliy qism	5 daqiqa
O'tilgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
O'quvchilarni baholash	3 daqiqa
Uyga vazifa berish	2 daqiqa

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism (5 daqiqa) O'quvchilar bilan salomlashish, sinf xonasining tozaligiga e'tibor berish, o'quvchilarni yurtimizda sodir bo'layotgan yangiliklar bilan tanishtirish, o'quvchilar davomatini aniqlash, electron doskaga mavzuni e'lon qilish.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash) (10 daqiqa): O'quvchilarning uyga vazifa topshiriqlarini bajarganligini nazorat materiallari asosida tekshiriladi, o'quvchilarni qiziqtirgan savollariga javob beriladi, o'quvchilarning mavzuni tushunmagan qismi bo'lsa qayta tushuntiriladi, mavzu umumlashtirilib, xulosa qilinadi. O'tilgan mavzu "moslikni tanlash" jadvali yoki test orqali mustahkamlanadi.

O'tilgan mavzu yuzasidan test topshiriqlari.

- Organizmlarning o'zini o'zi tiklashi qaysi jarayonda namoyon bo'ladi?
A) assimilyatsiya B) moddalar almashinuvi C) ko'payish D) qo'zg'alish
- Moddalar almashinuvining ikkita jarayoni nomini toping ?
A) assimilyatsiya B) dissimilyatsiya C) ko'payish D) A va B
- Qaysi biologik usul o'rta asrlarda Abu Ali ibn Sino tomonidan o'rganilishi boshlab berilgan?
A) tarixiy B) tajriba C) kuzatish D) taqqoslash
- Ch.Darvin nomi bilan bog'liq bo'lgan biologik metod keltirilgan qatorni toping?
A) kuzatish B) tajriba C) taqqoslash D) tarixiy
- Biologiya atamasi fanga kim tomonidan kiritilgan ?
A) J.B.Lamark B) G. R. Treviranus C) Gekkel D) A va B
- Organizm hayot faoliyatini tashkil etuvchi kimyoviy moddalar va jarayonlar haqidagi fan ?
A) zoologiya B) anatomiya C) biofizika D) biokimyo
- Biologiya atamasi nechanchi yilda fanga kiritildi ?
A) 1802 B) 1902 C) 1803 D) 1804

8. Uning yordamida har qanday biologik hodisani tasvirlash, ta'riflash mumkin. Qaysi usul haqida gap ketmoqda?

- A) kuzatish B) taqqoslash C) kuzatish D) tajriba

9. Bu usuldan tirik orga- nizmlarni miqdor va sifat ko'rsatkichlarini ta'riflashda foydalaniladi. Qaysi usul haqida fikr berilgan ?

- A) taqqoslash B) kuzatish C) tajriba D)eksperimental

10. Qaysi usulda olingan ma'lumotlar bilan hujayra nazariyasi, biogenetik va irsiy o'zgaruvchanlikning gomologik qatorlari qonuni kashf etilgan?

- A) taqqoslash B) kuzatish C) tajriba D)eksperimental

III. Yangi mavzu bayoni (15 daqiqa) :

Biologiya fanining so'ngi yutuqlari tufayli tirik organizmlar - hayot har xil darajada tuzilganligi aniqlandi. Tiriklikning tuzilish darajalarini hozirgi zamon biologiya fani molekula, hujayra, organizm, populyatsiya, tur, biogeotsenoz va biosfera darajalariga bo'lib o'rganadi. Keling, quyida tiriklikning asosiy tuzilish darajalarini ko'rib chiqaylik.

Molekula. Har qanday biologik sistema tuzilishi jihatidan qan- chalik murakkab bo'lmasin makromolekulalar, ya'ni: oqsillar, nuk- lein kislotalar, lipidlar va uglevodlar kabi boshqa bir qator organik moddalardan iboratdir. Molekula bosqichida aynan tirik materiya uchun xos bo'lgan quyosh nuri energiyasining organik modda- larda bog'lanishi kimyoviy energiyaga aylanishi, ya'ni modda va energiya almashinuvi, irsiy axborot berilishi boshlanadi.

Hujayra. Hujayra tirik organizmlarning tuzilish, rivojlanish va funksional birligidir. Tiriklik tuzilishining hujayra darajasida irsiy axborot berilishi, modda va energiya almashinuvi va tiriklikning bir butunligi ta'minlanadi. Hujayraviy tuzilish darajasiga ko'ra barcha tirik organizmlar bir va ko'p hujayralilarga ajraladi.

Organizm. Organizm mustaqil hayot kechiruvchi yaxlit yoki bir va ko'p hujayrali tirik tizimdan iborat. Ko'p hujayrali organizm har xil vazifalarni bajarishga moslashgan to'qima va organlardan tashkil topadi. Tiriklikning organizm darajasining birligi individ hisoblanadi.

Populyatsiya — tur. Bir tur arealida uzoq muddatdan beri yashab kelayotgan, boshqa populyatsiyalardan nisbatan alohida- lashgan, erkin chatishib, serpusht nasl beradigan individlar yig'in- disiga — populyatsiya deyiladi. Populyatsiya — tur bosqichida dastlabki evolutsion o'zgarishlar kuzatiladi.

Biogeotsenoz. Tiriklikning ancha yuqori darajadagi tuzilmasi hisoblanib, turlar tarkibi bo'yicha xilma-xil organizmlarni ularning yashash sharoitlari bilan bog'liq holda birlashtiradi. Biogeotse- noz daraja anorganik va organik moddalar,




avtotrof va geterotrof organizmlarni o'z ichiga oladi. Biogeotsenozning asosiy vazifasi energiyani to'plash va taqsimlashdir.

Biosfera. Sayyoramizdagi hayotning barcha ko'rinishlari- ni qamrab olgan, ancha yuqori darajadagi tabiiy tizimdir. Bio- sferaning elementar birligi biogeotsenoz hisoblanadi, ya'ni barcha biogeotsenozlar yig'indisi biosferani tashkil etadi. Biosfera bosqichida sayyoramizdagi tirik organizmlarning hayot faoliyati bilan bog'liq ravishda barcha moddalar va energiyaning davriy aylanishi kuzatiladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash (10 daqiqa)

“Kimning daraxti birinchi gullaydi” virtual o'yini. Bunda o'quvchilar kompyuter yoki boshqa virtual shug'ullanish mumkin bo'lgan uskunada joylashtirilgan daraxt modelidagi gullarning ustiga kerakli tugmani olib boradi va sichqoncha tugmasini bosadi. So'ng gulda keltirilgan savolning javobini gulning yonida turgan bargga yozadi va belgilangan vaqt asosida savollarga javob beradi.



Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savol-javoblar.

1. Hujayra haqida ma'lumot bering .
2. Molekula va hujayraning farqli tomonlarini ko'rsating.
3. Biosfera bosqichida nimalar kuzatiladi ?
4. Populyatsiyaning turdan qanday farqi bor ?
5. Ekosistemalar yig'indisi nima deyiladi ?
6. Tiriklikning tuzilish darajalariga nimalar kiradi ?

V. O'quvchilarni baholash (3 daqiqa) :O'quvchilarni “5” ballik tizimda baholash.

VI. Uyga vazifa berish (2 daqiqa): mavzuni electron darslikda taqdim etilgan topshiriqlar asosida mustahkamlash.

VII. Yakunlash: o'quvchilar bilan xayrlashish.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, biologiya darslarida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini faollashtirish, ko'rgazmalilikni ta'minlash hamda virtual tasavvurlarini rivojlantirish orqali ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.11.2020 yildagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5085999#-5091151>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-son «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/5030957#5031756>
3. <https://en.m.wikipedia.org/wiki/articles>
4. <https://www.interacion-design.org>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada respublikamizda ta'limni raqamlashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, zamonaviy raqamli texnologiyalarining biologiya ta'limida joriy etilish imkoniyatlari, mazkur texnologiya asosida darslarni tashkil etishga oid metodik tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье приведены реформы, реализуемые в сфере цифровизации образования в нашей республике, возможности внедрения современных цифровых технологий в биологическое образование, методические рекомендации по организации занятий на основе этой технологии.

SUMMARY

This article presents the reforms implemented in the field of digitalization of education in our republic, the possibility of introducing modern digital technologies in biological education, methodological recommendations for organizing classes based on this technology.





ЎЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМИ ВА УНИНГ ТАШКИЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Гаффаров А. М.

*Сирдарё вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази
директори, мустақил тадқиқотчи*

Таянч сўзлар: мустақил таълим, узлуksиз касбий таълим, педагог, ташкил этиш, касбий компетентлик, педагогика-психология билимлари соҳаси, такомиллаштириш.

Ключевые слова: самостоятельное образование, дополнительное профессиональное образование, педагог, организация, профессиональная компетентность, область педагогико-психологических знаний, совершенствование.

Key words: independent education, additional professional education, teacher, organization, professional competence, area of pedagogical and psychological knowledge, improvement.

Педагогларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришсиз таълимни замонавийлаштириш мумкин эмас. Касбий компетентликнинг кўрсаткичларидан бири педагогнинг ўзини-ўзи устида ишлаши - мустақил таълим ола билишидир. Мустақил таълимсиз ўқитувчи шахсий ва касбий жиҳатдан ривожланиши мумкин эмас.

Мустақил таълим шахснинг қобилиятлари ва ўзига хосликларини ривожлантиришга йўналтирилган, инсоннинг ўз ихтиёри билан амалга ошириладиган, ўзи томонидан бошқариладиган ва касбий фазилатларни такомиллаштириш учун зарур бўлган фаолиятларини бирлаштиради. Мустақил таълим, аввало, ихтиёрийлиги ва изчиллиги билан тавсифланади ҳамда узлуksиз педагогик таълим ғоясини амалга оширишнинг энг муҳим шартларидан ҳисобланади.

Агар ўқув муассасасида ўқитувчининг ўзини ўзи ўқитиши ҳеч ким томонидан уюштирилмаса, мониторинг ўтказилмаса ва рағбатлантирилмаса, мустақил таълимга бўлган интилиш сусаяди. Кадрлар салоҳиятини такомиллаштиришнинг муҳимлигини ҳисобга олган ҳолда, ўз-ўзини ривожлантириш жараёнини ташкил этиш бошқаришнинг муҳим вазифаларидан бирига айлананиб қолади.

Таълим муассасасининг раҳбар ҳар бир педагогнинг ўзига хос касбий имкониятларини ва ўсиш истикболларини аниқлаш имкониятини берувчи



самарали механизми яратиш вазифасига дуч келади. Педагогнинг мустақил таълими учун шароитларни яратиш, таълим жараёнини самарали ривожлантиришга қодир педагогларнинг малакали жамоасини шакллантириш кадрлар стратегиясининг биринчи навбатдаги вазифасига айланади, зеро, таълимий натижалар барчанинг биргаликдаги фаолияти ва сайи-ҳаракати орқали қўлга киритилади.

Педагог мустақил таълимнинг самарадорлиги қуйидаги омилларга боғлиқ: биринчидан, шахсий ривожланиш ва ўзини ривожлантиришга эҳтиёжнинг мавжудлиги, иккинчидан, мазкур эҳтиёжни рўёбга чиқариш учун шароитлар мавжудлиги ёки йўқлиги. Биринчи шарт бажарилиши учун ўқитувчида фикрлаш ва ўзини-ўзи баҳолаш қобилияти бўлиши керак, яъни, фаолияти натижалари ва касбий қийинчиликларини холис тасхишлаш асосида ўз фаолиятини таҳлил қила олиши лозим. Иккинчи шартни рўёбга чиқариш учун педагог ходимларга қуйидаги йўналишларда ривожланиш имкониятини бериш керак:

ўқитаётган фани соҳасида;

педагогика-психология билимлари соҳасида (ўқувчиларнинг шахс сифатдаги хусусиятлари тўғрисида);

методик имкониятларни кенгайтириш бўйича (педагогик технологиялар, ўқитишнинг шакл, усул ва услублари);

ахборот компетентлилигини оширишда (компьютер технологиялари, интернет-ресурслар);

мулоқот кўникмаларини ривожлантиришда (таълим жараёни иштирокчиларининг ўзаро таъсири);

шахсий компетенцияларни такомиллаштиришда (имиж, мулоқот маданияти, етакчилик қобилияти, педагогик такт).

Педагогнинг мустақил таълими жараёнини ташкил этишга йўналтирилган бошқарув дастури қуйидагиларга асосланиши лозим:

педагогнинг профессионал фаолиятини тизимли таҳлил қилишга;

педагог шахсига индивидуал ёндашишга;

педагог ходимларнинг мотивациясига;

маъмурият ва педагогларнинг ўзаро муносабатларидаги инсонпарварлик ва эркинликка;

педагог иехнати натижаларини мунтазам кузатиш ва баҳолашга;

педагоглар турли тоифаларининг касбий ўсиши, шахсий ривожланиши ва ўзини намоён қилиш имкониятларига нисбатан табақалашган ёндашувга.

Педагогларнинг мустақил таълими жараёнини ташкил этишдаги энг катта тўсиқ — бунинг учун рағбатнинг етарли эмаслиги ва уни амалга



ошириш учун тайёр эмаслик. Шу боис, бизнинг мамлакатимизда ўқитувчининг ўз касбий маҳоратини ривожлантиришига интилишини уйғотиш, мазкур ривожланишнинг механизмлари билан қуроллантиришга йўналтирилган педагоглар касбий компетентлигини узлуксиз ошириб бориш тизимини ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Касбий ривожланишнинг муҳим механизми – бу ўз-ўзини ривожлантириш бўйича амалга ошириладиган мустақил таълимнинг мавзусини белгилашдир. Ҳар бир педагог ўз педагогик амалиётини таҳлил қилиш асосида фаолиятига доир муаммоли соҳаларни аниқлайди ва бир неча йил давомида ишлайдиган мавзунини белгилайди, муаммонинг сабабларини ўрганади ва ечимларни излайди.

Касбий танловларда қатнашиш ҳам педагогнинг мустақил таълимига ҳисса қўшади, чунки мазкур танловларда иштирок этиш ўз фаолияти, педагогик эътиқоди, касбий мавқеи ва ўзининг иш услублари тизими ҳақида фикр юритиш зарурияти туғилади.

Шуни таъкидлаш керакки, юқорида айтиб ўтилган ишлар педагоглар томонидан маълум даражадаги қаршилиқ билан кутиб олинади. Шубҳасиз, мазкур қаршилиқ педагогларнинг иш юки кўплигидан (бу асосий далил бўлса-да) эмас, балки уларнинг бундай фаолиятни амалга ошириш кўникмасига эга эмаслигидан далолат беради.

Мустақил таълим жараёнини услубий жиҳатдан қўллаб-қувватлашни ташкил этилиши ушбу вазиятда катта рол ўйнайди. Исталган натижаларга эришиш учун наффақат педагогнинг мустақил мутолаага қизиқтириш, балки бутун жараён (мавзунини танлаш, унинг ифодалаш, тадқиқот натижаларини оммавий тақдимотини амалга ошириш) давомида унга амалий ёрдам кўрсатилишини таъминлаш керак.

Шу мақсадда мактаб қуйидаги методик ишларни амалга ошириши лозим: таълим натижаларини ташхислаш асосида педагогнинг касбий фаолиятини таҳлил қилиш, дарсларга қатнашиш, мактаб маъмурияти билан суҳбат ўтказиш, мактаб ҳужжатларини ўрганиш, педагогнинг касбий фаолиятини индивидуал методик қўллаб-қувватлаш ва мактабда педагогларнинг доимий фаолият юритувчи амалиётга ўналтирилган услубий семинари машғулотларини ташкил этиш.

Суҳбат, ҳар бир педагогнинг ўзи билан ўқув йилининг охирида ўтказилади. Педагогларга нафақат амалга оширилган ишлар, уларнинг ютуқлари, балки келгусидаги фаолиятнинг истиқболлари ҳақида алоҳида ҳисобот тақдим этиш имконияти берилади. Мазкур суҳбат раҳбарлар учун зарур, чунки улар педагогларнинг касбий фаолияти, қандай мақсадлар қўйган-



лиги, улар учун нималар кўпроқ аҳамиятга эга эканлиги ҳақида маълумот оладилар. Суҳбат педагоглар учун ҳам керак, чунки у педагогнинг шахсий нуқтаи-назарини шакллантиради, фикрлаш ва таҳлил қилиш даражасини оширади ва ўз касбий фаолиятни тушунишга қаратилган.

Семинар методологик кенгашда қабул қилинган умумий мавзу бўйича ташкил қилинган қатор машғулотлардан иборат бўлади. Машғулотлар назарий материалларни, психологик ва педагогик билимларни ўзлаштиришга, педагогик лойиҳалашга, ўз лойиҳаларини амалга оширишга қаратилган. Муҳокама қилинаётган тушунчаларнинг асосий жиҳатлари ва умумий ёндашувлар кўриб чиқилади, ҳар бир педагогнинг вазифаси эса ўз олинган билимларни ўз фанига мустақил равишда жорий қилиш, уларни аниқлаштириш, ўзгартириш ва қўлланилиши мумкин бўлган соҳаларни аниқлашдир.

Ушбу иш шаклининг фаолиятга йўналтирилганлиги, шунингдек, турли фан ўқитувчиларининг умумий педагогик муаммоларни ҳал қилиш учун ижодий гуруҳларга бирлашиш имкониятининг мавжудлиги унинг афзаллиги сифатида қаралиши мумкин.

Гуруҳда ишлаш шаклларида фойдаланиш, фаол ва интерфаол услублар, интерактив мулоқот, тесқари алоқани ташкил қилиш ўрганилаётган материалнинг шахсий аҳамиятини оширади, семинар қатнашчиларида таҳлилий, коммуникатив ва рефлексив кўникмаларни шакллантиради.

Семинар машғулотлари турли шаклларда ўтказилади: назарий, амалий, маслаҳат машғулотлари. Масалан, семинар машғулотлари доирасида компетенцияларга асосланган вазифаларни ишлаб чиқиш, ўқувчиларнинг ўзлаштираолмаслик ҳолатларини бартараф этиш йўллари, синфда тарбиявий муҳитни шакллантириш ва бошқа шу каби муаммоларни муҳокама қилиш мумкин.

Албатта, педагогларнинг мустақил таълимини ташкил қилиниши мактабдаги барча муаммоларни ҳал қилмайди. Бироқ, педагогик амалиётни ўз-ўзини таҳлил қилиш, касбий муаммоларни аниқлаш ва шакллантириш, қийинчиликларни тушуниш, уларни бартараф этиш усуллари топиш ва назарияни ўрганиш учун қизиқтирувчи, ташкилий-моҳиятли шароитларни яратиш мумкин бўлади. Мухими, педагогларнинг биргаликдаги мустақил таълими таълим муассасасидаги таълимий муҳитни ўзгартиришнинг таъсирчан омилига айланади. Педагог ўз касбий фаолиятининг ижобий ва салбий томонларини тушуниб, номукаммалликларни тан олса – ўзгаришга мойил бўлади.



Мустақил таълимни ташкил этиш бўйича юқорида қайд этилганларнинг амалга оширилиши педагогик жамоанинг методология, педагогика, методика ва психология масалаларига бўлган қизиқишини орттиради.

Педагогнинг мустақил таълими жараёнини бошқариш фаолиятининг асосини қуйидаги ҳолатлар кетма-кетлиги орқали ифодаланади:

- педагогни ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш, унинг устувор йўналишларини белгилаш, ушбу стратегияни ривожланиш дастури ва инновацион лойиҳалар орқали амалга ошириш;
- касбий таълимни ривожлантиришга қаратилган илмий тадқиқотларни ташкил этиш ва уни янги сифат даражасига кўтариш;
- инновацион таълим фаолиятини фаол равишда тарғиб қилиш, ҳар бир педагогнинг инновацион фаолиятини ўрганиш ва қўллаб-қувватлаш;
- шахсни ривожлантириш ва ўз-ўзини ривожлантиришнинг махсус дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш ҳисобига ҳар бир педагогга ўзини шахсий ва касбий такомиллаштириши учун имкониятларни таъминлаш;
- педагогик фаолият сифатини баҳолаш бўйича мониторингни ташкил этиш.

Бунда энг оқилона йўл – педагогни ўз-ўзини ривожлантиришнинг методологик асослари билан курулантириш, зеро мазкур билимлар ўқув ишларининг тегишли кўникмаларида, ижодий меҳнат маданиятида ўзининг давомини топсин. Педагогни курсдан кейинги даврда соҳага оид янгиликлардан иборат ахборотлар билан таъминлаш қуйидаги йўналишларда олиб борилиши мақсадга мувофиқ:

- замонавий таълим стратегиялари;
- таълим сифатини ошириш юзасидан меъёрий-ҳуқуқий таъминот;
- таълимни ривожлантиришга доир илмий ва амалий тадқиқот натижалари;
- янги педагогик технологияларни ва ўқитишнинг ноанъанавий шакллари ривожлантириш;
- таълим соҳасидаги жаҳондаги ютуқлар, анъаналар ва бошқалар.

Фанлар бўйича педагогларнинг касбий маҳоратини узлуксиз ошириб бориш.

Ушбу йўналишдаги ишлар умумтаълим мактаблари ўқитувчиларининг ўзлари ўқитаётган фаннинг назарияси ва методикасига оид билимларини ошириш, амалиётда қўллаш кўникмаларини ривожлантириш, ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишга оид метод ва усуллар билан таништи-



риш, фанлар бўйича яратилган методик қўлланмалар, ресурслардан ўқув жараёнида самарали фойдаланишларига ёрдам бериш, ўқитувчиларни аттестациядан ўтишга тайёрлаш, шунингдек, уларнинг доимий тарзда мустақил таълим олишларини йулга қўйиш, фан ўқитувчиларининг касбий маҳоратини узлуксиз ошириб бориш бўйича методистлар томонидан ҳаракатдаги ўқув машғулотларини ташкил этиш мақсадида ташкил этилади.

Ўқув машғулотларини ташкил этиш жараёнида ўқитувчилар касбий компетентлигини узлуксиз ошириб боришнинг қуйидаги жиҳатларига эътибор қаратиш назарда тутилади:

- Давлат таълим стандарти, ўқув режа ва дастурлари билан ишлай олиш, янги яратилаётган адабиётлар асосида дарсларни ташкил этиш;
- дарс мавзуларига мос ўқитишнинг замонавий усуллари, методларини танлаш;
- ахборот - коммуникация технологияларидан унумли фойдаланиш, мавжуд мультимедиа материалларини қўллаш ва янгиларини яратиш;
- ўқув-лаборатория жиҳозларини сақлаш, уларнинг ўрнини тўлдириб бориш;
- лаборатория ва амалий машғулотларни бажариш кўникма, малакаларини ошириш;
- “Билимлар беллашуви”, олимпиада, мониторинг натижалари асосидаги бўшлиқларни тўлдириш;
- ўқув дастури асосидаги масала-машқ, топшириқларни содда ва қулай усулларда бажариш устида ишлаш;
- мавзуларни ўргатишда бошқа фанлар билан боғлиқлигини кўрсата билиш;
- дарсликлар, ўқув дастурлари, қўшимча методик адабиётларни таҳлил қилиш;
- мавзулаштирилган мураккаб тестларни ечиш усуллари танлаш ва фандаги янгиликлар билан мунтазам таништириб борадиган касбий маҳоратга эга бўлган, малакали педагогларни тайёрлаш.

Хулоса қилиб айтганда, педагоглар узлуксиз касбий ривожланишида мустақил таълимнинг зарурлиги, бир томондан, педагогик фаолиятнинг хусусиятлари, унинг ижтимоий роли билан, бошқа томондан, педагогик меҳнатнинг доимий ўзгарувчан шароитлари, жамиятнинг эҳтиёжлари, илм-фан ва амалиётнинг эволюцияси, педагогга бўлган талабларнинг ошиб бориши, унинг жамиятдаги жараёнлар ва ҳолатларнинг ўзгаришига



тезкор мослашиши қобилияти, ўз фаолиятини қайта қуришга, янги, мураккаброқ касбий масалаларни самарадорлик билан ечишга тайёрлиги билан боғлиқ бўлган ўзлуксиз таълим тенденциялари орқали асосланади.

Адабиётлар:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003.
2. Гаргай В.Б. Повышение квалификации учителей в США и Великобритании: интерактивная модель. //Педагогика. - №8. - 2004 - С.
3. Ильина Н.Ф. Раскрытие инновационного потенциала педагога в ходе непрерывного образования. //Инновации в образовании. - № 9 - 2010.
4. Калининкова Н.Г. Непрерывное педагогическое образование как парадигма /Высшее образование и мировая культура— №3 2005

РЕЗЮМЕ

Мақолада педагог касбий компетентлиги унинг ўзини-ўзи ривожлантириши - мустақил таълим ола билишига боғлиқлиги, мустақил таълимнинг самарадорлиги шахсий ривожланиш ва ўзини ривожлантиришга эҳтиёжнинг мавжудлиги ҳамда мазкур эҳтиёжни рўёбга чиқариш учун шароитлар мавжудлиги каби омилларга боғлиқлиги амалий мисоллар билан ёритилган.

РЕЗЮМЕ

В статье изложены практические примеры того, как профессиональная компетентность педагога зависит от его саморазвития-способности к самостоятельному обучению, эффективность его самостоятельного обучения зависит от таких факторов, как наличие потребности в личностном развитии и саморазвитии, а также наличие условий для реализации данной потребности.

SUMMARY

The article covers practical examples of whether the professional competence of an educator depends on factors such as his self-development - his ability to receive independent education, the effectiveness of his independent education-the presence of a need for personal development and self-development, and the presence of conditions for realizing this need.





INDIVIDUAL TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH

Xonnazarova S.

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: kognitiv, faoliyat, texnologiya, individuallashtirish, mustaqil fikrlash.

Ключевые слова: когнитивная деятельность, технология, индивидуализация, самостоятельное мышление.

Key words: cognitive activity, technology, individualization, independent thinking.

Bugungi zamonaviy jamiyat zamonaviy maktab faoliyatini yo'lga qo'yish, har qanday odamdan o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish, refleksiya talab etadi. Bunday sharoitda jamiyatning har bir a'zosidan yangi bilimlarni, ko'nikma va malakalarni o'zining shaxsiy tashabbusi bilan butun hayoti davomida uzluksiz egallab borishi lozim. Zamonaviy jamiyatdagi yuqori raqobat darajasi, texnologiyalarning doimiy yangilanib turishi har bir shaxsdan o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishni, o'z ustida doimiy ishlashni, o'zining shaxsiy kamol topishida istiqbol uchun qayg'urish va o'quv-ijodiy faoliyatini bilish faoliyati bilan uyg'unlashtirish vazifasini qo'ymoqda. Maktab ta'liminig asosiy vazifasi o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsini tarbiyalash, zamonaviy raqobat dunyosida hayotga tayyorlashdan iborat. O'quvchilar mustaqil maqsad qo'yishi va o'quv maqsadlariga erishishi, ularga ma'lum hodisa va ma'lumotlarni prognozlash, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini egallashi, shuningdek, o'quv va aniq vaziyatlarni modellashtirishi lozim.

Boloniya jarayoni ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirishdan keyingi fenomen sifatida davlatlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tuzilmalariga, shuningdek, milliy o'zlikni anglashning asosiy yo'nalishlaridan biri – oliy ta'limga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, oliy ta'limni isloh qilish sohasida xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va sifatini ta'minlashning ustivor yo'nalishlarini belgilash dolzarb muammo sifatida ko'tarildi.

Boloniya jarayoni ta'lim tizimining bosqichma-bosqich mustaqil ta'limga o'tishiga olib kelishi oliy ta'lim muassasalarining qator muammolarga duch kelishda sabab bo'ldi. Fanning jadal rivojlanishi, yuksalish mazmunini



belgilovchi axborot miqdori o'quv mashg'uloti vaqtining cheklanishi bilan taqqoslanmaydi. Zamonaviy texnologiyalar, o'z imkoniyatlarining mavjud cheklovlariga qaramay, ta'limning eskirgan an'anaviy shakllarini yanada qat'iyat bilan yangilashga muvaffaq bo'ldi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan strategik muammolardan biri – yangicha ta'limni shakllantirish va xalqaro ta'lim muhitini yaratish bo'lib, ushbu masala respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan imzolangan bir qator me'yoriy hujjatlarda o'za aksini topgan. Ushbu me'yoriy hujjatlarda ta'lim muassasalarining zamonaviylashtirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish hamda ta'lim tizimini ilg'or standartlarini joriy etish, o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga keng e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikanining mustaqillikka erishishi bilan iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida ko'p islohatlar amalga oshirildi. Mazkur islohatlarning asosiy mohiyati, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi, ularning ma'naviy boy, yuksak salohiyati, bilim, qoniqma va malakalarga ega bo'lishini nazarda tutadi.

Hozirgi kunda ilm-fan rivojlanishi o'z navbatida individual ta'limni ham rivojlantirish ya'ni an'anaviy talimga xos tarzda individual ta'limda ham o'quvchilar bilan o'qituvchilar o'rtasida fikr almashish va ularni o'qitish muhitini yaratish, individual ta'limni takomillashtirish ta'lim jarayonining dolzarb vazifasi hisoblanadi. "Biror bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'rifiy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi".

Istiqlol yillarida ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, ta'limning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop yangiliklar, o'quv qo'llanmalari, yangidan-yangi lug'atlar chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Shunday ekan individual ta'limda o'quvchilarning kognitiv faoliyatini shakllantirishga qaratilgan ushbu tadqiqot ishi ham uning dolzarbligi va ahamiyatini kasb etadi.

Hozirgi kunda yuqori samaraga ega bo'lgan o'qitish texnologiyalarini tashkil etish borasida faol izlanishlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi sifatidagi yo'nalishlardan samaralilari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Bilim oluvchining individual xususiyatlariga va bilim olish jarayonida o'quv materialini o'zlashtirishida vujudga keladigan xususiyatlari bo'yicha bilim



oluvchi modelini avtomatik tarzda quradigan, bilim oluvchilar guruhining umumlashgan xususiyatlari bo'yicha bilim oluvchi guruh modelini quruvchi, o'qitish muhiti hamda kommunikatsion texnologiyalarni alohida bilim oluvchi yoki bilim oluvchi guruhi induvidual xususiyatiga sozlovchi intellektual va dasturiy agentlar texnologiyasi;

Hozirgi kunda barcha fan o'qituvchilari qatori biologiya o'qituvchilaridan ham ta'lim metodlarini takomillashtirish, o'qitish sifatini yaxshilash kabi vazifalar talab etiladi. Bunday har tomonlama bilimli, fan asoslarini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradigan didaktik muammolardan biri fanini o'qitishda mustaqil ishlarni tashkil qilish va uni amalga oshirishdan iboratdir. Shunga ko'ra har bir biologiya o'qituvchisining oldida turgan asosiy vazifa o'quvchilarga dastur materiali asosida chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularning bilim doirasini doimo kengaytirib borishdan iborat bo'lmog'i lozim. Shu bilan birga biologiya o'qituvchisi dastur materialini darslik bo'yicha o'tish bilan chegaralanib qolmay, balki o'quvchilarga nazariy bilim berish va ularda amaliy ishlarni bajara oladigan darajada malaka hosil qilish masalasiga ham alohida e'tibor bermog'i kerak.

Ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar (Angliya, Fransiya, AQSh, Yaponiya, Rossiya)da kognitiv neyrologiya – neyropedagogika fani mustaqil fan sohasi sifatida shakllanayotgan bo'lib, bu fan “insonga qanday ta'lim berish kerak?” degan oddiy, biroq o'ta muhim savolga javob topishda salmoqli ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, M.G.Gazzaniga, Erik R.Kandel, Randall C. O'Reilly Yuko va Munakata, V.D.Yermeeva va T.P.Xrizman, A.V.Svetkovlar bosh miya tarkibiy qismlari va tizimlarining rivojlanish bazaviy neyrobiologik qonuniyatlariga bo'ysunib, aniq ijtimoiy sharoitlardagina faollashishini aniqlaganlar. Yuqorida nomi keltirilgan olimlar mazkur muammo yechimi sifatida bolalarni tarbiyalash va o'qitish jarayonida nafaqat bola shaxsining, balki, uning bosh miya faoliyati tashkil etilishining o'ziga xosliklarini hisobga olish zarurligiga qaratish muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlaganlar. Bola psixikasini yosh davrlari bo'yicha rivojlanishi bosh miyaning o'siishi va shakllanishi bilan bevosita bog'liq. Biroq bu jarayonda noto'g'ri ta'sir o'tkazilishi bolaning psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [].

Individuallik bosh miya faoliyatining tashkil etilishi – yarim sharlarning qaysi biri inson hayotiy faoliyatida yetakchi ahamiyatga ega ekanligi bilan uzviy bog'liq. Chunki, murakkab kognitiv jarayonlarda har ikkala yarimshar ishtirok etsada, har bir yarimshar bir –biriga o'xshamagan o'z tili va belgilari yordamida ma'lumotoarni qabul qilish va o'zlashtirishda turli belgilar tizimi



hamda anglash strategiyalaridan foydalanishi bilan bir-biridan farq qiladi. Yarimsharning sinxron ishlashi inson bosh miyasi faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oishirish imkonini beradi [Yeremeeva va boshq., 20-23 b.] .

Yngilangan maktab biologiya ta'limida butun e'tibor o'quvchilarning muloqot qobiliyatlari, vaziyatlarni modellashirish, bahs va munozaralar orqali tajriba orttirish hayotda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim sharoitlarida sub'ektni ijodiy faol shaxs sifatida hayotga tayyorlash, mustaqil bilishga qiziqishini orttirish nafaqat o'qituvchi, balki, o'quvchi faoliyatini faollashtirish asosida amalga oshiriladi [3, 1-b.]. Shu munosabat bilan o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishni ta'limni individuallashtirish texnologiyalari asosida tashkil etish va bunda sub'ekt-sub'ekt munosbatlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar passiv va aktiv kognitiv faoliyatni amalga oshiradi. Faollik tarkibida quyidagi qismlar ajralib turadi:

- o'quv vazifalarini bajarishga tayyorlik;
- mustaqil faoliyatga intilish;
- topshiriqlarni bajarish ongi;
- tizimli o'qitish;
- shaxsiy darajasini oshirish istagi.

Biologiyani asosiy maktab ta'limi darajasida o'rganish quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:

tirik tabiat va uning qoniniyatlari haqidagi bilimlarni rivojlantirish;
 tirik organizmlarning tuzilishi, hayotiy faoliyati va atrof-muhitdagi roli haqida;

inson bioijtimoiy mavjudot sifatida;

biologiya fanining odamlarning amaliy faoliyatidagi o'rni haqida;

tirik tabiatni bilish usullari haqida;

tiriklik dunyosi jarayonlari va hodisalarini, o'z organizmining hayotini tushuntirish uchun biologik bilimlarni qo'llash qobiliyatini egallash;

biologiya va ekologiya sohasidagi zamonaviy yutuqlar, salomatlik va xavf omillari haqidagi ma'lumotlardan foydalanish;

biologik asboblarni, instrumentlarni, ma'lumotnomalar bilan ishlash;

biologik ob'ektlar va o'z organizmining holatini kuzatish, biologik tajribalar o'tkazish;

tirik organizmlarni kuzatish, biologik tajribalar, turli axborot manbalari bilan ishlash jarayonida kognitiv qiziqishlarni, intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;



yovvoyi tabiatga, o'z sog'lig'iga va boshqa odamlarning sog'lig'iga ijobiy qadriyatli munosabatni shakllantirish;

tabiatda xulq-atvor madaniyati;

kundalik hayotda olingan bilim va ko'nikmalardan foydalanib, o'simliklarni, uy hayvonlarini parvarish qilish, o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish, o'ziga va boshqalarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;

tabiiy muhitga, o'z tanasiga, boshqa odamlarning sog'lig'iga nisbatan o'z faoliyati oqibatlarini baholash.

Biologiyani o'rganish faqat o'simlik va hayvonot dunyosining tur tarkibi bilan tanishish, alohida vakillarni bilish degani emas. Bu ko'plab tushunchalar va ta'riflar, qonunlar va qonuniyatlarni o'rganishdir. Bunday ishlarni qiziqarli va hayajonli, ayni paytda ilmiy o'rganish, o'quvchilarning faolligini, fanga qiziqishini oshirish o'qituvchining asosiy vazifasidir.

Adabiyotlar:

1. Gulyamov D.R. Ta'lim jarayonini individuallashtirish: muammo va uning yechim yo'llari // Boshlang'ich talim sifat va samaradorligini oshirish: strategiya, innovatsiya va ilg'or tajribalar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro 2021 y. 20 sentabr. B. 33-35.

2. Ермеева В.Д., Хризман Т.П. Мальчики и девочки – два разных мира. Неропсихология – учителям, воспитателям, родителям, школьным психологам. – Санкт-Петербург, 2001. – 97 с.

3. <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/190625-poznavatel'naja-deyatelnost-na-urokah-biologii>

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktab ta'lim amaliyotida o'quvchilar kognitiv faoliyatini faollashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati, ta'limni individuallashtirish texnologiyalari asosida tashkil etish va bunda sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini amalga oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье освещаются особенности и значение активизации когнитивной деятельности учащихся в школьной образовательной практике, организации обучения на основе технологий индивидуализации и возможности реализации субъект-субъектных отношений.

SUMMARY

The article highlights the features and significance of activating the cognitive activity of students in school educational practice, organizing training based on individualization technologies and the possibility of implementing subject-subject relations.



TA'LIMDA TOLERANTLIK MUNOSABATLARINING METODOLOGIK ASPEKTLARI

Xidirov F. F.

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shaxrisabz filiali direktorining
yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari*

Tayanch soʻzlar: tolerantlik, prinsip, munosabatlar, tolerantlik g'oyalari, pedagog.

Ключевые слова: толерантность, принцип, отношения, идеи толерантности, педагог.

Key words: tolerance, principle, relations, ideas of tolerance, teacher.

Jahonda yuz berayotgan zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyat, demokratik ijobiy o'zgarishlar, xalqaro miqyosdagi do'stona munosabatlar turli millat xalqlari o'rtasida tolerantlik munosabatini rivojlantirishni, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishga tahdid soladigan real xavf-xatarlarni oldini olish, xalqaro ekstremizm, terrorizm, milliy-etnik va diniy nizolar, xalqaro ksenofobiyaning kuchayishini oldini olish maqsadida kelajak kadrlarida tolerantlik munosabatlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Zamonaviy dunyoning yaxlitligi va xilma-xilligini saqlash zarurati zamonamizning ushbu global muammolarini insoniyatning tolerantlik madaniyatini rivojlantirish, sayyoradagi barcha mavjudotning omon qolishi shartidir.

Mutaxassislarning ko'pchiligi madaniyatning murosasizlikni cheklash mexanizmi sifatida o'ziga xos rolini ta'kidlaydi. Tolerantlikni rivojlantirishning eng samarali mexanizmi boshqa madaniyatlarni o'rganishdir, deb ta'kidlanadi. Xalqaro ta'lim dasturlarining aksariyati shunga qaratilgan bo'lib, YUNESKOning butun siyosati shunga asoslanadi.

Jamiyatda tolerantlikni shakllantirish muammosini amaliy hal qilish uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim sohasi muhim sanaladi. Ayniqsa, tolerantlik muammosiga qiziqish uyg'otish ta'lim tizimining – o'z jamiyati va xalqaro miqyosda zarur bo'lgan eng dolzarb vazifalar sifatida belgilanadi. O'z-o'zidan, bunday global muammo insoniy munosabatlarda tolerantlikni tarbiyalashda pedagogika ta'lim muasasalarining ta'limini boshqarish organlari, ota-onalar, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda, sa'y-harakatlari zarur.

Tolerantlik munosabatlarini rivojlantirish maqsadida YUNESKO tomonidan 1995-yil 16-noyabrda «Tolerantlik tamoillari deklaratsiyasi»ni qabul qilingan.



Birlashgan Millatlar Tashkiloti Deklaratsiyasi qabul qilinganidan keyin o'tgan o'n yil ichida "tolerantlik tamoyillari" asosida jahon hamjamiyati tomonidan ma'lum darajada tolerantlik g'oyalarini rivojlantirish va tarbiyalash tajribasi to'plangan. Мазкур декларацияда толерантликка куйидагича таъриф берилади: "Tolerantlik - bu bizning dunyomiz madaniyatlarining boy xilma-xilligini, o'zimizni ifodalash shakllarimizni va inson individualligini namoyon qilish usullarini hurmat qilish, qabul qilish va tushunishni anglatadi. Bu bilim, ochiqlik, muloqot va fikr, vijdon va e'tiqod erkinligi bilan ta'minlanadi. Tolerantlik xilma-xillikdagi uyg'unlikdir. Bu nafaqat ma'naviy burch, balki siyosiy va huquqiy ehtiyojdir. Bag'rikenglik tinchlikni ta'minlaydigan va urush madaniyatini tinchlik madaniyatiga almashtirishga yordam beradigan fazilatdir" [1].

Mazkur g'oyalar tizimi bilan hamohang respublikamizda so'nggi yillarda "milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda" [2].

Prezident Sh.Mirziyoev tomonidan 30-iyulni O'zbekistonda «Xalqlar do'stligi kuni» deb e'lon qilinishi, millatlar o'rtasidagi do'stlik, hamjihatlikni yanada mustahkamlashning namunasi sifatida birinchi qo'yilgan qadamidir.

Nazariyotchi olimlar turli metodologik yondashuvlarni taklif qilib, bu hodisaga falsafiy urg'u berishga harakat qildi; o'qituvchilar, psixologlar tolerantlikni tarbiyalash uchun maxsus metodlar, texnologiyalarni yaratishga intilishdi; davlat darajasida maxsus dasturlar qabul qilindi (Masalan, Rossiyada «Tolerantlik ongini shakllantirish va Rossiya jamiyatida ekstremizmning oldini olish» maqsadli dasturi, AQSHda, Climate of Trust dasturi va boshqalar), xalqaro konferentsiyalar, forumlar, yuqori darajadagi uchrashuvlar o'tkazila boshladi.

«Tolerantlik» lotincha «tolerantia» - «sabr-toqat» degani bo'lib, tolerantlik, o'zgalarning turmush tarzi, xulqatvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr mulohazalari, g'oya va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish. Tolerantlikning asosiy maqsadi o'quvchi yoshlar- bakalavrlarga tolerantlik, o'zga din, millat vakillariga hurmat, ularning qadriyatlarini e'zozlash, milliy boyliklariga hurmat bilan qarash, toqatlilik, bardoshlilik, do'stlik, birodarlik, vatanparvarlik, saxiylik, sadoqatlilik, o'zgalarga hurmat nazari bilan qarash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida tolerantlikka quyidagicha ta'rif berilgan: «Tolerantlik, o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, xis-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish» 1. Ta'lim-



tarbiya jarayonida yoshlarda tolerantlikni tarbiyalashda esa, tarbiya vositalari tarbiyachining o'zni beqiyos hisoblanadi, shuningdek, tolerantlik tushunchasi o'z tarkibiga chidam, bardosh, o'zgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni qamrab olgan. Hozirgi kunda tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga ko'ra har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir. Har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim [3, 225-b.].


Respublikamizda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabati alohida e'tirof etiladi. Pedagogik jarayonlarda tolerantlik munosabatlarini amalga oshirish timsoli sifatida biologiya darslarida o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish, ehtiyotkorlik, asrab-avaylash tuyg'ularini singdirish, ona tabiatga hissiy-qadriy munosabatlarni tarkib toptirish orqali ifodalash mumkin. Buning uchu pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarning tolerantlik madaniyatini rivojlantirish bugungi kun pedagogikasining oldida turgan eng birlamchi vazifalardan biri.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, talaba yoshlarda tolerantlik tushunchalarini shakllantirish jarayoni nafaqat, pedagogikaning kasbiy mahorati, balki biz ulg'aytirayotgan muhitga ham bevosita bog'liqdir. Tog'rirog'i, mazkur jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirish ta'lim –tarbiya jarayoni va ijtimoiy hayotda tolerantlik muhitining mavjudligi bilan uzviy aloqador [3]. Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustivor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizimlarini puxta egallay bilish lozim. Ta'lim jarayonini faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqoralik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqeyi u tomonidan pedagogik texnikaning etarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualigidan dalolat beradi.

Tolerantlikka munosabatlarini tarkib toptirish muammosi qadimdan buyuk mutafakkirlar tomonidan e'tirof etib kelingan. Masalan, sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy ijodida tolerantlik g'oyalari yuksak rol o'ynaganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Uning «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» («Risola fit tarbix ala asbob as-saodat»), «Shaharni boshqarish» («As siyosat an-madaniya»), «Urush va tinch turmush haqida kitob» («Kitob fi maoyish va-l xurub»), «Fazilatli xulqlar» («As-siyrat al-fazila»), «Fozil shahar odamlari qarashlari» singari asarlari o'zining boy insonparvarlik va tolerantlik tamoyillari singdirilganligi bilan muxim ahamiyatga egadir.

Pedagogik tolerantlikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar sanaladi:

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili va shaxsiy ish faoliyat tajribamizga asoslangan holda pedagogning tolerantlik madaniyatini – o'qituvchining kasb va jamiytdagi turmush tarzi, uning shaxsiy fazilatlari - insonparvarlik



1-rasm. Pedagogik tolerantlikning asosiy ko'rsatkichlari

xususiyatlari uchligi sifatida ifodalash mumkin degan xulosaga keldik. ta'lim muassasalari o'qituvchilari bilan hamkorlik ni ochib beradi. Biz o'qituvchining tolerantlik madaniyatini sub'ektlarining muloqoti, hamkorligi orqali va ijodiy o'zini o'zi anglashni, pedagogik faoliyatning innovatsion xarakterini, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladigan, ijodiy faoliyat tajriba asosida doimiy rivojlanib boradigan xususiyat sifatid talqin etamiz.

Adabiyotlar:

1. Декларация принципов толерантности. Утверждена резолюцией 5.61 Генеральной конференции ЮНЕСКО от 16 ноября 1995 года // [https://gov. cap.ru/ home/76/ gorono/ 2005/school6/ tolerant_deklarazija.htm](https://gov.cap.ru/home/76/gorono/2005/school6/tolerant_deklarazija.htm)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.11.2020 yildagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. // <https://lex.uz/docs/-5085999>.
3. Isaeva, M. R. Pedagogik muloqot jarayonida tolerantlikni tarbiyalash / M. P. Isaeva. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 8 (350). — С. 224-226.
4. Murtazayeva, R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik [Matn]: darslik / R. Murtazayeva. - Toshkent: «Go To Print», 2020. - 344 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada global muamolardan biri bo'lgan tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning metodologik asoslari, bo'lajak pedagoglarda tolerantlik munosabatalarini tarkib toptirish istiqbollari yoritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье описаны методологические основы развития культуры толерантности, что является одной из глобальных проблем, и перспективы формирования толерантных отношений у будущих педагогов.

SUMMARY

The article describes the methodological foundations for the development of a culture of tolerance, which is one of the global problems, and the prospects for the formation of tolerant relations among future teachers.



RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH KONTEKSTLARI

Sarimsoqova S. M.

FarDU mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: kompetensiya, kontekst, biologiya, chiziqli, tizimli, davriy, modellashtirish, o'yin, interfaol texnologiyalar.

Ключевые слова: компетентность, контекст, биология, линейная, систематическая, периодическая, моделирование, игра, интерактивные технологии.

Key words: competence, context, biology, linear, systematic, periodic, modeling, game, interactive technologies.

Maktab ta'limida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish uchun an'anaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lgan interfaol ta'lim texnologiyalari, shu jumladan, ta'lim jarayonini tashkil etish usullari, vositalari, shakllari bilan to'ldirilishi zarur. Shaxsiy kompetensiya – bu muayyan vaziyatda adekvat qaror qabul qilish ko'nikmasini ifodalaydi. O'zaro bog'liq fanlarni birlashtirish kompetensiyasini quyidagilar: ishbilarmonlik etikasi, munozaralarda ishtirok etish madaniyati, ma'lumotnoma tayyorlash, guruh loyihalarida ishlash ko'nikmasi kabilar tashkil qiladi. Madaniyatlararo yondashuv doirasida zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi yangi ijtimoiy va madaniy tajribaga ega bo'lish natijasida shaxsning ijobiy rivojlanishi va uning o'z-o'zini rivojlantirish, namoyon qilishni ifodalaydi.

Biologiya o'qituvchining boshqaruv faoliyati quyidagi komponentlarning tizimi sifatida tavsiflanadi: bilim, ko'nikma va malakalarning dastlabki holatini tashxislash, maqsadlarni belgilash, asosiy ta'lim strategiyasini aniqlash, taktik vazifalarni belgilash, o'quvchilarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, fikr mulohazalar va nihoyat, ta'lim jarayoni natijalarini tahlil qilish kabi ko'rinishda ifodalanishi mumkin.

O'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini yo'naltirish va davr talablariga muvofiq ravishda tahrir qilish talab qilinadi. O'qituvchi an'anaviy ta'limda o'quv faoliyati markazini egallagan modellaridan farqli ravishda mazkur tadqiqot ishimiz modelida u intellektual harakatlarni boshqarish va



rag'batlantirish uchun mo'ljallangan menejer, koordinator va vositachi rolini bajaradi. Shuning bilan birga, har bir bosqichda o'quv materialining mazmuni, shakllari, texnologiyalari va o'qitish metodlari o'quvchilarning haqiqiy imkoniyatlari ehtiyojlariga mos kelishi, ularning shaxsiy ehtiyojlariga javob berishi va kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishda rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilishi muhim ahamiyatga ega [1]. O'quvchilar, o'qituvchi va ta'lim jarayonining o'zi murakkab o'z-o'zini tashkil etish tizimiga birlashtirilgan bu o'quvchilarning kompetensiyalari, ijodkorligi va o'z-o'zini rivojlantirishga yordam beradigan interfaol ta'lim muhiti sharoitida mavjud bo'lishi va ishlashi mumkin.

Biologiya darslarida o'quvchilarning kompetensiyalarni shakllantirish axborotlashgan jamiyat sharoitida o'qituvchilarning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Mavjud va rejalashtirilgan kompetensiyalarni tahlil qilish individual ta'lim strategiyalarini aniqlash, tegishli interfaol ta'lim texnologiyalarini tanlash, ta'lim oluvchilarni ichki va tashqi baholash mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. O'quvchilarning paydo bo'layotgan vaziyatga va qaror qabul qilish rejimida miyaning ishlashiga bo'lgan munosabatining sxematik diagrammasi ekstremal vaziyatlarning sabablarini tushuntiradi va ta'lim jarayonida samarali innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammosi asosan psixologik o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini aniq ko'rsatib beradi. Uning yechimi asosan muvozanatni oldini olish va hissiy stress darajasini nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lish uchun his-tuyg'ularingizni boshqarish ko'nikmasiga bog'liq. Biz optimal holat rejimida miyaning ishlashini ta'minlash ko'nikmasi haqida gapiramiz [2, 25-bet].

Raqamli ta'lim sharoitida biologiya o'quv jarayonini o'quvchilarning mustaqil ishlari asosida tashkil etishga ko'proq e'tibor qaratishni talab etadi: ta'lim jarayonini o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish va yangi materialni o'rganishda ilmiy yondashuviga asoslanishi zarur; ma'ruzalar davomida ma'lumotlarning to'liq taqdim etish imkoniyatining ortishi; ta'lim jarayonida test va nazorat ishlariga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rish imkoniyati kabilar bilan izohlanadi.

O'quvchilar mustaqilligining yuqori darajasi interfaol ta'lim texnologiyalari: tadbirkorlik o'yinlari, amaliy mashg'ulotlar, treninglar, aqliy hujum asosida ta'minlash imkoniyati ortadi. Masalan, o'quvchilarning ishbilarmonlik o'yinlarining turlaridan biri bo'lgan tadbirkorlik sessiyalarini mustaqil ravishda yaratish bo'yicha faoliyati nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, amaliy ko'nikmalarni egallashga va qaror bilan bog'liq bo'lgan stressli vaziyatlarni qabul qilishga, engishga yordam beradi.



Shu munosabat bilan interfaol ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish mezonlari to'plamini aniqlash va ularni kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim jarayonida qo'llash samaradorligini baholash zaruriyati haqida o'quv modellarini tashkil qilish, baholash va tadqiq qilish sohasidagi yetakchi mutaxassis Klark Aldrich ta'kidlashicha, interfaol ta'lim texnologiyalarini tasniflaydigan takomillashtirilgan mezonlarni tasdiqlash zarur deb hisoblaydi [3]. Aslida, tanqidiy deb belgilangan oltita mezon mavjud va ular nafaqat modellashtirishda, balki butun ta'lim amaliyotida qo'llanilishi zarur.

Chiziqli kontekst eng ommaviy hisoblanadi. Ushbu kontekstga o'qitilgan mutaxassislarga biror biologik hodisa yoki jaryonning rivojlanishi boshqasini davom ettiradigan o'zgarmas ketma ketlikda taqdim etiladi.

Tizimli kontekst tizimlar bilan ishlaydi. Bu yerda foydalanuvchilar rasmiy, murakkab va o'zaro bog'liq munosabatlarga duch kelishadi. Kontekst tizimning barcha komponentlarini va ushbu komponentlarning bir biriga qanday ta'sir qilishini o'z ichiga oladi. Tizimli kontekst chiziqli kontekstga qaraganda aniqroq, ammo chiziqli harakatlarning o'zaro bog'liqligi ifodalaydi. Ishlab chiqarish misolida bu qo'shimcha (ishchilar, sifat nazorati, ta'mirlash, zavodlarni boshqarish, mashinasozlik texnologiyasi va boshqalar) degan ma'noni anglatib, ishlab chiqarishdagi an'anaviy tashkilotning asosiy funksiyalariga, bu ishning tizimli kontekstini yaratadi.

Davriylik konteksti mahsulot chiqishini yaratish uchun birlashtirilishi mumkin bo'lgan takrorlanadigan harakatlarni birlashtiradi. Shaxsiy harakatlar, vaqtni hisoblash va qadriyatlarining ushbu komplekslari haydashni, yozishni, hatto fortepianoni o'ynashni o'rgatishda tabiiy kontekst hisoblanadi. Biroq, har qanday kasbiy mahorat uchun interfeyslar orqali davriylik kontekstni yaratishda ushbu oddiy misollardan tashqarida imkoniyat mavjud. Davriylik kontekstning yaxshi namunasi bitta mahsulotni ommaviy ishlab chiqarish bo'lishi mumkin, bu yerda oddiy harakatlar qayta-qayta takrorlanadi va vaqt o'tishi bilan kasbiy mahoratni oshiradi.

Biroq, har qanday kasbiy ko'nikma uchun interfeyslar orqali davriylik kontekstni yaratishda ushbu oddiy misollardan tashqarida imkoniyat mavjud. Davriylik kontekstning yaxshi namunasi bitta mahsulotni ommaviy ishlab chiqarish bo'lishi mumkin, bu yerda oddiy harakatlar qayta-qayta takrorlanadi va vaqt o'tishi bilan kasbiy malakani oshiradi.

Eng muvaffaqiyatli ta'lim modellari quyidagi: model, o'yin va pedagogika kabi kombinatsiyalar ko'rinishida taqdim etiladi. Ularning uchta mezondan birortasini noto'g'ri qo'llanilishi ta'lim olish va kompetensiyalarni egallashning butun jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.



Modellashtirish elementlari ob'ektlarni yoki vaziyatlarni aniq, ammo tanlab aks ettirishi va foydalanuvchi harakatlarini tanlab, ammo aniq aks ettirishi mumkin. Modellashtirishning turli elementlari misollar, amaliy mashg'ulotlar va tizimni faoltashkil etish, davriylik va chiziqli kontekstni olish, tajriba amalga qilish, konkretlashtirish imkonini beradi. Modellashtirishning turli elementlari orqali o'rganish materialni chuqur va moslashuvchan tushunishni ko'rsatadi. Ammo modellashtirishdan juda tez tez foydalanish nazariy bilimlarni egallashga olib keladi, ushbu vazifani kundalik turmushda amaliyotda qo'llash kutilgan natijani bermaydi.

O'yin elementlari o'quvchilarni to'g'ridan to'g'ri «o'qitish» va charchoqni kamaytirishi zarur, ammo o'yin elementlari me'yoridan ortiq qo'llanilsa, u ta'lim jarayonini chalg'itishga olib kelishi mumkin.

O'yin elementlaridan foydalanish quyidagi: soddalashtirilgan yoki mavhum interfeyslar; o'yin modellari; o'yinlarning belgilangan tipologiyasi (o'yin namoyishlari, sport musobaqalari, kompyuter o'yinlari, savol javob o'yinlari); o'yinni yanada qiziqarli qilish maqsadida harakatlarni bo'rttirib ko'rsatadigan javoblar; hal qilish uchun topishmoqlar yoki jumboqlar; qahramonlar yoki rol modellarining tavsifi; belgilar yoki ovoz tanlash; ishtirokchilar o'rtasidagi raqobat, yuqori ball to'plagan ishtirokchilarning saqlangan ro'yxatlarini taqdim etish; raqobat imkoniyatlari va / yoki mavjudlik hissi; murakkablik darajasini o'yinchining imkoniyatlariga yaxshiroq moslashtirish uchun bir qator murakkablik darajalarini tanlash; xaosdan tartib yaratish ssenariysi; mojaro ssenariysi; «pauza» tugmasi, tezlikni oshirish/kamaytirish tugmasi va yana ijro etish imkoniyatlari kabi ketma ketliklar e'tiborga olingan holda amalga oshiriladi.

Interfaol ta'lim texnologiyalarining amaliy rivojlanishi xalqaro standartlarga javob beradigan ta'lim xizmatlarining davr talablariga muvofiq ravishda zamonaviy bosqichiga o'tish zarurligi bilan asoslanadi [4]. Boshqaruv muammolarini hal qilishning aniq variantlarini topishga yordam beradigan interfaol ta'lim texnologiyalari ishtirokchilarning rolini oshirishga yordam beradi, ularga korxona, hamkorlik, muloqot va jamoaviy ish haqida tizimli qarashga o'rgatadi[5]. Interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim oluvchilarni kasbiy yo'naltirish uchun tajriba to'plash vaqtini tubdan qisqartirishga, voqealar bilan tajriba o'tkazishga, muammolarni hal qilish uchun turli strategiyalarni sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, interfaol ta'lim texnologiyalarining asosiy afzalligi shundan iboratki, ular o'quvchilarga umuman o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, ularni o'zi o'zini tashkil etishga,



o'zi o'zini rivojlantirishga, o'zi o'zini o'rganishga olib keladi. Natijada, o'qituvchi nafaqat ularni boshqaradi balki, butun ta'lim jarayonini boshqaradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, deklaratsiyadan olingan kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham haqiqiy o'quv amaliyotiga aylanadi, agar talaba atrofda olamni va o'zini o'zgartirish uchun o'z bilish vositalarini amalga oshirishni va boshqarishni o'rgansa, o'zi o'zini tushunish va mas'uliyat uchun yuqori darajaga ega bo'lsa, o'zgarishlar ichki va tashqi voqelikni amalga oshiradi. Xuddi shuningdek, o'qituvchi ta'lim texnologiyalarini tanlashi va o'qitishi uni ta'lim jarayonidagi mavjud o'quv holatiga muvofiq ravishda tarkiblashtirishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Эргашева Г.С. Подготовки будущих учителей биологии к профессиональной деятельности использованию интерактивных программных средств // Proceedings of the XX International Scientific and Practical Conference Social and Economic Aspects of Education in Modern Society Vol.2, December 25, 2019, Warsaw, Poland. –Pp. 34-37.
2. Назарова, Т.С. От экстремальных педагогических технологий к традиционной практике / Т.С. Назарова, В.С. Шаповаленко // Педагогика №5, 2001, с. 25.
3. Aldrich, C. Six Criteria of an Educational Simulation / C. Aldrich. 2004.
4. Ergasheva G.S. Improving The Effective Use Of Interactive Software For Biology Education // European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 07, Issue 01, 2020. Pp. 3594 – 3601.
5. Ergasheva G.S., Saidova K. Pedagogical aspects of creating a fund of assessment tools for the professional competence of students in a digital educational environment// The scientific heritage (Budapest, Hungary). No 88 (88) (2022).

РЕЗЮМЕ

Maqolada biologik ta'lim jarayonida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, chiziqli, tizimli, davriy, modellashirish, o'yinli kontekstlar asosida tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описаны возможности использования интерактивных образовательных технологий в формировании компетенций учащихся в процессе биологического образования, особенности организации на основе линейных, системных, периодических, моделирующих, игровых контекстов.

SUMMARY

The article describes the possibilities of using interactive educational technologies in the formation of students' competencies in the process of biological education, the features of organization based on linear, systemic, periodic, modeling, game contexts.



BIOLOGIYA TA'LIMIDA QO'LLANILADIGAN KOMPETENTLI YO'NALTIRILGAN TEXNOLOGIYALAR TASNIFI

Kadirova Sh.

TDPU o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kompetent, faoliyat, texnologiya, kompetentli pedagog, kompetentli yondashuv.

Ключевые слова: компетентный, деятельность, технология, компетентный педагог, компетентный подход.


Key words: competent, activity, technology, competent teacher, competent approach.

Pedagogik amaliyotda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Bunday sharoitda bo'lajak o'qituvchining mavjud innovatsion texnologiyalardan unumli foydalana olishi, ularni mustaqil kasbiy faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yarata olishi muhim masala hisoblanadi.

Kompetentli pedagog "... kompetentli yondashuvni amalga oshirish, mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlash maqsadida o'quv jarayonida faol va interfaol metodlardan (kompyuter simulssiyasi, ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, aniq vaziyatlarni tahlil qilish, psixologik va boshqa treninglar, guruhli munozaralar) birgalikda foydalanishni ta'minlashi zarur" [1, 1-b.] .

Kompetentli yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodik asoslarini tahlil etish natijasida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- ▶ kompetentli yo'naltirilgan texnologiyalar asosida o'quv jarayonini tashkil etish tahsil oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi;
- ▶ kompetentli yo'naltirilgan o'quv faoliyati asosini interaktiv o'qitish texnologiyalar tashkil etadi va kompetentli yo'naltirilgan topshiriqlar tizimi (mahsuldor, ijodiy, kreativ) doirasida tatbiq etiladi;
- ▶ talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi faoliyatining yangi turi – menedjer lavozimida ta'lim jarayonini boshqarishga erishiladi.



1-rasm. Bo'lajak mutaxassislarning kompetentlilik darajasiga qo'yiladigan talablar

Kompetentli yo'naltirilgan texnologiya asosida o'quv jarayonini tashkil etishning muayyan o'ziga xos pedagogik aspektlari mavjud bo'lib, bu jarayon bevosita jamiyat talablari, ijtimoiy buyurtma va kompetentli -yo'naltirilgan o'quv muhiti sharoitida amalga oshiriladi (1-rasm).

Quyida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentlilikini rivojlantirish jarayoni amalga oshirishning pedagogik aspektlari yoritilgan (1-jadval).


1-jadval

Kompetentli yo'naltirilgan texnologiya asosida o'quv jarayonini tashkil etishning pedagogik aspektlari		
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentlilikini rivojlantirish jarayoni		
Maqsad	Komponentlar	Mazmun
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini o'rnatish	O'qituvchi Bo'lajak mutaxassis Kompetentli yo'naltirilgan ta'lim muhiti	Davlat ta'lim standarti malaka talablariga mosligi, Biologiya fani kontseptual asoslari mazmuni

O'qituvchi faoliyati mazmuni		
O'qituvchi faoliyati	Bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni, kompetentli yo'naltirilgan ta'lim muhiti	Bo'lajak mutaxassis faoliyati
Bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetentli-yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish		
Maqsad	Mazmun	Vosita
Kasbiy kompetentli raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash	Kompetentli yo'naltirilgan o'quv jarayoni	Kompetentli yo'naltirilgan interaktiv ta'lim texnologiyalari
Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish orqali kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash diagnostikasi		
Kompetentli-yo'naltirilgan topshiriqlar		Diagnostik testlar
Raqobatbardosh kasbiy kompetentli mutaxassis (kasbiy kompetentlikni talab etilgan darajasi)		

Bo'lajak mutaxassislarning kompetentli yo'naltirilgan texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik dajasini oshirish "Biologiyaning konseptual asoslari" fanidan davlat ta'lim standarti malaka talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur jarayon kompetentli yo'naltirilgan ta'lim muhitini yuzaga keltirish, bo'lajak mutaxassis faoliyatini kasbiy faoliyat komponentlari asosida loyihalash hamda kompetentlikka yo'naltirilgan texnologiyalarni o'quv jarayoniga tabiiy etish asnosida amalga oshiriladi.

Talabalarning umumiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida kompetentli –yo'naltirilgan texnologiyalarning quyidagi turlaridan foydalanish samarali natija beradi (2-rasm):



2-rasm. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan kompetentli –yo'naltirilgan texnologiyalarning tasnifi.



Loyihalash-tadqiqotchilik texnologiyasi. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetentlik yondashuvi mazmunidan kelib chiqib, tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodkorlik, kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishda shaxsning intellektual, jismoniy imkoniyatlarini e'tiborga olish, pedagog rahbarligida amaliy ahamiyatga molik yangiliklar yaratishda loyihalash tadqiqotchilik texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [1, 2-b.].

Mazkur texnologiyani qo'llashdan asosiy maqsad: bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kompetentli yo'naltirilgan ta'lim multida "biologiyaning kontseptual asoslari" fanidan mustaqil fikrlash, muammoli pedagogik vaziyatlarni hal etish, turli sohalaridagi bilimlarni integratsiyalash, natijalarni prognozlash va turli masala va mashqlarni bosqichma-bosqich hal etish usullarini egallash, sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rnatish kabi kasbiy xususiyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu bevosita, bo'lajak biologiya o'qituvchilarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy pedagogik faoliyatda samarali qo'llash, ijodiy qobiliyatlarini va kompetensiyalarini, kasbiy-metodik tayyorgarligini tarkib toptirishga yordam beradi.


Ish shakllari: individual, juftlikda, jamoaviy.

Muammoli ta'lim - talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir. Asosiy yo'nalishi: bo'lajak mutaxassislarni "Biologiyaning kontseptual asoslari" fanidan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishdir.

Muammoli ta'limning bosh maqsadi – bo'lajak mutaxassislarning "Biologiyaning kontseptual asoslari" fanidan mavzularga oid muammoni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Bo'lajak mutaxassislarning muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashga yo'naltirishda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. "Biologiyaning kontseptual asoslari" fani bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishni va ularni yechish usullarini oldindan e'tiborga olinishi zarur. Shunday muammoli texnologiyalardan biri - "Aqliy hujum"dir.

"Aqliy hujum" biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr-mulohazalarni to'plab, ular orqali natijada ma'lum bir echimga kelinadigan metoddir. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda "Aqliy hujum" metodi talaalarga ijodiy energiya olish va unterfaol muloqot madaniyatini rivojlantirish hamda belgilangan muammoni hal etish orqali belgilangan maqsadga tezkor erishishga yordam beradi. "Aqliy

hujum” metodining yozma va ogʻzaki shakllari mavjud. Ogʻzaki shaklida taʼlim beruvchi tomonidan berilgan savolga taʼlim oluvchilarning har biri oʻz fikrini ogʻzaki bildiradi. Taʼlim oluvchilar oʻz javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga taʼlim oluvchilar oʻz javoblarini qogʻoz varaqcha (kartochka)lariga qisqa va barchaga koʻrinarli tarzda yozadi. Taʼlim boʻlajak mutaxassislarda “Bioloianing konseptual asoslari” fanidan oʻz fikrini faqat ogʻzaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish koʻnikmasi rivojlantiradi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi taʼlim oluvchilarda turli gʻoyalar shakllanishiga olib keladi.



3-rasm. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining xususiyatlari

«Aqliy hujum» metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi taʼlim oluvchilarda turli fikr-gʻoyalarning shakllanishiga olib keladi;
- taʼlim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-gʻoyalar vizuallashtirilib boriladi;
- taʼlim oluvchilarning boshlangʻich bilimlarini tekshirib koʻrish imkoniyati ortadi;
- taʼlim oluvchilarda mavzuga qiziqish uygʻotadi. « Aqliy hujum» metodining kamchiliklari:
- taʼlim beruvchi tomonidan savolni toʻgʻri qoʻya olmaslik;
- taʼlim beruvchidan yuqori darajaga erishish qobiliyatining talab etilishi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi:

Boʻlajak mutaxassislarning fikrlash uslubini rivojlantirishga qaratilgan taʼlim texnologiyasi boʻlib, uning asosiy xususiyatlari: tanqidiylik, ochiqlik, moslashuvchanlik, refleksivlik, oʻqish va yozish vositasida amalga oshiriladi [2].

Tanqidiy fikrlash – ochiq refleksiv baholovchi fikrlash. quyidagicha (3-rasm.)

Bu interfaol taʼlim texnologiyasi hisoblanadi.



Keyslar mazmunining asosiy manbalari – jamiyat hayotida (syujet, muammo dalillar); ta’lim muassasalarida (maqsadlar, vazifalar, o’qitish va tarbiyalash usullari); fanda (metodologiya) yuzaga keladigan muammolar.

Keys-stadi texnologiyasi (vaziyatli tahlil)

Vaziyatlar tahlili metodi, ya’ni, aniq vaziyatlarni dalillar asosida tafakkur etish, uning tavsifi nafaqat amaliy muammolardan foydalanishni o’z ichiga oladi, balki unda muhim bilimlar majmiu dolzarblashtiriladi, shundan keyin mazkur mammoni echimini topish mumkin.

Maqsadi:

Bo’lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorlashda ta’lim oluvchilarning qiziqishi va pozitiv motivatsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta’lim jarayonida kasbga yo’naltirish va kasbiy mahoratini orttirishga samarali ta’sir ko’rsatadi.

Bosqichlari:

1. Kirish: vazifalarni belgilash; muassasa nomi; bosh qahramonlarning ismlari va lavozimlari.

2. Muammo: qisqacha tavsif (turli ishtirokchilarning nuqtai nazarlaridan kelib chiqib).

3. Muammoni echish uchun materiallar (ilmiy, metodik, statistik, me’yoriy, huquqiy, adabiyotlar)

Ish shakllari: individual, guruhli (5-6 nafar, belgilangan vaqt ichida guruh natijalarini etkazish uchun moderatorni tanlash).

Mazkur texnologiyalar bo’lajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Кувардова Н.В. Краткая характеристика компетентностно-ориентированных технологий // <https://nsportal.ru/shkola/obshche-pedagogicheskie-tehnologii/library/-2014/04/15/kratkaya-kharakteristika>.

2. Коршунова О. В. Компетентностно-ориентированные задания как средство достижения современных образовательных результатов // Концепт. – 2016. – Спецвыпуск № 01. – ART 76002. – 0,5 п. л. – URL: <http://ekoncept.ru/2016/76002.htm>. – ISSN 2304-120X.

РЕЗЮМЕ

Maqolada biologiya ta’limi amaliyotida bo’lajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatga yo’naltirishda qo’llanadigan kompetentli yo’naltirilgan texnologiyalar tasnifi beriladi.

РЕЗЮМЕ

В статье дается классификация компетентностно-ориентированных технологий, используемых в профессиональной деятельности будущих специалистов в практике биологического образования.

SUMMARY

The article gives a classification of competency-oriented technologies used in the professional activities of future specialists in the practice of biological education.



ИМОМ ҒАЗЗОЛИЙ ИЛГАРИ СУРГАН ТАЪЛИМИЙ ҒОЯЛАР ДИДАКТИК ҚАДРИЯТ СИФАТИДА

(Я.А Коменский ва Имом Ғаззолий меросининг тарихий-ретроспектив таҳлили асосида)

Жалилова Н. Т.

ЎзПФИТИ таянч докторанти

Таянч сўзлар: дидактик қадрият, педагогика тарихи, педагогик ғоялар, устоз-шогирд, қиёсий таҳлил.

Ключевые слова: дидактическое значение, история педагогики, педагогические идеи, учитель-ученик, сравнительный анализ.

Key words: didactic meaning, history of pedagogy, pedagogical ideas, teacher-student, comparative analysis.

Имом Ғаззолийнинг таълимга оид қарашлари кўп жиҳатдан буюк чех педагоги Я.А.Коменскийники билан ҳамоҳанг. Яъни, ҳар иккала ёндашувда ҳам таълим жараёнининг марказига билим берувчи шахси қўйилиб, таълимнинг сифатли амалга ошишида ўқувчи ва ўқитувчи олдига муайян вазифлар юкланади:

“Хужжат ул -ислом” номи билан тарихда қолган, “Мукошафат-ул қуллуб” (Қалблар кашфиёти), “Тавба китоби”, “Ихёо улумид-дин”(“Дин илмларини жонлантириш”) каби таълим-тарбияга бағишланган асарлар муаллифи, мударрис ва воиз Имом **Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Аҳмад Абу Хомид ат-Тусий ал-Ғаззолий (1058-1111)** ғоялари тасаввуф таълимотига хос руҳий-акселогиқ, акмеологиқ йўналишларга таянади. Имом Ғаззолий Ихёу улумид-дин” (Дин илмларини жонлантириш) китобининг “Таълим олувчи ва таълим берувчи одоблари ҳақида” деб номланган бешинчи бобида улар риоя қилиши зарур бўлган одоб ва вазифалар баён этилган. Уларни дидактик қадрият сифатида ҳозирги даврда ҳам қўллаш мумкин:

1) талаба аввало қалбини жирканч хулқлардан, мазмум – ёмон сифатлардан поклаб олиши керак; 119-б..

2) шогирд устозининг тавсияларига қулоқ солмагунича, қалбини илм эшитиш учун ҳозирламагунича уни фаҳмлай олмайди. Муаллимнинг кўрсатмаларини гўзал тарзда эшитиши, унга иззатли бўлиши, шукрини, хур-



санлигини, миннатдорлигин изҳор этиши лозим. Талаба устозга нисбатан юмшоқ тупрокдек бўлиши керак. Қачон юмшоқ тупрокка мўл ёмғир ёғса, дарров ўзига сингдиради. Худди шунинг сингари устоз дарс давомида бирор нарса буюрса, ўз фикридан воз кечиб, сўзсиз унга итоат этиш талабанинг бурчидир. Зеро, устознинг янглиш сўзи унинг ўз наздидаги тўғри сўздан фойдалироқ. Манфаати катта бўлиши билан бирга эшитилиши гаройиб саналган дақиқ нарсалар тажриба орқали билинади; (123-б).

3) толиби илм барчага маҳмуд илмларни, уларнинг бирон турини қолдирмасдан ўрганмоғи ва олдига қўйган мақсадига етишмоғи лозим. Илмларни ўрганиб бўлгач, умр сармоёси етса, уларни чуқурлаштириш керак. Илмларнинг барчасини эгаллашнинг имкони бўлмаса, энг муҳимлари билан шуғулланиши, уларни мукаммаллаштириши лозим. Қолганларининг керакли жиҳатларини ўрганиш кифоя қилади.

Илмлар ўзаро боғлиқ ҳамда бир-бирининг кўмакчисидир. Ҳеч бўлмаса, билмаслик туфайли душман бўлиб қолмаслик учун оз бўлсада, бошқа илмларни ҳам ўрганиш лозим. Чунки инсонлар ўзлари билмайдиган нарсаларнинг душманларидир;

4) илм олишда шогирд турли илмларга киришиб кетмаслиги, барча тартибларга риоя қилиши ва муҳимроғидан бошлаш лозим. Зеро, инсон умри барча илмларни учун етмайди. Бас, шундай экан, ҳар бир илмнинг чиройли тарафларини ўрганиб, ўша илмларнинг ози билан кифояланиш керак; (127-б)

5) аввалги фанни мукаммал ўрганмасдан туриб, бошқасига киришмаслик. Чунки илмларнинг заруриятига кўра тартиб-мартабаси бор. Бир илм иккинчи илмга йўл вазифасини ўтайди. Демак, ўша тадриж ва тартибга риоя қилгандагина муваффақият қозонилади. ... Яъни, бир фанни илмий, амалий ўрганмагунча, бошқасига ўтмайдилар. Демак, ҳар бир илмни мукаммал ўрганиб бўлгач, улардан юқори даражадаги илмга киришмоқ лозим; (128-б).

6) шарафли илмларга олиб борадиган сабабларни ҳам билиш лозим. Сабаблар деганда икки нарса назарда тутиляпти: биринчиси, натижанинг шарафли бўлиши, бунга дин ва тиб илмлари мисол бўлади. Иккинчиси, далилларнинг қувватли ва ишончли бўлиши, бунга ҳисоб-китоб ва нужум илмларини мисол келтириш мумкин. (129-б)

7) толиби илм илмларнинг мақсадга етказувчи нисбатини яхши билиши лозим. Мақсадларга яқин ва юксак бўлган илмлар мақсадлардан узоқ бўлган илмлардан афзалдир. Муҳим бўлган илмлар муҳим бўлмаган илмлардан муқаддамдир. Муҳим бўлган илмлардан мурод аҳамиятли бўл-



ганларидир. Сенинг дунё ва охиратдаги ҳолатингга боғлиқ бўлган илмлар аҳамиятли ҳисобланади (131-б).

Китобнинг “Муршид – муаллимнинг вазифалари баёни” бобида “Ким илм олса, унга амал қилса ва бошқаларга ўргатса, у киши осмонларда улуг инсон деб қақирилади. У одам куёш кабирки, бошқалар учун зиё тарқатади ва ўзи ҳам зиёлидир ёки ўзи ҳам хушбўйдир. Илм ўрганиб, унга амал қилмайдиган киши эса, бошқаларга фойда бериб, ўзи илмдан холи қолган дафтар ёки бошқа нарсаларни ўтқирлаб, ўзи ҳеч нарсани кеса олмайдиган қайроқтош ёки бошқаларни кийинтириб ўзи яланғоч қолган игна ёки бошқаларга нур бериб, ўзи ёниб кетадиган чироқнинг пилиги кабирки” деб таъкидланиб, (136-б). муаллимнинг вазифаларини қуйидагича белгилайди:

- Муаллим таълим олувчиларга нисбатан шафқатли бўлиши ва уларга ўз болалари каби муомала қилиши керак. (136-б). ... муаллимнинг ҳаққи ота-онанинг ҳаққидан устун қўйилади. Чунки ота вужуд ва фоний ҳаётнинг сабабчиси бўлса, муаллим абадий ҳаётнинг сабабчисидир. Муаллим бўлмаса эди, ота томонидан ҳосил қилинган нарса абадий ҳалокатга дучор бўларди. Зеро, муаллим ухровий ҳаётнинг бунёдкоридир;
- муаллим илм ўргатиш учун ҳақ талаб этмайди, бирор мукофот олишни ёки ташаккур эшитишни ҳам мақсад қилмайди. Балки аллоҳ таолонинг розилигини истаб ва унга яқин бўлишни хоҳлаб таълим беради (138).
- талабага қилиниши керак бўлган насиҳатларнинг ҳеч бирини қолдирмаслик. Масалан, уни лойиқ бўлмаган мартабага чиқишдан қайтариши ва очик-равшан илмларни тугатмасдан туриб, махфий илмлар билан машғул бўлишдан қайтариши керак (139);
- таълим санъатнинг нозик жиҳатларидан биридирки, муаллим талабанинг ёмон ахлоқини ошкора эмас, балки имкони борича таъриз – ўзига кўрсатиш йўли билан, қаттиқ сўзлар билан эмас, шафқат йўли билан қайтариши лозим. Чунки ошкора шаклда танбеҳ бериш хурмат пардасини йиртиб, устозга қарши чиқишга журъат пайдо қилади ҳамда қайсарликка бўлган майлини майлини кўзгатади. Ва яна таъриз йўли билан тарбия бериш фазилатли нафслар ва зақофатли зеҳнларни сўзнинг маъносини қақиб олишга ундайди. Натижада, бу сўзнинг маъноси қўлим етмайдиган нарса эмас, деб уни билишга рағбат қилади, англаганида эса хурсанд бўлади (140-141 б);.



- илмларнинг баъзиларини ўрганаётган талабага бошқа илмларни ёмон кўрсатмаслик лозим. Мана шу нарса муаллимлар учун энг ёмон ахлоқдир, ундан сақланиш лозим. (141-б.);

Ян Амос Коменский билан Имом Ғаззолий ғояларини бирлаштирувчи илк асос ҳар икковининг таълимга оид қарашларининг негизида диний негиз бирламчи ўринда туриши, уларнинг дидактик қарашлари бевосита педагогик фалсафага асосланганида, бири исломий, иккинчиси христиан ахлоқини тарбиялаш орқали инсонни бўлажак жаннатдаги адабий ҳаётга тайёрлашни мақсад қилиб қўйишганидир. Имом Ғаззолийнинг “Бизнинг охират илмига ортиқча юқори баҳо берганимизга қараб, бошқа илмларни кераксиз деб ўйлама! Илмнинг қайси тури бўлмасин, агар Аллоҳ учун таълим олинса, шубҳасиз, унинг фойдаси бўлади” деб айтган фикрини Я.А.Коменский ҳам тўлиғича маъқуллаган бўлар эди.

Я.А.Коменскийнинг Форобий ва Ибн Сино билан яқинлаштирувчи жиҳат эса уларнинг антик давр Рим файласуфлари асарларининг билимдони ва уларнинг издошлари бўлишганидир. Улар мактаб ўқувчининг табиий қобилият ва лаёқатларини ўстиришга хизмат қилишини ҳам бирдек эътироф этишган.

Я.А.Коменский мактабнинг бирламчи вазифаси ўқувчини атроф-олам билан таништиришдан, кузатиш ва фикрлашга ўргатишдан иборат деб билади. Имом Ғаззолий ҳам инсон кўрганларини фикрлабгина фаросатли бўлишга эришади деб ҳисоблайди. Ғаззолий ўқиш ўрганишнинг кузатиш, фикрлаш, тадбир излаш, кенгашиш каби усулларини етакчи усуллар сифатида илгари суради: **“Кузатиш ва фикрлаш фаросатни очиб юборади.** Ҳикмат аҳли билан гаплашмоқ нафсга сабот беради, кўрувчанликни қучайтиради. Бир қарорга келишдан олдин **ўйла**, ҳужумга ўтишдан олдин **тадбир** ол, ҳар нарсани аввалида бир **кенгаш** эт”

Мутафаккир маърифат тафаккурни вужудга келтирувчи илк асос, тасаввурнинг тафаккур даражасига ўсиб ўтиши учун билимларни ёдлаш (тазаккур) зарур деб ҳисоблайди.

“Тафаккур китоби” рисоласида Имом Ғаззолий талаба-ёшларнинг ўзлуксиз, изчил, тизимли билим олиши зарурлиги ғоясини илгари сурди. Мутафаккирнинг фикрича, инсон тафаккури туфайли орзусига эришади. Тафаккурнинг вазифаси илм олишдир. Тазаккур (ёдламоқ)нинг фойдаси қалбда ўрнашиб қолиши ва ўчиб кетмаслиги учун илмларни такрорлашдан иборат. Агар илмлар қалбда махсус тартибга кўра жамланса ва бир-бирига мос тушса (яъни, тизимли ва изчил билим олинса – таъкид бизники), бошқа бир илмни келтириб чиқаради. Демак, илм илмнинг “доясидир. Агар



илмдан бошқа бир илм ҳосил бўлса, ўз навбатида бу ҳам бошқа бир илм билан мослашса, бундан тағин бошқа натижа юзага чиқади. Шу тариқа, натижа, илм ва фикр чексиз давом этаверади. Назарий билимлар амалиётга жорий қилиниши, амалий аҳамиятга эга бўлиши керак. Зеро, “Муаллим илмига амал қилувчи бўлмоғи лозимки, феъли сўзини ёлғонга чиқармасин” (Абу Ҳомид Муҳаммад ал-Ғаззолий. Ихёу улуми-дин. Биринчи китоб. – Т.: Ёшлар матбуоти босмаҳонаси, 2003. – 231 б. – 142-б.)

Я.А.Коменский ҳам ўқитувчи ва ўқувчи шахси олдида қатор вазифаларни кўяди:

- Ўқитувчи ростгўй, серғайрат, тиришқоқ, яхши фазилатлари билан ўз ўқувчиларига ибрат бўла оладиган ва уларда шундай фазилатларни тарбиялай биладиган, билимли ҳамда меҳнатсевар бўлиши керак. У ўз ишини жуда яхши кўриши, ўқувчиларига худди уларнинг ўз отаси каби муносабатда бўлиши, уларда билимларга қизиқиш уйғота олиши зарур;
- у ўқувчиларига худони танитувчи дин тарғиботчиси бўлиши лозим;
- .. муаллим ўз ўқувчилари учун овқатланиш ва кийинишда оддийлик намунаси бўлиши, фаолияти орқали меҳнатсеварлик ва серғайратликда ибрат бўлиши, хулқ-атвори билан камтаринлик ҳамда хушхулқликда намуна бўлиши, нутқи билан сўзлашиш ва сукут сақлаш санъатини кўрсатиши, хуллас, жамиятда ва шахсий ҳаётида мулоҳазали инсон сифатида ибрат кўрсата билиши лозим;
- ўқитувчилик касб бўлмай, балки тақдирга худонинг ўзи битган қисматдир. Шу сабабли муаллим шахсий таъминоти ҳақида бош қотирмаслиги, балки бу жамият томонидан амалга оширилиши керак ;
- агар ўқитувчилар хушмуомала, хушкалом бўлсалар, қаттиққўллик билан болаларни бездирмасалар, хатти-ҳаракатлари ва сўзлари билан уларга ўз оталари каби ёқа олсалар, фанни енгил ҳамда жозибали қилиб ўргатсалар, тиришқоқ ўқувчиларни вақти билан мактаб турсалар (ҳатто уларни ёнғоқ, олма билан сийлаб турсалар), баъзан айрим ўқувчиларни, баъзан барча ўқувчиларни уйларига чақириб, ўрганаётган мавзуларига таааллуқли болаларни завқлантирадиган глобус, тасвирлар, оптик ва геометрик шаклларни кўрсатсалар, улар орқали ота-оналари билан муносабат ўрнатсалар, ўқувчиларга меҳр-муҳаббат билан муомала қилсалар, уларнинг қалбларини осонлик билан забт этадилар, ўқувчиларга ўз уйидан кўра мактабда вақт ўтказиш ёқимлироқ бўлиб қолади;



- методларни қўллаб ўқувчиларда қобилиятларни уйғотиш учун методни жонлантириш, ёқимли қилиш, қанчалик жиддий мавзу бўлмасин уни енгиллаштириб, суҳбат, мусобақа, топишмоқ ечиш, ривоят ёки масаллар айтиш йўли билан дўстона тарзда ўргатиш лозим .

Я.А.Коменскийнинг ўқитувчига қўйган талаблари Имом Ғаззолийнинг талабларига жуда ўхшаш. Яъни, ҳар иккиси ҳам ўқитувчи аллоҳнинг марҳаматига сазовор бўлиши учун ўз шахсий манфаатини ўқувчи манфаатларидан устун қўймаслиги, шогирдларини худди ўз фарзандидек севиши керак деб ҳисоблайдилар. Ҳар иккиси ҳам таълимда ибрат, ҳикоя, ривоят, масал кабилардан фойдаланишни маъқул деб биладилар.

Адабиётлар:

1. Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат-ул қулуб 1-китоб. (Қалблар кашфиёти) Тўлдирилган ва тўғрилланган қайта нашр. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – 315 б.
2. Абу Ҳомид Ғаззолий. Тафаккур китоби. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2007. – 80 б.
3. Коменский о работе учителя. - <https://www.google.com/url>
4. Коменский Я. А. Избранные педагогические сочинения. В 2-х томах. Т.1. – М.: Педагогика, 1982. – 656.

РЕЗЮМЕ

Мақолада ўрта асрларнинг икки улуғ педагоги: Я.А.Коменский ҳамда имом Ғаззолийнинг педагогик қарашлари, улар томонидан илгари сурилган дидактик кадриятлар мазмуни қиссий таҳлил қилиниб, педагогика тарихи нуқтаи назаридан муҳим фикрлар олға сурилган.

РЕЗЮМЕ

В статье сравнительно анализируются педагогические воззрения двух великих педагогов средневековья: Я. А. Коменского и Имама Газзали, содержание выдвигаемых ими дидактических ценностей, а также выдвинута важные моменты с точки зрения истории педагогики.

SUMMARY

The article comparatively analyzes the pedagogical views of two great teachers of the Middle Ages: Ya. A. Comenius and Imam Gazzali, the content of the didactic values put forward by them, and also puts forward important points from the point of view of the history of pedagogy.





ARALASH TA'LIMNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xalmatova D. A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: CD-ROM, kontent, konsensus, interfaol, Stenford, elear, refleksiya, interaktivlik, grafika, interaktivlik, rotatsiya, sinxron, asinxron.

Ключевые слова: CD-ROM, контент, консенсус, интерактив, Стэнфорд, ясность, отражение, интерактивность, графика, интерактивность, вращение, синхронность, асинхронность.

Key words: CD-ROM, content, consensus, interactive, Stanford, clarity, reflection, interactivity, graphics, interactivity, rotation, synchronicity, asynchrony.

Vaqt o'tishi bilan "aralashtirilgan ta'lim" tushunchasining mazmuni o'zgarib, takomillashib bordi. Pandemiya davrida sinxron va asinxroning kombinatsiyasi, shuningdek ta'lim jarayoni onlayn va oflayn o'rganish yangi odatiy holga aylandi. Shuning uchun «aralashtirilgan ta'lim» kontseptsiyasining evolyutsiyasini ko'rib chiqish juda muhim, ilgari bosib o'tilgan yo'lni takrorlamalik uchun, balki aralash ta'limning eng samarali yondashuvlarini amalga oshirish uchun.

Aralashtirilgan ta'limning asosiy tamoyillari dastlab 1960-yillarda korporativ va oliy ta'limda qo'llanilgan, ammo bu atamaning o'zi birinchi marta 1999 yilda, Amerika Interfaol o'quv markazi Internet orqali o'qitish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot dasturlarini ishga tushira boshlaganida qo'llanilgan. Muvaffaqiyatli aralash ta'lim strategiyasini yaratish uchun uning asosiy g'oyalari va qadriyatlari haqida iloji boricha ko'proq ma'lumotga ega bo'lish. Biroq, bularni tushunish uchun, avvalo, hammasi qanday boshlanganini va uning asosiy tamoyillarini shakllantirgan tarixiy voqealarni bilishingiz kerak. Shunday qilib, keling, ongimizdagi miniatyura vaqt mashinalariga o'taylik va aralash ta'limning boshlanishiga qaytaylik.

1840-yillar: Birinchi masofaviy kurs Ser Isaak Pitman birinchi masofaviy ta'lim kursini ochdi. Pitmandan oldin kontseptsiyada boshqa o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa-da, u bugungi kunda biz bilgan masofaviy ta'limga o'xshardi. Uning kursi stenografiyaga qaratilgan edi. Pitman o'z o'quvchilariga pochta orqali yuborilgan otkritkalar orqali stenogramma matnlarini yubordi va ular baho berish va tuzatish uchun ularni qaytarib yuborishlari kerak edi. Kompyuterlar va mobil qurilmalar



ishtirok etmagan va hatto taxminan bir asr davomida ixtiro qilinmagan bo'lsa ham, samarali fikr-mulohazalar va baholashlar hali ham jarayonning ajralmas qismi edi.

1960 va 1970 yillar: Mainframe kompyuterga asoslangan trening

Zamonaviy kompyuterga asoslangan o'qitishni 60-70-yillardagi mini-kompyuter va meynfreym o'qitishdan kuzatish mumkin. Bu birinchi marta bosma materiallarga va yuzma-yuz ko'rsatmalarga tayanmasdan, tashkilot ichidagi son-sanoqsiz ishchilarga o'qitishni o'tkazish mumkin edi. Xodimlar ma'lumotlarga kirish uchun o'zlarining belgilarga asoslangan terminallariga kirishlari mumkin edi. Eng ko'zga ko'ringan tizimlardan biri Platon bo'lib, u 1963 yilda Control Data va Illinoys universiteti tomonidan ishlab chiqilgan. Aslida, Platon hali ham mavjud.

1970-1980 yillar: Jonli treningni qo'llab-quvvatlash uchun televizorga asoslangan texnologiya aralashtirilgan ta'lim jadvalining ushbu bosqichida kompaniyalar o'z xodimlarini o'qitish uchun video tarmoqlardan foydalanishni boshladilar. Yangi ishga qabul qilish yoki mavjud xodimlarning malakasini kengaytirish uchun o'qituvchi endi jismonan joyida bo'lishi shart emas edi. Bu trening tajribasini yanada interaktiv va qiziqarli qildi. Talabalar o'z tengdoshlari bilan muloqot qilishlari, televizorda o'qituvchini tomosha qilishlari va hatto har qanday savol yoki muammolarni pochta orqali yuborishlari mumkin edi. Buni vebinarlar va video konferentsiyalarning oldingi qismi deb o'ylab ko'ring. Sun'iy yo'ldoshga asoslangan eng muvaffaqiyatli ta'lim misollaridan biri bu Stenford universitetining interaktiv TV tarmog'idir. Stenford 70 va 80-yillarda o'z video tarmog'iga resurslarni ajratdi, shunda professorlar bir vaqtning o'zida SF bo'ylab bir nechta joylarda dars o'tkazishlari mumkin edi va u hozirgacha ishlamoqda. Professorga topshiriqlarni pochta yoki kurer orqali yuborish o'rniga, endi talabalar o'z ishlarini onlayn ko'rib chiqish uchun yuborishlari mumkin.

1980 va 1990 yillar: CD-ROM o'qitish va LMS ning yuksalishi texnologiyaning rivojlanishi bilan aralashgan o'quv strategiyalari va ilovalari ham rivojlandi. Maktablar va tashkilotlar ko'proq interfaol o'rganish tajribasini taqdim etish uchun CD-ROMlardan foydalanishni boshladilar, masalan, video va ovozn aks ettiruvchi. Ushbu etkazib berish formati katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin edi, bu esa ularni masofaviy o'qitish uchun juda mos keladi. Elektron ta'lim tarixida birinchi marta kompyuterga asoslangan kurslar endi boy va keng qamrovli o'rganish tajribasini taklif qila oldi. Ba'zi hollarda u hatto yuzma-yuz o'qitish o'rnini ham egallagan. Bu, shuningdek, birinchi ta'limni boshqarish tizimlari (LMS) joriy qilingan paytda, ammo ular bugungi kunda mavjud echimlar bilan bir xil funksiyalarni taklif qilmagan. Tashkilotlar



o'quvchilarning taraqqiyotini kuzatish va onlayn o'quv kurslarini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lishni xohlashdi va bu tizimlar CD-ROM tarmog'ida elearning kursini yakunlash, ro'yxatga olish ma'lumotlari va foydalanuvchi ish faoliyatini kuzatishga yordam berdi.

1998 yil: Internetga asoslangan ta'limning birinchi avlodi aralashtirilgan ta'lim va umuman elearning so'nggi yigirma yil ichida 1998 yilda veb-ta'limning birinchi avlodi bilan boshlangan tez o'zgarishlarni kuzatdi. Kompyuterlar endi faqat tashkilotlar va badavlat odamlar uchun emas, balki omma uchun edi. Ko'proq uy xo'jaliklari o'z oilalari uchun shaxsiy kompyuterlarni sotib olishni boshladilar, kompaniyalar esa har bir xodim uchun shaxsiy kompyuterlarni tayyorladilar. Keyin kompyuterlar ko'proq interaktivlikni taklif qila boshladilar. Grafika, ovoz va video yanada jozibador bo'ldi, brauzerlar esa ulanish tezligini oshirdi va deyarli hammaga internet o'quv resurslaridan foydalanish imkoniyatini berdi. Tashkilotlar o'quvchilarga CD-ROMlarni tarqatish o'rniga internet orqali materiallarni, elearning baholashlarini va topshiriqlarni yuklashlari mumkin edi va o'quvchilar ularga sichqoncha tugmasini bosish orqali kirishlari mumkin edi. Dastlab, ko'pgina CD-ROM ishlab chiqaruvchilari o'zlarining elektron ta'lim kurslarini hech qanday o'zgartirishlarsiz Internetda nashr etishga harakat qilishdi. Biroq, ular tezda o'zlarining mavjud onlayn kontentini, masalan, yuklab olish uchun bir necha daqiqa vaqt ketadigan katta video fayllarni veb-ga asoslangan o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun nozik sozlash kerakligini bilib oldilar.

2000-yilgacha: Aralashtirilgan ta'lim integratsiyasi

Biz hozirda aralash ta'lim uchun qiziqarli davrda o'zimizni topamiz. Texnologiya tez o'zgarib bormoqda va ko'plab tashkilotlar va xususiy ta'lim muassasalari aralash ta'lim yondashuvining afzalliklarini ko'rishni boshladilar. Sinfidagi interfaol stseniylardan tortib, vebinarlar va onlayn darsliklarga, o'quvchilar endi keng ko'lamli texnologik vositalar va ilovalarga ega. Kompaniyalar o'z xodimlarini istalgan vaqtda istalgan joyda o'qitish imkoniyatiga ega, onlayn o'quvchilar esa dunyoning istalgan nuqtasidan onlayn jamoalar va interaktiv elearning kurslarida qatnashishlari mumkin. Asta-sekin, yuzma-yuz ta'lim va texnologiyaga asoslangan ta'lim o'rtasidagi ittifoq ta'lim tajribasini boyitish va o'rganishni qiziqarli, qiziqarli va yanada foydali qilishning yangi va ijodiy usullarini ishlab chiqaradi.

Samarali aralash ta'lim pedagogikasi

Samarali aralash ta'lim pedagogikasi odamni markazga qo'yadi. U mohiyatiga ko'ra insonga qaratilgan. Talaba ta'lim markazida jarayoni. Uning ta'lim traektoriyasi uning kamchiliklari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan



holda quriladi; o'qituvchi o'zining noyob ta'lim tajribasini ishlab chiqadi, bu boshqa fanlar bilan, o'zi bilan (refleksiya) va barcha xilma-xilligidagi muhit yoki muhitlar. Talaba boshqalar bilan sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga kiradi.

Aralashtirilgan ta'lim, shuningdek, texnologiya vositachiligidagi o'qitish, veb-takomillashtirilgan ta'lim yoki aralash rejimli o'qitish sifatida ham tanilgan, bu onlayn o'quv materiallari va onlayn o'zaro ta'sir qilish imkoniyatlarini jismoniy joylashuvga asoslangan sinf usullari bilan birlashtirgan ta'limga yondashuvdir.

Aralashtirilgan ta'lim o'qituvchi va talabaning jismoniy ishtirokini talab qiladi, bunda talaba vaqt, joy, yo'l yoki sur'at ustidan nazoratning ba'zi elementlari mavjud. Talabalar hali ham o'qituvchi ishtirokida g'ishtdan qurilgan maktablarda o'qiyotgan bo'lsa-da, yuzma-yuz sinf amaliyotlari kontent va etkazib berish bo'yicha kompyuter vositachiligidagi tadbirlar bilan birlashtiriladi. Bundan tashqari, u kasbiy rivojlanish va o'qitish sharoitida ham qo'llaniladi.

Keyingi yillarda Respublikamizda kompyuter va informatsion texnologiyalarini rivojlantirish borasida bir necha chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan respublikamiz maktablari, oliy o'quv yurtlari va ta'lim muassasalarini kompyuterlashtirish keng yo'lga qo'yilmoqda. Biroq davlat tilida yozilgan va informatika asoslariga doir adabiyotlar yetarli emas. Bu muammo, mavjud kompyuterlardan samarali foydalanishda, informatikaga va kompyuter grafikasiga oid bilimlarni keng ommalarasida yoyishda qiyinchiliklar tug'diradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, kompyuter grafikasi bilan ishlashni o'rganishni boshlagan foydalanuvchilar EHM qurilmalarining tuzilishi bilan tanishmasdan turib o'z bilimlarini mustaqil chuqirlashtira olmaydilar.

Kompyuter tasvirlariga bo'lgan qiziqish ularda juda katta hajmdagi ma'lumotlar saqlanishi bilan izohlanadi: tasvirlarni yaqqol namoyish etish imkoniyati mavjud bo'lib, ularni tashkil etish uchun axborot texnologiyalari sohasida maxsus bilimlar talab qilinmaydi.



Kompyuter grafikasi dastlab kesmalar yordamida chizish, ko‘rinmas chiziqlarni o‘chirish, murakkab sirtlarni akslantirish usullari, soyalarni shakllantirish, yoritilganlikni hisobga olish tamoillari sifatida mustaqil yo‘nalish bo‘lib paydo bo‘lgan. Bu yo‘nalish vektorli grafikani rivojlantirishga xizmat qildi. Keyinchalik uch o‘lchovli (3D) grafika yo‘nalishi paydo bo‘ldi.

Hozirgi kunda kompyuter grafikasining qo‘llanish sohalari ancha kengaydi, ya‘ni uni keng tadbiiq qilish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Natijada kompyuter grafikasi faoliyati dasturlash va kompyuter texnikasi bilan bog‘liq bo‘lmagan mutaxassislarning ish vositasiga aylandi. Kompyuter grafikasining yangi yo‘nalishlaridan biri haqiqiy tasvirlarni shakllantirishning uslub va tamoillarini ishlab chiqishga bag‘ishlanadi.


Berilgan ma‘lumotlarni tahlil qilishda, olingan natijalarni ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatish va taqdimot (prezentatsiya) uchun materiallar tayyorlashda, tasvirlarni qayta ishlashda, yangi murakkab kompozitsiyalar yaratishda zamonaviy kompyuter grafikasi keng qo‘llaniladi.

Kompyuter grafikasi kursining vazifasi quyidagilardan iborat:


- ▶ o‘quvchilarga hozirgi zamon kompyuter grafikasi bo‘yicha nazariy va amaliy bilim ko‘nikmasini hosil qilish;
- ▶ foydalanuvchilarning hozirgi zamon kompyuter grafikasi vositalari va ularni ishlatilishini o‘zlashtirishlariga erishish;
- ▶ kompyuter grafikasining texnologik tuzilishini va har xil taqdimot materiallarini tayyorlash namoyish etishni o‘rganish;
- ▶ hozirgi zamon kompyuter grafikasidan o‘zining o‘quv sohasi va professional faoliyatida foydalanishni bilish;
- ▶ kompyuter grafikasining texnikaviy vositalari va zamonaviy programmalaridan foydalanishni bilish.

Muhandislik (injenerlik) grafikasi – bunday grafika chizmachilik, loyihalash va konstruktorlik ishlarini avtomatlashtirishda keng qo‘llaniladi. Injenerlik grafikasi analiz, sintez, modellashtirish, chizmachilik, boshqarish va shu kabi loyihalash ishlarini avtomatlashtirishning hamma bosqichlarini o‘z ichiga oladi.


Hozirgi kunda oliy ta‘lim muassasalarida muhandislik kompyuter grafikasi fanini o‘qitish orqali talabalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun grafik dasturlarni o‘rgatib kelinmoqda. Grafik dasturlardan bir bo‘lgan AutoCAD dasturi orqali talabalar turli xil chizmalarni sh dastur orqali bajarib kelmoqdalar. Vazifalardan biri bo‘lgan o‘yib olish oqqali yangi detal hosil qilish. O‘yib olish orqali yangi detal chizishni AutoCAD dasturi orqali ko‘rib chiqamiz (1-chizma).



1-chizma



2-chizma



3-chizma

Bu chizmada rang bilan ko'rsatilgan qismlarni olib tashlansa yangi bir detal hosil bo'ladi va shu hosil bo'lgan detalni 3 ko'rinishini va aksonometrik proyeksiyalarini albatta qirqimi bilan bajaramiz.

1. Моделирование panelidan Ящик buyrug'i bilan bizga kerakli bo'lgan uzunligi 80 eni 50 balandligi 50 bo'lgan jismni yasab olamiz (2-chizma).


2. O'lchamlari bo'yicha chizib olingan detalni belgilangan joylarini o'yib olamiz. Detalni pastki markazida uzunligi 40, eni 50 va balandligi 10 bo'lgan parallelepiped o'yib olingan. Buni bajarish Моделирование panelidagi Ящик buyrug'idan foydalanib bajaramiz. Ящик buyrug'idan foydalanishda buyrug sichqonchanning chap tugmasini bosish orqali yuklanadi. Ishchi oynaning bo'sh joyida sichqonchanning chap tugmasini bosamiz va klaviaturadan uzunligini ya'ni 40 kiritamiz keyin klaviaturadagi Tabni bosamiz eni ya'ni 50 kiritib Enter tugmasini bosamiz.

Shundan so'ng balandligi 10 o'lchamni kiritib enter tugmasi bosiladi. Chizilgan parallelepipedni belgilab Переместить buyrug'i bilan detalning pastki markaziga joylashtiramiz (3-chizma).


3. Вычитание buyrug'i bilan o'yib tashlanadi. Вычитание buyrug'idan foydalanish ketma-ketligi:

Вычитание buyrug'i sichqonchanning chap tugmasi orqali yuklanadi. Birinchi asosiy detal ustida sichqonchanning chap va o'ng tugmasi bosiladi shundan so'ng o'yib olinadigan detal ustida sichqonchanning chap va o'ng tugmasi bosiladi va o'yiqlik hosil bo'ladi (4-chizma).

4. Qolgan o'yib olinishi kerak bo'lgan qismlarini ham shu tartibda bajariladi va yakunda bizda tayyor detal hosil bo'ladi (5-rasm).




4-chizma




5-chizma

5. Tayyor bo'lgan aksonometrik proyeksiyaga zaruriy qirqim bajariladi (6-chizma).

6. Tayyor bo'lgan aksonometrik proyeksiya orqali detalning 3 ta ko'rinishi, zaruriy qirqimlari va o'lchamlari qo'yiladi (7-chizma).



6-chizma



7-chizma

Shunga o'xshash chizmalarni ham Auto CAD dasturi orqali bajarishimiz mumkin yoki chizmalarga o'zgartirish va qo'shimchalar ham kiritishimiz mumkin bo'ladi. Qo'lda ham bajarishimiz mumkin lekin biz bu chizmalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishda qiyinchiliklar kelib chiqadi. AutoCAD dasturida esa bu ishlarni tez va osonlik bilan bajara olamiz. Chizmachilik darslarida AutoCAD dasturidan foydalanib dars samaradorligini va sifatini oshirishga ham xizmat



qiladi. Masalan o'quvchi va talabalar ichidan 2 ko'rinish asosida yetishmovchi ko'rinishini bajarish vazifasi berilsa kimlardur aksonometrik proyeksiyani bajarib keyin yetishmovchi proyeksiyani bajaradi. Kimdir esa yetishmovchi proyeksiyani bajarib bo'lgandan keyin aksonometrik proyeksiyani bajaradi. Yana sirtlarning kesishish chiziqlarni bajarishda ham talabalar kesishgan chizig'i qanday chiqishini tasavvur qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shunday vaqtda biz AutoCAD dasturida ikki sirtni chizib ularni kesishtirib ko'rsatsak talabalar uni ko'rib qanday chiziq chiqishini biladi va vazifani bajarishda qiyinchilikka duch kelishmaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki AutoCAD dasturidan qanchalik dars jarayonlarida samarali foydalansak dars samaradorligi va dars sifatiga erishgan bo'lamiz. Talabalar ham shu dastur orqali ijodiy qobiliyatlarini ham nayon qila oladilar. Berilgan vazifalarni tez va sifatli bajarib ma'lum yutuqlarga erishadi.

Adabiyotlar:

1. Achilov Nurbek Norboy o'g'li (2020). The use and importance of the three-dimensional features of the auto cad program in drawing projects in public schools. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (3) Part II, 189-192.
2. Kukiev, B., O'g'li, N. N. & Shaydulloyevich, B. Q. (2019). Technology for creating images in autocad. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7 (12), 49-54.
3. Achilov Nurbek Norboy o'g'li (2020). Pedagogical and psychological fundamentals of formation of space imagination and creative ability in students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (4), Part II, 38-40.
4. Achilov Nurbek Norboy o'g'li, Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich, Ko'kiyev Boburmirzo Baxodir o'g'li & Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li (2020). Methods of developing creative abilities in children. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (10) Part II, 151-153
5. Achilov N.N., Ko'kiyev B.B., Bekqulov Q. Sh. Yaqqol tasvirlarni bajarishda autocad dasturidan foydalanib loyihalash *Муғаллим ҳам ўзлуксиз билимлендириў илимийметодикалык журналы №2 2020 ISSN 2181-7138*
6. Achilov Nurbek Norboy Uglu Methods of Using Game Technologies in the Development of Lesson Effectiveness and Creative Abilities in Drawing Lessons *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192
7. Achilov, N. N. (2022). Bo'lajak pedagoglarning kreativligini rivojlantirish usullari. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(6), 650–654.

РЕЗЮМЕ

Chizmachilik darslarida Auto CAD dasturidan samarali foydalanish ijobiy natija beradi. Loyihalash elementlari mavzularida shu dasturdan foydalanib dars o'tish dars sifatini oshirishga va talabalarni bu fanga va mavzuga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu maqolada aynan shu haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

Эффективное использование программного обеспечения AutoCAD на занятиях по черчению дает положительный результат. Использование данной программы для преподавания предметов элементов дизайна повысит качество урока и повысит интерес учащихся к данному предмету. В этой статье представлена информация об этом.

SUMMARY

The effective use of Auto CAD software in drawing classes has a positive result. Using this program to teach the subjects of design elements will improve the quality of the lesson and increase students' interest in this subject. This article provides information about this.



MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI DARSLARIDA AUTOCAD DASTURIDA YIG'ISH CHIZMALARINI 2D VA 3D KO'RINISHLARINI CHIZISH

Ozodboyev I. O.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti
"Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: fazoviy tasavvur, detal, tafakkur, texnologiya, loyixalash.

Ключевые слова: пространственное воображение, деталь, мышление, технология, проектирование.

Key words: spatial imagination, detail, thinking, technology, design.

Ma'lumki kishining bilimlarni o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarni hal etishi, o'z bilim va malakalarini turmushga tadbiiq qila bilishidan uning iste'dodini bilish mumkin. Iste'dod irsiyat orqali o'tadi va tarbiya orqali paydo qilinadi. Talabalardagi qobiliyat va iste'dodni faqat ularning turli ishlar bajarish faoliyatlarida aniqlash va rivojlantirish mumkin. Demak, bu borada talabalar bilan ma'lum bir yo'nalishda pedagogik ishlar olib borilmasa, talaba qandaydir ishlarni bajarishda o'zini namoyon qilmasa, uning iste'dodi haqida aniq bir xulosaga kelish qiyin. Chizmachilik o'qituvchisidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o'zining kasbiy faoliyatida o'rinli foydalana olish malakalariga ega bo'lishlik talab qilinadi. O'qituvchining diqqat markazida hamisha o'quvchilarda amaliy grafik ish bajarish malakalarini shakllantirish asosiy vazifa ekanligi turishi kerak

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muxim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Keyingi yillarda ta'lim mazmuni boyitish yo'lida rivojlantiruvchi ta'limning bir qator ishonchli interfaol metod va yo'llari izlanmoqda.



Bu izlanish asosan uchta yo‘nalishda – muammoli, programmashtirilgan va tabaqalashtirilgan ta‘limda olib borilmoqda. Ayniqsa, maktab tajribasida ta‘limga muammoli yondashish keng tarqalmoqda.

Chizmachilik fanining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki bu fanning o‘qitilishida turlicha yondoshuvning imkoni ko‘pligidir. O‘quvchilarning fazoviy tasavvurini ya‘ni, xotira va tasavvur hayolini va grafik tafakkurini rivojlantirish butun kursning asosiy o‘zagini tashkil qiladi.

Mutaffakir olim bobomiz Abu Rayhon Beruniy hazratlari o‘zining pedagogik va didaktik qarashlarida, o‘qitish hamda tarbiyalash jarayonida turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o‘quvchining zerikmasligini hotirasiga malol keltirmaslikni, ya‘ni zo‘riqtirmaslikni ta‘kidlab, “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslikdir, hadeb bir narsani o‘qiyverish zerikarli bo‘ladi va toqatni toq qiladi. Agar o‘quvchi bir masaladan boshqa masalaga o‘tib tursa, u xuddi turli-tuman bog‘- rog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi, bir bog‘dan o‘tar-o‘tmas, boshqa bog‘ boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko‘rgisi va tomosha qilgisi keladi, har bir yangi voqea narsa rohat bag‘ishlaydi, - deb yozgan edi (“Pedagogika”, Tosh., “O‘qituvchi”, 1996 yil, 99-bet).

Ta‘lim-tarbiya jarayoniga inovatsion yondashish talabalarni yangi tajriba egallashga intilishni rivojlantirish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni, kelajakka intilishni tarbiyalashni tushunish lozim. Texnologiya – yunoncha “techné”- san‘at, “logos”- o‘qish (bilim, ta‘lim). Texnologiya keng ma’noda – bilimlar hajmi, tor ma’noda – borliqni qayta tuzish (tubdan o‘zgartirish) usullaridir.

Jamiyat rivojining bugungi kundagi bosqichi bevosita, texnologiyalarning takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy texnologik jarayonlar har qanday sohaga o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Ayniqsa, axborot uzatish tizimida tobora yangi o‘zgarishlar texnologiyalari kuchayib bormoqda. Axborot va kommunikatsion texnologiyalar hamda kompyuter texnologiyasidan foydalanish rivojlanmoqda. Respublikamiz ta‘lim sohasida ulardan foydalanish o‘qitish sifatini oshiriga, o‘quvchilarning fikrlash doirasini oshirish va kengaytirishga, ularda mustaqil o‘zlashtirish faoliyatini kuchaytirish hozirgi zamonning dolzarb masalasiga aylanib qoldi.

Ta‘limning axborotlashtirishda o‘quvchilarning axborot va kommunikatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishlari bilan bir qatorda, fan sohasidagi olayotgan bilim va ko‘nikmalarini jadallashtiriga olib kelmoqda. Bu jarayonlar ilmiy izlanishlar natijasida turli metodik yondashuvlarga olib keladi.

“Muhandislik kompyuter grafikasi”ni o‘qitishdan asosiy maqsad talabalarga muhandislik va mutaxassislik fanlaridan bajariladigan barcha turdagi grafik axborotlarni-chizma, diogramma va sxemalar kabi tasvirlarni ikki o‘lchamda



yoki uch o'lchamda kompyuter yordamida bajarish tartibi va qoidalarini o'rgatishdan iborat.

AutoCAD tizimidan foydalanishlari odatiy holga aylanib bormoqda.


Kundan-kunga masofaviy tarmoq kurslari va tanlovlari ommalashib bormoqda. O'qituvchi endi bilim axborotlarini yetkazuvchi yagona markaz emas balki, texnologiyalarini qo'llash bilan masofaviy ta'lim beruvchi va oluvchi imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda

Zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalarni o'qitishning bir qancha metodlarini ishlab chiqish uchun imkoniyatlar yaratildi. Dars qiziqarli bo'lmasa talabani etiborini jalb qilish qiyin.



Dars o'tishdan oldin talabalarni olgan bilimlari tekshiriladi. Dars jarayonida olib boriladigan ta'lim tarbiya ishlari talabalarning mustaqil fikrlashi topshiriqlarni bajarishi xayotda o'z o'rnini topishiga yordam beradi

Har bir amaliy mashg'ulotda 25-30 minut davomida grafik axborotlarning tarkibiy qismlarini kompyuter ekranida chizish, ularni qayta o'zgartirib variantlarini yaratish va ekranda bajarilgan tasvirlarni qog'ozga chiqarib olish kabi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar ketma-ket berib boriladi. Mashg'ulotning qolgan qismida esa, chizma chizish, o'lchamlar qo'yish buyruqlar panelidan foydalanib talabalarni ko'nikma va malakalari oshiriladi.

Yig'ish chizmalarini chizish bir qancha murakkab jarayon xisoblanadi. Yig'ish chizmasini chizish uchun chizmani o'qishni bilish kerak. Fazoviy tasavvur yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Masalan o'qituvchi bitta yig'ish chizmasini tanlab olib uni yaqqol tasvirini oldindan chizib kelib talabalarga



1-rasm



2-rasm



ko'rsatib, detal haqida ma'lumot berib chizish jarayonini boshlasa maqsadga erishadi. 1-rasm. Bu bosqichda talaba chizmani o'qishi osnlashadi. O'ziga berilgan vazifalarni chizishda tasavvur uyg'onadi.

Keyingi bosqichda detalni uchta ko'rinishi chiziladi va qirqim bajariladi. 2-rasm AutoCad dasturida yig'ish chizmasini bajarish bir qancha imkoniyatlari bor.

Adabiyotlar:

1. Rixsiboyev T. «Kompyuter grafikasi», -T.: «Tafakkur qanoti». 2012-y.
2. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. «Muhandislik grafikasini o'qitish
3. Qirg'izboyev Yu. «Mashinasozlik chizmachilik kursi». -T.: «O'qituvchi». 1989-y.
4. Seytimbetov Samat Maratovich. (2022). Talabalarda konstruktorlik qobiliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni. Conferencea, 50–53. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/766>
5. Ozodboyev, I. O. (2022). Drawing assembly drawings using autocad computer graphics software. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 1085-1091.
6. Seytimbetov, S. M. (2022). Muhandislik kompyuter grafikasi fanidan foydalanib talabalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish. Science and Education, 3(11), 829-833.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish, ishlab chiqarishda katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan yig'ish chizmalarini chizish ishlov berish bo'yicha tushuncha, malaka va tajribalarini shakllantirishi aytib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрено развитие пространственного воображения студентов, формирование представлений, умений и навыков выполнения сборочных чертежей, имеющих большое экономическое значение в производстве

SUMMARY

This article describes the development of students' spatial imagination, the formation of concepts, skills and experiences in drawing assembly drawings, which are of great economic importance in production.





КРЕДИТ МОДУЛ ТИЗИМИГА АСОСЛАНГАН ЎҚИТИШ ТИЗИМИДА ФИЗИКАДАН АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ОЛИБ БОРИШ МЕТОДИКАСИ

Исмоилов Д. М.

ҚарМИИ “Физика ва электроника” кафедраси доценти

Таянч сўзлар: инновацион, электрон ресурс, анимация, технологиялар, дастурий маҳсулот, касбий фаолият, трансфер, лойиҳалаш, конструкторлик.

Ключевые слова: программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

Key words: software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

Физикадан амалий машғулотлар жараёнида талабаларнинг ўзлаштирган билимларини профессор-ўқитувчи билан биргаликда касбий муаммоли муҳандисликка йўналтирилган физикавий масалаларни ҳал қилиш учун қўллаш зарурий касбий компетенцияларни (лойиҳалаш, конструкциялаш, моделлаштириш, дастурлаш ва тадқиқотчилик) шакллантиришда муҳим рол ўйнайди. Кредит-модул тизимида амалий машғулотлар учун ажратилган соатлар маъруза машғулотлари соатларига мутаносиб бўлади ҳар бир маърузадан кейин амалга оширилади.

Физикадан амалий машғулотлар маърузада олинган билимларни мустаҳкамлаш ва батафсил баён этиш, касбга йўналтириб ўқитиш ҳамда касбий компетенцияларни шакллантиришга қўмаклашиш учун мўлжалланган. Улар талабанинг илмий, техник, муҳандислик тафаккурини ва нутқни ривожлантиради, ўз билимларини синаб кўриш имконини беради ва тезкор тескари коммуникатив алоқа воситаси сифатида ҳаракат қилади [2].

Физикадан маъруза машғулотининг умумий ғоялари ва касбга йўналтирилганлиги амалий машғулотларга мазмун жиҳатидан мос келиши ва у билан мавзуларнинг алгоритмик кетма-кетлиги таъминланиши лозим.

Кредит модул тизимига асосланган ўқитиш тизимида ўқув машғулотининг босқичларини кўриб чиқамиз. Бундай шароитда ўқув жараёни талабаларни лойиҳавий-конструкторлик касбий компетентлигини шакл-



лантиришга қаратилган таълим муҳитини яратиш лозим. Профессор-ўқитувчи талабаларни билим олишга ундайди, яъни уларни ўқитмайди, балки ўқиб ўрганишига шарт-шароитларни яратади.

Физикадан амалий машғулотлар олиб боришнинг блок схемаси 1-расмда келтириб ўтилган.


I. Ташкилий мазмунли, мотивацион босқич.

II. Кириш назорат босқичи.

III. Когнитив, умумий ва тизимли босқичи.

IV. Касбий муаммоларни ечиш, зарурий касбий компетенцияларни шакллантириш босқичи икки қисмга бўлинади: профессор-ўқитувчи раҳбарлигида ва мустақил равишда касбий ностандарт муаммоларни ечиш.

V. Ташҳислаш, хулосалаш.



1-расм. Физикадан амалий машғулот тузилмаси

Биринчи босқичда профессор-ўқитувчи:

- дарс мавзусини айтиш;
- мавзу бўйича талабаларда мотивация ҳосил қилиш;
- талабалар билан биргаликда фаолиятни режалаштириш;
- мавзунинг мақсадини белгилаш.



Келтириб ўтилган босқичларнинг барчаси таълим жараёнида маъруза машғулоти ва самарали ўзаро ҳамкорликни режалаштириш, ташкиллаштириш.

Шуни таъкидлаш лозимки, мотивация босқичининг асосий вазифаси бўлажак дастурчиларни лойиҳавий-конструкторлик фаолиятга тайёрлашда шахсий мазмун касб этадиган жараёнидир. Мотивация босқичидан мақсад талабани лойиҳавий-конструкторлик фаолиятга қизиқиш уйғотишдир. Лойиҳавий конструкторлик фаолият мақсадлари талаба томонидан амалга оширилганда, қабул қилинганида ва шахснинг ички эҳтиёжлари натижаларига эга бўлганда эришилади. Машғулотларнинг мақсади нафақат ўқитувчи, балки ўқувчиларга ҳам аниқ бўлиши керак.

Иккинчи босқичда бошланғич назорат ўтказилиб, унда бешта назарий савол ёки тест дарс бошида ўтказилади ва 5-7 дақиқа давом этади. Тест ўтказишнинг мақсади талабанинг кейинги амалий машғулотларга тайёргарлигини синовдан ўтказиш, маъруза машғулотларда эгалланган билимлар даражасини аниқлаш ва мустаҳкамлашдан иборат [2].

Таълимда компетенциявий, индивидуал ёндашув ва унумли педагогик ва коммуникатив мулоқот катта аҳамиятга эга. Талабалар касбий фаолиятда ўз қобилиятларини, шахсий салоҳиятини намоён этиш имконига эга бўлишлари лозим. Агар талабалар барча ўқув имкониятлари пастлиги бўйича маълумога эга бўлса, уларнинг мотивация даражаси кескин пасаяди. Профессор ўқитувчи амалий машғулотни шундай ташкил этиш керакки, талабалар бажарилаётган вазифаларнинг алгоритмик равишда мураккаблашиб бораётганлигини доимо ҳис этиб, ўқитишда ўз муваффақиятларини, ижобий ҳис-туйғуларни бошдан кечириб, қизгин ижодий касбий фаолият билан шуғулланишини, тўғри ва аниқ ечимларни топиш кўникмасига эга бўлишлари керак. [4, 114-6].

Тест топшириқлари фанги доир янги бўлимларини ўрганиш учун зарур бўлган асосий билимларни янгилаш ва лойиҳалаш ва конструкциялаш каби касбий компетенцияларини шакллантириш учун маъруза машғулотларида олинган билимлардан фойдаланишни кўзда тутати.

Ёзма шаклда ишлаб чиқилган тестнинг ўзига хос хусусияти шундаки, унда барча талабалар қамраб олинади. Бу эса профессор-ўқитувчига талабалар билимини холисона баҳолаш имконини беради. Физикадан амалий машғулот бошида бошланғич тест саволлари берилиши ва текшириш, баҳолаш ўтказиш талабаларнинг ўрганилаётган мавзуга қандай даражада тайёргарлик кўрилганлигини белгилайди.



Учинчи босқичда физикадан эгалланган билимлар умумлаштирилади ва тизимли ҳолатга келтирилади, талабаларнинг эгаллаган билими текширилади, тушунчалар, физик катталиклар, атамалар, формулалар ва қонунлар тушунтирилади, дастурлаш тилларидан фойдалана олиши ўрганилади, изоҳланади [2].

Тўртинчи босқичда касбга йўналтирилган муҳандислик муаммолари таҳлил қилинади ва тушунтирилади, чунки у физикадан маъруза машғулотларида назарий материални ўзлаштириш ва амалий машғулотларда эгалланган назарий билимларни касбий фаолиятда самарали қўллаш олиш таъминланади. Мавзунинг мураккаблигига қараб дарснинг мазкур босқичига ярим соат вақт берилади. Дарснинг бу қисми профессор-ўқитувчининг раҳбарлиги ва тьюторнинг назорати остида олиб борилади.

Физикадан масала ечиш биз томонимиздан ишлаб чиқилган электрон ўқув қўлланма ва визуал дастурлаш тилида ишлаб чиқилган дастурий маҳсулотлар ёрдамида амалга оширилади, у ҳар бир талабада мавжуд бўлиб, қисқача назарий асос, асосий формулалар, масала ечиш намуналари, физиканинг ҳар бир мавзуси бўйича билимларни мустаҳкамлаш учун мустақил ечиш учун масалаларни ва масалаларнинг жавобларини ўз ичига олади [2].

Жумладан, фаоллик кўрсата оладиган, иқтидорли талабалар рағбатлантирувчи балл оладилар, балларни тақсимлаш бажарилган топшириқнинг мураккаблигига қараб белгиланади. Талабаларни масалалар ечишда дастурлаш тилларидан фойдалана олишига қараб рағбат баллари ҳам берилади.

Бешинчи босқичда амалий машғулотни тугаши олдида талабаларга турли даражадаги мураккабликка эга топшириқдан иборат мустақил иш шаклида топшириқлар берилади. Мустақил иш топшириқларида муҳандислик муаммоларига бағишланган физикавий масалаларни дастурлаш тилларидан фойдаланиб ечим топиш вазифаси қўйилади. Мустақил иш янги мавзунини ўзлаштириш даражасини рефлексиялайди, тушунчаларни белгилайди ва профессор-ўқитувчига таълим жараёнини бошқариш имконини беради.

Мустақил иш компьютерда визуал дастурлаш тили C++ ва андроид дастурлаш тиллари RAD Studio ва Android Studio дан фойдаланиб бажарилади, бу ҳам текшириш учун профессор-ўқитувчига он-лайн HEMIS платформи орқали топширилади.

Биз “Физика1” фанининг барча асосий мавзуларини қамраб олган ва олий таълимнинг Давлат таълим стандартига тўлиқ мос келадиган электрон ўқув қўлланмани RAD Studio дастурлаш муҳити таркибидаги C++ дастурлаш тилида ишлаб чиқдик ва амалиётга тадбиқ этдик [5].



Электрон ўқув қўлланма “Физика1 фанидан электрон ўқув қўлланма” 15 та мавзуларига доир маълумотлар ҳамда мустақил ечиш учун масалалар келтирилган. Мустақил ишлар намунавий фан дастурига мос равишда мураккаблик даражаси ва талабаларнинг билим даражасига қараб тузилди. Бошланғич назорати учун тест топшириқлар ҳам бир нечта вариантда (15 тадан 30 тагача саволлар мажмуи) келтирилган бўлиб, уларни бажариш учун сарфланган вақт ҳар бир вариантга 10 дақиқадан ошмаслиги керак.

Физикадан визуал ва чизиқли дастурлаш тилларидан фойдаланиб масалалар ечишнинг асосий методларини ўзлаштирган талабага назорат ишларини юқори бал тўплай олади ва масала ечиш қийинчилик туғдирмайди.

Мисол тариқасида механика мавзуси бўйича дарс режасини келтириб ўтамиз (1-жадвал).

1-жадвал**Дарс режаси**

Босқич	Мазмун
I. Ташкилий-мазмуний босқич	Мавзунини қисқача тушунтириш
II. Кириш назорат босқичи	Кириш тестини ўтказиш.
III. Когнитив, умумий ва тизимли босқичи	Талабаларнинг билиминини аниқлаш, умумлаштириш, тизимлаштириш
IV. Масала ечиш	1) Касбга йўналтирилган муаммоли масалаларни таҳлил қилиш ва ечиш 2) Мустақил қарор қабул қилиш.
V. Якуний назорат	Касбга йўналтирилган муаммоли топшириқларни бажариш

Физикадан амалий машғулотларни дастурлаш тилларидан фойдаланиб ташкил этиш назарий ва амалий, касбий муҳандислик муаммоларни ҳал этишнинг янги, замонавий йўллари мустақил излашдан бошланадиган фаол ва интерфаол, индуктив ва дедуктив ўқитиш усуллари унумли фойдаланишни талаб этади. Ижодий ўқув фаолиятида янгилик субъектив маънода пайдо бўлади [3].

Масалаларни ҳал қилишда дастурлаш тилини танлаш, режасини излаш, ушбу вазиятни таҳлил қилиш бўлажак дастурчининг касбий малакасини оширишга, хусусан, касбий муаммоларини таҳлил қилиш, синтез қилиш ва тадқиқ қилишга ҳисса қўшади. Касбий муаммоларни ҳал қилишни тўғри ташкил этиш асосий ташкилий ва бошқарув, лойиҳалаш,



конструкциялаш компетенцияларини, жумладан, ишда ташаббускорлик, ижро интизоми, масъулиятни ўз зиммасига олиш ва қарор қабул қилиш қобилияти, ўз-ўзини бошқариш қобилиятлари, ўз-ўзини ривожлантириш, ўз-ўзини баҳолаш, ностандарт вазиятларда қарор қабул қилиш, янги вазиятларга мослашиш қобилияти, танқидий фикрлашни ривожлантиради.

Олий таълимда асосий диққат-эътибори маънавиятли, маданиятли, масъулиятли, мустақил ҳаракат қила оладиган, вазиятни таҳлил қила оладиган ва ностандарт вазиятларда энг яхши йўлни топа оладиган, ўз касбий фаолиятини тез йўлга қўя оладиган, рақобатбардош юқори малакали дастурчининг ижодий шахсини шакллантиришга қаратилган. Бу эса талабаларнинг лойиҳавий-конструкторлик фаолиятга тайёргарлигини ривожлантириш имконини беради.

Adabiyotlar:

1. Computer networking: a top-down approach / James F. Kurose, Keith W. Ross.—6th ed. 2013. by Pearson Education, Inc., publishing as Addison-Wesley.
2. TCP/IP protocol suite/Behrouz A. Forouzan.—4th ed. Published by McGraw-Hill, a business unit of The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020. Copyright © 2010.
3. Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. -М.: «Народное образование», 2007. -№ 2. - С.54-55.
4. Java Network Programming, Fourth Edition by Elliotte Rusty Harold. 2014.
5. Mariano Martin Martin. Introduction to software for Chemical engineers. CRC Press, 2014;
6. Karimov Q.M., Razzoqov I.D., Mathcad va Matlab muhitida ishlash. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Nasaf" nashriyoti, 2014;
7. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. — Toshkent: ABU Matbuot — Konsalt, 2015. — 280 b.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада олий таълимда физикадан таълим жараёни амалий машғулотларни ҳам ўз ичига олади. Амалий машғулотлар фанни чуқур ўрганиш, мустаҳкамлаш, касбга йўналтириш, касбий компетенцияларни шакллантириш учун мўлжалланган. Агар маъруза бўлажак дастурчиларда меделлаштириш ва когнитив компетенцияларни шакллантиришни ўз ичига олса, амалий машғулотлар бўлажак дастурчиларни лойиҳалаш ва конструкциялаш компетенцияларини шакллантиришга қаратилган.

РЕЗЮМЕ

В этой статье процесс изучения физики в высших учебных заведениях также включает в себя практические занятия. Практические занятия предназначены для углубленного изучения науки, укрепления, профориентации и формирования профессиональных компетенций. Если лекция предполагает моделирование и формирование когнитивных компетенций у будущих программистов, то практическое обучение направлено на формирование проектных и конструкторских компетенций у будущих программистов.

SUMMARY

In this article, the process of studying physics in higher educational institutions also includes practical classes. Practical classes are designed for in-depth study of science, strengthening, career guidance and the formation of professional competencies. If the lecture involves modeling and the formation of cognitive competencies in future programmers, then practical training is aimed at the formation of design and design competencies in future programmers.



КРЕДИТ-МОДУЛ ТИЗИМИДА ФИЗИКАДАН ЭКСПЕРИМЕНТ ОЛИБ БОРИШ МЕТОДИКАСИ

Одилов Ё.

ТАТУ Қариш филиали “Математика ва физика” кафедраси доценти

Таянч сўзлар: инновацион, электрон ресурс, анимация, технологиялар, дастурий маҳсулот, касбий фаолият, трансфер, лойиҳалаш, конструкторлик.

Ключевые слова: программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.


Key words: software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

Физикадан лаборатория машғулотлари талабаларнинг назарий билимлари, амалий кўникма ва малакаларини тадқиқотчилик фаолиятининг ягона жараёнида сингдирилади. Лаборатория латинча “labor”- меҳнат, иш сўзларидан келиб чиққан. Қадим замонлардан бери унинг маъноси юзага келган илмий ва ҳаётий муаммоларни ҳал қилиш учун ақлий фаолият ва физикавий ҳаракатлардан фойдаланиш билан боғлиқ [2, 120-6]. Физикавий экспериментни ташкил этиш ақлий ва касбий фаолият элементлари билан ҳамбарчас боғлиқ [1].

Физикадан лаборатория машғулотлари бир қатор касбий муаммоларни, ностандарт масалаларни, муҳандислик муаммоларни ҳал қилиш имконини беради, физикавий катталикларни ўлчаш усуллари билан таъиништиради, хусусан, физик ҳодисалар дунёсига янада чуқурроқ кириб бориш имкониятини беради; физикавий стендлар билан ишлаш, виртуал ёки симуляцион дастурлар, дастурлаш тиллари билан ишлаш кўникма ва малакаларини ривожлантириш имконини беради [3].

Физикадан лаборатория машғулотларида талабалар ўз олдига қўйилган мақсадни аниқ тушунишлари лозим. Фақат аниқ шакллантирилган касбий компетенциялар керакли натижага эришишга имкон беради [4, 109-6].

Лаборатория машғулотларида талабалар ишни яқунлашдан олдин, натижага эришиш йўллари, кириш ва чиқиш диагностикаси амалга оширилади, лаборатория ишини ҳимоя қилади. 1-расмда физика фанидан лабораториянинг мазмунли тузилмаси кўрсатилган.



1-расм. Физикадан лаборатория машғулотининг мазмунли блок-схемаси

Биринчи босқичда лаборатория иши мавзуси бўйича ўқитувчи томонидан назарий йўриқнома тайёрланади. Лаборатория иши учун қуйидагича ҳисобот тузилади:

1. Ишнинг мақсади.
2. Керакли асбоб ва ускуналар.
3. Стендлар.
4. Физик катталикларни аниқлаш.
5. Физик катталикларни ўлчаш.
6. Ўлчаш хатоликларини аниқлаш.
7. Ҳисобот.



Иккинчи босқичда талаба лаборатория профессор-ўқитувчидан рухсат олади, ишини бажаришга рухсат олгач, уни лаборант иштирокида бажаришга киришади. Тажриба натижалари жадвалларга киритилади.

Учинчи босқичда ўлчаш натижалари қайта ишланади, керакли қиймат аниқланади ва ўлчаш хатолари баҳоланади, шундан сўнг ишни профессор-ўқитувчига кўрсатади [2].

Натижанинг ишончилигини рефлексияловчи хулоса билан якунлангач лаборатория иши мақсадига эришилади. Лаборатория машғулоти учун бир семестрга 30 соат, яъни 1 кредит ажратилган.

Сўнги босқичда талаба жадвални тўлдиради, хатоликларни аниқлайди ва лаборатория ишини ўқитувчига топширади. Лаборатория ишлари учун кредит олиш профессор-ўқитувчи томонидан таклиф этилган саволларга жавоб бериши ва ҳисоботни топшириш орқали таъминланади.

Талабаларга уй вазифаси сифатида дастурлаш тилида дастурий маҳсулот ишлаб чиқиш топширилади. Топшириқни бажарган талабалар рағбатлантирилади.

Лаборатория ишини шундай лойиҳалаш керакки, уларни амалга ошириш жараёнида талабалар тажрибанинг типик қийинчиликларини мустақил бажара олсин, физик ҳодиса ва жараёнларни дастурлаш тилларидан фойдаланиб визуаллаштириш [5].

Физикадан лаборатория иши маълум бир физикавий ҳодиса ва жараённи аниқлаштирибгина қолмай, мустақил ишларини таҳлил қилиши керак [6].

Тажриба мақсадини онгли равишда баён этиш учун талаба тавсия этилган адабиётлар ва электрон қўлланмалар бўйича назарий материални мустақил ўзи ўрганиши, мавзуда келтирилган саволларга жавоб бериши керак. Талабага гипотезани илгари суриш, тажриба усулларини танлаш, тадқиқот вазифаларини белгилаш, физикавий стендларни танлаш, дастурлаш тилини танлаш ва тартиблаштириш, назарий эгалланган билимларни онгли равишда таҳлил қилиш, мустақил равишда қарор қабул қилиш ва якуний хулосалар чиқариш имконини беради. Таълим методларини мақсадли қўллаш тадқиқотчилик компетенциясини шакллантиришга, талабаларнинг ижодий қобилиятларини, дастурлаш тилидан фойдаланиб дастурий маҳсулотлар ишлаб чиқиш ва касбий фаолиятга тайёргарлигини ривожлантиришга ёрдам беради [4, 28-6].

Сўнгги пайтларда компьютер технологияларидан физикани ўрганишда тобора кўпроқ фойдаланилмоқда. Компьютердан фойдаланиш замонавий таълим олишнинг шарти ҳисобланади. Янги компьютер технологиялари-



дан фойдаланиш инсон ҳаётининг ажралмас атрибутига айланганлиги билан изоҳланади. Компьютер таълимнинг зарурий билим воситаси бўлмиш таълимга янги имкониятлар бериши муҳим аҳамиятга эга. Физика экспериментал фан ҳисобланади, лекин кўп ҳолларда нормал эксперимент ўтказиш мумкин бўлмай қолади. Физик жараёнларни визуаллаштиришда дастурлаш тилларидан фойдаланиш ёрдамида бу ҳолатдан чиқиш йўлини топиш мумкин. ТАТУ Қарши филиалида “Дастурий инжиниринг” бакалавриат таълим йўналиши талабаларга физикадан лаборатория машғулотида физикавий стендлардан ташқари виртуал лаборатория ишлари (Crocodile Physics, PhET, VirtualLab), андроид дастурлаш (RAD Studio, Android Studio), дастурий пакетлар (MathCAD, Maple, Matlab), дастурлаш тиллари (C++, Делфи, Python)дан фойдаланилади.

Лаборатория машғулотларини юқорида келтириб ўтилганидек ташкил этиш физика курсининг ажралмас қисми ҳисобланади. Шунинг учун лаборатория ишларини индивидуал тарзда бажариш қулай ҳисобланади.

Тўғри ташкил этилган лаборатория машғулоти талабаларда физикавий билимлар тизимини шакллантиришга ва касбий фаолиятга тайёргарлигини ривожланишига ёрдам беради. Бундан ташқари, талабалар келажакда дастурлаш тилларидан фойдаланиб виртуал лабораториялар ишлаб чиқиши ҳамда улар учун фойдали бўлиши шубҳасиз бўлган касбий компетенцияларга эга бўладилар.

Шундай қилиб, мазмун жиҳатдан аниқ ва тўғри ташкил этилган лаборатория машғулоти физикани ўрганишда аҳамиятли воситага айланади; таълимда узвийлик ва узлуксизликни таъминлашга ёрдам беради; физика ва муҳандислик соҳалари ўртасидаги алоқани янада ривожланишига имкон беради; талабаларда техник тафаккурни шаклланишига ҳисса қўшади, физик тажрибалар ўтказиш, физикавий қурилмаларни бошқариш қўникмаларини эгаллаш; мустаҳкамлаш ва кенгайтириш, формаллаштириш ва синтезлаш, олинган физикавий билимларни мустаҳкамлаш, физикавий билимлар тизимини шакллантириш, таълим сифати ва самарадорлигини ошириш имконини беради. Бундан ташқари, мазмунли ва яхши ташкил этилган лаборатория машғулоти талабаларни касбий фаолиятга тайёргарлигини ривожлантиришга хизмат қилади.

Adabiyotlar:

1. Computer networking: a top-down approach / James F. Kurose, Keith W. Ross.—6th ed. 2013. by Pearson Education, Inc., publishing as Addison-Wesley.



2. TCP/IP protocol suite/Behrouz A. Forouzan.—4th ed. Published by McGraw-Hill, a business unit of The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020. Copyright © 2010.

3. Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. -М.: «Народное образование», 2007. -№ 2. - С.54-55.

4. Java Network Programming, Fourth Edition by Elliott Rusty Harold. 2014.

5. Mariano Martin Martin. Introduction to software for Chemical engineers. CRC Press, 2014;

6. Karimov Q.M., Razzoqov I.D., Mathcad va Matlab muhitida ishlash. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Nasaf" nashriyoti, 2014;

7. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. — Toshkent: ABU Matbuot — Konsalt, 2015. — 280 b.

РЕЗЮМЕ

Физика ўқув фани биринчи навбатда фундаментал фан эканлиги асосида “Дастурий инжиниринг” ўқув режасида муҳим ўрин тутуди. Унинг асосий вазифаси физика ўқитиш методикасини мазмунан ишлаб чиқишга қўмаклашишдан иборат.

РЕЗЮМЕ

Эта статья заняла важное место в учебной программе «Разработка программного обеспечения», основанной на том факте, что физика - это прежде всего фундаментальная наука. Его основная задача - способствовать разработке содержания методики преподавания физики.

SUMMARY

This article has taken an important place in the curriculum «Software Development», based on the fact that physics is primarily a fundamental science. Its main task is to contribute to the development of the content of the methodology of teaching physics.





TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI AUTOCAD GRAFIK DASTURIDA KONSTRUKSIYALASH METODIKASI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Seytimbetov S.M.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti
"Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrası o'qituvchisi*

Таянч сўзлар: қобилият, ижодкорлик, график дастур, методика, талаба, конструкция, муҳандислик, геометрия.

Ключевые слова: способность, креативность, графическая программа, методика, студент, построение, инженерия, геометрия.

Key words: ability, creativity, graphic program, methodology, student, construction, engineering, geometry.

Yilning yomg'irli va qorli mavsumlarida metro bekatlariga va yer osti yo'llariga tushish joylari suv, qor yoki muzlama bo'lib qoladi. Buning oqibatida qancha-qancha odamlar jiddiy zarar ko'radilar. Agar o'sha metro bekatlariga va yer osti yo'llariga tushish joylarini ustki (tom) qismini muhandislik-geometrik talablariga javob beradigan shaffof sirtlar bilan yopilsa, ancha tejamkorlik va qulayliklar bo'ladi.

Masalan: uzunligi 7 m, eni 4 m va balandligi 50 sm bo'lgan metro bekatlariga yoki yer osti yo'llariga tushish joylarini yomg'ir va qorlardan himoya qilish maqsadida uning ustki (tom) qismi oldindan berilgan muhandislik-geometrik shartlarga asosan shaffof sirt bilan yopilmasi konstruksiyalansin (1-rasm).


Buning uchun, konstruksiyalanayotgan sirt (yopilma)ning eskizi chiziladi hamda uning konstruksiyalash metodikasi bosqichma-bosqich bajariladi (2-rasm).

1. Konstruksiyalanayotgan sirtning yasovchisi va yo'naltiruvchilari tanlab olinadi. Sirtning yasovchisi R1 m bo'lgan aylana bo'lib, uning ikkita tayanch va bitta yuqori nuqtasini A, B va D harflar bilan belgilab olamiz. Yasovchi aylana o'rniga tekis va qonuniy egri chiziqli (ellips, parabola, giperbola v.b.) larni ham olish mumkin. Belgilangan A, B va D nuqtalardan konstruksiyalanayotgan sirtning yo'naltiruvchi to'g'ri chiziqlari o'tkaziladi (3-rasm).

2. O'tkazilgan yo'naltiruvchilar sirtning yasovchisiga parallel K1, K2, K3, ... tekisliklar bilan (bir xil masofada va ketma-ketlikda) kesiladi. Har bir tekislik




yo'naltiruvchilarni uchta (1, 2, 3, ...) nuqtada kesadi va hosil bo'lgan nuqtalar (uchta nuqta)dan yasovchi aylana o'tkaziladi. Qolgan yasovchilar ham huddi shu tartibda o'tkaziladi (4-rasm a, b)).




1-rasm

3. O'tkazilgan yasovchilar konstruksiyalanayotgan sirtning karkasi hisoblanadi (5-rasm a).




2-rasm

4. Yakunlovchi qismida sirtning karkaslari orqali silindrik sirt (yopilma) o'tkaziladi. Natijada, yuqorida berilgan muhandislik-geometrik shartlariga to'la javob beradigan qonuniy silindrik sirt hosil bo'ladi (5-rasm b).




3-rasm

6-rasm, a), b) da metro bekatlariga va yer osti yo'llariga tushish joylarini ustki (tom) qismini muhandislik-geometrik



a)



b)

4-rasm



a)



b)

5-rasm

talablariga javob beradigan shaffof sirtlar bilan yopilmasining bir necha variantlari ko'rsatilgan.




a)




b)

6-rasm

Endi oldindan berilgan muhandislik-geometrik shartlariga asosan sirtlarni AutoCAD grafik dasturi yordamida kontruksiyalash metodikasini ko'rib chiqamiz.



a)



b)

7-rasm



AutoCAD dasturi mukammal va ommabop dastur bo'lib, u har qanday turdagi sxema va chizmalarni yaratishni yuqori aniqlikda va sifatli bajaradi, shuningdek, mazkur dasturdan foydalanuvchilarning ijodiy imkoniyatlarini to'la amalga oshirishga yordam beradi.

Talabalar o'quv yili davomida chizma geometriya fanidan ma'lum bir darajada egri chiziqlar va sirtlarni hosil bo'lishi haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ularga algebraik egri chiziqlar va sirtlarni konstruksiyalash metodikasi haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar hamda mavzu yuzasidan elementar grafik vazifalar beriladi. Grafik vazifalarni kompyuter texnikasi ya'ni, AutoCAD grafik dasturi yordamida bajarishga oid dastlabki ma'lumotlar beriladi. Talabalar grafik vazifalarni AutoCAD grafik dasturi yordamida bajarishga oid dastlabki bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'ladilar. Ular grafik vazifalarni bajarib bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydilar va amaliy malakasini oshiradilar. Buning uchun to'g'ri tanlangan mashg'ulotlar mavzusi va ularga tegishli elementar grafik vazifalar hamda shaxsiy vazifa variantlarini ishlab chiqildi.

Egri chiziqlar va sirtlarni oldindan berilgan muhandislik-geometrik shartlariga asosan konstruksiyalashdan oldin talabalarga konstruksiyalashga oid elementar grafik vazifalarni bajarishni o'rgatishdan boshlash maqsadga muvofiq. Chunki konstruksiyalashga oid elementar grafik vazifalarni bajarishni yaxshi o'zlashtirib olgan talabalar egri chiziqlar va sirtlarni oldindan berilgan muhandislik-geometrik shartlariga asosan konstruksiyalashni ham AutoCAD grafik dasturi yordamida bajara oladilar.

Ma'lumki, har qanday grafik axborotlar nuqta, kesma, to'g'ri chiziq, ko'pburchak, aylana va uning yoyi va turli usullarda yasaladigan egri chiziqlar to'plamidan iborat bo'ladi.

Ishning ushbu bandida AutoCAD grafik dasturi yordamida elementar grafik vazifalar ya'ni, to'g'ri va egri chiziqlarni chizish, sirtlarni hosil qilish, ularga rang berish, ularga tur berish, yo'g'onlashtirish, ortiqcha chiziqlarini o'chirish, tasvirni surish va ko'paytirish yoki aks-simmetrik tasvirini yasash hamda oldindan berilgan muhandislik-geometrik shartlariga asosan sirtlarni konstruksiyalashda qo'llaniladigan buyruqlardan talabalarni amaliy foydalanishga o'rgatish hamda AutoCAD grafik dasturi yordamida chizma bajarishga oid ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Talabalarga AutoCAD grafik dasturidan foydalanib, elementar sirtlarni konstruksiyalashni hamda konstruksiyalash jarayonida foydalaniladigan buyruqlarni qo'llash algoritmlarini o'rgatish zarur.

Sirtlarni konstruksiyalashda foydalanish interfeysi ikki o'lchamli kabi bo'lib, unga qo'shimcha «Вид» - ko'rinish, «Визуальные стили» - ikki o'lchamlidan uch o'lchamliga yoki aksincha o'tkazish, «Моделирование» - jismlarni konstruksiyalash va «Редактирование тела» - tahrirlash panellari, kiritiladi, (7-rasm a). Ularni ishchi stolda (7-rasm b) dagidek joylashtirish mumkin.



Ma'lumki, muhandislik va arxitektura-qurilish chizmachiligida egri chiziqlar va sirtlarni oldindan berilgan muhandislik-geometrik shartlariga asosan konstruksiyalash ko'plab grafik amallarni bajarishni, ya'ni ko'p vaqt sarflashni talab qiladi.

Hozirgi zamon kompyuterlari va ularning dasturlar ta'minoti, grafik axborotlarni bemaol konstruksiyalash imkoniyatini beradi.

Buning uchun qator grafik dasturlar mavjud bo'lib, ular orasida AutoCAD grafik dasturi egri chiziqlar va sirtlarni oldindan berilgan muhandislik-geometrik shartlariga asosan konstruksiyalashni yuqori aniqlikda bajarish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar:

1. Seytimbetov, S. M. (2022). Muhandislik kompyuter grafikasi fanidan foydalanib talabalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish. *Science and Education*, 3(11), 829-833.
2. Maratovich, S. S. (2022). Talabalarning ijodkorlik qobiliyatini konstruksiyalash masalalari orqali rivojlantirish. *Zamonaviy ta'lim: muammo va yechimlari*, 1, 114-119.
3. Maratovich, S. S. (2022). The Role of Creative Issues in Developing Students' Design Ability. *Central asian journal of arts and design*, 3(5), 21-27.
4. Zaitov, S. (2022). Chizmachilik va muhandislik grafikasi mashg'ulotlarida talabalarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish imkoniyatlari oshirish. *Физико-технологического образование*, (4).
5. Ozodboyev, I. O. (2022). Drawing assembly drawings using autocad computer graphics software. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1085-1091.
6. ugli Kukiev, B. B. Bo 'lajak tasviriy san'at va chizmachilik o 'qituvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish.
7. Achilov, N. N. (2022). Basic didactic principles in the process of teaching the science of drawing. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1305-1311.
8. Zokirovna, H. D. (2019). Pedagogical-psychological features of the manifestation of creative abilities in preschoolers. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
9. ugli Hayitov, J. M. (2022). teaching drawing sciences using computer graphics programs. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1261-1270.
10. Ataxanova, S. O. (2021). Chizma geometriya va chizmachilik fanini o 'qitishda zamonaviy yondashuvlar. *XALQ TA'LIMI*, 1(5), 80-83.
11. ugli Jumayev, I. O. (2022). Using the most convenient method of finding equal sided polygons (By Dividing the Diameter into Equal Sections). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1271-1279.
12. Shuxrat o'gli, A. A. (2022). Manzara janrining tasviriy san'atdagi o 'rni. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 2(13), 53-54.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada muhandislik va arxitektura-qurilish chizmachiligida egri chiziqlar va sirtlarni oldindan berilgan muhandislik-geometrik shartlariga asosan konstruksiyalash ko'plab grafik amallarni bajarishni, ya'ni ko'p vaqt sarflashni talab qilishi, hozirgi zamon kompyuterlari va ularning dasturlar ta'minoti esa grafik axborotlarni bemaol konstruksiyalash imkoniyatlarini berishi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье построение кривых и поверхностей в инженерном и архитектурно-строительном черчении на основе ранее заданных инженерно-геометрических условий требует выполнения многих графических операций, то есть затрат большого количества времени, а современные компьютеры и их программное обеспечение поддерживают графическую информацию, что это дает легкие возможности конструирования.

SUMMARY

In this article, the construction of curves and surfaces in engineering and architectural-construction drawing based on the previously given engineering-geometric conditions requires performing many graphic operations, that is, spending a lot of time, and modern computers and their software support graphic information. It is explained that it gives easy construction possibilities.



TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY INFORMATSION VA KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sattarova D. H.

JDPU magistranti

Jizzax Politexnika Instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: texnologiya, innovatsion texnologiyalar, axborot, axborot texnologiyalari, internet, vosita, kompyuter.

Ключевые слова: технология, инновационные технологии, информация, информационные технологии, интернет, инструмент, компьютер.

Key words: technology, innovative technologies, information, information technology, internet, tool, computer.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-mayda qabul qilingan «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorda kadrlar tayyorlash sohasini takomillashtirish, mamlakatimiz salohiyatini oshirishning demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyati qurishning muhim shartlaridan biri sifatida belgilandi. XXI asrning har bir ma'rifatli, ziyoli kishisi albatta, axborot texnologiyalarini yaxshi egallagan bo'lishi shart. Binobarin, aksariyat hollarda, inson faoliyati uning axborotga ega bo'lganlik darajasi, ushbu axborotlardan samarali foydalana olish qobiliyatlariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ixtiyoriy soha bo'yicha zamonaviy mutaxassis vaqt sayin oshib borayotgan axborot oqimida bemalol yo'l topa olishi uchun, u kompyuterlar, telekommunikatsiya va boshqa aloqa vositalari yordamida tegishli axborotni ola bilishi, qayta ishlay hamda ulardan foydalana olishi kerak. Axborot texnologiyalari hozirgi kunda insonlar ish faoliyatining samaradorligi va ish unumini oshiruvchi vosita sifatida qaralmoqda.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish:

- shaxsning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishiga;
- jamiyatning har bir a'zosini o'z malakasini oshirish va faoliyat sohasini o'zgartira olishiga;
- tezkor ta'lim uchun shart-sharoit yaratish va masofaviy ta'lim samarasini oshirishga imkon beradi.



Informatsion texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha jamiyatimizning tez sur'atlar bilan o'sib boruvchi ehtiyojlari oliy ta'lim muassasalarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda elektron qo'llanmalar, virtual stendlar, Internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalangan holda masofaviy o'qitish, shuningdek, masofaviy ta'limni joriy etish bilan bog'liq izchil nazariy hamda amaliy tadbirlar bajarilishini taqozo etadi. Informatsion texnologiyalariga asoslangan holda masofaviy ta'lim bo'yicha mavjud ilmiy nashrlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida bunday ta'lim usulidan foydalanish masalasiga asosan, jahon miqyosida yangi pedagogik texnologiyalarga o'tish bilan bog'liq muammo sifatida e'tibor qaratilgan va bu borada sezilarli natijalarga erishilgan.

Masofaviy ta'lim (MT) - bu turli geografik mintaqalarda joylashgan o'qituvchi va talabani bir-biri bilan bog'lovchi jarayon bo'lib, o'zaro aloqalar maxsus texnologiyalar yordamida amalga oshirilib, unda pochta, telefaks orqali tipografik bosma materiallar almashish, audiokonferensiya, videokonferensiya, kompyuter orqali virtual konferensiya kabi turlicha usullar qo'llaniladi. Ta'lim muassasasidan uzoqda yashovchilar, qatnab o'qish uchun sharoiti bo'lmaganlar, malakasini oshirishni xohlovchilar, nogironlar va yana boshqa turli sabablarga ko'ra, bevosita oliy ta'lim muassasalarida bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar o'rtasida masofadan turib, bilim va ta'lim olishga talab ortib borishi tabiiy. Ayniqsa, ish bilan band bo'lgan katta yoshdagi kishilar, ikkinchi mutaxassislik bo'yicha ta'lim olishni xohlovchilar uchun masofaviy ta'lim juda qulay vositadir. O'zbekistonda masofaviy ta'lim tizimining rivojlanishi, xalqimizga faqat sifatli ta'lim berishnigina ta'minlab qolmasdan, u yana mamlakatimizning ta'lim xizmatlari xalqaro bozorida o'z o'rnini egallashiga ham imkon yaratadi. Axborot olamida o'zining muhim o'rniga ega bo'lib borayotgan iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichi inson hayotida tanlagan kasblarini qayta o'zgartirishlari va muntazam ravishda, malakalarini oshirib borishlarini talab etmoqda. Shu bois, ta'lim sohasi ham jamiyat hayotining iqtisodiy sohasida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim faoliyati esa, jamiyat iqtisodiy rivojlanishining muhim bo'lagi bo'lib qolmoqda. Bu narsa ta'limni rivojlanishiga unga yangilik kiritishiga undaydi. Shu o'rinda yurtboshimizni fikrlari yuqoridagi jummalarni tasdiqlaydi. "Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi. Kasb mahorati uzluksiz takomillashadi. Katta yosh avlodga o'tadi", degan so'zlarida katta ma'no yotadi [20, 5-6]. Demak, maqsadni amalga oshirish uchun ta'limning yangi modelini yaratishni taqozo etadi. Modelni amaliyotga



tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bo'g'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "O'quv tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalari bilan ta'minlash". Uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlanganidek, "Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, qisqacha aytganda bu model hayotda o'z fikriga o'zining qarashlari va maqsadiga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi"[1, 25]. Noan'anaviy ta'lim-o'quvchilarni kasbga qiziqtiruvchi bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi. Tajribalarda ta'kidlanganidek, agar mashg'ulot odatdagi tinglab o'tirishga asoslangan usulda o'tkazilganda talabalar axborotning ko'pi bilan 20 % ni o'zlashtirgan bo'lsa, ilg'or pedagogik usullardan foydalanilganda esa, bu ko'rsatkich 80-90% gacha oshganligi tasdiqlangan. Noan'anaviy ta'limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo'ladi va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo'lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang'ich ko'nikmalar shakllantirilib o'quv-tarbiyaviy jarayonini amaliyot bilan bevosita bog'lab olib borishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham, u rivojlantiruvchi o'qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab xalqimizning tub manfaatlaridan kelib chiqib, demokratik taraqqiyot yo'lini izchillik bilan amalga oshirishda strategik vazifani belgilab oldi. Yosh mustaqil davlatlarning havfsiz va barqaror taraqqiy etishi yo'lida jahon miqyosida paydo bo'lgan yangi salbiy ta'sirlarga qarshi ichki immunitetni shakllantirish va mustahkamlash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday vaziyatda, - deb yozadi I.A. Karimov, - odam o'z mustaqil fikriga, insonlar sinovidan o'tgan hayotiy, milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh, pinhoniy ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol". Globallashuv kuchayishi bilan birga hozirgi davrning yana bir muhim xususiyatlaridan biri-axborot jamiyatning shakllanishidir. Bu jamiyatda axborot asosiy qadriyatga aylangan. Axborot asrining muhim ko'rsatkichlaridan biri — davlat va jamiyatning barcha bo'g'inlari uchun axborot bilan almashish birinchi hayotiy zaruratga aylanishi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, nemis olimlarining "Muhim axborotga ega bo'lish hokimiyatga ega bo'lish, muhim axborotni nomuhimidan ajrata bilish, hokimiyatga ega bo'lish, muhim



axborotni o'ziga ma'qul bo'lgan ruhda tarqata olish imkoniyatiga ega bo'lish yoki u haqida ko'pchilikka hech narsa ma'lum bo'lmasligiga erishish ikki karra hokimiyatga ega bo'lishni anglatadi", - degan fikrlari diqqatga sazavor. Axborot jamiyatining shakllanishida to'rtta ijtimoiy soha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hamda telekommunikatsiya va ta'lim tizimlarining ahamiyati oshgan. Aynan shu sohalar jamiyatning rivojlanishini belgilab beradi. Hozirgi davrning asosiy talabi - mustahkam va chuqur bilimlarga, mustaqillikga, kuchli irodaga, g'oyaviy immunitetga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash. Ta'lim tizimiga yangi pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini olib kirish bugungi kunning muhim masalalari sirasiga kiradi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali bir qancha qulayliklar yaratiladi. Shu narsani e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, ayni paytda, axborot olish ko'lamini har qachongidan ham kengroq bo'lib, yetarli darajada ko'payib bormoqda. Demak, yurtimizda fantexnika rivojlangani sayin, axborot olish imkoniyati ham oshib boradi. O'quvchilarga talab doirasida ma'lumotlarni yetkazib berishda, fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanish zarur. O'sib, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tayyorlashda, yangi axborot texnologiyalaridan o'z vaqtida va unumli foydalanishning istiqbolli tomonlari ko'zga tashlanmoqda. Sir emaski, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan. Ammo, ta'lim jarayonida ba'zi holatlar ham ko'zga tashlanadiki, masalan, an'anaviy dars tizimidan voz kechmaslik, pedagogik texnologiyalardan foydalanmaslik, darslarni ijodkorlik bilan uyushtirmaslik kabi. Oqibatda, o'quvchilar darsning subyektiga emas, balki, sust obyektiga aylanib qolmoqda. Tajribalar shuni tasdiqlamoqdaki, an'anaviy dars tizimidan voz kechmaslik oqibatida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, dunyoqarashning boyib borishi, mavzularni to'liq idrok etish imkoniyati cheklanib qolmoqda. Ta'limning barcha bo'g'inlarida olib borilayotgan tub islohotlar, asosan, yuqori malakali, zamon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga bo'lgan talabni, ehtiyojni qondirishga qaratilgan. Bugungi kunda umumta'lim maktab o'qituvchilari o'z faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan bemalol, o'zgalar yordamisiz foydalana olishlari lozim. Jumladan, umumta'lim maktab o'qituvchilari ham pedagogik texnologiyalardan o'z faoliyatlarida malakali mutaxassis sifatida foydalana olishlari uchun ma'lum bir ma'noda, shu yo'nalish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, umumta'lim maktab o'qituvchilarida zamonaviy, pedagogik texnologiya yordamida milliy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish ahamiyat



kasb etadi. Chunki, zamonaviy pedagogik texnologiyadan yangi axborot texnologiyalari bir qancha afzalliklarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Bular xususan:

- o'quvchillarni faollashtiradi;
- ijodiy yondashtiradi;
- vaqtni tejaydi;
- sezishni orttiradi;
- mustaqil fikrlashga undaydi;
- idrok qilish ko'lamini oshirib, kengaytirib boradi.

Kompyuter imitatsion modellari ma'lumotlarni ongli ravishda bir-biriga to'g'ri keladigan (uyg'un) holda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu esa zamonaviy kompyuterlardan foydalangan holda bilimni har xil shakllarda taqdim etish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. –Toshkent: 2002. -148 b.
2. Abrahamsen, E., & Mitchell, J. Communication and sensorimotor functioning in children with autism// Journal of Autism and Developmental Disorders, 1990. - pp. 75–85.
3. Alessi, S.M. & Trollip, S.P. Multimedia for learning: Methods and development. Boston, MA: Allyn and Bacon. 2001. – 128p.
4. Baer, D. M., Peterson, R. F., & Sherman, J. A. The development of imitation by reinforcing behavioral similarity to a model//Journal of the Experimental Analysis of Behavior, 1967. –pp.101–105.
5. Borgman, C.L., Gilliland-Swetland, A.J., Lazer, G., Mayer, R., Gwynn, D., Gazan, R. Evaluating digital libraries for teaching and learning in undergraduate education: 2000. – 98p.
6. Eyler, J. Reaction: Linking Service and Learning-Linking Students and Communities// Journal of Social Issues 58, 2002. – pp. 517-524.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада таълим жараёнида замонавий коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг йўллари батафсил ёритиб берилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подробно описаны способы использования современных коммуникативных технологий в образовательном процессе.

SUMMARY

This article describes in detail the ways of using modern communication technologies in the educational process.



АКАДЕМИК ЛИЦЕЙ ТАЛАБАЛАРИГА ФИЗИКАДАН МАСАЛАЛАР ЕЧИШНИ ЎҚИТИШДА ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Умиров Ҳ. Б.

QarMII akademik litsey fizika fani o'qituvchisi

Таянч сўзлар: инновацион фаолият, табақалаштириш, интерфаол методлар, дастурий воситалар, идеал ва реал газлар, модули таълим, таълимнинг узлуксизлиги, таълим олувчилар, мультимедиа, ижодий ёндашиш, танкидий фикрлаш.

Ключевые слова: инновационная деятельность, дифференция, программные средства, интерактивных методов, идеальные и реальные газы, модульное обучение, непрерывность обучения, учащихся, мультимедиа, творческий подход, критическое мышление.

Key words: innovative activity, differentiation, software, interactive methods, ideal and real gases, modular training, continuous learning, students, multimedia, creativity, critical thinking.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги, 2018 йил 19 февралдаги ПФ-5349-сонли “Ахборот технологиялари ва коммуникациялари “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга ошириладиган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги”, 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сонли “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорлари ҳамда мазкур фаолиятга оид бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу мақола муайян даражада хизмат қилади[1].

Олий таълим муассасаларида таълимнинг шакл ва мазмунидан келиб чиқиб, янгидан янги методларни жорий этишни кенг қўламда амалга ошириш зарурати яққол намоён бўлиб бормоқда. Шунинг учун ўқитувчининг ташаббускор, янгилikka интилувчан, замонавий ахборот-коммуникация технологияларни таълим жараёнига тадбиқ эта олиши таълимда сифат ва самарадорликка эришишдаги асосий омил ҳисобланади.

Ўқитувчининг инновацион фаолияти қуйидагиларни талаб этади:

- ✓ ўқув тарбия фаолиятини табақалаштириш;
- ✓ талабалар қизиқишини ошириш учун керакли шароит яратиб бериш;
- ✓ таълим-тарбия фаолиятининг қулайлигини таъминлаш;
- ✓ талаба шахсининг ақлий қobiliятлари ва имкониятларига ишониш;
- ✓ таълим-тарбия муваффақиятини таъминлаш [3], [4].

Юқоридаги фикрларни инобатга олиб, физика фанидан таълим жараёнида дастурий воситаларни қўллашни келтириб ўтаемиз.

Реал газ молекулалари абсолют қаттиқ шарчалар сифатида қаралади ва улар ўртасида ишқаланиш ва ўзаро таъсир кучлари мавжуд бўлади. Реал газ ҳолатини ифодаловчи тенгламани келтириб чиқариш учун Ван-дер-Ваалс, идеал газнинг ҳолат

тенгламаси бўлиб ҳисобланган Клапейрон – Менделеев тенгламаси $PV = \nu RT$ га молекулаларнинг ўлчамини ва ўзаро таъсир кучларини ҳисобга олувчи тузатмаларни киритди.

Реал газнинг ҳар бир молекуласи идиш ичида $V' = \frac{1}{6} \pi d^3$ ҳажмини эгаллаб ҳаракатланади. Реал газ молекулаларининг идеал газ молекулаларига ўхшаб эркин ҳаракатлана олмаслигини ҳисобга олиб, Менделеев-Клапейрон тенгламаси $pV_\mu = RT$ га V_μ ўрнига $V_\mu = V'_\mu + b$ тузатма киритамиз. Бу ерда b – эркин ҳажмини ҳисобга олувчи Ван-дер-Ваалс тузатмаси бўлиб ҳисобланади. У 1 мол газда хусусий ҳажми бўлиб ҳисобланади ва қуйидагига тенг бўлади:

$$b = 4N_A V' \quad (0.1)$$

Бу ерда N_A – Авогадро доимийси, V' – битта молекуланинг ҳажми. Бунда молекулалар ўртасида жуда қисқа ўзаро таъсир кучлари юзага келади, шунинг учун ҳам молекула ўзидан $r = 10^{-9}$ м масофадан узоқ бўлмаган зарралар билан тўқнашади. Шу масофани молекулаларнинг таъсир чегараси деб юритилади [5].

Идиш сиртидан ичкарирокдаги қатламларда ҳаракат қилаётган молекулалар ўрталаридаги ўзаро таъсир кучлари мувозанатлашиб туради, газнинг чегара қатламларидаги, яъни идиш сиртига яқин соҳаларда молекулалар ўртасидаги таъсир кучлар мувозанатда бўлмайди ва уларнинг ҳаракат йўналиши идиш ичига томон йўналган бўлади.

$$p_{id} = p + p^* \quad (0.2)$$

Бу ерда p^* – ўзаро таъсир кучларига асосланган Ван-дер-Ваалс тузатмаси бўлиб, у ички босим деб аталади. Ички босим газ ҳажмининг квадратига тескари пропорционал бўлади.

$$p^* = a / V_\mu^2 \quad (0.3)$$

Бунда a – Ван-дер-Ваалс коэффициенти. Шундай қилиб, 1 киломол газ учун Ван-дер-Ваалс тенгламасини қуйидаги кўринишда ёзамиз:


$$\left(p + \frac{a}{V_\mu^2}\right)(V_\mu - b) = RT \quad (0.4)$$

Ихтиёрий m массали газ учун Ван-дер-Ваалс тенгламаси ν – модда миқдорини ҳисобга олганда қуйидаги кўринишни олади:

$$\left(p + \frac{m^2}{\mu^2 V_\mu^2}\right) \left(V_\mu - \frac{m}{\mu} b\right) = \frac{m}{\mu} RT \quad (0.5)$$

Агар идеал газда молекулалар ўртасида ишқаланиш кучларининг ҳисобга олинмаслигини назарда тутсак, яъни $V_\mu \gg b$ ва $p^* \ll p$ эканлигини эътиборга олсак Ван-дер-Ваалс тенгламаси Менделеев-Клапейрон тенгламасига айланиб қолади. Шуларни инобатга олиб, дастурий воситалардан фойдаланиб икки хил услубда графикларни ҳосил қиламиз [6],[7].

1–ўслуб: Ван-дер-Ваалс тенгламасидан босим ва ҳажмнинг ўзаро боғланиш графигини ҳосил қилишда MathCAD математик дастурий пакетининг ишчи ойнасига катталиклар $(a1, a2, b1, b2, T, R)$ киритилгандан сўнг қуйидагича (1–расм) график ҳосил бўлади:



1-расм. MathCAD математик дастурий пакетда график тасвир

2-услуб: Borland C++ дастурлаш тилида тақсимот функция графигини куйидагича ҳосил киламиз [7]:

1. Borland C++ builder дастурлаш тилини ишга туширамыз;
2. Формага компоненталар палитрасидан куйидаги компоненталарни жойлаштирамыз:

3. System таркибидан PaintBox компонентасини формага жойлаштирамыз;
4. Standart таркибидан Button компонентасини формага жойлаштирамыз;
5. Button тугмачасини ОК ном билан белгилаймиз.

ОК (Button) тугмачасига сичқончанинг чап тугмачасини кетма-кет икки марта босамиз ва куйидаги дастур кодларини киритамиз:

```
#include <vcl.h>
#include <math.h>
#pragma hdrstop


#pragma resource "*.dfm"
TForm1 *Form1;
//_____
__fastcall
TForm1::TForm1(TComponent* Owner)
: TForm(Owner)
{
}
//_____
void __fastcall
TForm1::Button1Click(TObject *Sender)
{
double g=10,t,v0,pi=3.1415926;
double x,x1,f,h,x2,x0,y0,fx,fy;
Canvas->MoveTo(450,200);
Canvas->LineTo(440,205);
Canvas->MoveTo(450,200);
Canvas->LineTo(440,195);
Canvas->MoveTo(10,0);
#include "Unit1.h"
//_____
#pragma package(smart_init)
```



```
Canvas->LineTo(5,15);
Canvas->MoveTo(10,0);
Canvas->LineTo(15,15);
Canvas->MoveTo(10,200);
Canvas->LineTo(10,0);
Canvas->MoveTo(450,200);
Canvas->LineTo(10,200);
Canvas->TextOutA(20,5,"F(v)");
Canvas->TextOutA(450,210,"v");
//f=StrToInt(Edit1->Text);
//v0=StrToInt(Edit2->Text);
//x=v0*v0*sin(2*pi*f/180)/(2*g);
//t=x/(v0*cos(pi*f/180));
//h=v0*sin(pi*f/180)*t-g*t*t/2;
//Label1->Caption="H="
"+FloatToStr(h)+"m; t="+FloatToStr(t)+"s;
Sx= "+FloatToStr(x)+"m";
x0=0;y0=195;
x1=1;x2=400;
x=x1;
while (x<x2)
{
fx=x0+5*x;
fy=y0-abs((2500/x)-(13600/(x*x)));
PaintBox1->Canvas-
>Pixels[fx][fy]=clBlue;
fy=y0-abs((2500/x)-(25600/(x*x)));
PaintBox1->Canvas-
>Pixels[fx][fy]=clRed;
x=x+0.0005;
}
}
```

Компиляция жараёни амалга оширилгач куйидагича график тасвир келиб чиқади

[7]:



2-расм. Borland C++ дастурлаш тилида график тасвир



Функционал компонентларини рўёбга чиқариш босқичма-босқич амалга оширилади. Биринчи босқичда ахборот таҳлил қилинади ва қайта ишланади. Иккинчи босқичда муаммони шакллантириш, мақсадни аниқлаш, мақсадга эришиш шароитларини аниқлаш ва муаммони мумкин бўлган ечимларидан келиб чиқадиган оқибатларни баҳолаш, вазифаларни ҳал этиш тартиби ва методларини ишлаб чиқиш натижаларини баҳолаш юзасидан қарор қабул қилинади.

Таълимда дастурий воситалардан фойдаланишнинг энг асосий жиҳатлари деб қуйидагиларни белгилаш мумкин [2]:

-Тадқиқот методологияси (Research methodology). Физика фанидан амалий машғулотлар жараёнида талабаларга C++ дастурлаш тилида ҳодиса ва жараёнларни визуаллаштиришни ўргатиш методикасини кўрсатиб ўтамиз. Амалий машғулотларда талабаларни ҳодиса ва жараёнларни дастурлаш тиллари ёрдамида визуаллаштиришга ўргатишда ФСМУ методидан фойдаланиш самарали натижалар беради. Бунда талабалар:

- компьютер технологиялари дастурлари модулли таълим асослари негизда қурилади. Таълим олувчилар, яъни талабалар томонидан алоҳида- алоҳида ўзлаштирилган ҳар бир ўқув фани доирасида амалга оширилади;

- талабалар ўқув жараёнидан сўнг, ўзига қулай вақтда, иш жараёнидан узилмаган ҳолда фойдаланиш мумкин. Таълимнинг узлуксизлиги таъминланади;

- талабалар таълим муассасасидан қанчалик узоқда жойлашишидан қатъий назар, ўқув жараёнини ташкил қилинишига, тескари алоқа ўрнатилиш имкони бўлади;

- таълим олувчилар, яъни талабаларнинг сони жиддий кийинчиликларни келтириб чиқармаслиги учун “оммавий жалб” этилади;

- компьютер технологияларининг барча янги дастурларидан, компьютер тармоқларидан, мультимедиа тизими кабилардан оқилона фойдаланилади.

-Таҳлил ва натижалар (Analysis and results) Таълим жараёнида қўлланилиши мумкин бўлган педагогик дастурий воситалар, математик дастурий пакетлар ва дастурлаш тилларининг турлари бугунги кунда етарлича кўп, шунга қарамай улардан фойдаланиш имконияти ҳам чегараланмаган. Математик ва табиий-илмий фанларнинг ҳар бир бўлимига ижодий ёндашган ҳолда методик нуқтаи-назар билан замонавий дастурий воситаларнинг имкониятларидан фойдаланиб илмий-амалий, ижодий ишларда узлуксиз равишда фойдаланиш замонавий таълим методикаси ва замонавий дастурлаш тилларининг бир хилда ривожланишини таъминлайди [8], [9; 58-64-6].

Таълимда дастурий воситалардан фойдаланиш ўқув-тарбия жараёни фаолиятидаги ҳаракатлар мажмуасини талабалар хотирасида узоқ вақт сақланишини таъминлаб, табақалаштирилган таълимга ўтиш учун замин яратишдир. Бунда мустақил таълим маданияти ривожланади, ўқитувчининг кўرғазмали қурол тайёрлаш учун сарфланадиган вақти ва маблағи тежалади, ўқитувчиларнинг компьютер саводхонлиги ортади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. Б.39.

2. Абдуқодиров А.А., Турсунов С.Қ. Таълимда ахборот технологиялари. Дарслик. Т.: “Адабиёт учкунлари”, 2019 й

3. Байденов В.И. «Болонский процесс: результаты обучения и компетентностный подход. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2009. – С. 482-492.

4. Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. -М.: «Народное образование», 2007. -№ 2. - С.54-55

5. Турсунов Қ.Ш., Тошпўлатов Ч.Х. Физика таълими технологияси. Методик қўлланма. — Қарши, Насаф, 2012.



6. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol11/iss10/55>

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада таълим жараёнига инновацион технологиялар сифатида дастурий воситалардан фойдаланишнинг таълим ва тарбия жараёнидаги муваффақиятини таъминлаш самарадорлиги физика фанининг “Молекуляр физика ва термодинамика асослари” бўлими мисоли ёрдамида ёритиб берилган. Бундан ташқари таълим жараёнида MathCAD математик дастурий пакетидан ва Borland C++ builder6 визуал дастурлаш тилидан фойдаланиш методикаси келтириб ўтилган.

РЕЗЮМЕ

Данная статья иллюстрирует эффективность использования программного обеспечения как инновационной технологии в учебном процессе для обеспечения успешности обучения на примере основы “Молекулярной физики и термодинамики”. Кроме того, в учебном процессе упоминается методика использования математического программного комплекса MathCAD и визуального языка программирования Borland C++ builder6.

SUMMARY

This article illustrates the effectiveness of using software as an innovative technology in the educational process to ensure the success of training on the example of the basics of «Molecular physics and thermodynamics». In addition, the educational process mentions the method of using the Mathcad mathematical software complex and the Borland C++ builder6 visual programming language.





ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА КОЛЛЕЖ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ЖАРАЁНИНИ ТЕХНОЛОГИЯЛАШТИРИШ

Сатторов А. Б.

Шаҳрисабз Мираки коллежи директори

Tayanch soʻzlar: kommunikatsiya, oʻquv jarayoni, bilim, koʻnikma, telekommunikatsiya.

Ключевые слова: общение, учебный процесс, знания, навыки, телекоммуникации.

Key words: communication, educational process, knowledge, skills, telecommunications.

Мамлакатимизда ўқувчиларнинг тадқиқот ишлари ҳамкорликда ўқиш методининг бир туридир. Ушбу вариантда асосий эътибор мустақил фаолиятга қаратилган. Ўқувчилар яқка тартибда ёки 6 нафаргача бўлган гуруҳларда ишлайди. Улар бутун жамоа томонидан ўрганиш учун мўлжалланган умумий мавзунинг кичик мавзусини танлайдилар, кейин кичик гуруҳларда бу кичик мавзу индивидуал топшириқларга бўлинади. Демак, ҳар бир ўқувчи умумий вазифага ўз ҳиссасини қўшиши керак. Ҳар бир ўқувчи томонидан бажарилган топшириқлар асосида биргаликда битта ҳисобот тузилади, у дарсда бутун синф олдида тақдим этилиши керак. Ҳисобот ҳам, тақдимот ҳам тегишли компьютер дастурлари ёрдамида тузилади. Лойиҳа ва тақдимот муҳокама қилинади ва баҳоланади [1].

Илмий ишни қайта ишлаш. Ушбу блок ўқувчиларга матн муҳарририда қоғозни лойиҳалашнинг асосий тамойилларини ўргатишни ўз ичига олади. Сарлавҳа саҳифасининг лойиҳаси, матн тузилишига риоя қилиш, изоҳ ва сўнгги изоҳлардан фойдаланиш, мундарижа ва фойдаланилган адабиётлар рўйхатини тузиш каби масалаларга эътибор қаратилади. Рўйхатга олиш учун материал сифатида бошқа фанлар бўйича топшириқлар - иншолар, ҳисоботлар, шунинг курс ишларидан фойдаланиш керак. Ўқувчи матннинг конспектини тузишни, унинг асосий тезисларини ажратиб кўрсатишни ҳам ўрганади.

Маълумотларни тақдим этиш методлари ва шакллари. Ушбу блокни ўрганиш жараёнида ўқувчи маълумотни ҳар хил шаклларда тақдим этиш мумкинлиги ҳақида тасаввурга эга бўлади, уларнинг ҳар бири турли мақсадлар учун афзалроқдир. Жадвал ва графикларни тузиш, маълумотларни



бир шаклдан иккинчи шаклга ўтказиш, ҳар бир ҳолат учун энг қулай дастурий воситани танлаш кўникмалари шаклланади.

Тадқиқот маълумотларини компьютерда қайта ишлаш. Ушбу блокда ўқувчи маълумотни қайта ишлашнинг асосий усулларини ўрганади: маълумотларни саралаш, кидириш, танлаш, шунингдек, статистик методлар ҳақида тушунчага эга бўлади.

Катта ҳажмдаги ахборотлар билан ишлаш тамойиллари. Ушбу бандга бўлган эҳтиёж электрон шаклда мавжуд бўлган маълумотлар ҳажмининг сезиларли даражада ошиши билан боғлиқ. Бу ерда иккита асосий элемент мавжуд: биринчидан, маълумотлар базалари билан ишлаш ва маълумотлар базаларида маълумотларни кидириш, иккинчидан, глобал Интернет билан ишлаш ва ундаги маълумотларни кидириш. Ўқувчи нафақат маълумотни излаш кўникмаларини, балки кейинги кидирувни соддалаштириш учун уни ташкил қилиш кўникмаларини ҳам эгаллайди.

Ўқувчилар томонидан олинган барча билим ва кўникмалар улар томонидан маърузалар, рефератлар, курс ишларини ва тезислар ёзиш, илмий маърузаларни тайёрлаш ва ҳоказолар жараёнида аниқ материалларда қўлланилиши керак.

«Мониторинг қилиш» - тадқиқот муаммоларини ҳал қилиш жараёнини бошқариш учун зарур бўлган тадбирларнинг мазмуни ва ташкил этилиши (мини-курслар, конференциялар, илмий ишлар ва ижодий лойиҳаларни ҳимоя қилиш ва бошқалар). Ўқувчиларнинг ўқув ва илмий-тадқиқот ишлари, албатта, тадқиқотнинг оммавий тақдимоти ва тенгдошлари ўртасида жамоавий муҳокама билан яқунланиши керак. Бунинг учун ўқувчи ўз тадқиқоти натижаларини тақдим этиш амалиётини ўзлаштириши, ўз мулоҳазаларини баҳслаша олиш кўникмаларини эгаллаши керак.

Ўқитувчи учун ўқув ва илмий-тадқиқот фаолиятининг асосий натижаси ўқувчининг мустақил, ижодий, илмий-тадқиқот ишлари тажрибаси, ҳақиқий ижодкорни оддий ижрочидан ажратиб турадиган рухий, янги билим ва кўникмалардир [2].

Илмий-тадқиқот фаолиятини ташкил этишга дифференциал ёндашув анъанавий ўқитишга қараганда ҳар бир ўқувчига хос хусусиятларни кўпроқ ҳисобга олиш ва уларни ўқувчилар билан ишлаш жараёнида ривожлантириш имконини беради [3].

Илмий тадқиқот натижаларини умумлаштириш ўқувчиларнинг тадқиқот фаолияти қуйидагиларга мос келиши керак деган хулосага келишга имкон беради:

- илмий тадқиқот нормалари;



- ўқувчиларнинг ривожланишига эътибор бериш;
- тадқиқот ёндашувини ривожлантиришга эътибор қаратиш.

Тадқиқот ёндашувининг пайдо бўлиши ва ривожланишига ёрдам берадиган педагогик шартлар орасида қуйидагилар ажралиб туради:

а) коллеждаги ўқув фаолиятини мазмуни, ташкил этиш шакллари ва усуллари билан боғлиқ шартлар:

- бўлажак мутахассисларга компьютер технологиялари асосида ўқув тадқиқотларини режалаштириш ва ўтказиш кўникмаларини ўргатиш;
- коллеж ўқувчиларининг ўқув ва илмий-тадқиқот фаолиятини мониторинг қилиш;

б) коллеж ўқитувчилари фаолияти билан боғлиқ шартлар:

- коллеж ўқувчиларининг илмий билимлар методологиясига асосланган илмий-тадқиқот ишларига педагогик ёрдам кўрсатиш;
- информатика дарсларида коллеж ўқувчиларида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш жараёнини технологиялаштириш;

в) коллеж ўқувчиларининг шахсий хусусиятлари билан боғлиқ шартлар:

- ўрта бўғин мутахассисининг тадқиқотчилик кўникмаларини эгаллаш зарурлигига ички ишончи.

Тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантиришга йўналтирилган фаол методларнинг моҳияти ўқувчиларнинг тадқиқот фаолияти методларини ўзлаштирган ҳал қилиш жараёнида вазифаларни бажаришларини таъминлашдан иборат.

Ўқитиш методи учта хусусият билан тавсифланади: ўрганиш мақсади, ўзлаштириш методи ва ўқув субъектларининг ўзаро таъсири. Метод кўп ўлчовли ҳодиса ва таълим жараёнининг ўзаги сифатида ишлайди [4].

Ўқитиш методларини турли асосларга кўра таснифлаш мумкин. И.Я.Лернер томонидан таклиф қилинган таснифда репродуктив ва продуктив ўқитиш методлари ажратилади. Умумий ҳолда ўқитиш методлари билим манбасига кўра таснифланади. Ушбу ёндашувга мувофиқ оғзаки, визуал ва амалий методлар фарқланади [5].

Биз С.Л.Смирнова томонидан таклиф қилинган таснифга эътибор қаратамиз ва нафақат таълим, балки тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш учун ўқитишда қўлланиладиган методларни кўриб чиқамиз.

1. Ўқув ва билиш фаолиятни ташкил этиш методлари:

а) янги билим олиш методлари: суҳбат, китоб билан ишлаш, кузатишни ташкил этиш, иллюстрация, демонстрация.



Сухбат методи қуйидаги бир қатор афзалликларга эга: у ўқувчиларнинг фаоллигини фаоллаштиради, хотира ва нутқини ривожлантиради, ўқувчилар билимини назорат қилишга ёрдам беради, ўқитувчининг ўқувчига шахсий таъсирининг дирижёри бўла олади.

Китоб билан ишлашда ўқувчиларнинг асосий масалаларни мустақил равишда ажратиб кўрсатиш, ўқиганларининг режасини савол ва тезислар шаклида тузиш, энг муҳим қоидаларни баҳслаш, кўчирма қилиш, матндан фойдаланиш қобилиятини ривожлантиришга жиддий эътибор бериш керак;

б) ўқув кўникмаларини ривожлантириш ва ўқув фаолиятида тажриба орттириш методлари ҳақиқий ўқув фаолиятини амалга оширишга асосланади ва амалий кўникмаларни шакллантиришга қаратилган. Буларга ўқув фаолиятини ташкил этишнинг машқлар, лаборатория ва амалий ишлар каби методлари киради.

Машқни ташкил этиш жараёнини 4 босқичга бўлиш мумкин: 1) ўқитувчи ўқувчиларга бўлажак фаолият мақсади ва вазифаларини тушунтиради; 2) ўқитувчи муайян вазифани қандай бажариш кераклигини кўрсатади; 3) ўқувчилар томонидан ўқув фаолиятини дастлабки такрорлаш амалга оширилади; 4) амалий кўникмаларни эгаллашга қаратилган ўқув фаолияти кўп марта такрорланади[6].

Информатика дарсларида АЎВ ва ЎТВ фаол қўлланилади.

Ахборотни ўқитиш воситалари (АЎВ) - бу ўқув жараёнида кўплаб ўқитиш функцияларини бажарадиган компьютерлар ёрдамида ўқув маълумотларини сақлаш, қайта ишлаш ва узатишнинг электрон воситалари: улар ўқув маълумотлари манбаи бўлиб хизмат қилади, ўқитувчи томонидан ишлаб чиқилган дастурга мувофиқ ўқувчиларнинг билиш фаолиятини бошқаради, таълим натижаларини назорат қилиш, индивидуал ёрдам кўрсатиш, қизиқувчилар учун қўшимча адабиётлар кўрсатмаларини ўз ичига олади, шунингдек, ижодий қобилиятларни, билишга қизиқишни ва ўрғаниш учун ижобий мотивларни ривожлантиради[7].

Замонавий электрон технология ўқув ахборот воситаларининг қуйидаги турларини тақдим этади: шахсий компьютер; электрон доска; электрон дарслик; электрон почта, чат, онлайн алоқа тизими; ўқув компьютер ўйинлари; электрон журналлар: (илмий, илмий-оммабоп, услубий); овоз ва мултимедиа ёрдами билан видеоконференция; файл архивлари; Интернетда навигация; Интернет таълим хизматлари.



АЎВ нинг кучли томонлари - ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш, маълумотни идрок этиш учун энг қулай вақтда ўқиш, кўникмаларни ривожлантириш.

Ўқитишнинг техник воситалари (ЎТВ) - шахсий компьютерлар асосидаги симуляторлар, анимациялар ва комплекслар ўқувчиларга фаол ишлаш имконини беради, материални ўзлаштиришнинг индивидуал тезлигини ўрнатади.

Ўқитишда компьютернинг имкониятлари жуда катта. Таълим воситаси сифатида улар бир нечта функцияларда қўлланилиши мумкин: фаолиятнинг муайян методларини, айниқса амалий методларни ўргатиш; ўқитишни индивидуаллаштириш учун; назорат қилиш ва ўзини ўзи бошқариш учун; шароитга қараб вазиятнинг ўзгаришини симуляция қилиш имконини берувчи восита сифатида; аниқлик, сифат жиҳатидан янги даражадаги дидактик ўйинларни ташкил этиш учун; зарур ахборот муҳитини ташкил этиш учун.

Касб-хунар таълимида ўз-ўзини тарбиялашга катта эътибор берилади. Ўз-ўзини тарбиялаш - маълум таълим мақсадларига эришишга қаратилган махсус ташкил этилган, мустақил билиш фаолияти ва ўқувчининг мустақил иши (кўпинча ўқув адабиётлари билан синфдан ташқари иш) жараёнида амалга оширилади. Ўқувчиларни моддий онгли равишда мустақил ўзлаштириш йўлида муваффақиятга эришишга ёрдам берадиган ҳаракатлар, методларни ўргатиш муҳимдир[8].

Педагогик тажриба шуни кўрсатадики, ўқитишда энг самаралиси ўқув куроллари тизимидан фойдаланиш ҳисобланади. Фақат ўқув воситаларини алоҳида-алоҳида эмас, балки уларнинг комбинацияси ва ўзаро таъсири вариантларини ҳам кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ.

Adabiyotlar:

1. Computer networking: a top-down approach / James F. Kurose, Keith W. Ross.-6th ed. 2013. by Pearson Education, Inc., publishing as Addison-Wesley.
2. TCP/IP protocol suite/Behrouz A. Forouzan.-4th ed. Published by McGraw-Hill, a business unit of The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020. Copyright © 2010.
3. Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. -М.: «Народное образование», 2007. -№ 2. - С.54-55.
4. Java Network Programming, Fourth Edition by Elliotte Rusty Harold. 2014.
5. Mariano Martin Martin. Introduction to software for Chemical engineers. CRC Press, 2014;
6. Karimov Q.M., Razzoqov I.D., Mathcad va Matlab muhitida ishlash. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Nasaf" nashriyoti, 2014;
7. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. - Toshkent: ABU Matbuot - Konsalt, 2015. — 280 b.



8. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/55>.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада “Тадқиқот амалиёти” – ўқувчилар томонидан мустақил изланишлар олиб бориш ва ижодий лойиҳаларни амалга ошириш. Ўқувчиларнинг илмий изланишлар жараёнида мустақиллик даражаси аста-секин ўсиб боради. Ушбу соҳада ўқитишни ташкил қилиш учун турли методлар ва технологиялардан фойдаланиш мумкин бўлади.

РЕЗЮМЕ

В данной статье «исследовательская практика» - это самостоятельное изучение студентами и реализация творческих проектов. Степень самостоятельности студентов в процессе научных исследований постепенно повышается. Чтобы организовать обучение в этой области, можно будет использовать различные методики и технологии.

SUMMARY

In this article, «research practice» is an independent study by students and the implementation of creative projects. The degree of independence of students in the process of scientific research is gradually increasing. To organize training in this area, it will be possible to use various techniques and technologies.





УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ИНФОРМАТИКА ЎҚИТИШНИНГ КОМПЕТЕНТЛИ ВА ФАОЛИЯТЛИ ПАРАДИГМАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ

Шербобоев Х. Б.

TATU Qarshi filiali o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: kommunikatsiya, oʻquv jarayoni, bilim, koʻnikma, telekommunikatsiya.

Ключевые слова: общение, учебный процесс, знания, навыки, телекоммуникации.

Key words: communication, educational process, knowledge, skills, telecommunications.

Таълимнинг амалий жиҳатини қуйидагилар бўйича ҳисобга олиш керак: расмий, мактаб таълими тизимида олинган билимлар ҳақиқатан ҳам самарали бўлиши учун уларни янада кенгроқ билимлар билан узвий боғлаш керак. Компетенциялар қаторига расмий таълим мазмунидан ташқари кундалик фаолият соҳалари, сиёсат, маданият, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, соғлиқни сақлаш ва ҳоказолар билан боғлиқ компетенцияларни киритиш мақсадга мувофиқдир.

Аниқроқ айтганда, компетентлик тушунчасини қуйидагича келтириш мумкин:

- компетентлик таълимнинг интеллектуал ва малака компонентларини ўзида мужассамлаштиради;
- компетентлик тушунчаси нафақат когнитив ва операцион-технологик компонентларни, балки мотивацион, ахлоқий, ижтимоий ва ҳуқ-атворни ҳам ўз ичига олади; у ўрганиш натижаларини (билим ва кўникмалар), қадрият йўналишлари тизими ва бошқаларни ўз ичига олади;
- компетентлик деганда олинган билим, кўникма, тажриба ва ўзини ривожлантириш методларини муайян вазиятда, аниқ фаолиятда сафарбар этиш қобилияти тушунилади;
- компетентлик тушунчаси шаклланган таълим мазмунини изоҳлаш мафқурасини ўз ичига олади;
- компетентлик нафақат мактабда, балки атроф-муҳит таъсирида, яъни расмий ва норасмий таълим доирасида таълим жараёнида шаклланади.



Ушбу ёндашувга мувофиқ, умумий таълим тизими зарурий компетенцияларни шакллантиришга йўналтирилган бўлиши керак. Компетенция, агар у қуйидаги характерли хусусиятларга эга бўлса, зарурий деб ҳисобланиши мумкин:

- интегратив хусусиятга эга, яъни маданият ва фаолиятнинг кенг соҳалари (ахборот, ҳуқуқий ва бошқалар) билан боғлиқ бир қанча бир хил ёки бир-бирига чамбарчас боғлиқ кўникма ва билимларни ўзида муҷассам этган;
- кўп функцияли, яъни уни ўзлаштириш кундалик ҳаётда турли муаммоларни ҳал қилиш имконини беради;
- турли вазиятларда қўлланилиши мумкин бўлган ва фанлараро;
- сезиларли интеллектуал ривожланишни талаб қилади;
- кўп ўлчовли, яъни у турли хил психик жараёнларни ва интеллектуал қобилиятларни ўз ичига олади

Барча компетентликлар ҳар хил турдаги ҳаракатларни талаб қилиши муҳим (ва қўшимча равишда, фақат муайян вазиятларда намоён бўлиши мумкин):

- муқобил ва рефлексли ҳаракат қилиш;
- турли воситалардан интерактив фойдаланиш;
- ижтимоий жиҳатдан гетероген гуруҳларга кириш ва уларда фаолият кўрсатиш.

Ушбу қоидаларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, «таълим компетенцияси» тушунчаси «компетентлик» атамасининг аъъанавий талқинига қараганда чуқурроқдир. Шундай қилиб, хорижий сўзлар луғати [2] компетенцияни «маълум бир шахснинг билим, кўникма, малакаларга эга бўлиши», компетентлик эса «бирор нарсани ҳукм қилиш имконини берадиган билимга эга бўлиш» деб талқин қилади.

Компетентли ёндашувни амалга ошириш стратегияси шундан иборатки, ҳар бир ўқув предмети, биринчи навбатда, зарурий компетенцияларни шакллантириш, уларни курс хусусиятларига яқин шаклга айлантириш учун «ишлаши» керак.

Зарурий компетенцияларга, масалан:

- турли хил маълумотлар манбаларидан, шу жумладан синфдан ташқари билим олиш усулларини ўзлаштиришга асосланган мустақил когнитив фаолият соҳасидаги компетентлик;
- фуқаролик ва ижтимоий фаолият соҳасидаги компетентлик;
- ижтимоий ва меҳнат фаолияти соҳасидаги компетентлик;
- маиший соҳадаги компетентлик;



- ижтимоий маданий ва дам олиш фаолияти соҳасидаги компетентлик [3].

Таълимни модернизация қилиш стратегиясининг асосий натижаси сифатида мактабни битираётган ёшларнинг ўз фаровонлиги ва жамият фаровонлиги учун шахсий масъулиятни ўз зиммасига олишга тайёрлиги ва қобилияти кўриб чиқилади.

М.В.Рижаков “Европада зарурий компетенциялар” (Берн, 1996) симфониуми материалларини таҳлил қилар экан, Европа Кенгаши томонидан ёш европаликлар учун белгиланган бешта зарурий компетенцияни келтириб ўтади:

1. Сиёсий ва ижтимоий компетенциялар.
2. Кўп маданиятли жамият ҳаёти билан боғлиқ компетенциялар.
3. Оғзаки ва ёзма мулоқот билан боғлиқ компетенциялар (шу жумладан бир нечта тилларни билиш).
4. Ахборот жамиятининг пайдо бўлиши билан боғлиқ компетенциялар, янги технологияларни билиш.
5. Ҳаёт давомида билим олиш қобилияти [358, 99-100-б].

А.Л.Семенов ахборот компетентлигини умумий ўрта таълимнинг устувор йўналишларидан бири, коммуникатив компетентликни эса ахборот компетентлиги турларидан бири сифатида белгилайди. Муаллифнинг асосли фикрига кўра, “Информатика ва ахборот технологиялари” таълим йўналишининг ахборот компетенциясини шакллантиришнинг асоси ҳисобланади. Ахборот компетенцияси янги саводхонлик сифатида қаралади, у биринчи навбатда «инсон томонидан ахборотни фаол, мустақил равишда қайта ишлаш, технологик воситалардан фойдаланган ҳолда ностандарт вазиятларда тамойилий жиҳатдан янги қарорлар қабул қилиш» кўникмаларини, шунингдек, «компьютернинг техник кўникмаларини» ўз ичига олади. Шунингдек, у «оғзаки тақдирот, энциклопедия ва катта кутубхонадан фойдаланиш, шахсий хат ёзиш, телевидение рекламасини идрок этиш ва фактларни мазмунли ёдлаш билан боғлиқ кўникмаларни» ўз ичига олади [372].

Санкт-Петербург таълим стандартида информатика эришиш учун йўналтирилиши керак бўлган компетенциялар қаторига қуйидагилар киради:

- мактаб ўқувчиларининг замонавий инсоният маданиятининг элементлари сифатида информатиканинг роли ва ўрнини, унинг фан ва маданиятнинг бошқа компонентлари билан алоқаларини тушунишларини кўрсатадиган маданият соҳасидаги компетенция (умумий маданий компетенция);
- информатика соҳасидаги тадқиқот методологияси соҳасидаги компетенция (методолгик компетенция);



- олий таълимда таълимнинг умумий таълим ва амалий асосини ташкил этувчи информатика бўйича касбгача йўналтирилганлик (професионал компетенция) [5].

А.Ю.Уваров асосий ахборот компетенцияларини қуйидагича шакллантиради (гарчи у бу атамани ишлатмаса ҳам): “Ахборот жамиятининг билимли аъзоси ҳамма учун очиқ бўлган ахборот манбалари мавжудлигидан хабардор бўлиши ва улардан фойдалана олиши керак, маълумотларни оғзаки, график ва рақамли шаклларда тақдим этишнинг турли шакллари ва усуллари тушуниш, мавжуд маълумотларни таҳлил қилиш ва синтез қилиш методларини ўзлаштириш, уларни турли нуктаи назардан баҳолай олиш, аниқ амалий муаммоларни ҳал қилишда фойдаланиш; мулоқот қобилиятига эга бўлиш” [6; 34].

Хулоса қилиш мумкинки, турли муаллифларнинг асосий компетенциялар ҳақидаги фикрлари, уларнинг шаклланиши информатика курсига қаратилган бўлиши керак. Компетенцияларни тақсимлашнинг умумий қабул қилинган асослари ҳақида ҳам гапириш қийин. Шунга қарамай, турли ёндашувларни таҳлил қилиш бизга маълум бўлган АКТ компетенцияларининг кўпчилигини асосли равишда бирлаштирган қуйидаги умумлаштирилган АКТ компетенцияларини аниқлаш имконини беради.

Адабиётлар:

1. Computer networking: a top-down approach / James F. Kurose, Keith W. Ross.-6th ed. 2013. by Pearson Education, Inc., publishing as Addison-Wesley.
2. TCP/IP protocol suite/Behrouz A. Forouzan.-4th ed. Published by McGraw-Hill, a business unit of The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020. Copyright © 2010.
3. Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. -М.: «Народное образование», 2007. -№ 2. - С.54-55.
4. Java Network Programming, Fourth Edition by Elliotte Rusty Harold. 2014.
5. Mariano Martin Martin. Introduction to software for Chemical engineers. CRC Press, 2014;
6. Karimov Q.M., Razzoqov I.D., Mathcad va Matlab muhitida ishlash. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Nasaf" nashriyoti, 2014;
7. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. - Toshkent: ABU Matbuot - Konsalt, 2015. - 280 b.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада компетентли ёндашувнинг асосий ғояси шундан иборатки, таълим мазмунини белгилашда ўқувчилар томонидан расмий, мактаб таълими тизимида олинган билим ва кўникмаларнинг маълум миқдорини белгилаш билан чекланмаслик керак бўлади.

РЕЗЮМЕ

Основная идея компетентностного подхода в данной статье заключается в том, что при определении содержания образования не следует ограничиваться определением определенного объема знаний и умений, приобретаемых учащимися в системе формального, школьного образования.

SUMMARY

The main idea of the competence approach in this article is that when determining the content of education, one should not be limited to determining a certain amount of knowledge and skills acquired by students in the system of formal, school education.



КРЕДИТ-МОДУЛ ТИЗИМИДА ФИЗИКА ФАНИДАН МАЪРУЗА МАШҒУЛОТЛАРИНИ ОЛИБ БОРИШ МЕТОДИКАСИ

Тураев С. Ж.

ТАТУ Қарши филиали “Математика ва физика” кафедра мудир

Таянч сўзлар: инновацион, электрон ресурс, анимация, технологиялар, дастурий маҳсулот, касбий фаолият, трансфер, лойиҳалаш, конструкторлик.

Ключевые слова: программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

Key words: software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

Олий таълимда физикадан маъруза машғулотлари бўлажак дастурчиларга таълим беришнинг асосий бўғини ҳисобланади. Европада олий таълим муассасалари пайдо бўлганидан бошлаб маъруза лотинчадан lectio-ўқиш маънисини билдириб, таълимнинг етакчи шаклларида бири ҳисобланади, физикадан таълим жараёнининг умумлаштирилган таркибий тузилмасини белгилайди, у илмий ва касбий ахборотнинг энг кенг қамровли ва тезкор тақдимотидир. Замонавий тадқиқотларда таъкидланишича, маъруза талабаларнинг услубий, илмий ва касбий тафаккурини касбий компетенцияларни шакллантириш учун мўлжалланган. Маърузанинг мақсади талабаларнинг физикадан ўқув материални кейинчалик ўзлаштиришларига йўналтирувчи асос бўлиб хизмат қилади. Маъруза П.И.Пидкасист фикрига кўра, учта асосий вазифаларни бажаради - ахборотли, рағбатлантирувчи, ривожлантирувчи [88, 210-б].

Маърузанинг ахборот функцияси амалий ва лаборатория машғулотларида кейинги таҳлил ва мулоҳаза юритиш учун асос бўлиб хизмат қилувчи асосий илмий далилларни узатишда намоён бўлади. Физикадан маъруза машғулотлари бўлажак дастурчиларнинг келгусидаги касбий фаолияти учун йўналтирувчи асос когнитив (билим) йўналганлик, далилларга асосланганлик ва тузилмавий жиҳатдан мантикий бўлсагина ижобий бўлиши мумкин. Маърузада асосий физик тушунчалар, физик қонунлар очиб берилади, тадқиқотчилар томонидан олиб борилган илмий назариялар таҳлил қилинади, илмий тадқиқот усуллари келтириб



ўтилади: физик ҳодиса ва жараёнлар моделлаштирилади, визуаллаштирилади. Маъруза назарий маълумотларининг асосий манбаи ҳисобланиб, физикавий билимлар тизимини шакллантириш, дастурий инжиниринг бакалаврият таълим йўналиши талабаларини касбий фаолиятга тайёргарлигини ривожлантиришда муҳим рол ўйнайди [99].

Физикадан маъруза турли хил касбий муаммоларни ҳал қилиш имконини беради. Жумладан, техник тафаккурнинг шаклланишига кўмаклашади, билим олишга, мустақил ва индивидуал фаолиятга қизиқиш уйғотади ва ижодий фаолият олиб боришга кўмаклашади. Мантиқан қурилган маърузалар курси илмий ва техник тафаккур асосларини таъминлайди, илмий тадқиқотларнинг тарихий шаклланишини кўрсатади, янги илмий тадқиқот усуллари билан таништиради. Буларнинг барчаси мутахассиснинг креатив даражадаги ижодкор шахс бўлишини кафолатлайди [107, 78-6].

Кредит-модул таълим тизимида маъруза машғулотларини ташкил этиш ва амалга ошириш қуйидагича олиб борилади: ҳар бир бўлим тугалланган модулларга бўлиниб, тугалланган мазмунни ифодалайди, яъни уларнинг ҳар бирида ўқув ахборотлари жамланади, умумлаштирилади ва презентация кўринишида тақдим этилади. Маъруза тўлиқ қисмларга ёки ўқув элементларига бўлинади [102].


Маърузанинг қуйидаги компонентларни ўз ичига олади [104]:

- физикадан билимларни аниқлаш, якуний мақсадни англаш, тушуниш ва ижобий натижа олиш имконини бериш;
- талабаларнинг когнитив компетентлигини шакллантириш;
- билимларни умумлаштириш;
- жадваллар, чизмалар, диаграммалар, расмлар, графиклар ва бошқалар шаклида тузилган маълумотлардан фойдаланиш;
- мустақил ва индивидуал таълим топшириқларини ишлаб чиқиш.

Физикадан кредит-модул таълимига асосланган маъруза машғулотини олиб боришнинг блок схемаси 2.2.1-чизмада кўрсатилган.

Физикадан маъруза машғулотларида конспектлар, диаграммалар ва жадваллардан фойдаланиш, тизимли-мантикий тузилмалар, бундан ташқари дастурлаш тилларидан фойдаланган ҳолда физик жараёнларни моделлаштиришга қаратилган таълимни амалга ошириш, назарий материални тақдим этиш усулини танлашда унинг мураккаблигига қараб профессор-ўқитувчининг имкониятларини кенгайтиради [102].

Бўлажак дастурчиларни касбий фаолиятга тайёргарлигини ривожлантиришда сабаб ва оқибат муносабатлари ва мантиқ қоидалари асосида



2.2.1-расм. Физикадан маъруза машғулоти олиб бориш

муҳасаммалаштирилган бир бутунликни ташкил этувчи ўқув материали компонентларини ўз ичига олган маъруза машғулотлари асосий ўрин эгаллайди [102].

Конспект қайд этиш жараёнида яхшироқ эслаб қолишни таъминлайди. Маърузачининг вазифаси талабаларга мазмунли равишда тинглаш, тушуниш, қайта ишлаш ва қисқача ёзиб олиш имкониятини беришдир. Бунинг учун ўқитувчи талабаларга ёрдам бериши ва ҳамма нарсани тушунишини кузатиб туриши керак. Маърузада эслаб қолишга ёрдам берувчи воситаларга тақдимот слайдлари, овозли матнлар, қайтарувчи ва тақрорловчи топшириқлар тизими, тўхталишлардан фойдаланиш, электрон доска, иллюстратив материаллар, дарс қоидаларига қатъий риоя қилиш, мустақкам тартиб интизом кабиларни киритиш мумкин [102].

Талабаларга маъруза машғулотида физик жараёнларни моделлаштиришга ва алгоритмлашга ўргатиш фойдалидир: параграфларни, асосий фикрларни, калит сўзларни таъкидлаб охирида хулосалаш, электрон доскадан ва компьютердан фойдаланиш [107, 145-6].

Маъруза топшириқларини бажаришда талабалар билимини янгилаш физикани кенгроқ ва яққолроқ тушунишга ҳамда физик жараёнларни моделлаштириш, алгоритмлаш ва визуаллаштиришга ёрдам беради,



талабаларда мотивацияни кучайтиради ва вақтни сезиларли даражада тежайди [102].

Профессор-ўқитувчининг маърузани олиб бориш маҳорати маърузада талабалар ишини яхши ташкил этишга ёрдам беради. Мазмуни, маъруза мазмунининг тушунарлилиги, диққатни жамлаган ҳолда таълим методлардан фойдаланиш-буларнинг барчаси танқидий фикрлашни ва касбий компетенцияларни шакллантиради [113, 55-6].

Физика курсида маъруза шаклининг ривожланиши унинг физикавий ҳодиса ва жараёнларни моделлаштиришга бевосита боғлиқ. Маърузанинг муаммоли ташкил этилиши, яъни муаммоли таълим методидан самарали фойдаланиш талабаларнинг когнитив компетентлигини касбий фаолиятга яқинлаштиради. Маъруза машғулотларини олиб бориш учта асосий мақсадга эришишни таъминлайди [103]:

- физикадан назарий билимлар ва техник тафаккурнинг ривожланиши;
- моделлаштириш ва когнитив компетенциясини шакллантириш;
- бўлажак дастурчининг касбий фаолиятда мотивациясини ошириш.

“Intellectual hújim” texnologiyasın qollaw bir mashqalanı sheshiw jolınan túrlishe hám ılajı barınsha kóbirek usınıs, pikir- oy-pikirlerdi jıynawdan ibarat. Aldın hár qanday usınıslar qabıl etiledi. Keyin bolsa, olardıń ishinen eń maqulın tańlap alınadı. Bul metodtı qollawda eń názik tárepi hámme usınıslardı eslep qalıw bolıp tabıladı. Sol sebepli olardı jazıp barıw kerek boladı. Oqıtıwshı olardı shártli belgiler hám kemeytiwler menen doska yamasa aq qaǵazǵa jazıp baradı. Eń qolay usıldı usınıs etken gruppa yamasa juplıq xoshemetlenedi.

Sabaqta berilgen másele, misal hám tapsırmanı jup bolıp sheshiwi de oqıwshılardı óz-ara pikir almaslawǵa, bir- birin tolıqtırıwı, kerek bolsa bir- birine úyretiwge úyretedi. Bunday usıldı —juplıqta islew dep ataladı. Oqıtıwshı oqıwshılar ǵárezsiz sheshiwi múmkin bolǵan qálegen wazıypanı juplıqta tapsıradı. Bunday tapsırmanı dóretiwshilik xarakterde bolıwı maqsetke muwapıqlaw bolıp tabıladı.

“Aljasqan shınjırlar” usılı baslawısh klaslarda qandayda bir bir izbe-izlikti qayta tiklew ushın qollanıladı. Bunda oqıtıwshı qandayda bir tema, túsiniq, algoritmǵa tiyisli izbe-izlikti qoyadı. Oqıwshılar tártipsiz jaylasqan sózlerge logikalıq baylanısqan shınjırdı dúziwleri kerek. Bul metodtı 4-6 adamlıq



gruppada qollawda, pútkil klass penen islew de múmkin. Oqıtıwshı bilim uzatıwshı rólinenn oqıw processin quraytuǵın, oqıw iskerligin basqarıwshı, oqıwshılar aktivligin psixologiyalıq hám pedagogikalıq tárepten aqılǵa say qollar-quwatlap rawajlantıratuǵın róline ótiwi dep esaplaymız.

Ádebiyatlar:

1. Olimov. Q.T., Sayidahmedov N.S., Jalolova D.F., Bozozrova M.Q., Boltayeva M.Q., Alimov A.A. Pedagogik texnologiyalar. T.: “Fan va Texnologiya”, 2011-yil 24-bet
 2. Sayidahmedov N.S. Ochilov A. Yangi pedagogic texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. RTM 2000-yil 19 bet
 3. M.M.Ahmedjanov, Z.Sh.To’xtayeva- didaktik vositalar majmuasi o’quv qo’llanma. “Fan va texnologiyalar” 2008-yil 100-bet.
 4. N.A.Muslimov “Elektron darslik yaratish tamoyillari va texnologiyalari” infocom.uz 2004-yil 62-66 bet.
 5. Imomov K., Xatkeryev T., Sarımsaqov B., Saparov O. Ózbek xalıq awızsha poetik ijodi. T., »Oqıtıwshı«, 1990. 84—90 -betlar.
 6. Muroadov M. M. <Ózbek qádiriyatlari>. Tashkent. “Cholpan”, 1995. 33-bet
 7. Ózbek xalıq naqılları. Tashkent: Shıǵıs, 2012.
 8. Sarımsaqov B. Ózbek folklorining janrlar sostavi. Ózbek folklori ocherklari, 1-bet, T., 1988. 64—85-betlar.
- Internet tarmoqlari
www.arxiv.uz
www.talaba.uz
www.google.ru

РЕЗЮМЕ

O’quvchilarning har biri quyi sinflarda matematik amallarni bajarayotganda ta’limda keng imkoniyatlar yaratish, ularning har biri o’zining yuqori natijaga erishishlarini rag’batlantirish va shu orqali o’quv jarayonini boshqacha tashkil etishni ta’minlash tavsiya etiladi. Ichki o’quv fanlarining quyi sinflarida matematik amallarning bilimlarning bog’liqligi va izchilligi tamoyili bo’yicha bajarilishi o’zaro bog’liqlik va o’quv izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ

Каждому из учащихся при выполнении математических действий в младших классах создавать широкие возможности в образовании, каждый к высокому результату поощрять их достижение и тем самым различную организацию учебного процесса рекомендуется предоставить. Выполнение математических действий в младших классах внутренние учебные предметы по принципу связи и согласованности знаний служит для обеспечения взаимозависимости и академической согласованности.

SUMMARY

Each of the students when performing mathematical operations in the lower grades create broad opportunities in education, each to a high result to encourage their achievement and thus the various organization of the educational process recommended to provide. Performing math activities in elementary grades internal academic subjects based on the principle of connection and consistency of knowledgeserves to ensure interdependence and academic consistency.



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Jumasheva G. X.

NDPI kafedra mudiri, p.f.d., dotsent

Tayanch: kitob mutolaasi, kitobsevarlik, savodxonlik, axloqiy tarbiya, dunyoqarash, odob-axloq, xalq pedagogikasi, umuminsoniy qadriyatlar.

Ключевые слова: чтения книг, книголюбие, обучение грамоте, нравственное воспитание, мировоззрение, нравственность, народная педагогика, общечеловеческие ценности.

Key words: reading books, book-loving, literacy, moral education, worldview, morality, folk pedagogy, universal values.

Respublikamizda bugungi kunda juda katta islohotlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlarining kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori e'lon qilindi [2]. Bugungi kunda mamlakatimizda "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda [3]. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va halqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratildi, unda O'zbekistonda ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etilmoqda. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham rivojlanishining mohiyati, uning sur'atlari insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'liq bo'lgan. Qaysi yerda ma'naviy kamolot yuksak bo'lib ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlar oqilona yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu jamiyat gullab rivojlangan, taraqqiy etgan.

Biz qurayotgan demokratik-xuquqiy jamiyatning uch muhim tomoni bor: iqtisodiyot, siyosat va ma'naviyat. Bu tomonlar qancha mustahkam va baquvvat bo'lsa kelajagimiz ravnaqi ham baquvvat bo'ladi.

O'zbekistonning buyuk davlatlar qatoriga kirishi, kelajagi obod va farovon bo'lishi, huquqiy demokratik davlat adolatli fuqarolik jamiyati maydonga kelishi ko'p jihatdan yoshlar tarbiyasiga bog'liq.

Biz yashayotgan zamin qadim zamonlardan beri madaniyat va ziyo maskani bo'lib, halqimiz esa dunyoni larzaga keltirgan ulug' zotlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan halqdir. Bugungi kunda faxrlanib, moddiy meros borasida ham, ma'naviy meros borasida ham dunyoning sanoqli mamlakatlarigina bizning davlatimiz bilan bellasha olishi mumkin deb, baralla ayta olamiz. Asrlar osha qanday yutuq va marralarga erishgan bo'lsak, albatta, buning zamirida halqimizni kitobga bo'lgan mehr va mutolaaga bo'lgan ishtiyoqi mujassam bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori bunga yaqqol misol qilishimiz mumkin. Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora –tadbirlar dasturi tasdiqlandi" [4].

Kitob mahsulotlarini nashr etib va tarqatish tizimi rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamdan targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi qabul qilindi: unga ko'ra dasturda ko'zda tutilgan quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Axborot – kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta'lim tashkilotlari axborot – resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tashkilot va tashkilotlarning Ma'naviyat xonalarini o'qitish–uslubiy, texnologik adabiyotlar,



adabiy – badiy, ma’rifiy va ilmiy – ommabop kitoblar bilan boyitish, ularning moddiy-texnik ba’zasini mustahkamlash.

Tarixdan bizga ma’lumki, buyuk mutafakkirlarimiz tarbiyasi juda erta ya’ni 3- 4 yoshdan boshlab, kitob mutoalaa qilishga, enagalari (tarbiyachilari) yordamida ertaklar, dostonlar, rivoyatlar, hikmatli so’zlarni tinglashga kitob bilan do’stlashishga katta ahamiyat berganlar. Shuning uchun bo’lsa kerak buyuk allomalarimiz ham olim, ham shoir, ham sa’natkor, ham ijodkor bir so’z bilan aytganda har tamonlama yetuk bilimli va komil inson bo’lib tarbiyalanganlar. Tarbiyachining asosiy vazifasi shogirdlarini baxt yo’llarini izlashga tayyorlashdan iborat. Aytish lozimki, kitob mutoala qilishga, xadislarni tinglash, hamda turli xil maftunkor rivoyatlarni va afsonalarni xalq qahramonlari hayoti haqida rang-barang va ayni choqda qiziqarli mazmunga tayanib, ezgulikka va insonparvarlikka undovchi voqealar bilan yo’g’rilgan risolalarni o’qishga intilish va ularni bilish, shuningdek asarlarni tafakkur etish bizga o’tmish avlodlarimizdan qolgan mo’tabar va muqaddas merosdir.

Safo Matchonov kitobxonlik tarbiyasi haqida shunday yozadi: “Kitobxonni avvalo, asarda tasvirlangan voqelik qiziqtiradi. Bunday qiziqish asta-sekin hissiyotga ta’sir ko’rsatadi. Kitobxonda asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini taqqoslash mayli uyg’onadi”. Shuning uchun ham oilada ota - ona maktabda o’qituvchi bolalarga kitob tanlashda yordam berishi zarur. Bu borada faqat badiiy asargina emas, o’smir dunyoqarashini kengaytiradigan qiziqarli ilmiy ommabop kitoblar ham, turli ma’lumotnomalar ham muhim rol o’ynaydi. Albatta bu ishda bolalarning individual qiziqishlarini ham hisobga olish zarur. Kitobxonlik qo’lga tushgan kitobni o’qish emas, balki inson qiziqishi va dunyoqarashiga ko’ra tanlab o’qish hamdir. Kitobxonlikdan maqsad bilim va ma’naviy barkamollikka ega bo’lishdir. Badiiy asarlar orqali esa qahramonlar sarguzashtlari, kechinmalari orqali ezgulik va yomonlikning farqiga yetadigan, kamtarlik, to’g’rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlar asosida ular ma’naviyati shakllana boradi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” T., 1997.
2. “2017-2021-yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaror Xalq so’zi 2016-yil 30-dekabr.
3. “O’zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi” Xalq so’zi 2017-yil 8 fevral.
4. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib qilish bo’yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to’g’risida”gi qarori PQ -3271 son “Xalq so’zi” 2017 yil 14 sentabr.
5. Safo Matjon. Komillik mezonlari. T.: Sharq, 2010 y.

**РЕЗИОМЕ**

Maqola katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'qish ko'nikmalarini shakllantirish muammosiga bag'ishlangan. Maqolada kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarda o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, bolalarning nutqi va aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni xalqning ma'naviy qadriyatlari bilan tanishtirish uchun nazariy va uslubiy asoslarni ishlab chiqish zarurligi ko'rsatilgan.

РЕЗИОМЕ

Статья посвящена проблеме формирования культуры навыков чтения книг детей старшего дошкольного возраста. В статье раскрывается необходимость разработки теоретических и методических основ формирования культуры навыков чтения книг детей старшего дошкольного возраста, активизацию речевой и мыслительной деятельности детей, приобщения их к духовным ценностям народа.

SUMMARY

The article is devoted to the problem of the formation of a culture of reading skills in children of senior preschool age. The article reveals the need to develop theoretical and methodological foundations for the formation of a culture of reading skills for children of older preschool age, the activation of the speech and mental activity of children, their familiarization with the spiritual values of the people.





MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK RIVOJLANISHINI ANIQLASH USULLARI

Xudoyberganova Sh.B.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Tayanch soʻzlar: diagnostika, sensomotorika, rivojlanish, mayda motorika, psixologik, baholash mezonlari, savodga oʻrgatish, test.

Ключевые слова: диагностика, сенсомоторика развитие, мелкая моторика, психологические, критерии оценки, обучение грамоте, тест.

Key words: diagnosis, sensorimotorics, development, fine motor skills, psychological, assessment criteria, literacy training, test.

*«Oʻyin - bu barcha ijodkorlikning genetik asosi,
manbai, ildizi, uning tayyorgarlik bosqichi».*

(L.S. Vygotskiy)

Yosh bolalarda 3 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan davr bogʻcha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat oʻzgarishlari boʻlishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3-4 Yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bogʻcha Yoshi), (4-5 Yosh) oʻrta maktabgacha davr, (oʻrta bogʻcha Yoshi), (6-7 Yosh) katta maktabgacha davr (katta bogʻcha Yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qoʻlga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda oʻzlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning oʻsib borishi, katta Yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmogʻi kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

Bogʻcha Yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini oʻzlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bogʻcha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining

namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi deb ta'kidlagan.

Sensomotorika - bu harakat va hissiyotlarni boshqarish qobiliyati, bu ko'zlar va harakatlarni, eshitish va harakatlarni muvofiqlashtirish.

Diagnostika – bu tibbiyotning kasallik belgilarini aniqlash, diagnoz qo'yish usullari va tamoyillarini o'rganadigan bo'limi.

5-6 yoshli bolalarning psixologik rivojlanishini aniqlash diagnostikasi juda ham kam vaqt talab qiladigan quyidagi psixologik testlarni o'z ichiga oladi:

Ketma-ket rasm (nutq, tafakkur)



Maqsad: Bolaning voqelikni tushunish, tasvirlarni bir-biriga bog'lagan xolda izchil hikoya tuza olish qobiliyatini aniqlash.

Bolaning oldiga rasmlar tartibsiz tarzda terib qo'yiladi.


Tarbiyachi: “Bu rasmlar chalkashib ketgan. Ularni shunday joylashtirginki natijada bir butun xikoya tuzish mumkin bo'lsin.”

Baholash mezonlari:

- bola mustaqil ravshda rasmlarning mantiqiy ketma-ketligini to'g'ri aniqlaydi va izchil hikoya tuzadi – 2 ball.
- bola rasmlar ketma –ketligini aniqlashda xatolarga yo'l qo'yadi, lekin uni (o'zi yoki kattalar yordamida)tuzatadi yoki izchil xikoya tuzishda qiynaladi – 1 ball.
- bola rasmlar ketma –ketligida yanglishadi, xatolarini tushunmaydi yoki xikoyasida rasmdagi ayrim tafsilotlarnigina tasvirlaydi – 0 ball.



Labirantlar (diqqat)




Maqsad: Qo'llanmani tushunish darajasi, diqqatining konsentratsiyasi, hajmi va barqarorligini aniqlash, faoliyatning maqsadga yo'nalganligi va ko'rib qabul qilish jarayonining o'zgachaliklarini aniqlash.

Tarbiyachi: Bolaga rasm beriladi. "Rasmga diqqat bilan qara, bu yerda o'g'il bola va qiz bola, ulardan biri sharning ikkinchisi varrakning ipini ushlab turibdi. Ulardan qaysi biri sharning va qaysi biri varrakning ipini ushlab turganini aniqlashing kerak. Buning uchun qalamchani ip ustida uzmasdan yurg'azishing kerak". Bola birinchi topshiriqni bajarib bo'lganidan so'ng unga ikkinchi rasm ko'rsatiladi: "Endi mana bu rasmga diqqat bilan qara va kuchukcha bilan olmaxonga uylariga boradigan yo'lni topishga yordam ber".

Baholash mezonlari:

- bola vazifani bajaradi va obyekt tomon yo'lni mustaqil topib boradi- 2 ball.
- bola vazifani tushunadi, lekin uni bajarishga ikkilanadi yoki vazifani kattalar yordami bilan bajaradi - 1 ball.
- bola vazifani bajara olmaydi- 0 ball.

Uychasini top (tafakkur)





Maqsad: Vizual-majoziy fikrlashning rivojlanish darajasini, mantiqiy fikrlash elementlari, obyektlarni funksional maqsadlariga ko'ra guruxlash qobiliyatini aniqlash.


Bolaga 4 ta uycha ko'rsatiladi (rasmga qarang). So'ngra bolaga ketma ket rasmlar ko'rsatiladi.

Tarbiyachi: “Diqqat bilan qara va bu rasmga uychasini topib ber” birinchi rasm namuna sifatida psixolog tomonidan qo'yib ko'rsatiladi. Qolgan rasmlarni bola o'zi mustaqil tanlab, uychalarga joylashi kerak. Shundan so'ng bolaga “nega bu rasmlar birga bir uyda yashaydi?” kabi savollar beriladi. Agar topshiriq bolada qiyinchilik tug'dirsa savollar orqali yordam berish mumkin, masalan: “Olma bilan apelsinni bir so'z bilan qanday atash mumkin? javob: mevalar.”

Baholash mezonlari

- Bola vazifani qabul qiladi va tushunadi, rasmlarni asosiy xususiyatlariga ko'ra tasniflaydi va umumlashtirgan xolda aytib bera oladi -2 ball.
- Bola vazifani yaxshi tushunadi, rasmlarni to'g'ri joylashtiradi, ammo og'zaki ravishda umumlashtira olmaydi yoki vazifani darxol anglamaydi, lekin kattalarning yordamidan so'ng mustaqil ravishda amalga oshiradi -1 ball
- bola topshiriqni to'g'ri tushunmaydi yoki kattalar yordamidan so'ng xam topshiriqni bajara olmaydi – 0 ball.

Bu nimaga o'xshaydi (tasavvur).



Maqsad: bolaning tasavvur darajasini, tafakkurining o'ziga xosligi va moslashuvchanligi darajasini aniqlash.

Bolaga uchta rasmlari kartochka navbat bilan ko'rsatiladi.

Tarbiyachi: “Rasmga diqqat bilan qara, u nimaga o'xshaydi?”.

**Baholash mezonlari:**

- bola 8 - 9ta o`xshatish ayta olsa (xar bir rasmga 3tadan) – 2 ball.
- bola 5 – 6ta o`xshatish ayta olsa (har bir rasmga 2tadan) – 1 ball.
- bola rasmni tushunmaydi yoki 2 -3ta o`xshatish ayta olsa – 0 ball.

Nima yo`qolib qoldi? (xotira)

Maqsad: noixtiyoriy xotira va diqqatning rivojlanish darajasini, ko`rsatmalarni tushuna olishini aniqlash.

Bolaga xar xil o`yinchoqlar taqdim etiladi va ularning nomini aytishni so`raladi, shundan so`ng boladan ko`zlarini yumib turishni so`raladi va o`yinchoqlardan ikkitasi olib qo`yiladi.

Tarbiyachi: “Bu o`yinchoqlar sen bilan bekinmachoq o`ynamoqchi. Sen ko`zlaringni yumib turasan, o`yinchoqlar yashirinishadi so`ng ko`zlaringni ochib qaysi o`yinchoq yashirilib olganligini topasan”.

Baholash mezonlari:

- bola 2ta o`yinchoqni to`g`ri topadi - 2 ball.
- bola 1ta o`yinchoqni to`g`ri topadi. - 1 ball.
- bola o`yinchoqni topa olmasa -0 ball

Ushbu maqola orqali maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni psixologik rivojlanishini aniqlash uchun o`yin metodidan foydalanish samarali foyda beradi. Ko`rinib turibdiki turli xil qizqarli o`yin va metodlar orqali bolajonlarni psixalogik xolatlarini ham aniqlab olishimiz mumkin. Bundan tashqari yuqoridagi o`yinlarimiz orqali bolajonlarni mantiyqiy fikrlashga, sensomotorikalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolaning rivojlanishi va tarbiyasida o`yin muhim rol o`ynaydi - faoliyatning eng muhim turi hisoblanadi. Bu maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsini, uning axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirishning samarali vositasidir. Mamlakatimizdagi eng mashhur o`qituvchi A.S. Makarenko bolalar o`yinlarining rolini shunday tavsiflagan: «Bolaning hayotida o`ynash kattalarda mehnat, xizmat qilish bilan bir xil ma`noga ega. Bola qanday o`yin o`ynaydi, shuning uchun u kata bo`lganida ko`p jihatdan ishda bo`ladi. Shuning uchun kelajakdagi shaxsni tarbiyalash birinchi navbatda o`yinda sodir bo`ladi...”.

Adabiyotlar:

1. Zokirova, S. M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. Sciences of Europe, (8–2 (8)).
2. Zokirova S. M. Contrast analysis of syntactic sloynyx ustanovok. Bulletin of Namangan State University: Vol, 1 (8), 48
3. Kossakovskaya, E. A. Bola hayotidagi o`yinchoq: bolalar bog`chasi o`qituvchisi uchun qo`llanma. / E. A. Kossakovskaya - M.: Ta`lim, 1980 yil.
4. “Ilk qadam” davlat o`quv Dasturi. 2018.07.07.



5. Qodirova F., Toshpo'latova SH, Agzamova M va boshq. "Maktabgacha pedagogika" T.2010

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni psixologik rivojlanishini aniqlash diagnostikasi hamda rivojlantirish uchun ko'rsatmalar berilgan. Diagnostika juda ham kam vaqt talab qiladigan kichik testlardan iborat bo'lishi lozim.

РЕЗЮМЕ

В статье даны указания по диагностике и развитию психологического развития детей дошкольного возраста. Диагностика должна состоять из небольших тестов, требующих совсем немного времени.

SUMMARY

This article provides instructions for the diagnosis and development of psychological development of children of preschool age. Diagnostics should consist of small tests that require very little time.





MAKTAB O'QUVCHILARINING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Rajabova G.

UrIU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar" kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik tejamkorlik, eko-maktab, ekologik etika.

Ключевые слова: экологическая культура, экологическое образование, экологическое воспитание, экологическая экономика, экошкола, экологическая этика.

Keywords: ecological culture, ecological education, ecological upbringing, ecological economy, eco-school, ecological ethics.

Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish orqali biz umumiy ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonidagi muhim jihatlarni tadqiq etishga, maktab o'quvchilari o'rtasida ekologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishning muayyan yechimlariga erishamiz. Turli xil tabiiy, texnogen va favqulodda vaziyatlar ko'payib borayotgan sharoitda ularni bartaraf etish o'rniga aholining tayyorgarligini oshirish, ekologik madaniyatini yuksaltirish, ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud ekologik ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida bir qator xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasini o'rganib chiqamiz. Ko'pgina mamlakatlarda ekologik ta'lim maqsadli va uzluksiz ta'lim jarayonida amalga oshirilmoqda. AQSh, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi ilg'or xorijiy davlatlar ekologik madaniyatni takomillashtirish uchun zamonaviy uslubiy asoslar, ko'rgazmali qurollar va simulyatsiya vositalaridan ham foydalanishning o'quvchilar o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ekanligini tasdiqladilar. Ispaniyada jamoat joylarida alohida darslar o'tkazish odat tusiga kirgan. Demak, o'quv-tarbiya jarayonida ekologik tarbiya mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu to'g'ri qaror qabul qila oladigan, atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi sa'y-harakatlarga oqilona yetakchilik qila oladigan shaxsni shakllantirish asosida amalga oshiriladi.



Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ekologik ta'lim ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish muammolari nafaqat "yashil" matbuot sahifalarida, balki parlamentlar va hukumatlar hujjatlarida ham birinchi o'rinlardan birini egallaydi. Ekologik ta'limning uzoq tarixi davomida u yerda toza suv va havoni saqlash, Kusto va National Geographic seriyalarida maktab o'quvchilarining bir necha avlodlari o'sgan. Hozirgi vaqtda AQSH, Buyuk Britaniya kabi tabiatni muhofaza qilish borasida rivojlangan mamlakatlarda bolalarni ekologik tarbiyalashda ikkita yondashuv ustunlik qilmoqda: o'yin va naturalistik. Birinchisi boshlang'ich va o'rta maktablarda, ikkinchisi esa yuqori sinflarda ustunlik qiladi.

G'arb davlatlarining ta'limida "o'yin" yo'nalishini rivojlantirish tajribasi juda katta. Ko'pgina ekologik kurslar ushbu yondashuvga asoslanadi. O'yin usullari nafaqat kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga, balki talabalarga-bo'lajak ekolog va o'qituvchilarga, hatto kattalarga, masalan, sayyohlarga-milliy bog'lar va qo'riqxonalariga tashrif buyuruvchilarga ham o'rgatiladi. Albatta, bularning barchasi ajoyib, ammo ta'limda o'yin (va test) usullarining tarqalishining birinchi "salbiy alomatlari" allaqachon paydo bo'la boshladi. Gap shundaki, o'yin va sinov ortida aqlning rivojlanishi yo'qoladi, bilim olish, mustaqil fikrlash qobiliyati pasayadi. Ba'zi so'nggi tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarda, xususan, AQShda yosh avlodning ta'lim va intellektual darajasining umumiy pasayishini qayd etdi. Atrof-muhit samaradorligi indeksiga ko'ra 20 ta Yevropa mamlakatlari maktab ta'limining dastlabki bosqichida o'zlarining umumiy ta'lim dasturlariga ekologik ta'limni kiritadilar, aniq maqsad va qadriyatlarni belgilaydilar. Ular orasida: Avstriya, Belgiya (Flamand va fransuz jamoalari), Daniya, Finlyandiya, Germaniya (Bavariya va Tyuringiya), Gretsiya, Irlandiya, Lyuksemburg, Ispaniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya (Angliya, Uels, Shimoliy Irlandiya va Shotlandiya) mamlakatlari bor. Bu mamlakatlarning o'quv dasturlarida ekologik elementga alohida e'tibor berilgan, shuning uchun boshlang'ich ta'limda ekologik ta'lim nisbatan yuqori bosqichga ko'tarilgan. Masalan, G'arbiy Yevropada bolalar maxsus xo'jaliklarda yovvoyi hamda uy hayvonlari bilan muloqotda bo'lishi, hattoki ularni parvarish qilishi mumkin.

Avstriyada kasbiy ekologik ta'lim va tarbiyaga zamin tayyorlash maktab dasturlariga kiritilgan. Masalan, maxsus maktab loyihalarini tashkillashtirish ("Maktab bog'i", "Atrof-muhit tarixi", "Maktabda ekologiya", "Ekologik ustaxo-na", "Tabiat uchun ijodiyot"); tabiatni muhofaza qilish aksiyalarini o'tkazish ("Ozon", "Alp faoliyati"); turli xil didaktik materiallar va maxsus o'quv qo'llanmalarini tayyorlash; pedagog-ekologlar uchun seminarlar hamda



bolalarning ekologik ta'limida ishtirok etuvchi barcha mutaxassislarni qayta tayyorlash kurslari; ekologik ta'lim masalalari bo'yicha jurnal va gazetalar nashri; "Atrof-muhit, maktab va jamoat" shu yo'sindagi maxsus ekologik ta'lim dasturlarini tayyorlash; ekologik ta'lim masalalari bo'yicha umumdavlat ma'lumotlar bankini yaratish; koordinatsion funksiyalarni amalga oshirish; bolalarni ekologik ta'limi bilan bog'liq bo'lgan maktab va maktabdan tashqari ekologik ta'lim, turli loyihalar faoliyatida ishtirok etish xohishini bildirganlarga o'qituvchi va boshqa mutaxassislarga konsultatsiyalar tashkil etildi. Umumiy ekologik ta'lim va tarbiya esa umumiy ta'lim tizimiga kiritilgan.

Daniya o'nlab yillar davomida o'z maktablarida ekologik ta'limni qo'llab-quvvatlab kelgan va hozirda mamlakat Atrof-muhit samaradorligi indeksida 3-o'rinni egallaydi. Ochiq ta'limning ahamiyatini hisobga olgan holda, 7 yoshdan boshlab bolalar uchun "Udeskol" (ochiq maktabga o'tkazish) tushunchasi kiritiladi. Ba'zi maktablar haftalik yoki ikki haftada bir marta ochiq havoda o'qitishni majburiy qilib qo'ygan.

Germaniyada ekologik ta'lim o'quvchilarni atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini o'zgartirishga va bilimlarini rivojlantirishga, ularning tabiatni muhofaza qilishga tayyorligini oshirishga, o'sib kelayotgan avlodda ekologik mas'uliyatli xulqni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bunda asosiy urg'u inson, jamiyat va tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishga qaratiladi.

Shveysariya barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha o'zining qat'iy pozitsiyasini belgilab olgan va shu tariqa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ekologik muammolar va iqlim inqirozi bilan muvaffaqiyatli kurashishni maqsad qilgan. Ko'p sonli atrof-muhit faollari, ishqibozlari va yaxshi xabardor jamoatchilik bilan Shveysariya Yevropaning ekologik toza davlatlaridan biridir.

Irlandiyaning ekologik ta'lim va tarbiya quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan: inson va tabiiy muhit o'rtasidagi aloqadorlikning kompleksligini tushuntirishga yordamlashish; shahar va qishloqlarda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik munosabatlarga qiziqishlarini rag'batlantirish; har bir o'quvchiga mas'uliyatli ekologik qarorlarni qabul qilish uchun bilim, munosabat, qadriyat va malakani olishi hamda tabiiy muhitni himoya qilish va takomillashtirish uchun zarur amaliy bilim va ko'nikmalarni berish va shu kabi.

Shvetsiyada ekologik ta'lim va tarbiya 9 yillik majburiy ta'limga kiritilgan. Shu bilan birga atrof-muhit masalalari bo'yicha Milliy dastur mavjud. Uning talablariga binoan Shvetsiyada pedagog va o'quvchilar uchun yangi o'quv qo'llanmalar va yo'riqnomalar nashr qilingan. Sayyoramizning eng yashil mamlakatlari reytingida Shvetsiya to'rtinchi o'rinni egallaydi.



Shimoliy Yevropadagi go‘zal mamlakat Norvegiya dunyoning ekologik toza davlatlaridan biridir. Norvegiya, shuningdek, atrof-muhit, toza havo va hayot sifatining yaxshilanishi tufayli Green Living reytingida uchinchi o‘rinni egalladi. Norvegiyaliklar nafaqat o‘zlarining tabiiy muhitini muhofaza qilish haqida qayg‘uradilar, balki ular atrof-muhit holatini yaxshilash uchun barqaror yechimlarni amalga oshirishni ham intiqlik bilan kutishadi.

Yaponiyada yuksak ekologik ma‘naviyatli shaxsni tayyorlash atrof-muhit sohasidagi ta‘lim dasturlari orqali erishilgan bo‘lib, u milliy kasbiy tayyorgarlikning barcha bosqichlarini o‘zida qamrab olgan. Shuning uchun ham ularda ekologik tarbiya qadimiy tarixga egadir.

AQSHda ekologik ta‘lim va tarbiya turli shakl, yo‘nalish va metodologik yondashuvda, barcha ta‘lim va tarbiya mazmuniga ekologik etikani chuqur kirib borishi, aholining atrof-muhitga ehtiyotkorlik va mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lishini shakllantirish jarayonida keng ommani, ayniqsa, maktab o‘quvchilarini jalb qilish bilan birga olib boriladi.

Rossiyada qo‘shimcha ekologik ta‘lim markazlari mavjud bo‘lib, ularda turli yoshdagi bolalar inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning jihatlarini kuzatishi va o‘rganishi, atrofdagi tabiiy makonga sho‘ng‘ishi mumkin, bu esa ekologik fikrlash va ongni shakllantirishni ta‘minlaydi. [22.38-b.].

Janubiy Afrikaning Sharqiy burnida ekologik ta‘limni ta‘lim va kasb-hunar ta‘limi tizimiga kiritish strategiyasi ishlab chiqilgan. Maktab o‘quvchilari va jamiyatning ayrim a‘zolarini qamrab olgan turli xil ekologik ta‘lim tadbirlarida ishtirok etadilar. Bunga quyidagilar kiradi: bog‘dorchilik, suv ta‘limi, maktabni obodonlashtirish, daraxt ekish, chiqindilarni boshqarish bo‘yicha loyihalar. Ko‘pgina maktablar sog‘lom jamiyat muhitini ta‘minlash uchun “Eko-maktablar” dasturida ishtirok etadilar, shu jumladan o‘quvchilarning ota-onalari ham. Bunday ta‘lim o‘z-o‘zidan maqsad emas, balki boshqa masalalar (qashshoqlik, ochlik) bo‘yicha natijalarga erishish vositasidir. Ushbu tadqiqotdan ma‘lum bo‘ladiki, ekologik ta‘limning ahamiyati butun dunyoda e‘tirof etilgan. U ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida integratsiyalashgan. Bu hayotning dastlabki bosqichi, shu jumladan maktabda, bu bolani tabiat bilan munosabatda bo‘lishga va barqaror jamiyatni tarbiyalash uchun qadriyatlarni rivojlantirishga o‘rgatish uchun eng qulay bosqichdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, tashqi dunyo bilan o‘zaro ta‘sir qilish usullari haqida bilimlarni egallashga qodir. Shuning uchun ekologik ta‘lim juda muhim va boshlang‘ich bosqichdan boshlanishi kerak. Boshlang‘ich ta‘lim ekologik muammolarni hal qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, chunki bolalar o‘zlari yashayotgan atrofdagi dunyoga juda qiziquvchan. Bolalarning



tabiatni hurmat qiladigan va atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilash nuqtai nazaridan o'zini tutishi kerak bo'lgan inson bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Turli mamlakatlarning ekologik ta'limni amalga oshirish tajribasini tahlil qilgandan so'ng, ko'plab maktablar kichik yoshdagi o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish uchun muhit yaratishda tashabbus ko'rsatmoqda, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Turli mamlakatlar va mintaqalardagi ekologik ta'lim tizimlarini ko'rib chiqsak, har xil shakl va usullar mavjudligi ayon bo'ladi, ulardan foydalanish ekologik ta'lim darajasini oshirishga olib keladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, o'quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishda chet el tajribalarini o'rganish muhim jihat hisoblanadi. Negaki tajribalarni o'rganish va uni mos varianti o'zimizga tatbiq etish bu boradagi sa'y-harakatlarimiz rivojlantirishda samarali natija beradi. Jumladan, bugungi kunda ko'plab mamlakatlar ekologik ta'lim-tarbiya rivojini ochiq havoda o'rganishga bog'lashmoqda. O'quvchilarning ochiq havoda ta'lim olishi aniq tajribalar, qiziqishlar, his-tuyg'ular va qadriyatlarga asoslanishi mumkin. Ochiq havoda o'rganish g'oyasi qishloqlar, o'rmonlar yoki ko'llarni o'z ichiga olishi shart emas. Bolalarga darsni boshqa joyda o'tish uchun sinfdan chiqib ketishlariga ruxsat berish ekologik ta'lim uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Mana shu tajribani o'zimizda qo'llashning o'zi ham o'quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishga qo'yilgan ilk qadamdir.

Adabiyotlar:

1. Nazarov M. Ekologiya fanidan xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan yangi texnologik va pedagogik texnologiyalar. (Malaka oshiruvchilar uchun) Farg'ona davlat universiteti qoshidagi kadrlar malakasini oshirish bo'limi) Farg'ona. 2018 yil.
2. O'quvchilarning ekologik ta'lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiya-larning ahamiyati. Raxmatullayeva Anor Qayrullayevna Analytical Journal of Education and Development
3. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 28.01.2022-yildagi PF-60-son.
4. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. 07.02.2017-yildagi PF-4947-son.
5. Suyarov. K. Va boshqalar "Tabiiy fanlar" Toshkent. Respublika ta'lim markazi -2021.
6. www.ziynet.uz.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ekologik madaniyatni shakllantirishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari haqida ma'lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация об опыте передовых зарубежных стран по формированию экологической культуры и возможностях их использования.

SUMMARY

This article provides information on the experiences of advanced foreign countries in the formation of ecological culture and the possibilities of their use.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA TAFAKKURNING ROLI

Genjebayeva G., Ubayxanova M., Nurullaeva N.

NDPI 2-kurs magistrarlari

Tayanch so'zlar: тафаккур, болалар нутқи, мактабгача таълим ташкилотлари, замонавий педагогик технологиялар, таълим жараёни, тарбиянинг роли.

Ключевые слова: мышление, детская речь, дошкольные образовательные организации, современные педагогические технологии, образовательный процесс, роль образования.

Keywords: thinking, children's speech, preschool educational organizations, modern pedagogical technologies, educational process, the role of education.

Dasturda "Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv – uslubiy majmualarni yaratish va o'quv – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarishga sharoitlar yaratish bo'yicha vazifalar doirasida maktabgacha ta'limning pedagogik hamkorlik muhiti va didaktik xususiyatlarini o'rganish, mazmuni, shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi - pedagogning mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tatbiq etishi, ta'lim va tarbiyaning yangi – yangi yo'l va usullarini izlash, ilg'or tajribalardan ijobiy foydalana olishi juda muhimdir. Shu bois ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylangan. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi"-deya ta'kidlaganlari bejiz emas. Jamiyat taraqqiyotida yosh avlod ta'lim-tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda, avvalo, maktabgacha ta'lim, jumladan,



bolalarning nutqini o‘stirishga e‘tibor muhim rol o‘ynaydi. Mustaqillik yillarida ta‘limga berilayotgan e‘tibor kelajakka e‘tibor yanglig‘ davlat dasturi darajasiga ko‘tarilgani e‘tirofga loyiq. O‘zbekiston respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ta‘lim sohasida olib boriladigan ishlarning mazmuni va istiqbolini belgilab berdi. Bular asosida Davlat ta‘lim standartlari, dasturlar va darsliklarning yangi avlodlari yaratildi. Ta‘limda rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanilmoqda. Jamiyat va ilm – fan tinimsiz taraqqiy etaveradi. Yangiliklarni ta‘lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun pedagog - tarbiyachisining vazifasidir.

Ma‘lumki inson tafakkur orqali har narsani biladi, o‘rganadi. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni anglab etadi. Ana shu anglab etish ruhiyatini singdirish uchun bolalarimiz mashg‘ulotlarda, xotira jarayonlari bilangina kifoyalanmasdan balki ularni o‘ylanishga, o‘ylantirishga nimanidir yangidan yaratishga o‘rgatish zarurdir. Chunki o‘tgan davrlarda ijodiy tafakkur, umum nazariy-falsafiy tafakkur toptaldi. Dunyoni rang - barang idrok etish, qarashlar xilma-xilligi o‘rnida bir xillik hukmronlik qilib turdi.

O'zbekistonda xalqaro huquq tamoyillari asosida ishlab chiqilgan jismoniy madaniyat va sport bo'yicha maxsus qonunlar joriy etildi. Ommaviy axborot vositalari keng targ'ibot va qilmoqda. jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat, ularning rivojlanish yo'nalishlari haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportning ayrim turlari bilan shug'ullanish «modasini» shakllantirish. Mamlakatda kasbiy va maxsus jismoniy tarbiya va sport ta'limi tizimi ishlab chiqilgan. Jismoniy tarbiya va sport jamiyatning ijtimoiy sohasiga tegishli bo'lib, shaxsning jismoniy fazilatlarini va motorli ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun maxsus tadbirlarni nazarda tutadi. Ular insonning jismoniy rivojlanishi bilan madaniyati bilan bog'liq. Bu holda madaniyat mehnat, maishiy va boshqa faoliyat turlarining mazmunini tashkil etish va ongli ravishda boshqarish vazifasini bajaradi. Jismoniy madaniyat - bu inson tanasining shakli va funktsiyalarini shakllantirish va saqlash uchun maxsus faoliyat. Ijtimoiy sohada u quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

Ijtimoiylashtirish - shaxsni tarbiyalash va uni ijtimoiy foydali hayotga tayyorlash;

integratsiyalashuv - shaxsni jamiyat manfaatlari yo'lida to'g'ridan -to'g'ri jamoaviy faoliyatga kiritish;

Moslashish - insonning mehnat faoliyatining turli turlariga moslashishi;

Tartibga solish - insonning jamiyat uchun zarur bo'lgan jismoniy fazilatlarini va motorli ko'nikmalarini rivojlantirish.

Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy vazifalari yosh avlodni tarbiyalash, yoshlarni faol dam olishga o'rgatish, samaradorlikni oshirish, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish, shuningdek, terapevtik va rehabilitatsiya yo'nalishiga ega.

Jismoniy tarbiya va sportning asosini jismoniy-motorli ko'nikmalarning shakllanishiga hissa qo'shadigan mashqlar, maxsus tashkil etilgan harakatlar tashkil etadi. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashqlar to'plami; Jismoniy madaniyat vositalarini tashkil qiladi. Muayyan ijtimoiy funktsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan mashqlar ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishning mazmunli mohiyatini tashkil etadi, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining jismoniy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Jismoniy tarbiya va sport muammolarini hal qilish uchun boshqa fanlarning nazariy va uslubiy asoslari qo'llaniladi: falsafiy, biomedikal, gumanitar, yuridik, iqtisodiy va boshqalar. Ularning har biri jismoniy madaniyatga tabiiy, falsafiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy aspektlarni beradi. sport. Jismoniy tarbiya va sport fani fundamental fanlar tizimi bo'lib, bilimlar asosida insonning jismoniy shaxsini shakllantirish mexanizmi,



jismoniy madaniyat faoliyati va rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy omillari, uning ijtimoiy va shaxsiy vazifalari yotadi.

Mutaxassislar tomonidan o'rganiladigan biotibbiyot fanlariga quyidagilar kiradi: anatomiya va fiziologiya, biokimyo va biomexanika, gigiena va sport tibbiyoti, mashqlar terapiyasi va massaj, shuningdek, jismoniy madaniyat va sog'liqni saqlash texnologiyalari, jarohatlardan keyin sportchilarni reabilitatsiya qilish.

Ijtimoiy va gumanitar fanlarga: tarix, iqtisodiy nazariya, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, huquq, boshqaruv nazariyasi kiradi. Jismoniy tarbiya va sport fan sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega, ular jismoniy tarbiya, jismoniy va kasbiy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya vazifalarini, shuningdek, individual sport va jismoniy faoliyatning pedagogik turlarini o'rganadilar. Sportda ijtimoiy hodisa sifatida faoliyatning quyidagi asosiy turlari shakllangan: mehnat, ta'lim, o'yin. Mehnatga ma'lum jismoniy va intellektual xarakatlar bilan bog'liq bo'lgan sport mashg'ulotlari kiradi. Raqobat faoliyati sharoitida shaxsning fazilatlarini va ko'nikmalarini shakllantirish va namoyon etishga qaratilgan sa'y-harakatlar. Ta'lim jarayoni boshqalarning bilim va tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatni o'z ichiga oladi. Sportdagi ta'lim o'quv mashqlari va sport harakatlariga, sport musobaqalari sharoitida raqobat qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Sport fazilatlarini va motorli ko'nikmalarning rivojlanish darajasi murabbiy va shogird o'rtasidagi mashg'ulotlar, pedagogik, psixologik o'zaro ta'sir natijasidir.

O'yin faollik motivi sifatida ishtirokchilarning o'zaro roziligi va u yoki bu sport jamoalari tomonidan o'rnatilgan qoidalar bilan sodir bo'ladi. Uning belgilaridan biri bu sport musobaqasi natijalarini oldindan aytib bo'lmaydi. O'yinlar taqlid (taqlid), raqobatbardosh (qimor), o'yin -kulgi, tadqiqot, ta'lim.

Sport - bu ijtimoiy ijodiy faoliyat. Sport musobaqalari raqobat, ustuvorlik uchun kurash, g'oliblik uchun kurash xususiyatiga ega bo'lib, bu shaxsning shaxsiy fazilatlarini, mahorati va xizmatlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Sport hodisasini nazariy tushunish uning mohiyatini falsafiy, madaniy, pedagogik, psixologik, ijtimoiy, tibbiy va biologik bilimlar nuqtai nazaridan keng talqin qilinishini aniqladi. Masalan, madaniyatshunoslar sportni o'ziga xos, mustaqil faoliyat, degan fikrga amal qilib, sportni madaniy hodisa deb hisoblaydilar va uni jismoniy tarbiya faoliyatiga qaratadilar. Bu yondashuvni asosli deb bo'lmaydi, chunki u nafaqat jismoniy harakatni, balki aqliy va texnikani ham o'z ichiga oladi. Jismoniy madaniyat raqobatni anglatmaydi, sportni esa raqobatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jismoniy madaniyatni yakka o'zi, natijalaringizni boshqalar ko'rsatkichlari bilan, sport bilan solishtirmasdan



mashq qilish mumkin ijtimoiy faollik. Jismoniy va sport mashg'ulotlari mazmunan bir-biridan farq qiladi. Jismoniy madaniyatning asosiy turi - mashq, sportda - mashg'ulot. Jismoniy madaniyatning vazifalaridan biri bu alohida faoliyat turi sifatida sportga tayyorgarlikdir. Sportni ishlab chiqarish turi deb hisoblash ham noto'g'ri. Tijoriylashtirish sharoitida sport ko'ngilochar, reklama, qimor xizmatlarini ishlab chiqarish turi, iqtisodiy foyda olish vositasidir. Tijorat maqsadlarida faqat hamrohlik qiluvchi hodisalar qo'llaniladi: o'yin-kulgi, musobaqalar va sportchilarning mashhurligi, ommaviy xarakter.

Tijorat sporti o'zining ijtimoiy mohiyatini o'zgartiradi, sport sifatlarini rivojlantirish shaxs yoki jamoa faoliyatining maqsadi bo'lib qolmaydi. Bu maxsus xizmatlarni ishlab chiqarish shartlariga, ushbu xizmatlarni ishlab chiqaruvchining professional faoliyat sohasiga aylanadi. Tijorat sport turlaridan inson salohiyatini o'rganish uchun ilmiy maqsadlarda foydalanish tasodifiy, qo'llab-quvvatlanadi, sportning mohiyatini o'zgartirmaydi, balki uning faoliyatining ekstremal sharoitida insonning imkoniyatlarini baholashga imkon beradi. Sportni pedagogik faoliyat bilan bog'lash mumkin emas, lekin pedagogika sportda, ayniqsa sportchining shakllanishining dastlabki bosqichida mavjud. Sport faoliyati asosan tayyorgarlik va musobaqalarda qatnashish jarayoni bilan bog'liq. Sportning ijtimoiy mohiyati uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Sport shaxsni ijtimoiylashtirishda, uning mavqeini, jamiyatdagi mavqeini shakllantirishda, odamlarni birgalikdagi faoliyatga tayyorlashda faol ishtirok etadi. Sport muloqot qilish va birgalikdagi faoliyatni tartibga solish vositasi, odamlarni chalg'itish, dam olish va ko'ngil ochish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Har qanday sport turida g'alaba qozongan odam o'ziga va jamoasiga, sport klubiga, butun shaharga, millatga, mamlakatga obro' va hurmat, beradi. Uning g'alabasi yoki mag'lubiyati u vakili bo'lgan jamiyat bilan belgilanadi. Sportning muhim vazifasi-o'zini himoya qilishga tayyorgarlik. Bu faoliyatni sport turi deb tasniflash uchun asos shuki siz o'zingizni faqat sport mashg'ulotlari orqali tayyorlashingiz va himoya qilishingiz mumkin.

Sport-jismoniy, aqliy va texnik faoliyatdagi eng yuqori yutuqlarni shakllantirish va ochish maqsadida raqobatbardosh faoliyat sifatida insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lgan. Uning manbai - hayotining ijtimoiy tabiati tufayli odamlarga xos bo'lgan etakchilik istagi.

Tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichlarida sport odamlar hayotida, jamiyatning ijtimoiy sohasida turlicha rol o'ynagan. Dastlab, ular bo'sh vaqtlarida asosiy mashg'ulotlardan, dam olish yoki ta'til kunlari shug'ullanishgan. Keyin u hali maxsus faoliyat emas edi, alohida tayyorgarlikni talab qilmadi. Kelajakda ular sport musobaqalariga maxsus tayyorgarlik ko'rishni boshladilar. Hukmron sinflar vakillari sport bilan shug'ullanishdi. Ular vosita mahoratini, fazilatlarini,



qobiliyatini oshirish maqsadida sport mashg'ulotlarida qatnashishdi. Sportning rivojlanishi jarayonida uning barqaror tuzilishi, sportchilarning jismoniy va motorli fazilatlarini namoyon bo'ladigan jismoniy turlarga bo'linishi, aqliy va texnikaga bo'linadi. Turlar, hayvonlarni, mexanizmlarni, mashinalarni boshqarish qobiliyati. Turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda sport zodagonlar va odamlar uchun paydo bo'lgan. Ko'p mamlakatlarda tarixiy sharoit va yashash muhitiga qarab milliy va mintaqaviy sport turlari rivojlangan. Asta-sekin ommaviy sport turlari paydo bo'ldi, ular dam olish, muloqot qilish, zavqlanish, salomatlikni yaxshilash va o'zini himoya qilishga tayyorgarlik ko'rish uchun foydalanilgan. Kelajakda ixtisoslashtirilgan sport shakllandi, undan maqsad yuqori natijalarga erishish edi.

Sport mahoratining cho'qqisi - eng yuqori yutuqlar sportidir. Elita, rekord, professional sportning asosiy vazifalaridan biri sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishdir.

Sport ko'p yillar davomida havaskor bo'lgan. Uning rivojlanishi musobaqaga tayyorgarlik ko'rish va musobaqaning o'zi ekanligiga olib keldi. Tobora ko'proq mehnat talab qila boshladi. Ular mashg'ulotlar vaqtini ko'paytirishni, mashg'ulotlar intensivligini oshirishni va individual dasturlarni ishlab chiqishni talab qilishdi. Ommaviy havaskor sport dam olish, boshlang'ich tayyorgarlik va yoshlarni professional sportga tanlash vositasi bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Agadjanyan N. A. Bioritmilar, sport, salomatlik / N. A. Agadjanyan, Ya. Shabatura. - M.: Jismoniy tarbiya va sport, 1989 yil.
2. Amosov N.M. Jismoniy faollik va yurak / N.M. Amosov, Ya. A. Bredet. - Kiev: Zdorovya, 1989 yil.
3. Ananiev, B. G. Talabalik yoshi psixofiziologiyasi va bilimlarni o'zlashtirish / B. G. Ananiev // Oliy maktab axborotnomasi. - 1972. - 7-son.
4. Anisichenko, V.S. Jismoniy madaniyat: talabalarning uslubiy va amaliy mashg'ulotlari: darslik / V. S. Anisichenko. - M.: RUDN, 1999. -- 165 b.
5. Amosov, N. M. Yurak va jismoniy mashqlar / N. M. Amosov, I. V. Muravov. - M., 1985 yil.
6. Aulik I.V. Klinikada va sportda jismoniy ko'rsatkichlarni aniqlash / I.V. Aulik. - M.: Tibbiyot, 1990 yil.
7. Balsevich, V. K. Insonning jismoniy faoliyati / V. K. Balsevich, V. A. Zaporozepkov. - Kiev: Salomatlik, 1987 yil.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада жисмоний маданиятнинг замонавий жамиятнинг ривожланишидаги роли ва аҳамияти ёритиб берилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещается роль и значение физической культуры в развитии современного общества.

SUMMARY

This article highlights the role and importance of physical culture in the development of modern society.



KUCH VA TEZLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ikramov I. M.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professor v.b

Tayanch so'zlar: kuch, tezlik, uloqtirish, sakrash, gimnastik mashqlar, tashqi qarshiliklar, shaxsiy tana og'irligi, harakat tezlik reaksiyasi.

Ключевые слова: сила, скорость, метание, прыжки, гимнастические упражнения, внешнее сопротивление, собственная масса тела, скорость реакции движения.

Key words: strength, speed, throwing, jumping, gymnastic exercises, external resistance, personal body weight, movement speed reaction.

Kuch va uni rivojlantirish. Odamning kuchi deb - tashqi qarshilikni yengib o'tishga yoki tashqi kuchlarga qarshi turishga, yoki foydali harakatni bajara olish qobiliyatiga aytiladi. Birinchi navbatda, odam, harakatsiz obyektga ta'sir etishga urinadi (sport asbob-anjomlariga - uloqtirish, sakrash, gimnastik mashqlar), ikkinchi navbatda, tashqi kuchlar ta'sirida dastlabki tana statik holatini ushlab qoladi. Tashqi ta'sirdan ham shunday kuchlar bo'lishi mumkin. Masalan, boksda raqiblar urishi, tananing og'irligi yoki osilib, burchak ushlab turishlik. Bu sifatning psixofiziologik mexanizmi, muskul kuchlanish regulatsiyasi bilan, ishlash tartibi sharoit bilan bog'liq. 60 Muskullar kuchlanishi, iroda, harakat sisteniasining markaziy nerv periferik bo'limlari ishiga bog'liq, umumiy formada qilib aytganda, muskullar kuchlanishi quyidagicha ajratiladi:

- 1) markazdan muskullarga borayotgan impulslar chastotasi (chastota qancha ortiq bo'lsa, muskul kuchlanishi shuncha ortib boradi);
- 2) harakat birligiga kiritilgan kuchlanish soni;
- 3) muskullarning qo'zg'aluvchanligi va unda energetik manbalarning mavjudligi.

Muskullar qo'zg'alishi rejimi asosida vujudga kelishi mumkin: izometrik (muskullar uzunligi o'zgarmasdan), bu rejim bir holatni ushlab turishda ishlatiladi; miometrik (izostatik, muskullar uzunligi qisqaradi, lekin muskullar kuchlanishi o'zgarmaydi), bu rejim siklik va ballistik harakatlarda, muskullar qisqarishi bosqichga taalluqli; pliometrik (muskullar cho'zilishida), siltash bilan bog'liq bo'lgan, o'tirib-turish, tashlash, depsinish harakatlari uchun xarakterlidir. Kuch qobiliyatlarining turlari muskul kuchlanish rejimining xarakterli tomonlariga qarab ajratiladi. Statik rejim va sekin harakatlarda



shaxsiy kuch qobiliyati, tez harakat davrida, kuch tezligi qobiliyatlariga ajratiladi. Qisqa vaqt ichida ko'p kuchni vujudga keltirish qobiliyatini portlash kuchi deyiladi. Kuch qobiliyatlarining turlarini muskul kuchlanishi rejimi bilan birga olib borish xarakteri bo'yicha ajratadi. Statik rejim va sekin harakatlarda, tezkorlik kuch qobiliyati (dinamik kuch), tez harakatlarda ko'rinadigan shaxsiy kuch qobiliyatlariga ajratiladi. Bu portlash kuchi, ya'ni oz vaqt ichida eng ko'p kuch ko'rsatish qobiliyatidir. Sakrashda, masalan, u sakrovchanlikda ko'rinadi. Odam kuchining ko'rinishida asosiy omil - muskul kuchlanishi, shuningdek, tana massasi (og'irligi) ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun yana absolut va nisbiy kuchga ajratiladi. Birinchisi deyilganda, odamni qaysi bir harakat orqali tana og'irligini hisobga olmasdan ishlatilayotgan kuchi tushuniladi, ikkinchisi deyilganda, odam tana og'irligining 1kg ga to'g'ri keladigan kuch balandligi tushuniladi. Kuchni o'lchash. Absolut kuch, odam chegaralangan og'irlikni ko'tara olishining dinamometrik ko'rsatkichi orqali xarakterlanadi. Nisbiy kuch absolut kuchning shaxsiy kuchga munosabati bilan o'lchanadi. Bir xil mashqlangan, ammo har xil og'irlikdagi odamlarda absolut kuch og'irlikni ko'payishi bilan ortib boradi, nisbiy kuch pasayib boradi. Bu tana o'lchovining ortishi bilan, muskul kuchiga nisbatan uni og'irligi katta ulushda ortib boradi. 61 Qator sport turlarida (masalan, uloqtirishda) muvaffaqiyat katta absolut kuch bilan ta'minlanadi. Kuchning ko'rinishi harakatning biomexanik sharoitiga, yelka b o'g'inlarining uzunligi va muskulni fiziologik ko'ndalangligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Kuchni rivojlantirish uslubiyati manbayi. Kuchni rivojlantirish uchun qarshiligi orttirilgan mashqlardan foydalaniladi. Ular ikki guruhga bo'linadi:

1. Tashqi qarshiliklar bilan mashqlar. Qarshilik sifatida og'irlik (toshlar, shtangalar), sherikning qarshi ta'sir etishi, o'z-o'ziga qarshilik ko'rsatish, boshqa asbob-uskunalarining qarshiligi (prujinali espanderlar, rezina), tashqi muhitning ta'siri (qumda, qalin qorda yugurish va boshqalar).

2. Shaxsiy tana og'irligini yengib o'tish mashqlari. (Masalan, tayanib yotgan holda qo'lni bukib-yoyishlar.) Har bir kuch mashqlari o'zining yutuq va kamchiliklariga ega. Og'irlik bilan bajariladigan mashqlar shuning uchun o'ng'ayki, ularning yordamida og'irlik va mayda muskul guruhlariga ta'sir etish mumkin, ular yengil me'yordanadi. Kuchni rivojlantirishning tipik manbalari: 6-9 yoshda - predmeti umumiy rivojlantirish mashqlari, gimnastik devorga suyanitirib qo'yilgan o'rindiqli bo'yicha tirmashish. Gimnastik devorga tayanib-ushlab sakrashlar, uloqtirishlar: 10-11 yoshda katta og'irligi bo'lmagan umumiy rivojlantirish mashqlari (to'ldirma to'plar, gimnastik tayoqchalar), uch usulda bajariladi: og'il bolalar vertikal arqonga chiqishadi, yengil to'ldirma



to'plarni uzoqqa uloqtirishadi va boshqalar; 14-15 yoshda to'ldirma to'plar bilan, yengilroq gantellar bilan, kuch o'yinlari, „arqon o'yinlari“, tortilish mashqlari bajariladi. Yoshlarda butun tashqi og'irlik oxirgi chegaragacha (taxminan yuqori miqdordan va - 70%) b o'lishi, bundan tashqari, mashqni rad qilgunga qadar bajarish tavsiya etilmaydi. 13-14 yoshlarda qizlar uchun kuch yuki bolalarga nisbatan tana og'irligini yengib o'tish mashqlari, tashqi og'irliklarni yengib ochish sifati, undan to'liq foydalanish ustunligi bilan ifodalanadi.

Tezlik va uni rivojlantirish. Harakatning tezlik tavsifi va faoliyatlar umumiy mashqlar bilan birlashtirilgan. Qisqa vaqtda (10-20 soniya chegarasida) bajariladigan yuqori sur'atdagi harakat qobiliyatini tarbiyalashning Iadorlik manbayi, metronom, ritmik musiqa, o'qituvchining ovozi, signali (qarsak, hushtak), topshirilgan sur'atda va musobaqa sharoitida uni asta-sekin oshirib borish (m a'lum vaqlda kim ko'p takrorlaydi). Umumiy rivojlantirish va maxsuslashtirilgan mashqlardan iborat. Mana o'sha mashqlardan ba'zi birlari: 5, 10, 15 soniya ichida, imkoni boricha, ko'proq mashq bajarish (bosh ustida qarsak chalish, qo'lni aylantirish, bir joyda yugurganda qadamlar sonini ko'paytirish, bir joyda ma'lum balandlikka sakrash, arqoncha bilan sakrash, o'tiribturish, gantel va toshlarni bir vaqtda va uzluksiz ko'tarish); - qisqa masofaga yugurish (10-80 m); - to'ldirm ato'plarni tashlash, granata, tennis to'pini ma'lum vaqtda mo'ljalga urish. Harakat reaksiyasini tarbiyalash maqsadida, o'quvchilarni signalga tezda javob berishlari uchun maxsus mashqlardan foydalaniladi. Bunday mashqlar misoliga: doira bo'ylab yurish, yugurish. Kutilmagan signal (hushtak, qarsak) bo'yicha qaysidir mashqni maksimal tez bajarish (o'tiribturish, burilishlar, qo'l bilan qarsak). Har bir harakat tezlikka 2-3 marotabadan bajariladi; to'plarni signal bo'yicha tezlik bilan mo'ljalga urish; startdan signal bo'yicha tezlik bilan chiqish mashqlarini bajarish; umumiy rivojlantirish mashqlarini bajarish (qo'l va oyoq harakadari, o'tirib-turish, burilishlar va tanani engashtirish) predmeti va belgilangan signal bo'yicha. Tezlik reaksiyasini muvaffaqiyatli tarbiyalash (maksimal imkoniyatdan 95-100%) harakatning jadalligidan me'yoriga yaqin va me'yoridan ortiq foydalangandagina mumkin.

Tezlik reaksiyasini yaxshilash uclum o'quvchilarda vaqtni sezish hissini tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda shug'ullanuvchilarga muntazam ketma-ket uch xil vazifa taklif qilinadi:

- 1) tezkorlik mashqini bajargandan so'ng o'qituvchi shug'ullanuvchilarga vazifani bajarishlarida sarllangan vaqtni e'lon qiladi;
- 2) vaqt o'quvchiga e'lon qilinmaydi, lining o'zi vaqtni aniqlashi kerak;
- 3) o'quvchi tezkorlik mashqini berilgan vaqtda bajarishi kerak.



63 Harakat tezlik reaksiyasini vujudga keltirishning eng asosiy mashqlari - harakatli va sport o'yinlaridir.

Adabiyotlar:

1. Ibn Sino. Salomatlikni saqlash haqida risolalar. „Ibn Sino“ . T., 1977.
2. O'zbekiston Respublikasi umum ta'lim maktablarning № 2 11 sinf o'quvchilari uchun jism oniy tarbiya dasturi. Toshkent, 1993.
3. Usmonxojayev T.S., Sheyxova L.N., Imomxojayev A.R. Boshlang'ich sinflarda harakatli o'yinlar. „O'qituvchi“. T., 1976.
4. Усмонхужаев Т. С., Арзуманов С.Г. идр. Физическое воспитание в школе. Изд. „Медицина“, Т. ., 1987.
5. Xo'jayev F.X., Usmonxojayev T.S. Boshlang'ich sinflarda jism oniy tarbiya darslari. O'qituvchi“. T., 1996.
6. Usmonxojayev T.S., Meliyev X.A. Milliy harakatli o'yinlar. „O'qituvchi“. T., 2000.
7. Usmonxojayev T.S., Nomurodov A.N. va boshqalar „210 harakatli o'yinlar“ . T. DJI. 2001.
8. Usmonxojayev T. S. va boshqalar. Bolalar va o'smirlar sport nazariyasi va uslubi. Ilm -Ziyo. 2007- y. Aliyev M.B., Usmonxojayev T.S., Sagdiyev X.X. Sport o'yinlari - Futbol. Ilm -Ziyo. 2007.
9. Karimov M., Usmonxojayev T.S. Xoreografiya mashqlari, badiiy gimnastika va harakatli o'yinlar. Ilm -Ziyo. 2005.
10. Usmonxojayev T.S. va boshqalar. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma). „O'qituvchi“. 2005.

РЕЗЮМЕ

Harakat sifatлари har tomonga yo'nalishining o'zgarishi jinsiy organlarning yetilishi davrida ko'rinadi. Bu davrda kuch tezligi sifatining rivojlanish sur'ati tez ortadi, harakat koordinatsiyasi sekinlashadi yoki vaqtincha to'xtaydi. Bu neyrodinamikaning o'zgarishi bilan bog'liq: qo'zg'alishning ortishi, nerv jarayonining harakatchanligi, kuch - tezlik sifatining ko'rinishi va koordinatsiya imkoniyatini beradi.

РЕЗЮМЕ

Изменение направленности двигательных качеств во всех направлениях наблюдается при созревании половых органов. В этот период скорость развития силы и качества быстро увеличивается, координация движений замедляется или временно прекращается. Он связан с изменениями нейродинамики: повышенной возбудимостью, подвижностью нервного процесса, появлением скоростно-силовых качеств, обеспечивает возможность координации.

SUMMARY

A change in the direction of movement qualities in all directions is seen during the maturation of the genitals. During this period, the rate of development of strength and quality increases rapidly, movement coordination slows down or temporarily stops. It is associated with changes in neurodynamics: increased excitability, mobility of the nervous process, appearance of strength-speed quality, and provides the possibility of coordination.



JISMONIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL QILISH SHAKILLARI

Alimov J. A.

Andijon davlat pedagogika institute dotsenti

Tayanch so'zlar: tashkiliy-uslubiy ta'minlash, darsga tayyorgarlik, nazariy va so'z tayyorgarligi, darsni material jihatdan ta'minlash, dars o'tish.

Ключевые слова: организационно-методическое обеспечение, подготовка к уроку, теоретическая и словарная подготовка, материальное обеспечение урока, проведение урока.

Key words: organizational and methodological provision, preparation for the lesson, theoretical and vocabulary preparation, material provision of the lesson, conducting the lesson.

O'qituvchi o'quvchilarga taklif etiladigan ham ma mashqlarni, dasturda ko'rsatilgan nazorat-meyorlar va talablarni amalda ko'rsata bilishi kerak. Dars oldidan u yangi tayyorlov va yordamchi mashqlarni bajarib ko'rishi, bajarishga tayyor turishi yoki mashqning bajarilishini imitatsiya (o'xshatish) qilishi kerak. Harakat tayyorgarligini o'qituvchi darsning oxirida sport zalda yoki ochiq maydonda kelgusi mashg'ulotga faollarni tayyorlash uchun amalga oshirishi mumkin. O'qituvchi, ayniqsa, birinchi pedagogik faoliyat yilida ko'p ishlashi kerak. Bu davrda imo-ishora, xavfsizlikni saqlash malakasini shakllantirish, o'quvchilarga mashq bajarishlarida yordam berish va hokazolarni o'zlashtirib olishi lozim.

O'qituvchi o'quvchilarga beradigan bilimni yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lishi kerak: o'quvchilarni harakat faolligini pasaytirmaslik uchun tilni mukammal bilishi va nazariy m a'lumotlarni e'lon qilish texnikasini terminologiya nuqtayi nazaridan ham yaxshi bilmog'i zarur. So'zni faqat o'quvchilarning ongiga ta'sir etishinigina emas, hissiyotiga ham ta'sir ko'rsatishini yoddan chiqarmaslik kerak. O'qituvchi bilarmonlik bilan kom anda - buyruq orqali harakatning ma'nosini anglatishi, yumshoq, qat'iy, jism oniy kuchlanish orqali boshqarishi va o'quvchilarda zaruriy javob reaksiyasini hosil qilishi mumkin. Shuning bilan birga, har bir darsning oxirida o'qituvchi o'quvchilarga berishi kerak bo'lgan (ogohlantirish, baholash, savollar, muhokama, qisqa suhbat va boshqalar) axborotini xotirasida tiklashi kerak. Bundan so'ng, o'qituvchi tilning ravon va ifodali bo'lishi ustida ishlamog'i zarur. Odatda, o'quvchilar



„shagom“, „ikkitadan bo‘lib“, „kilometr“, „santimetr“, „tushunarlimi!?“, „yengil atletika“, „matolarni qo‘ying“ va boshqa urg‘u berilgan so‘zlardagi xatolarga e‘tibor bilan qaraydilar. So‘z tezligi ustida ko‘p ishlash kerak bo‘ladi. Shuni yodda tutish kerakki, har xil holatlarda har xil tezlik kerak bo‘ladi: agar o‘qituvchi xatoni tuzatayotgan bo‘lsa, sekin-asta gapirishi zarur, suhbatlarda, u yoki bu narsani so‘zlab berishda, tushuntirishda o‘rta tezlikdan foydalaniladi, o‘yinlarga rahbarlik qilganda esa tez gapirish maqsadga muvofiqdir. So‘z ohangi orqali ma‘lum maqsadga erishish mumkin. So‘z ohangi tantanali, bayramona, yil oxirida musobaqalarga yakun yasashda, sport bayramlarida, kechalarida, ruhiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishda, xushchaqchaqlik yoki xafalik, g‘alabadan so‘ng yoki mag‘lubiyat, intizom buzilganda turlicha bo‘lishi mumkin. Guruhga muvaffaqiyatli rahbarlik qilish uchun ishonch uyg‘otuvchi, tetik so‘z bo‘lishi kerak. „Baqiruvchi“ o‘qituvchilar ongli intizomga hech qachon erisholmaydilar, chunki o‘quvchilar uning qattiq ovozigga ko‘nikib qoladilar. Faqat ba‘zi hollarda kerak bo‘lgan joyda ovoz ko‘tarilsa, kutilgan samara berishi mumkin. o‘ta sekin berilgan buyruq yoki farmoyish o‘quvchilarning eshitish a‘zolarini doimo tarang tutishga majbur etadi. Bu hoi o‘quvchilarni tezroq toliqtiradi va beparvolikka olib keladi. To‘g‘ri gapirish, atamalarini aniq bilish zarur. Hozir ham amaliyotda uchrab turadigan „Orqa oyoqni to‘g‘rilang!“ va hokazolar ishlatilmasligi kerak.

Bu rejada bajariladigan ishlarga uch yo‘nalish beriladi:

birinchidan, navbatdagi darsga rejani tuzish va untakomillashtirish;

ikkinchidan, mavjud uskunalarni, asbob-anjomlarni va jihozlarni tayyorlash; uchinchidan, o‘tiladigan dastur bo‘limiga sharoitni yaratish.

Birinchi yo‘nalish quyidagilardan iborat bo‘ladi: dars oldidan mayda asbob-anjomlarni tayyorlash (granatalar, chambaraklar, to‘ldirma to‘plar, gimnaslik tayoqlar va boshqalar); ustaxona sharoitida o‘qituvchi va o‘quvchilar kuchi bilan maydon chiziqlarini yaxshilash; ko‘rgazmali qurollarni tayyorlash, musiqaviy usullarni tayyorlash, o‘quv kartalari, har xil texnik qo‘llanmalar, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam berish, mashqning bajarilish sifatini yaxshilash va hokazolar. Ikkinchi y o‘nalish dars boshlanishidan oldin bajariladi. Mashg‘ulot o‘rnini tayyorlashga qaratilgan gigiyenik sharoit, sakrab tushish joyi, sport snaryadlarini o‘rnatish, o‘lchash asboblari va boshqalar. Bu tayyorgarlikka navbatchi o‘quvchilarni va mashg‘ulotdan vaqtincha ozod bo‘lganlarni jalb etish zarur. Nihoyat, bir (bosqich) darsni o‘lish vaqtida o‘qituvchi (ayniqsa, yangi boshlovchi o‘qituvchi) o‘rganiladigan dastur bo‘limi ustida o‘ylashi kerak. Masalan, sentabrda - yengil atletika yoki o‘yin darsini o‘ta borib, gimnastika bo‘limini o‘tish sharoiti haqida ham o‘ylashi kerak.



O'qituvchi zalga kirishdan oldin o'zining tashqi qiyofasi va ruhiyati ustida o'ylashi zarur, chunki o'quvchilar o'qituvchi shaxsini qanday ko'rgan bo'lsalar, shundayligicha qabul qiladilar.

Mashg'ulotning muvaffaqiyatli o'tishi unga tayyorgarlik ko'rish jarayoni bilan bog'liq. Biroq shuni unutmaslik kerakki, aniq holatlar har doim hisobga olinmasligi mumkin, aks holda darsning borish jarayonida uni qayta qurish talab etiladi. Darsda yuz bergan holatlarni ijodiy hal etishda pedagogik bilim, amaliy tajriba, mahorat imkon beradi. Har bir dars qismining o'tilishini alohida ko'rib chiqamiz.

Darsning tayyorlov qismi shunday o'tkazilishi kerak: - darsga qo'yilgan m a'lum vazifalarni ongli bajarishlari uchun o'quvchilarni uyushtirish va ruhan tayyorlikni vujudga keltirish zarur; - o'quvchilarni muayyan mashqlarni o'zlashtirib olishga tayyorlash (o'yinli, yengil atletikali); - o'quvchilar organizmini ko'proq jadalli, shiddatli, murakkab mashqlarni bajarishga funksional tayyorlash; - qomatning shakllanishiga yordam berish, chaqqonlikni tarbiyalash, harakatni boshqara bilishlik. Demak, tayyorlov qism darsning umumiy vazifalarini hal etish uchun bog'liq bo'lgan eng yaxshi sharoit bilan ta'minlash vazifalarini hal etadi va bir vaqtning o'zida, nisbatan mustaqil ta'lim va sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega bo'ladi. Dars guruhning umumiy sarflanishi va navbatchi o'quvchining dars boshlanishga tayyor ekanligi haqidagi raporti bilan boshlanadi. Ammo birinchi bor raport bilan tanishtirganda, uning tarbiyaviy ahamiyatini ko'zda tutib, qat'iyroq talab etish zarur. Salomlashgandan so'ng navbatchi safning o'ng qanotiga turadi. Bu har bir o'quvchiga yiliga ikki marotabadan safni saqlash imkonini beradi. Saf m a'shqlarini o'rganish o'quvchilarning faolligini oshiradi, saflanish hamda saf burilishlari haqida malaka hosil bo'ladi. O'qituvchi saflanishdagi bir xillikdan qochishi, joylashtirish va joylarni o'zgartirish usullarini xilma-xil tarzda tashkil etishi kerak. Dars boshlanguncha va o'qituvchi mashg'ulot joyiga kelguncha guruh saflangan va salomlashishga tayyor turgan bo'lishi kerak. Salom alik - darsni tayyorlov qismining zaruriy daqiqasi. U o'zaro salomatlik istaydigan, muloyim, xushmuomala, odobli munosabatni tarbiyalash va keyingi faoliyatlarda muvaffaqiyatlarni ta'minlaydigan bo'lishi kerak. Birinchi darsda o'qituvchi sinf, guruh bilan salomlashgandan so'ng o'quvchilarning tarkibi bilan tanishish maqsadida ro'yxatni o'qib chiqadi. Keyingi darslarda ro'yxatni o'qish shart emas, vaqtni tejash, dars davomida yoki yakunlov qismida navbatchi orqali yo'qlama qilish maqsadga muvofiqdir. So'ngra o'qituvchi dars vazifasini e'lon qiladi. Ularning mohiyati darsning asosiy qismida aniqlanishi mumkin. Tayyorlov qismining manbayi saflanish va qayta saflanishdan iborat:



yumshoq yurish, oddiy, tez, baland va prujinasimon qadamlar, tovondan oyoq uchiga o'tish, yugurish va sakrashni har xil usullari, sakrab borish; raqs mashqlari, to'siq'lardan oshib o'tish, umumiy rivojlantirish mashqlari, anjom va uskunalarda, gimnastik devorcha, gimnastik o'rindiq, harakatda va joyida turib, juft-jull bo'lib, harakatli o'yinlar orqali o'tkaziladi. Darsning tayyorlov qismida uchta izchil bo'limni ajratish mumkin: umumiy, maxsus va yakka tayyorgarlik.

Umumiy tayyorlov, asosan, sog'lomlashtirish va funksional tayyorgarlikni hal etadi: maxsus tayyorlov esa o'quvchilarni m a'lum tartibga va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan mashqlarni o'zlashtirib olishga tayyorlaydi; alohida, yakka tayyorgarlik uchun qo'yilgan vazifalarni yaxshi hal etishga yordam beruvchi, o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va mustaqil tanlab olingan mashqlar uchun vaqt ajratiladi. Umumiy rivojlantirish mashqlarini bajarish uchun xilmaxil saflash shakllari qo'llaniladi: kengaytirilgan, yozilgan, tarqalgan va tor saflarda, ikki, uch doirada, to'rtburchak, uchburchakda, yarim doira va boshqalar. Agar zalda sport snaryadlari o'rnatilgan bo'lsa, o'quvchilar o'zlariga mustaqil joy tanlaydilar. Tanlangan joy o'quvchining mashq bajarishi, yurishi uchun qulay, o'rtoqlariga xalaqit bermaydigan bo'lishi kerak. Tanlab olingan mashqlar qisqa vaqt ichida bir necha vazifalarni samaradorlik bilan hal etish imkonini berishi kerak. Ya'ni asosiy qismda zaruriyati bo'ladigan harakatlarga asos solinishi kerak. O'quvchilarni saf qadami faoliyatlariga qat'iy talabchanlikni qo'yish kerak. Bu talablarning bajarilishi o'qituvchi tomonidan baholanadi va yakuniy baho chiqarishda hisobga olinadi. Har bir o'qituvchining shiori: „Avvalgi o'tilgan mashqni o'zlashtirib olmasdan bir qadam olg'a bosmaslik» bo'lishi kerak. Qator umumiy rivojlantirish mashqlarini bajarishda uning sinxronligiga, uyg'unligiga erishmoq zarur. Mashqlarni bajarishda o'quvchilarni boshqarish usuli diqqatga sazovordir. Ular xilma-xil va samarador bo'lishi kerak.

Xulosalar. O'qituvchilar mashqlar miqdorini sanash, qarsak, o'quvchilarning o'zini mustaqil sanashi, musiqa orqali musobaqa unsurlaridan foydalanadilar. Boshqarishning har qanday usulida o'qituvchi tanbeh berish, xatolarni to'g'rilash, o'quvchilarga dalda berish, rag'batlantirish imkoniga ega bo'lishi kerak. Guruhlarda darslar uslubshunoslik bo'yicha trenirovka (tayyorgarlik) mashg'ulotlariga yaqinlashtirib, tayyorlov qismining jadalligini oshirish maqsadga muvofiq. Tayyorlov qismning davom etishi 10-12 daqiqa. Uni muvaffaqiyatli tamomlash uchun guruhlar aniq, atamalar jihatidan to'g'ri, lo'nda bo'lishi kerak.

**Adabiyotlar:**

1. Ibn Sino. Salomatlikni saqlash haqida risolalar. „Ibn Sino“ . T., 1977.
2. O‘zbekiston Respublikasi umum ta’lim maktablarining № 2 11 sinf o‘quvchilari uchun jism oniy tarbiya dasturi. Toshkent, 1993.
3. Usmonxojayev T.S., Sheyxova L.N., Imomxojayev A.R. Boshlang‘ich sinflarda harakatli o‘yinlar. , o‘qituvchi“. T., 1976.
4. Усмонхужаев Т. С., Арзуманов С.Г. и др. Физическое воспитание в школе. Изд. „Медицина“, Т., 1987.
5. Xo‘jayev F.X., Usmonxojayev T.S. Boshlang‘ich sinflarda jism oniy tarbiya darslari. O‘qituvchi“. T., 1996.
6. Usmonxojayev T.S., Meliyev X.A. Milliy harakatli o‘yinlar. „O‘qituvchi“. T., 2000.
7. Usmonxojayev T.S., Nomurodov A.N. va boshqalar „210 harakatli o‘yinlar“ . T. DJI. 2001.
8. Usmonxojayev T. S. va boshqalar. Bolalar va o‘smirlar sport nazariyasi va uslubiyati. Ilm -Ziyo. 2007- y.
9. Aliyev M.B., Usmonxojayev T.S., Sagdiyev X.X. Sport o‘yinlari - Futbol. Ilm -Ziyo. 2007.
9. Karimov M., Usmonxojayev T.S. Xoreografiya mashqlari, badiiy gim nastika va harakatli o‘yinlar. Ilm -Ziyo. 2005.
10. Usmonxojayev T.S. va boshqalar. (Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma). “O‘qituvchi“. 2005.

РЕЗЮМЕ

O‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish metodi va usulini axtaradi, ularning joylashuvi va almashuvini aniqlaydi, avaldan snaryadlarni o‘rnatish va yig‘ishtirish, asbob-anjomlarni tarqatish va to‘plash - darsning qimmatli soniyalarini iqtisod qiladi. Bir vaqtning o‘zida jarohatlanishning oldini olish eslatiladi, o‘quvchilarning faolligini oshirish usuli aniqlanadi, o‘rgatishning unumli usuli belgilanadi, tayyorlanayotgan darsning soglomlashtirish va tarbiyaviy ta’siri aniqlanadi.

РЕЗЮМЕ

Учитель ищет способ и способ организации деятельности учащихся, определяет их расположение и обмен, расставляет и собирает снаряды с самого начала, распределяет и собирает оборудование - экономит драгоценные секунды урока. При этом напоминает о профилактике травматизма, определяется метод повышения активности учащихся, определяется эффективный метод обучения, определяется оздоровительный и воспитательный эффект подготовленного занятия.

SUMMARY

The teacher looks for a method and method of organizing the activities of students, determines their location and exchange, sets up and collects shells from the beginning, distributes and collects equipment - saves precious seconds of the lesson. At the same time, the prevention of injury is reminded, the method of increasing the activity of students is determined, the effective method of teaching is determined, and the health and educational effect of the prepared lesson is determined.



HARAKAT QILA BILISHGA OID MALAKALAR TIZIMI

Muxamedjanov Sh. M.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi mudiri

Tayanch so'zlar: harakat faoliyatlariga o'rgatish, harakat qila bilish, harakat belgilari, muhim belgilar, harakat malakasi.

Ключевые слова: обучение двигательной активности, умение двигаться, признаки движения, важные признаки, двигательные навыки.

Key words: teaching movement activities, ability to move, movement signs, important signs, movement skills.

O'rgatish jarayonida harakat faoliyatlarini rivojlantirish. Harakat faoliyatlariga o'rgatish jarayonida tana yoki tana a'zolari qismlarining harakatni boshqarish tarzi o'zgaradi. Natijada harakat faoliyatlarini o'zlashtirib olish darajasi ortadi. Bu jarayon chizmada quyidagicha tasvirlanishi mumkin.

Harakat faoliyatlariga o'rgatish		
Harakat qila bilishni shakillantirish	Harakat malakasini shakillantirish	Yuqori tartiba harakat qila bilishni shakillantirish

Harakat faoliyatlariga o'rgatish harakat qila bilishni, harakat malakasini yuqori tartibda shakllanirishni, harakat qila bilishlikni shakllantirishni talab etadi. Maxsus bilimlarni o'zlashtirish bilimlar asosida va sistemali mashqlar bajarish natijasida o'quvchi harakat faoliyatlarini bajarish uchun cheklangan imkoniyatni o'zlashtirib (harakat qila bilish) kelgusida cheklanmagan (yuqori tartibda harakat qila bilish) takomillashuviga ega bo'ladi. Harakat faoliyatlarining shartli ravishda uchga bo'linishini stabil (doimiy) chegaralanish deb bo'lmaydi. Faqat ta'lim vazifasini aniqlashda favqulodda foydali deyish mumkin.

Harakat qila bilish

Harakat faoliyatlarini o'zlashtirib olishlik jarayoni, avvalo, taxminiy olingan va erta o'zlashtirib olingan tajribalarga tayangan holda bajariladi. Harakat qila bilishlik bu - harakat faoliyatlarini bajara bilishlik qobiliyatidir.

Harakat belgilari. 1. Bir butun harakat faoliyatlarini tashkil etuvchi, harakatning boshqarilishi avtomatlashmagan holda o'tadi. Natijada o'quvchilar



yangi, har bir harakatni nazorat qilish bilan band bo'lib, harakatlar tejamlil bo'lmaydi, tolsh tezroq yuz beradi.

2. Harakat vazifalarni hal etish usuli sababsiz boladi: boshqa usul bilan hal etish yo'li izlanadi.

3. Harakat qila bilish, harakat faoliyatlarni o'zlashtirib olishning birinchi bosqichi bo'lib, biror o'rganuvchi buni bosib o'tmasdan iloji yo'q. Ahamiyati. Harakat qila bilishning asosi ijodiy izlanish, taqqoslash, harakatni bajarish usulini baholash, ularni bir butun harakat faoliyatlariga qo'shish, bularning hammasi o'zida katta ta'lim imkoniyatini mujassamlashtiradi.

Harakat malakasi

Harakat qila bilishning sistemali, ko'p marotaba vujudga kelishi o'rgatishni muntazam sharoitda o'tkaza bilishni, harakat malakasiga aylantirib yuborish zarurligini taqozo etadi.

Harakat malakasi bu - harakat faoliyatini bajarish qobiliyati, diqqatni to'plashga imkon beruvchi harakat natijasi, unga kiruvchi alohida harakatlar emas.

Muhim belgilar

1. O'quvchi diqqatini to'plamasdan, harakat faoliyatlariga kiruvchi alohida mashqlarni bajarish. Bu harakatni bajarish jarayoniga avtomatlashtirishning kirishi orqali bajariladi.

2. Harakat bajarishni (avtomatlash), o'z-o'zidan bo'lishiga o'rgatish hayotiy amaliyot natijasida hosil qilinadi.

